

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

4 / 2022



## TAHRIR HAY'ATI

### **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d., professor

### **XODJAYEV BAXSHILLO KAMOLOVICH**

Bosh muharrir o'rinbosari, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

### **SAIDOV AKMAL XOLMATOVICH**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikerining birinchi o'rinbosari, y.f.d., akademik

### **MUXAMMADIYEV AKTAM ZAYNIDDINOVICH**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri o'rinbosari

### **AVTIONOVA NATALYA VLADIMIROVNA**

Rossiya Federatsiyasi A.S. Griboyedov nomidagi Xalqaro huquq va iqtisodiyot instituti birinchi prorektori, pedagogika fanlari nomzodi

### **BORZU SABAHI**

Amerika Qo'shma Shtatlarining Xalqaro huquq instituti direktori, professor, huquq doktori

### **SKIBA ANDREY PETROVICH**

Rossiya Federatsiyasi Federal jazoni ijro etish xizmati Akademiyasining Jinoyat-ijroiya huquqi kafedrasini mudiri, professor, yuridik fanlar doktori

### **NADJA ALEXANDER**

Singapur menejmenti instituti Huquq maktabi professori, huquq doktori

### **EDWARD JUCHNIEWICZ**

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasini professori, huquq doktori

### **ROLF KNIEPER**

Germaniyaning Bremen universiteti Fuqarolik, iqtisodiy va qiyosiy huquqshunoslik fanlari professori, huquq doktori

### **SUMACHEV ALEKSEY VITALEVICH**

Rossiya Federatsiyasi Yugor davlat universiteti Yuridik instituti Jinoyat huquqi va jinoyat protsessi kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

### **KOTA FUKUI**

Yaponiyaning Osaka universiteti Oliy huquq va siyosat maktabi professori, huquq doktori

### **YOKOMIZO DAI**

Yaponiyaning Nagoya universiteti Huquq fakulteti professori

### **JOAN BLUM**

Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori

### **ISMAIL YAZICIOGLU**

Turkiyaning Boyazid Yildirim nomidagi Anqara universiteti Huquq fakulteti professori, huquq doktori

### **CHORIYEV ORIFJON ABDISOBIR O'G'LI**

Mas'ul muharrir, Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

#### **YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI**

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

#### **ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК**

правовой научно-практический журнал

#### **REVIEW OF LAW SCIENCES**

legal scientific-practical journal

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan. Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**ISSN 2181-919X**

**E-ISSN 2181-1148**

© Toshkent davlat yuridik universiteti

# MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 6 **NEMATOV JO’RABEK NEMATILLOYEVICH**  
Ma’muriy sudlarda ma’muriy-huquqiy  
normalarni qo’llashga oid muammolarning  
ilmiy-amaliy tahlili
- 15 **БУРХАНОВА ЛЕЙЛА МАРИУСОВНА**  
Академик Шавкат Уразаев как выдающийся  
ученый и государственный деятель: взгляд  
через призму времени и событий

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 24 **SAIDAZIMOV YUSUF SODIQ O’G’LI**  
Ma’muriy huquqda ma’muriy aktlarni  
tushunish: O’zbekiston va Germaniya  
qonunchiligi misolida
- 31 **RUZINAZAROV SHUHRAT NURALIYEVICH**  
**ACHILOVA LILIYA ILHOMOVNA**  
Haq evaziga turistik xizmat ko’rsatish  
bo’yicha majburiyatlar subyektlari huquqiy  
maqomining ayrim masalalari
- 41 **YULDASHOV ABDUMUMIN**  
**ABDUGOPIROVICH**  
Axborot-kommunikatsiya va intellektual mulk  
sohasidagi qonun hujjatlarida mualliflik huquqiga  
doir mavjud normalarni takomillashtirish  
masalalari

12.00.04 – FUQAROLIK  
PROTSESSUAL HUQUQI.  
XO’JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.  
HAKAMLIK JARAYONI VA  
MEDIATSIYA

- 49 **ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**  
Taraflar tortishuvi va teng huquqliligi:  
fuqarolik ishlari bo’yicha sudlar amaliyoti

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI.  
IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI

- 58 **XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O’G’LI**  
Sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ning  
iqtisodiy protsessdagi huquqiy maqomini  
takomillashtirish

- 67 **MUSAYEV BEKZOD**  
Mehnat migratsiyasini raqamlashtirish va unga  
sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq qilish  
istiqbollari

- 83 **MURODULLAYEV DOSTONJON  
NIG’MATULLO O’G’LI**  
Mehnat shartnomasining taraflar ixtiyoriga  
bog’liq bo’lmagan holatlar bo’yicha bekor  
qilinishi

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ

- 93 **XUDOYQULOVA DILOROM XOLOVNA**  
Oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini  
kamaytirishda ekologik-huquqiy targ’ibotning  
ahamiyati

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING  
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

- 101 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**  
Qasddan odam o’ldirishning jinoyat-huquqiy  
jihatlari

- 113 **MATCHANOV FAXRIDDIN  
KURAMBOY O’G’LI**  
O’zbekiston Respublikasi jinoiy jazolarni ijro  
etish tizimida mahkumlarni axloqan tuzatish  
vositalarining turlari va ularning funksiyalari

- 122 **HAKIMOV KOMIL BAXTIYAROVICH**  
Javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarda  
qasddan odam o’ldirish: tushunchasi,  
mazmuni va o’ziga xos jihatlari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

132 **ATANIYAZOV JASURBEK  
KURBANBAYEVICH**

Shaxslarning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etishning muammolari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

142 **САЛОМОВ ЖАСУР БОТИРОВИЧ  
ВАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**

Спортивный арбитраж как новый развивающийся правовой феномен в Узбекистане

149 **ALMOSOVA SHAHNOZA SOBIROVNA**  
Intellectual mulk obyektlarining bojxona nazoratida "parallel import" amaliyoti

157 **ТУРДИАЛИЕВ МУХАММАД АЛИ  
ПУЛАТЖОН УГЛИ**

Сущность гибридных юрисдикций и их применение

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA  
NAZARIYASI VA METODIKASI  
(SOHALAR BO'YICHA)

171 **MAMATALIYEV TO'LQIN  
XUSHMAMAT O'G'LI**

Masofaviy ta'lim – zamonaviy axborot jamiyatida ta'limning istiqbolli, gumanistik va integratsiyalashgan shakli

UDC: 342.9(045)(575.1)

# MA'MURIY SUDLARDA MA'MURIY-HUQUQIY NORMALARNI QO'LLASHGA OID MUAMMOLARNING ILMIY-AMALIY TAHLILI

**Nematov Jo'rabek Nematilloevich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Ma'muriy va moliya huquqi  
kafedrası professori v.b., yuridik fanlar doktori  
ORCID: 0000-0003-3406-0784  
e-mail: jura0404uzb@mail.ru

**Annotatsiya.** Ma'muriy odil sudlovning O'zbekistonda kelib chiqishi va rivojining ilmiy-amaliy yutuqlarini e'tirof etgan holda mazkur maqolada bugungi kunda sud amaliyotida uchrayotgan ma'muriy huquq normalari va fuqarolik huquqi normalarini ma'muriy ishlarni ko'rishda qo'llashga oid bahsli masalalar tahlil qilinadi. Hozirgi kunda fuqarolik qonun hujjatlarining yer bilan bog'liq ma'muriy nizolarni ko'rishda qo'llanish holatlari mavjudligini ko'rish mumkin. Maqolada ma'muriy sud amaliyotidagi amaliy misol tahlili keltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi va "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning ma'muriy aktning kuchga kirishi bilan bog'liq normalarning o'zaro nisbati o'rganilgan. Ma'muriy-huquqiy munosabatda birinchi navbatda Yer kodeksi normasini emas, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun normalarini qo'llash lozimligi keltirib o'tilgan. Ma'muriy huquq normalari fuqarolik huquqining maxsus normalari sifatida qaralishi noto'g'riligi asoslab berilgan. Sud amaliyotida uchrayotgan ayrim muammoli masalalar yuzasidan ilmiy asoslantirilgan yechimlar taklif etilgan. Ma'muriy sudlar mamlakatimizda nisbatan yangi hisoblangani bois fuqarolik huquqi normalarini ma'muriy huquq normalariga aralashtirish yoki fuqarolik huquqi normalari bilan ma'muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish kerak emas.

**Kalit so'zlar:** ma'muriy sudlar, ma'muriy akt, ma'muriy sud ishlarini yuritish, ma'muriy yustitsiya, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi.

## НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ ПРИМЕНЕНИЯ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВЫХ НОРМ В АДМИНИСТРАТИВНЫХ СУДАХ

**Нематов Журабек Нематиллоевич,**  
доктор юридических наук, и. о. профессора кафедры  
«Административное и финансовое право»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** Признавая научно-практические достижения зарождения и развития административной юстиции в Узбекистане, в данной статье рассматриваются спорные вопросы, связанные с применением норм административного права и норм гражданского права, встречающихся в судебной практике по административным делам. Сделана попытка провести анализ. В настоящее время можно наблюдать на практике, когда гражданско-правовые документы используются в административных спорах, связанных с землей. В статье представлен анализ практического примера из административной судебной практики. Изучена взаимосвязь норм Земельного кодекса и Закона Республики Узбекистан «Об

административных процедурах», связанных с вступлением в силу административного акта. В административно-правовых отношениях в первую очередь должны применяться нормы Закона «Об административных процедурах», а не нормы Земельного кодекса. Обосновано, что нормы административного права рассматриваются как специальные нормы гражданского права. Предлагаются научно обоснованные решения некоторых проблемных вопросов, встречающихся в судебной практике. Поскольку административные суды являются относительно новыми судами в нашей стране, нет необходимости смешивать гражданско-правовые нормы с административно-правовыми нормами или регулировать административно-правовые отношения гражданско-правовыми нормами.

**Ключевые слова:** административные суды, административный акт, административное судопроизводство, административная юстиция, административное право, гражданское право.

## SCIENTIFIC AND PRACTICAL ANALYSIS OF THE PROBLEMS OF APPLICATION OF ADMINISTRATIVE AND LEGAL NORMS IN ADMINISTRATIVE COURTS

**Nematov Zhurabek Nematilloevich,**  
Acting Professor of the Department  
of Administrative and Financial Law,  
Tashkent State University of Law, Doctor of Law

**Abstract.** Recognizing the scientific and practical achievements of the origin and development of administrative justice in Uzbekistan, this article discusses controversial issues related to the application of administrative law norms and civil law norms encountered in judicial practice in administrative cases. An attempt is made to bring the analysis. Nowadays, it can be seen that there are cases where civil legal documents are used in administrative disputes related to land. The article presents an analysis of a practical example from administrative court practice. The interrelationship between the norms of the Land Code and the Law of the Republic of Uzbekistan "On Administrative Procedures" related to the entry into force of the administrative act has been studied. In the administrative-legal relationship, first of all, the norms of the Law "On Administrative Procedures" should be applied, not the norms of the Land Code. It is justified that the norms of administrative law are considered special norms of civil law. Scientifically based solutions are proposed for some problematic issues encountered in judicial practice. Since administrative courts are relatively new courts in our country, it is not necessary to mix civil law norms with administrative law norms or regulate administrative-legal relations with civil law norms.

**Keywords:** administrative courts, administrative act, administrative litigation, administrative justice, administrative law, civil law

### Kirish

Ma'muriy odil sudlov davlat organlari va fuqarolar o'rtasida ommaviy-huquqiy munosabatlarni samarali hal etishga qaratilgan ma'muriy huquq instituti bo'lib [1-7], O'zbekistonda uning rivoji oxirgi yillarda ma'muriy sudlar tizimining joriy etilishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi deyish mumkin [8, 10].

Ma'muriy odil sudlovning O'zbekistonda kelib chiqishi va rivojining ilmiy-amaliy yutuqlarini e'tirof etgan holda [13, 15, 16] maz-

kur maqolada bugungi kunda sud amaliyotida uchrayotgan ma'muriy huquq normalari va fuqarolik huquqi normalarini ma'muriy ishlarni ko'rishda qo'llashga oid bahsli masalalar tahlil qilinadi.

### Material va metod

Maqolada formal-yuridik tahlil hamda ma'muriy huquq va fuqarolik huquqi normalarining o'zaro farqini ochib berish orqali bugungi kunda ma'muriy sudlar tomonidan ma'muriy nizolarni hal etishda ma'muriy huquq normalari emas, balki fuqarolik

huquqi normalariga tayanib qarorlar qabul qilishi noto'g'ri ekanligi, shuningdek, mazkur muammo yechimi yuzasidan takliflar bayon etiladi.

### **Tadqiqot natijalari**

Hozirgi kunda fuqarolik qonun hujjatlarining yer bilan bog'liq ma'muriy nizolarni ko'rishda qo'llanish holatlari mavjudligini ko'rish mumkin [14].

Quyida misol sifatida nizoli ishdan ko'chirma beriladi.

#### *Keys 1.*

*Ishdagi hujjatlarga ko'ra, Yangiyo'l shahri "Navro'z" MFY X. Olimjonov ko'chasi 4-uyda joylashgan "O'ZBEKTELECOM" OAJ AK Toshkent filialiga tegishli bino-inshootlari "TASHKENT PROF INVEST" MChJ rieltorlik tashkilotida 2013-yil 26-dekabrda o'tkazilgan ochiq auksion savdosi natijasida tuzilgan 48/4-01-12-2013-sonli g'oliblik bayonnomasiga asosan, 311,88 m<sup>2</sup> qurilish osti yer maydoni, 501,13 m<sup>2</sup> foydali maydoni bo'lgan bino-inshootlarni "AB-F" MChJ sotib olgan.*

*Yangiyo'l tumani hokimining 2015-yil 5-sentabrdagi 767-sonli qarori bilan Yangiyo'l shahri Oxunboboev ko'chasi 1-uy manzilida joylashgan 0,04943 gektar umumiy yer maydoni 373,52 m<sup>2</sup> qurilish osti yer maydoni, 301,51 m<sup>2</sup> foydali maydoni bo'lgan bino-inshootlarga "AB-F" MChJning egalik huquqi tan olinishi belgilangan.*

*2017-yil 15-fevraldagi "AB-F" MChJ va R.Y.A. o'rtasida tuzilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan, 0,04943 gektar umumiy yer maydoni, 373,52 m<sup>2</sup> qurilish osti yer maydoni, 301,51 m<sup>2</sup> foydali maydoni bo'lgan bino-inshootlar R.Y.A. ga o'tgan bo'lib, 2017-yil 10-oktabrda davlat ro'yxatidan o'tgan.*

*Asosiy vositalarning topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan R.Y.A. "SAVDO" MChJ balansiga kiritilgan bo'lib, 2017-yil 7-noyabrda 0,04943 gektar umumiy yer maydoni TO 0094267 raqami bilan, 373,52 m<sup>2</sup> qurilish osti yer maydoni, 301,51 kv. m foydali maydoni bo'lgan bino-inshootlar TO 0232747 raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tgan.*

*Yangiyo'l tumani hokimining 2018-yil 28-maydagi 181-sonli qaroriga ko'ra, Yangiyo'l shahri "Navro'z" MFY X. Olimjonov ko'chasi 4-uy manzilida joylashgan "SAVDO" MChJga tegishli bo'lgan bino inshootlari yer maydoni o'lchamlariga aniqlik kiritish hamda davlat kadastri ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, "SAVDO" MChJga tegishli bo'lgan bino-inshootlarning haqiqiy egallab turgan umumiy yer maydoni 0,1170 gektardan iborat deb hisoblanishi belgilangan. Yangiyo'l tumani hokimining 2020-yil 26-fevraldagi 51-sonli qarori va 2020-yil 5-martdagi topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan statistika bino-inshootlari tuman hokimligi tasarrufiga qabul qilingan bo'lib, qurilish osti yer maydoni 517,16 m<sup>2</sup>, foydali maydoni 738,94 m<sup>2</sup>, umumiy yer maydoni 0,1265 gektar 2020-yil 7-aprelda 1727424/R-A956109 raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tgan.*

*Yangiyo'l tumani hokimining 2020-yil 16-martda "Yangiyo'l tumani hokimligining tasarrufiga Yangiyo'l shahri X. Olimjonov ko'chasi 2-uy manzilida joylashgan noturar joy bino-inshootlarda kovorking markazi va o'quv markazi tashkil etish maqsadida "STUDY" MChJga "Navro'z" MFY va hududiy profilaktika inspektori o'z faoliyatini olib borishlari uchun 2 ta xizmat xonasi tashkil qilib berish sharti bilan ajratish to'g'risidagi 75-sonli qaror qabul qilingan. Mazkur qarorning 4-bandiga asosan, "STUDY" MChJga ajratilgan bino-inshootlarning qurilish osti yer maydoni 517,16 m<sup>2</sup>, foydali maydoni 738,94 m<sup>2</sup>, umumiy yer maydoni 0,1265 gektarni tashkil etishi belgilangan.*

*Yangiyo'l tumani hokimining 2020-yil 27-martdagi 88-sonli qarori bilan Yangiyo'l shahri "Navro'z" MFY X. Olimjonov ko'chasi 2-uy manzilida joylashgan "STUDY" MChJga tegishli bo'lgan ma'muriy bino-inshootlarning haqiqiy egallab turgan yer maydoni 0,1265 gektar, shundan qurilish osti maydoni 517,16 m<sup>2</sup> foydali maydoni 738,94 kv. m iborat deb hisoblanib, egalik huquqi tan olingan.*



Yangiyo'l tumani hokimining 2020-yil 16-martdagi 75-sonli va 2020-yil 27-martdagi 88-sonli qarorlariga asosan, "STUDY" MChJga 0,1265 gektar yer maydoni tegishli bo'lib, 2020-yil 7-aprelda 1727424/R-A955864 raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tgan.

Yangiyo'l tumani hokimining 2020-yil 28-apreldagi 136-sonli Yangiyo'l shahri "Navro'z" MFY X. Olimjonov ko'chasi 2-uy manzilida joylashgan "STUDY" MChJga tegishli bo'lgan ma'muriy bino-inshootlarning haqiqiy egallab turgan umumiy yer maydoni 0,0587 gektardan iborat deb belgilangan.

"SAVDO" MChJ Yangiyo'l tumani hokimining 2018-yil 28-maydagi 181-sonli qarorini Yagona interaktiv davlat xizmatlari markazi portali orqali davlat ro'yxatidan o'tkazishni so'rab qilgan murojaatiga rad javobini olgan.

Shu sababli "SAVDO" MChJ ma'muriy sudga ariza bilan murojaat qilib, suddan Yangiyo'l tumani hokimining 2020-yil 16-martdagi 75-sonli qarorini haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

Birinchi instansiya sudi arizachining ariza (shikoyati)ni muhokama qilib, uchinchi shaxs "STUDY" MChJga nizoli hudud ajratilgan bo'lsa-da, Yangiyo'l tumani hokimining 2020-yil 27-martdagi 88-sonli qarori bugungi kunga qadar davlat ro'yxatidan belgilangan tartibda o'tmaganini, bu egalik huquqini keltirib chiqarmaganini bildirishini, "SAVDO" MChJ va "STUDY" MChJga aynan bir hududda bo'lgan yerdan nizoli 0,05 ga ajratilganini, arizachi shikoyat arizasida nizoli qarorning yerga oid bo'lgan qismini asoslantirgani, mulkiy qismga nisbatan o'zining vajlarini e'tirof etmagan bo'lsa-da, nizoli qarorni to'liq haqiqiy emas deb topishni so'raganini inobatga olib, ariza (shikoyat)ni qisman qanoatlantirishni va nizoli qarorning qaror qismi 4-bandining faqatgina "foydali yer maydoni 738,94 m<sup>2</sup>"ga oid qismini haqiqiy emas deb topishni lozim topgan.

Apellyatsiya instansiyasi sudi ishni ko'rishda quyidagi asoslarga ko'ra birinchi instansiya sudining ushbu xulosasi bilan kelishmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 33-moddasiga binoan, yer uchastkasiga bo'lgan huquq ushbu huquq belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olinganidan keyin kuchga kiradi.

Yangiyo'l tumani hokimining 2020-yil 16-martdagi 75-sonli va 2020-yil 27-martdagi 88-sonli qarorlariga asosan, "STUDY" MChJga tegishli 0,1265 gektar yer maydoni 2020-yil 7-aprelda 1727424/R-A955864 raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tganini ko'rish mumkin.

Yangiyo'l tumani hokimining 2018-yil 28-maydagi 181-sonli qarori bilan "SAVDO" MChJga tegishli bo'lgan bino-inshootlarning haqiqiy egallab turgan umumiy yer maydoni 0,1170 gektardan iborat deb hisoblanishi belgilangan bo'lib, hozirgi kunga qadar ushbu qaror belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan.

Bundan ko'rinadiki, yuqoridagi qonun talabidan kelib chiqib, arizachi "SAVDO" MChJning ushbu nizoli yer uchastkasiga bo'lgan huquqi vujudga kelmagan.

Bayon etilganlarga ko'ra, apellyatsiya instansiyasi sudi Yangiyo'l tumani hokimining 2020-yil 16-martdagi 75-sonli va 2020-yil 27-martdagi 88-sonli qarorlariga asosan, "STUDY" MChJga tegishli 0,1265 gektar yer maydoni davlat ro'yxatidan o'tganini, bino-inshootlarga nisbatan mulk huquqi vujudga kelganini, biroq arizachi "SAVDO" MChJning ushbu nizoli yer uchastkasiga bo'lgan huquqi vujudga kelmaganini inobatga olib, Nurafshon tumanlararo ma'muriy sudining 2022-yil 13-yanvardagi hal qiluv qarorini qisman bekor qilishni va arizachi "SAVDO" MChJ ariza (shikoyati)ni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida yangi qaror qabul qilish hamda apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirishni lozim topadi.

Mazkur keysni tahlil qilish uchun bir nechta savolga javob topishimiz lozim bo'ladi.

Birinchiidan, mazkur keysda nizo predmeti bo'lmish hokim qarori ma'muriy-huquqiy normalar talablariga ko'ra qachondan kuchga kiradi?

Avvalo, ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunining 4-moddasiga ko'ra, ma'muriy akt deganda ma'muriy organing ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o'zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ta'sir chorasi tushuniladi. Mazkur keysdagi nizo predmeti bo'lmish hokim qarori ma'muriy akt hisoblanadi. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunda ma'muriy aktga oid bir qancha muhim normalar keltirib o'tilgan. Jumladan, ma'muriy akt shakli (52-modda), mazmuni (53-modda), ma'muriy hujjatni asoslantirish (54-modda) va ma'muriy aktni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish (59-modda)ga oid qoidalarni ko'rish mumkin. Ushbu normalar mazmunidan shuni ko'rish mumkin, ma'muriy aktga oid umumiy va maxsus qoidalar aynan "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunda keltirilgan. Shuning uchun ham mazkur qonun boshqa qonun hujjatlaridan ma'muriy aktga oid normalarni belgilash borasida ustun turishini ko'rishimiz mumkin [9, 11, 12, 17].

"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning 55-moddasida ma'muriy aktning kuchga kirishiga oid muhim qoidalarni ham topish mumkin. Jumladan, ma'muriy akt adresat tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Adresatni ma'muriy akt to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilish ushbu "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning 33-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Jumladan, 33-moddaga ko'ra, xabarnoma topshirilgani ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuborish yoki tilxat olib topshirish yoxud xabardor qilingani fakti qayd etilishini ta'minlaydigan axborot tizimlaridan foydalangan holda xabardor qilish ma'muriy ish yuritishda tegishli tarzda xabardor qilish hi-

soblanadi. Tegishli xabarnoma manfaatdor shaxs tomonidan olingan payt xabardor qilish vaqtidir.

"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 55-moddasi mazmunidan ma'muriy aktning kuchga kirishi uning davlat ro'yxatidan o'tishi bilan bog'lanmaganini ko'rish mumkin.

Shunga ko'ra, ma'muriy akt bo'lmish Yangiyo'l tumani hokimining 2018-yil 28-maydagi 181-sonli qarori adresat – "SAVDO" MChJ tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Yangiyo'l tumani hokimining 2018-yil 28-maydagi 181-sonli qarori kuchga kirishida davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilish "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunga zid hisoblanadi.

Ikkinchidan, *mazkur nizoli ishda apellyatsiya instansiyasi qarorida asos sifatida keltirilgan Yer kodeksining 33-moddasi normasini qanday tushunish lozim?*

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 33-moddasiga ko'ra, yer uchastkasiga bo'lgan huquq ushbu huquq belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olinganidan keyin kuchga kiradi.

Nazarimizda, Yer kodeksining mazkur normasini fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga solish nuqtayi nazaridan tushunish to'g'ri bo'ladi. Chunki ikki fuqaro o'rtasida yer uchastkasiga bo'lgan huquq to'g'risida nizo kelib chiqqanda mazkur yerga bo'lgan huquqni qaysi shaxs birinchi bo'lib davlat ro'yxatidan o'tkazganiga qarab yerga nisbatan mulkiy huquqlar belgilanishi Yer kodeksining mazkur normasining asosiy mazmun-mohiyati hisoblanadi.

Biroq ma'muriy-huquqiy munosabatda esa birinchi navbatda Yer kodeksi normasini emas, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun normalarini qo'llashimiz lozim. O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonun 18-moddasiga ko'ra, teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar

o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda keyinroq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat qoidalari amal qiladi.

Chunki "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun ma'muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan maxsus qonun bo'lgani barobarida Yer kodeksiga nisbatan yangi qabul qilingan qonun hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkin, O'zbekistonda 2017-yilda joriy etilgan ma'muriy sudlar tizimi mamlakatimizda ma'muriy huquqning bundan keyin ham takomillashuvida muhim o'rin egallaydi. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, ma'muriy sudlar eskicha usulda, ya'ni fuqarolik-huquqiy normalarni emas, balki ma'muriy-huquqiy normalarini birinchi galda amaliyotda qo'llashga o'tishi talab etiladi.

Misol uchun, ma'muriy sud sudyalari tomonidan yozilgan ayrim sud hujjatlarida Fuqarolik kodeksining bir qancha normalariga havolalarni ko'rish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 12-moddasi 1-qismiga ko'ra, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan hamda fuqaroning yoki yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjati sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi belgilangan. Sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin bo'lgan davlat organining hujjati deb Fuqarolik kodeksi 8-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan va qonun tomonidan fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi uchun asos sifatida nazarda tutilgan hujjatlar tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 12-moddasining ikkinchi qismida hujjat haqiqiy emas deb topilgan holatlarda huquqni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 11-moddasida ko'rsatilgan usul bilan himoyalashni nazarda tutadi. Huquqlari buzilgan subyekt, jumladan, huquq buzilgunga qadar mavjud bo'lgan holat tiklanishini, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

15-moddasi tartibida zarar qoplanishini talab qilishi, shuningdek, Fuqarolik kodeksi 11-moddasida ko'rsatilgan boshqa usullardan ham foydalanishi mumkin.

Vaholanki, ma'muriy sudlar tomonidan Fuqarolik kodeksi normalariga havola qilishga hech qanday ehtiyoj yo'q. Chunki "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda ushbu normalar o'rnini bosuvchi boshqa normalar mavjud. Jumladan, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida ma'muriy hujjat ta'rifi keltirilgan. Mazkur qonun 19-moddasi 2-qismiga ko'ra, ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariga nomuvofiqlik ma'muriy hujjatlarning va ma'muriy harakatlarning bekor qilinishiga yoki qayta ko'rib chiqilishiga olib keladi. Ma'muriy hujjat qonuniy, asoslangan, adolatli, aniq va tushunarli bo'lishi kerak (53-modda), ma'muriy hujjatning asoslantiruvchi qismida qabul qilingan ma'muriy hujjatning barcha haqiqiy va yuridik asoslari keltirilishi kerak (54-modda), ma'muriy hujjatni bekor qilish yoki o'zgartirish zaruriyati qonunchilikdagi o'zgartirishlar, jamoat manfaatlariga bo'lgan tahdidning oldini olish, ma'muriy hujjatning qonunchilikka nomuvofiqligi aniqlangani sababli va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy hujjatni o'z tashabbusiga ko'ra bekor qilishga yoki o'zgartirishga haqli (59-modda).

#### Keys 2.

Arizachi "M" MChJ sudga ariza bilan murojaat qilib, unda javobgar O'zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasiga nisbatan jamg'armaning 2020-yil 30-aprelda gi 01/05-02-850-sonli xatida ko'rsatilgan jamg'arma ekspert komissiyasi qarorini bekor qilish hamda jamg'arma tomonidan jamiyatga bankning Namangan filiali tomonidan ajratilgan 10 milliard so'm miqdoridagi kreditning foizli xarajatlarini kompensatsiya shaklida qoplab berish majburiyatini yuklashni so'ragan.

Sud ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni o‘rganib chiqib, quyidagi asoslarga ko‘ra arizani qabul qilishni rad etishni lozim topdi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi 26-moddasining 1-qismiga ko‘ra, ma‘muriy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi, ma‘muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar taalluqlidir, bundan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga, iqtisodiy sudlarga va harbiy sudlarga taalluqli ishlar mustasno.

Ushbu kodeksning 27-moddasi 1-qismi 2-bandiga asosan, sud davlat boshqaruvi organlarining, ma‘muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlariga mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlarni hal qiladi.

Arizachi shikoyatining talabida O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasiga nisbatan jamg‘armaning 2020-yil 30-aprelda 01/05-02-850-sonli xatida ko‘rsatilgan jamg‘arma ekspert komissiyasi qarorini bekor qilishni so‘ragan.

Vaholanki, ma‘muriy sud ma‘muriy organning yoki uning mansabdor shaxsining qarorlarini haqiqiy emas deb topish bo‘yicha nizolarni ko‘rib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 364-moddasiga muvofiq, agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomaning narsasi to‘g‘risidagi shartlar, qonun hujjatlarida bunday turdagi shartnomalar uchun muhim yoki zarur deb hisoblangan shartlar, shuningdek, taraflardan birining arizasiga ko‘ra kelishib olinishi zarur bo‘lgan hamma shartlar muhim hisoblanadi.

Shartnoma taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo‘llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo‘li bilan tuziladi.

Shu bilan birga, arizada nizo sabablariga aniqlik kiritib, qonun talablari asosida vajlarini asoslash hamda taraflar o‘rtasida shartnomaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan holatlarga aniqlik kiritish lozim.

Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 128-moddasi 2-qismi 4-bandiga asosan arizada (shikoyatda) arz qilingan talablarning asoslarini tasdiqlovchi dalillar ko‘rsatilishi kerak.

Arizachi arizasida jamg‘arma ekspert komissiyasi qarorini bekor qilishni so‘ragan bo‘lsa-da, mazkur qarorning nusxasini, imzolash vakolatini tasdiqlovchi hujjat (jamiyat direktorining tasdiqlovchi buyrug‘i), tadbirkorlik subyekti ekanligini tasdiqlovchi guvohnoma, ariza nusxasi javobgarga yuborilganini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinmagan, arz qilingan talablarning asoslarini tasdiqlovchi dalillar ko‘rsatilmagan.

Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 133-moddasi birinchi qismi 1-bandiga asosan sudya arizani (shikoyatni) ish yuritishga qabul qilishni ish ma‘muriy sudga taalluqli bo‘lmasa rad etadi.

Sud yuqorida qayd etilgan qonun talablariga ko‘ra ish sudga ko‘rishga taalluqli bo‘lmagani sababli arizani qabul qilishni rad etish hamda kelgusida arizachiga shu mazmundagi ariza talabi bilan yuqori turuvchi organga murojaat qilishi mumkinligini tushuntirishni lozim topadi.

Ikkinchi keys mazmunidan ham shuni ko‘rish mumkinki, ma‘muriy sud avvalo ma‘muriy-huquqiy normalar asosida ishni ko‘rib chiqishga harakat qilmagan. Jumladan,

fikrimizcha, mazkur holatda “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun 4-moddasi asosida ma’muriy organlarga – ma’muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma’muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan, maxsus tuzilgan komissiyalar ham kiradi. Sud mazkur holatda shu jihatga e’tibor qaratmagan. Chunki mazkur keysda ekspert komissiyasi ma’muriy organ bo‘lishi ham mumkin. Shu jihatga avvalo e’tibor qaratish lozim edi. Bundan tashqari, mazkur holatda shartnoma mazmuni emas, balki jamg‘arma ekspert komissiyasi qarorini bekor qilish hamda jamg‘arma tomonidan jamiyatga bank Namangan filiali tomonidan ajratilgan 10 milliard so‘m miqdoridagi kreditning foizli xarajatlarini kompensatsiya qilinishi haqida so‘z yuritilmoqda.

Ushbu o‘rinda shuni ham alohida ta’kidlash joizki, ma’muriy huquq normalari fuqarolik huquqining maxsus normalari sifatida qaralishi mumkin emas. Ya’ni ma’muriy huquq fuqarolik huquqining bir bo‘lagi, sohasi sifatida mavjud bo‘lishi mumkin emas. Zero, fuqarolik huquqi xususiy shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquq hisoblanadi. Mana shu o‘rinda Fuqarolik kodeksi 2-moddasiga ham murojaat qilish lozim. Fuqarolik kodeksining 2-moddasi 6-qismida “Bir tarafning ikkinchi tarafga ma’muriy bo‘ysunishiga asoslangan mulkiy munosabatlarga, shu jumladan, soliq, moli-

yaviy va boshqa ma’muriy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonunchiligi qo‘llanmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno” deb o‘rnatilgan. Bu juda muhim jihat hisoblanadi. Chunki Fuqarolik kodeksining 2-moddasi O‘zbekistonda fuqarolik huquqidan alohida huquq sifatida ma’muriy huquqning mavjud bo‘lishi kerakligining ma’lum bir ma’noda tamal toshini qo‘yib bermoqda. Shuning uchun ham fuqarolik huquqi normalarini ma’muriy huquq normalariga aralashtirish yoki fuqarolik huquqi normalari bilan ma’muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu esa alohida huquq sohasi tarzida ma’muriy huquqning vujudga kelishi yoki mavjud bo‘lishini ta’minlab beruvchi talab hisoblanadi.

#### Xulosalar

Yuqoridagilardan shuni ko‘rish mumkinki, ma’muriy sudlar mamlakatimizda nisbatan yangi hisoblangani bois fuqarolik huquqi normalarini ma’muriy huquq normalariga aralashtirish yoki fuqarolik huquqi normalari bilan ma’muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish kerak emas. Bu borada yuqorida tahlili keltirilgan masalalar muhim ahamiyat kasb etadi va kelgusida ham bu boradagi qonunchilik, sud amaliyoti hamda ma’muriy sudlovning nazariy asoslarini takomillashtirib borish muhim hisoblanadi.

#### REFERENCES

1. Barry D.D. Administrative justice: the role of Soviet courts in controlling administrative acts. Ed. G. Ginsburgs. *Soviet Administrative Law: Theory and Policy*, 1989, pp. 64–66.
2. Solomon P., Foglesong T. *Courts and Transition in Russia. The Challenge of Judicial Reform*, Westview Press, 2000, p. 70.
3. Simis K. The Making of the New Soviet Constitution: Conflict over Administrative Justice. *Soviet Union*, 1979, vol. 6, part 2, p. 206.
4. Smith G. *The Soviet Procuracy and the Supervision of Administration*. Sijthoff & Noordhoff Publ., 1978, pp. 37–54.

5. Ioffe O. S. Administrative law in the Soviet legal system: concluding remarks. Ed. G. Ginsburgs. *Soviet Administrative Law: Theory and Policy*, 1989, p. 499.
6. Hazard J.N. What kind of propaganda in Administrative Law. Ed. G. Ginsburgs. *Soviet Administrative Law: Theory and Policy*, 1989, p. 28.
7. Ichihashi K. Outline and Characteristics of the Administrative Procedure Act of Socialist Countries. *Law Bulletin*, vol. 65, no. 6, pp. 87–89.
8. Nematov J. New administrative law reforms in Uzbekistan: problems and their solutions. International Cooperation Department Research and Training Institute Ministry of Justice. Japan, *ICD News*, 2018, no. 75 (2018/6), pp. 29–38.
9. Nematov J. Transformation of Soviet administrative law: Uzbekistan's case study in judicial review over administrative acts. *Administrative law and process*. 2020, no. 1 (28), pp. 105–125. DOI: 10.17721/2227-796X.2020.1.08/.
10. Nematov J. Would the new administrative court system be milestone to change post-soviet administrative law in Uzbekistan? *Review of Law Sciences*, 2020, no. 4, pp. 16–20.
11. Nematov J. O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillarning huquqiy asoslarini takomillashtirishda ma'muriy aktning o'rni: ilmiy-nazariy tahlil [The role of the administrative act in improving the legal basis of administrative procedures in Uzbekistan: scientific and theoretical analysis]. *Review of Law Sciences*, 2021, no. spec. iss., vol. 3, pp. 30–38.
12. Nematov J. Ma'muriy akt qonuniyligi shartlari va ma'muriy ixtiyoriylik (diskretion vakolat) dagi xatolar [Conditions of legality of an administrative act and errors in administrative discretion (discretionary authority)]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 2, pp. 4–9.
13. Nematov J. Voprosy primeneniya printsipa zashchity doveriya v administrativnoy sudebnoy praktike Respubliki Uzbekistan [The question of the application of the principle of trust in the administrative judicial practice of the Republic of Uzbekistan]. *Ichki ishlar Akademiyasining axborotnomasi – Newsletter of the Academy of Internal Affairs*, 2022, no. 2, pp. 27–36.
14. Nematov J. Some legal issues of jurisdiction in administrative litigation proceedings in the Uzbekistan. *ICD News*, International Cooperation Department Research and Training Institute Ministry of Justice, Japan, 2022, March. spec. iss. no. 20, pp. 46–51.
15. Nematov J. Voprosy primeneniya printsipa zashchity doveriya v administrativnykh protsedurakh Respubliki Uzbekistan [Questions a application of the principle of trust and administrative procedures of the Republic of Uzbekistan]. *The German Doctrine of Administrative Law and the Formation of the Institute of Administrative Procedures in the Countries of Central Asia. Materials of the international conference dedicated to the 45th anniversary of the adoption of the German Administrative Protsessor Law*, Tashkent, May 25, 2021. Tashkent, Niso Poligraf Publ., 2022, pp. 214–228.
16. Nematov J. Ma'muriy sud ish yurituvi [Administration of the administrative court]. Tashkent, Top Image Media Publ., 2022, p. 200.
17. Nematov J. Aktual'nyye voprosy primeneniya norm Zakona «Ob administrativnykh protsedurakh» v pravoprimeritel'noy praktike administrativnykh sudov Respubliki Uzbekistan [Topical issues of application of the norms of the Law “On Administrative Procedures” in the law enforcement practice of administrative courts of the Republic of Uzbekistan]. *Yezhegodnik publichnogo prava – Public Law Yearbook*, Moscow, Infotropik Media Publ., 2021, pp. 359–372.

UDC: 929(045)(575.1)

## АКАДЕМИК ШАВКАТ УРАЗАЕВ КАК ВЫДАЮЩИЙСЯ УЧЕНЫЙ И ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ: ВЗГЛЯД ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ВРЕМЕНИ И СОБЫТИЙ

**Бурханова Лейла Мариусовна,**

кандидат юридических наук,

доцент кафедры «Гражданское право»

Ташкентского государственного юридического университета

ORCID: 0000-0002-2071-4305

e-mail: burkhanova.leyla@mail.ru

**Аннотация.** Статья посвящена рассмотрению деятельности выдающегося ученого-правоведа академика Уразаева Ш.З., который в течение длительного времени вел преподавательскую и организационную работу в Ташкентском государственном юридическом университете (бывшем ТашГУ). Уразаев Ш.З. проводил исследования в области теории и истории государственного строительства в Узбекистане. Являлся председателем Комитета конституционного надзора Республики Узбекистан, исполняющим обязанности председателя Конституционного суда Республики Узбекистан, Уполномоченного Олий Мажлиса по правам человека, депутатом Олий Мажлиса Республики Узбекистан. Принимал активное участие в качестве руководителя рабочей группы в разработке проекта Конституции независимой Республики Узбекистан. В статье рассмотрена большая работа академика Уразаева Ш.З. в подготовке высококвалифицированных юридических кадров, молодых научных сотрудников. Проведен анализ положений, закрепленных в Конституции Республики Узбекистан 1977 года, в контексте современных преобразований в государственной и общественной жизни страны.

**Ключевые слова:** академик Уразаев Ш.З., проект Конституции, Конституция Республики Узбекистан, конституционные реформы, федерация, автономия, национальное государство, национальная государственность, национальная форма государственности, форма национальной государственности.

### AKADEMIK SHAVKAT URAZAYEV ATOQLI OLIM VA DAVLAT ARBOBI SIFATIDA: VAQT VA VOQEALAR PRIZMASIDAN QARASH

**Burxanova Leyla Mariusovna,**

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Fuqarolik huquqi kafedrasida dotsenti,

yuridik fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Maqola Toshkent davlat yuridik universitetida (sobiq Toshkent davlat universiteti) uzoq yillar davomida o'quv va tashkiliy ishlar olib borgan taniqli huquqshunos olim, akademik Sh.Z. Urazayev faoliyatiga bag'ishlangan. Olim O'zbekistonda davlat qurilishi nazariyasi va tarixi sohasida ilmiy izlanishlar olib bordi. U O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi raisi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi vazifasini bajaruvchi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha

vakili, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati bo'lgan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqishda ishchi guruh rahbari sifatida faol ishtirok etgan. Maqolada akademik Sh.Z. Urazayevning yuqori malakali yuridik kadrlar, yosh tadqiqotchilarni tayyorlashdagi xizmatlarni e'tirof etiladi. Shuningdek, 1977-yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida mustahkamlangan qoidalar bugungi kundagi davlat va jamiyat hayotidagi zamonaviy o'zgarishlar sharoitida tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya loyihasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, akademik Sh.Z. Urazayev, konstitutsiyaviy islohotlar, federatsiya, avtonomiya, milliy davlat, milliy davlatchilik, davlatchilikning milliy shakli, milliy boshqaruv shakli.

## ACADEMICIAN SHAVKAT URAZAYEV AS AN OUTSTANDING SCIENTIST AND PUBLIC MAN: A VIEW THROUGH THE PRISM OF TIME AND EVENTS

**Burkhanova Leyla Mariusovna,**

Associate Professor of the Department of Civil Law,  
Tashkent State University of Law,  
PhD in Law

**Abstract.** The article is devoted to the activities of the outstanding legal scholar academician Urazaev Sh.Z., who for a long time conducted teaching and organizational work at Tashkent State University of Law (former Tashkent State University). Urazaev Sh.Z. conducted research in the field of theory and history of state building in Uzbekistan. He was the Chairman of the Constitutional Supervision Committee of the Republic of Uzbekistan, Acting Chairman of the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan, Commissioner of the Oliy Majlis for Human Rights, Deputy of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. As the head of the working group on the development of the draft Constitution of the independent Republic of Uzbekistan, he took an active part in its development. The article considers the great work of academician Urazaev Sh.Z. in the training of highly qualified legal personnel, and young researchers. Moreover, an analysis of the provisions enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan of 1977 was carried out in the context of modern transformations in the state and public life of the country.

**Keywords:** draft Constitution, Constitution of the Republic of Uzbekistan, academician Urazaev Sh.Z., constitutional reforms, federation, autonomy, nation-state, national statehood, national form of statehood, form of national government.

### Введение

В преддверии 30-летия принятия основного закона нашей страны – Конституции Республики Узбекистан особо необходимо, на наш взгляд, вспомнить не только сам процесс работы над Конституцией, но и людей, которые стояли у истоков этого процесса.

Без сомнения, огромная роль в процессе инициирования, а также работы над проектом Конституции принадлежит Первому Президенту Республики Узбекистан И.А. Каримову, который возглавил конституционную комиссию, принимал активное участие в ее работе.

Но также большая роль в процессе работы над проектом Конституции Республики Узбекистан принадлежит и руководителю рабочей группы по работе над главным законом нашего государства доктору юридических наук, академику АН УзССР, заслуженному деятелю науки УзССР, лауреату Государственной премии УзССР имени Беруни, профессору Шавкату Закариевичу Уразаеву.

Уразаев Шавкат Закариевич является автором научных трудов, посвященных истории развития и становления национальной государственности [1-8]. Академик Ш.З.Уразаев, проводя огромную



научно-исследовательскую работу по важнейшим направлениям юридической науки, как теории государства и права, так и конституционного права, осуществлял и преподавательскую деятельность. В качестве заведующего кафедрой «Теория государства и права» юридического факультета Ташкентского государственного университета проводил занятия по предмету «Теория государства и права», который являлся и является в настоящее время профилирующим предметом в процессе подготовки юристов.

Под руководством академика Ш.З. Уразаева работала когорта выдающихся ученых-юристов и педагогов. Это профессор Х.Б. Бабаев, профессор Ш.И. Джалилов, профессор Ж.Т. Ташкулов, академик А.Х. Саидов, профессор Х.Т. Адилкариев, профессор З.М. Исламов, доцент Г.М. Тансыкбаева, доцент К.Т. Холмуминов, доцент М.Т. Таджибаева, аспиранты Л.Ф. Исхакова, Л. Саидова (Каримова), А. Болтаев, С.В. Лебедева, Ю.С. Сиражиддинов, А. Касымов.

Академик Ш.З. Уразаев являлся научным руководителем не одного поколения аспирантов и докторантов, под его руководством успешно были защищены диссертации на соискание ученых степеней доктора и кандидата юридических наук.

Шавкат Закариевич в 1990–1993 годах стал первым председателем Комитета конституционного надзора Республики Узбекистан, в 1993–1994 – исполняющим обязанности председателя Конституционного суда Республики Узбекистан, Уполномоченного Олий Мажлиса по правам человека. Академик Ш.З. Уразаев являлся и депутатом Олий Мажлиса Республики Узбекистан.

Нам без преувеличения посчастливилось знать этого выдающегося человека, ученого, политического деятеля, наставника и учителя и работать под руководством. Академик Уразаев Ш.З. являлся на-

шим научным руководителем сначала как стажера-исследователя, а в последствии и как аспиранта кафедры «Теория государства и права» юридического факультета Ташкентского государственного университета. Именно с его подачи была выбрана тема нашей диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук – «Перестройка и теоретические проблемы дальнейшего совершенствования советской федерации», которая была успешно защищена.

Поэтому, на наш взгляд, вспомнить и рассказать о таком, без преувеличения, выдающемся человеке, который внес значительный вклад в историю нашего государства, не только интересно и познавательно, но и необходимо. Именно это мы хотим сделать с позиции гражданина Республики Узбекистан, ученого-юриста, члена рабочей группы по разработке проекта Конституции Республики Узбекистан. Данная статья является своеобразным взглядом сквозь время, через призму прошедших и происходящих в настоящее время событий на тот след, который оставил Ш.З. Уразаев в судьбе страны и жизни автора.

#### **Материалы и методы**

В процессе исследования наряду с общенаучным диалектическим методом познания применялись также частнонаучные методы исследования – исторический, системный, логический, сравнительного правоведения.

#### **Результаты исследования**

Придерживаясь требований для научных публикаций нельзя обойти вниманием и важнейшие научные работы – монографии, статьи, другие публикации Ш.З. Уразаева. В частности, хотелось бы отметить такую работу, как «Новая Конституция СССР – основной Закон нашей жизни», которая была опубликована в 1978 году и содержала подробный анализ основных положений Конституции СССР.

Так, было отмечено, что в Конституции закреплены новые права граждан, в частности такие, как право на жилище и охрану здоровья; пользование достижениями культуры и свободу творчества; обжалование действий должностных лиц; судебную защиту от посягательств на честь и достоинство и ряд других. Конституция гарантировала гражданам СССР ряд демократических свобод – свободу совести, слова, печати, собраний, митингов, шествий и демонстраций, образование общественных организаций, неприкосновенность личности и жилища, охрану личной жизни и другие. Отдельно в монографии в разделе III было уделено внимание рассмотрению Конституции 1977 года, национально-государственному устройству СССР как единого союзного многонационального государства, образованного на принципах социалистического федерализма, и, соответственно, рассмотрены вопросы устройства и полномочий союзной республики, органов власти автономной советской социалистической республики. Но и полномочия центра оставались достаточно широкими, поэтому можно было говорить об «унитарном федерализме», который был отражен в Конституции 1977 года [4].

Научная тема, над которой мы работали при постоянном участии научного руководителя академика Ш.З. Уразаева – в виде консультаций, советов, обсуждений и рекомендаций со стороны, касалась актуальнейших вопросов периода последних лет существования союзного государства – совершенствования советской федерации, в ней в качестве предложений были сформулированы положения, которые являются актуальными и в настоящее время, хотя более 30 лет мы живем в независимом государстве – Республике Узбекистан.

Автором были опубликованы статьи, посвященные вопросам совершенствова-

ния федерации и национально-государственного строительства, возрастания участия союзной республики в решении общесоюзных задач. Работа над темой нашей научной работы, публикации в республиканских журналах и материалах конференций по вопросам совершенствования государственного, национального и территориального устройства способствовали тому, что автора рекомендовали в состав рабочей группы Республиканской комиссии по разработке проекта Конституции независимой Республики Узбекистан.

После выбора темы нашего научного исследования и составления плана началась кропотливая работа по сбору материалов, касающихся государственного и национального устройства на примере Узбекской ССР как союзного государства, входящего в состав Союза ССР.

По рекомендации Шавката Закариевича нами были изучены основополагающие нормативно-правовые документы, регулирующие проблемы национальных взаимоотношений между республиками, входящими в состав Союза ССР – Законы СССР «О порядке решения вопросов, связанных с выходом союзной республики из СССР», «Об основах экономических отношений Союза ССР, союзных и автономных республик», «О разграничении полномочий между Союзом ССР и субъектами федерации», «О языках народов СССР». Мы ознакомились и проанализировали работы, посвященные проблемам развития национальной государственности в Узбекистане, известных ученых – А.А. Агзамходжаева, А.И. Ишанова, М.Х. Хакимова, Х.Ш. Иноятова, Х.Т. Турсунова.

В ходе научной командировки в Москву для работы в Государственной библиотеке СССР имени В.И. Ленина, которая сейчас называется в Интернет-пространстве как «КиберЛенинка», автор изучила работы ученых, ведущих иссле-

дования вопросов развития наций и национальных отношений в СССР, касающиеся преобразований в советской федерации. В частности, это были работы Э.А. Баграмова [9, 10], М.С. Джунусова [11, 12], А.И. Лепешкина [13], Э.В. Тадевосяна [14-16].

Но особо хочется отметить фундаментальные исследования в области развития, становления и функционирования федерации как сложного механизма многонационального государства Д.Л. Златопольского, который на защите диссертации автора выступил в качестве первого официального оппонента и поддержал наше с научным руководителем видение дальнейшего развития федерации, так как защита диссертации проходила очень активно – это были многочисленные вопросы как членов специализированного совета, так и присутствующих научных сотрудников Института философии и права имени И.М. Муминова Академии наук УзССР. В качестве второго официального оппонента на защите диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук выступил тогда кандидат юридических наук Акмал Холматович Саидов, который также является учеником Шавката Закариевича Уразаева и который защитил диссертацию на соискание ученой степени доктора юридических наук буквально на следующий день после моей защиты. Таким образом, мы преподнесли нашему учителю двойной подарок, двойную радость – в течение двух дней подряд защитились два его ученика.

Д.Л. Златопольский – профессор юридического факультета МГУ [17], участник Великой Отечественной войны – нашел время и специально приехал из Москвы на защиту нашей диссертации, таким образом не только поддержав моего Учителя, но и показав большое уважение к нему как человеку, выдающемуся ученому, а также его вкладу в науку и его достижениям. Выступление Д.Л. Златопольского

было очень эмоциональным, ярким, основанным как на научных фактах и сравнениях, а также аллегориях. Спасибо большое ему за это.

Обсуждение темы и вопросов, поднятых в ходе моего диссертационного исследования, было активным в силу их актуальности, и не только научной и теоретической, но и практической. В 1990 году начался процесс выхода некоторых союзных республик из состава Союза ССР – республик Прибалтики, а в некоторых республиках были и столкновения при решении вопросов самоопределения. Поэтому поднятые теоретические вопросы диссертационного исследования и их практическое разрешение показало предвидение определенных моментов нашим научным руководителем, доказав правоту его политической и правовой точек зрения в области самоопределения наций, его политическую дальновидность как государственного деятеля и ученого.

И это всего лишь единичный пример подхода академика Ш.З. Уразаева к видению и решению государственных вопросов через призму науки и права.

#### **Анализ результатов исследования**

Заслуженно именно такой человек, обладающий не только большим жизненным опытом, но и научными, и теоретическими знаниями, даром политического предвидения, патриот своей Родины, был назначен Первым Президентом Республики Узбекистан И.А. Каримовым заместителем председателя рабочей группы по разработке проекта Конституции независимого Узбекистана.

После принятия Конституции Республики Узбекистан, которая определила нашу страну как независимое суверенное светское государство, академик Ш.З. Уразаев был назначен председателем Комитета конституционного надзора, а впоследствии и Первым председателем Конституционного суда Республики Узбеки-

стан, Уполномоченным Олий Мажлиса по правам человека, депутатом Олий Мажлиса Республики Узбекистан.

Отдельно необходимо отметить следующие качества Шавката Закариевича как заведующего кафедрой, наставника-педагога, ученого-теоретика: уважение к людям, умение всегда выслушать противоположную точку зрения, большая эрудиция и начитанность, спокойствие и доброжелательность. За достаточный период времени общения с Шавкатом Закариевичем мы ни разу не слышали, чтобы разговор велся на повышенных тонах, даже если приходилось объяснять что-либо несколько раз. Периодически на заседании кафедры Шавкат Закариевич спрашивал у своих коллег и учеников, какие новинки из юридической литературы мы прочитали, и сам с удовольствием делился с нами прочитанным. Принося готовый материал на проверку, знали и с волнением ждали, когда учитель прочтет подготовленные параграфы работы и внесет свои замечания, именно это было руководством к дальнейшим действиям.

И работая заведующим кафедрой «Теория государства и права» юридического факультета Ташкентского государственного университета, как академик Академии наук УзССР, председатель Конституционного суда Республики Узбекистан, ректор Ташкентского юридического университета в 1994–1995 годах, профессор Академии МВД Республики Узбекистан Шавкат Закариевич оставался строгим педагогом, требовательным руководителем, уважаемым в ученом мире исследователем, знающим юристом, выдающимся государственным деятелем.

Проводя большую исследовательскую работу по теме федерации и федеративного устройства государства, автором на основе направлений определения развития федеративного государства, сформулированных научным руководителем, были

высказаны определенные предложения. В качестве примера можно привести определенные теоретические положения, которые не утратили актуальности и в настоящее время.

В частности, было высказано мнение относительно того, что советская федерация и автономия, сыграв определенную роль в разрешении национального вопроса, не перестали быть необходимыми и на современном этапе развития нашей многонациональной страны. Особенно велики их возможности в наиболее полном выявлении и раскрытии потенциала каждой нации, республики и его рациональном использовании на благо каждого и всех народов, в обеспечении внимательного учета специфических национальных интересов и их гармоничном сочетании с интернациональными интересами. В то же время развитие и совершенствование федерации и автономии выступает в настоящее время как важный фактор демократизации общественно-политической жизни и углубления самоуправления народов в многонациональном государстве. Поэтому требуется постоянное и возрастающее внимание к изучению проблем межнациональных отношений, поднятию политического статуса национальной автономии [8, с. 3].

В качестве новых разработок были выделены следующие. Во-первых, на основе сравнительного анализа таких понятий, как «национальное государство», «национальная государственность», «национальная форма государственности» и «форма национальной государственности», был разработан понятийно-категориальный аппарат исследования и сформулированы определения данных понятий в самостоятельной авторской трактовке. Во-вторых, было аргументировано положение, согласно которому союзные республики, имеющие в своем составе автономные образования, являются федеративными

формами республики. В-третьих, научно обоснованы и указаны конкретные критерии преобразования автономных республик в союзные [8, с. 4]. Как показывает развитие событий, относящихся к распаду Союза ССР и современного периода истории не только независимой Республики Узбекистан, но государств постсоветского пространства, ряда европейских государств, положения, сформулированные под руководством дальновидного государственного деятеля и правоведа академика Ш.З. Уразаева, не теряют своей актуальности и в настоящее время.

Во второй главе диссертационного исследования автора также высказывается предложение по совершенствованию отношений между среднеазиатскими республиками, что в настоящее время является реальностью. В частности, было обосновано положение относительно того, что между союзными республиками должны развиваться именно горизонтальные отношения. Исходя из этого, в диссертационном исследовании были проанализированы вопросы о развитии непосредственных связей между республиками и создания правового механизма договорных отношений между ними. В этих целях, для координации действий по достижению экономической самостоятельности республик и ускорения социального прогресса многонационального населения среднеазиатских республик было заключено соглашение об экономическом, научно-техническом и культурном сотрудничестве Узбекской ССР, Казахской ССР, Киргизской ССР, Таджикской ССР и Туркменской ССР [18].

Актуальным является и положение относительно развития национально-государственных форм на основе динамики роста национальных государств и национально-государственных образований, в том числе и в Средней Азии. И хотя выдвигается положение относительно того,

что развитие форм национальной государственности может происходить в рамках сохранения и совершенствования сложившейся национальной государственной структуры страны, но это не исключает возможности преобразования одних форм в другие, которые будут необходимы в условиях новых реалий и подходов. Произошедшие в 90-х годах XX века события в контексте истории союзного государства – тому подтверждение.

Также было высказано мнение касательно вопросов, могущих возникнуть по поводу преобразования автономной республики в союзную. Это особенно касается экономически сильных автономных республик, исходя из волеизъявления их народа на основе референдума и с согласия той союзной республики, на территории которой она находится [17–19].

В диссертационное исследование, по рекомендации научного руководителя автора академика Ш.З. Уразаева, было внесено рассмотрение и такого вопроса политического значения, стоящего перед республикой с федеративным устройством, как расширение самостоятельности и суверенитета автономной республики. Определено, что автономная республика должна осуществлять свои суверенные права, решать вопросы экономического и социального развития самостоятельно, а не обращаться каждый раз в центральные органы для их решения. В соответствии с этим были рассмотрены и проблемы восстановления в полном объеме законных прав и интересов народов, проживающих в автономных республиках, реализации их национальных потребностей [20, с. 17].

Также было обосновано положение относительно анализа межнациональных проблем. В частности, определено, что для решения межнациональных проблем, возникающих на реальной почве, необходим хорошо продуманный механизм их разрешения исключительно на демократиче-

ской конституционной основе [21, с. 18]. Это положение тоже нашло закрепление в нормах Конституции Республики Узбекистан.

### Выводы

Время все ставит на свои места, показывает, что было правильно и разумно, продуманно и обоснованно, а что нет. К сожалению, недавние события в Каракалпакстане показали, что к регулированию национальных отношений, территориально-административному устройству, особенно многонационального государства, в состав которого входит автономная республика, необходим обдуманый и обоснованный подход.

Изменения, которые предлагалось внести в новую редакцию Конституции Республики Узбекистан, не были приняты, и статус Республики Каракалпакстан как автономной республики с правом выхода из состава Республики Узбекистан остался без изменений. Иными словами, те положения относительно национального суверенитета и именно права наций на самоопределение остались в редакции Конституции Республики Узбекистан, принятой в 1992 году. Именно такой позиции придерживался академик Ш.З. Уразаев, он аргументировал и настоял на включении данных положений в текст Конституции 1992 года. Время показало его правоту и дальновидность как ученого, юриста, государственного деятеля, патриота своей страны.

Более того, все теоретические положения относительно места союзной республики и форм ее взаимодействия с другими союзными республиками, высказанные академиком Ш.З. Уразаевым в качестве мер по совершенствованию советской федерации, нашли практическое

воплощение в различного рода договорах и союзах, объединивших бывшие союзные республики СССР, – это и Содружество Независимых Государств, и Шайханская организация сотрудничества, и ряд других, которые объединяют государства для достижения определенных экономических, политических, социальных и культурных целей.

Интерес к истории работы над Конституцией независимого государства – Республики Узбекистан не ослабевает.

Интерес к разработке Конституции Республики Узбекистан проявили и зарубежные ученые. Это Андрей Николаевич Медушевский – ординарный профессор НУИ – Высшей школы экономики, доктор философских наук, профессор, академик РАЕН, председатель редакционного совета журнала «Сравнительное конституционное обозрение», который специально приезжал в Ташкент для беседы с учеными, которые знали академика Ш.З. Уразаева, спрашивал о формате и процессе работы в составе рабочей группы над проектом Конституции Республики Узбекистан. Приезжал для беседы о работе над Конституцией и доцент, доктор права юридического факультета Университета Нагоя Центра Азиатского Правового Сотрудничества Азиз Исмаев.

Показательной являются в этом плане конференция, организованная Национальным центром по правам человека. На данной конференции выступили люди, которые хорошо знали Шавката Закариевича Уразаева в процессе совместной работы, без преувеличения, пронесли через свою жизнь память об этом замечательном человеке, и использовали его советы и рекомендации в своей деятельности.

## REFERENCES

1. Agzamhodzhaev A.A., Urazaev Sh.Z. Razvitiye Konstitutsii Uzbekskoy SSR [Development of the Constitution of the Uzbek SSR]. Tashkent, State publishing house of the Uzbek SSR, 1957.
2. Urazaev Sh.Z. V.I. Lenin: stroitel'stvo sovetsskoy gosudarstvennosti v Turkestane [V.I. Lenin: the Construction of Soviet statehood in Turkestan]. Tashkent, Fan, 1967.
3. Agzamhodzhaev A.A., Urazaev Sh.Z. SSSR – sotsialisticheskoye gosudarstvo sovetsskikh narodov [The USSR is a socialist state of the Soviet peoples.]. Uzbekistan, 1972.
4. Urazaev Sh.Z. Novaya Konstitutsiya SSSR – Osnovnoy Zakon nashey zhizni [The new Constitution of the USSR – the Basic Law of our life]. Tashkent, Uzbekistan, 1978.
5. Urazaev Sh.Z. Sovetskaya politicheskaya sistema [Soviet political system]. Tashkent, Uzbekistan, 1980.
6. Urazaev Sh.Z. Agzamhodzhaev A.A. Natsional'no-gosudarstvennomu razmezhevaniyu respublik sovetsskoy Sredney Azii – 60 let [The national-state delimitation of the republics of Soviet Central Asia is 60 years old]. Moscow, *Sovetskoye gosudarstvo i pravo – Soviet state and law*, 1984, no. 10.
7. Urazaev Sh.Z., Saidov A.H. Osnovnoy zakon nashey zhizni [Basic law of our life]. Tashkent, 1987.
8. Abdusalomov M.Ye., Urazaev Sh.Z. Kommentariy k Konstitutsii Respubliki Uzbekistan [Commentary on the Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Uzbekistan, 2001.
9. Bagramov Ye.A. Natsional'nyy vopros v bor'be idey [The national question in the struggle of ideas]. Moscow, Politizdat, 1982.
10. Bagramov Ye.A. Natsional'naya politika i natsional'naya psihologiya [National politics and national psychology]. *Zhizn' natsional'nostey*, 1990, no. 34.
11. Dzhunusov M.S. Social progress and national relations. Alma-Ata, 1976.
12. Dzhunusov M.S. Nationalism in various dimensions. Alma-Ata, 1990.
13. Lepeshkin A.I. Soviet federalism: (theory and practice). Moscow, Legal literature, 1977.
14. Tadevosyan Ye.V. Internatsionalizatsiya zhizni narodov SSSR [Internationalization of the life of the peoples of the USSR]. Moscow, 1980.
15. Tadevosyan Ye.V. Voprosy razvitiya natsional'nykh otnosheniy v SSSR [Questions of development of national relations in the USSR]. Moscow, 1986.
16. Tadevosyan Ye.V. Svoboda natsiy: podlinnaya i mnimaya [Freedom of nations: real and imaginary]. Moscow, 1987.
17. Zlatopol'skiy D.L. Obrazovaniye i razvitiye SSSR kak soyuznogo gosudarstva [Formation and development of the USSR as a union state]. Moscow, Gosyurizdat, 1954, p. 13.
18. Zlatopol'skiy D.L. Gosudarstvennoe ustroystvo SSSR [State structure of the USSR]. Moscow, Gosyurizdat, 1960.
19. Zlatopol'skiy D.L. SSSR – federativnoye gosudarstvo [The USSR is a federal state]. Moscow, Moscow University Publishing House, 1967.
20. Burhanova L.M. Perestroyka i teoreticheskkiye problemy dal'neyshego sovershenstvovaniya sovetsskoy federatsii [Rebuilding and theoretical problems of further improvement of the Soviet federation]. Tashkent, Institute of Philosophy and Law named after I.M. Muminova, 1990.
21. *Pravda Vostoka*, – The truth of the East 1990, June 24.

UDC: 342.9(045)(575.1)

## MA'MURIY HUQUQDA MA'MURIY AKTLARNI TUSHUNISH: O'ZBEKISTON VA GERMANIYA QONUNCHILIGI MISOLIDA

**Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası o'qituvchisi  
ORCID: 0000-0001-7134-0094  
e-mail: yusuf\_saidazimov@mail.ru

**Annotatsiya.** Ma'muriy huquq sohasida ma'muriy aktlar, ularning boshqa akt va hujjatlar, jumladan, ichki idoraviy, normativ va protsessual hujjatlardan farqli jihatlari, huquqiy maqomi, ma'muriy aktni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishda ma'muriy aktning belgilari ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tushunishda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada 2018-yil 8-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuni hamda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi qonun ustuvorligi, jismoniy shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlari hamda yuridik shaxslarning ma'muriy organlar bilan munosabatlarini rivojlangan xorijiy davlatlar standartlari darajasida va milliy qonunchiligimizning xususiyatlarini hisobga olgan holda mamlakatimizda zamonaviy standartlarni joriy etishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada ma'muriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini bir xil tushunish, ularni qo'llash, qonun hujjatlarida ma'muriy hujjat tushunchasini eng to'liq va to'g'ri belgilash, alohida ma'muriy hujjatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi va farqlash bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Germaniya Respublikasi ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchiligiga oid masalalar ham muhokama qilindi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xorijiy tajribani uyg'unlashtirish bilan bog'liq muammolardan kelib chiqib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** ma'muriy akt, boshqaruv akti, ma'muriy harakat, ma'muriy harakatsizlik, individual akt, jamoaviy akt.

### СМЫСЛ АДМИНИСТРАТИВНЫХ АКТОВ В АДМИНИСТРАТИВНОМ ПРАВЕ: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО И НЕМЕЦКОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

**Саидазимов Юсуф Содик угли,**  
преподаватель кафедры «Административное и финансовое право»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В области административного права одним из актуальных вопросов является определение и смысл административных актов, их отличительных особенностей от других актов, в том числе внутренних ведомственных, нормативных и процессуальных актов, их правового статуса, признаков при изменении, отмене и признании административного акта недействительным. В этой связи принятие Закона Республики Узбекистан «Об административных процедурах» от 8 января 2018 года на основе Кодекса об административном судопроизводстве обеспечивает верховенство закона, права и законные



интересы физических и юридических лиц в отношениях с административными органами на уровне стандартов развитых иностранных государств и с учетом особенностей национального законодательства, способствует внедрению в нашей стране современных стандартов. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с единообразным пониманием сущности и содержания административных актов, их применения, наиболее полного и правильного определения в законодательстве понятия административного акта, особенностей отдельных административных актов, отражающих их специфику и отличающих эти акты от других. Также обсуждены вопросы, касающиеся законодательства Республики Узбекистан и законодательства бундесреспублики Германии об административных процедурах. На основе проанализированных проблем, связанных с гармонизацией законодательства Республики Узбекистан и зарубежного опыта выработаны предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** административный акт, управленческий акт, административное действие, административное бездействие, индивидуальный акт, коллективный акт.

## THE MEANING OF ADMINISTRATIVE ACTS IN ADMINISTRATIVE LAW: THE EXAMPLE OF UZBEK AND GERMAN LEGISLATION

**Saidazimov Yusuf Sodik ugli,**

Lecturer of the Administrative and Financial Law Department,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** In the field of administrative law, one of the topical issues is the definition and meaning of administrative acts, their distinctive features from other acts, including internal departmental, regulatory and procedural acts, their legal status, signs when changing, canceling and invalidating an administrative act. In this regard, the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Administrative Procedures" dated January 8, 2018, based on the adoption of the Code on Administrative Procedure, ensures the rule of law, the rights and legitimate interests of individuals and legal entities in relations with administrative bodies at the level of standards of developed foreign states and taking into account features of national legislation, contributes to the introduction of modern standards in our country. This article discusses issues related to a uniform understanding of the essence and content of administrative acts, their application, the most complete and correct definition in the legislation of the concept of an administrative act, and the features of individual administrative acts, reflecting their specificity and distinguishing these acts from others. Issues related to the legislation of the Republic of Uzbekistan and the legislation of the Bundesrepublik of Germany on administrative procedures have also been discussed. Based on the analyzed problems related to the harmonization of the legislation of the Republic of Uzbekistan and foreign experience, proposals and recommendations have been developed.

**Keywords:** administrative act, management act, administrative action, administrative inactivity, individual act, collective act.

### Kirish

Ma'muriy aktlar va ularni aniqlash doirasida mavjud bo'lgan terminologik xilma-xillikni o'rganishda shuni ta'kidlash kerakki, ularni ta'riflashda yagona yondashuvning yetishmasligi, avvalambor, qonuniy ravishda belgilangan shaklda tegishli

qonunchilik bilan tartibga solinmaganligi bilan bog'liq. Bu borada O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvarda "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'RQ 457-son qonunining qabul qilinishi bilan ma'muriy hujjat termini qo'llanilganligi va bu tushuncha ma'muriy aktning to'liq mazmunini

yetarli darajada ochib bera olmaganligining vaqt o'tib guvohi bo'ldik va hozirgi kunda ushbu qonun yangi tahrirda qabul qilinish arafasida. Xo'sh, ushbu yangi tahrirdagi qonun ma'muriy akt tushunchasining xususiyatlarini to'liq ochib bera oladimi? Bu borada rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligi nima deydi?

### **Material va metodlar**

Tadqiqot davomida quyidagi savollarga javob berishga harakat qilindi: ma'muriy akt tushunchasi ta'rifi; ma'muriy akt turlari, ma'muriy aktning xususiyatlari; Germaniya qonunchiligi asosida hamda ilmiy va amaliy izlanmalar natijasida ma'muriy aktning belgilari va o'ziga xos xususiyatlari.

Yuqoridagi savollarga javob tariqasida muallifning pozitsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy bilishning tahlil qilish, qiyoslash, taqqoslash, tizimlilik, statistik, umumlashtirish va formal-yuridik usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

Ma'muriy aktning barcha mavjud ta'riflari so'nggi yillarda turli huquqiy tizimlarning yaqinlashishi sharoitida turli mamlakatlar tomonidan aniq bir tushunchaning ta'rifini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Ma'muriy aktning shakllanishiga qaraydigan bo'lsak, bu tushunchaga MDH mamlakatlari, Rossiya va Germaniyada turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, buning asosiy sabablaridan biri ma'muriy akt va uning ta'rifi doirasida mavjud bo'lgan xilma-xillik, unga nisbatan yagona yondashuvning yo'qligi, tegishli qonunchilik normalari bilan huquqiy jihatdan mustahkamlanmaganligidir.

Bu borada Rossiya qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, davlat boshqaruvi jarayonida qabul qilingan qarorlarni tayinlash uchun turli variantlar qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin, masalan: "boshqaruv akti", "huquqiy boshqaruv akti", "davlat boshqaruvi akti" kabi. Sanab o'tilgan ta'riflardan

tashqari "ma'muriy akt", "ma'muriy huquqda huquqiy akt", "boshqaruvning quyi akti", "davlat boshqaruvining ma'muriy-huquqiy akti" tushunchalari ham qo'llangan.

Bunday turlicha ta'riflar ko'pincha ushbu xatti-harakatlarning mohiyatini noto'g'ri tushunishga olib keladi. Garchi ko'pchilik mualliflar ushbu tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishsa ham, har doim ham boshqaruv harakatlarining boshqa shakllaridan aniq ajratib ko'rsatishga imkon bermaydi. Shu bois bu boradagi tushunchalarni birlashtirish aniq bir termin qabul qilish va uni huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yishni taqozo qiladi. Bu borada birinchilardan bo'lib Germaniya Federativ Respublikasining "Ma'muriy protseduralar to'g'risida"gi federal qonun loyihasida taklif qilingan ma'muriy aktning ta'rifi ushbu masalaga aniqlik kiritgan deb aytishimiz mumkin.

Yuqoridagi federal qonuniga ko'ra, ma'muriy akt – "Ma'muriy ishni ko'rib chiqish paytida yuzaga keladigan ayrim masalalarni kollegial organ (mansabdor shaxs) tomonidan hal qilishning huquqni muhofaza qilish shakli" sifatida tushuniladi. Ushbu qonun asosida "ma'muriy akt" atamasini ko'rib chiqilayotgan harakatlarning huquqiy ta'rifi sifatida birlashtirish mumkinligi to'g'risida dastlabki xulosalar chiqarish mumkin. Bu inqilobgacha bo'lgan adabiyotlarda ishlab chiqilganiga qaramay, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda yaqin vaqtgacha keng tarqalmagan edi, ammo eng to'liq ta'riflardan foydalanishga imkon beradi va ushbu institutning mohiyatini aniq ifodalaydi.

Shu bilan birga, O'zbekiston qonunchiligiga nazar soladigan bo'lsak, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun ma'muriy hujjatlarning muhim xususiyatlarini aniq tushunishga imkon bermaydi, ularning mohiyatini aniq ochib bera olmaydi va ularni boshqa toifalardan ajratib turishga imkon beradi. Shu sababli ushbu qonun yangi tahrirda qabul

qilinishi kutilmoqda. Bu borada G'arbiy Yevropa fani va qonunchiligi uzoq vaqtdan beri "ma'muriy akt" tushunchasidan foydalanган holda ushbu turdagi aktlarni aniqlashda juda keng nazariy va me'yoriy bazani ishlab chiqqan.

Masalan, Germaniya qonunchiligida ma'muriy akt "davlat huquqi sohasida boshqaruv organi tomonidan ma'lum bir ishni tartibga solish va tashqi tomonga yo'naltirilgan har qanday buyruq, qaror yoki boshqa kuch choralari" sifatida belgilanadi [1].

Rus va nemis fanlarini qiyosiy o'rganish ma'muriy hujjat (akt)larning mohiyatini tushinishda ba'zi bir muammolarni ochib beradi. Masalan, rus olimlarining fikriga ko'ra, ushbu hujjatlar, ya'ni ma'muriy aktlar normativ va individual bo'lishi mumkin [2]. Nemis huquqshunos olimlarining fikriga ko'ra esa faqat ma'lum bir, yagona ishni tartibga solishga qaratilgan normalar boshqaruvning tashqi qaratilgan, ma'lum bir vakolat natijasida chiqariladigan hujjat, harakat, harakatsizlik, belgi va signal sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ma'muriy akt Germaniyada davlat boshqaruvining klassik vositasi bo'lganligi sababli ma'muriy akt doktrinasini Germaniya ma'muriy huquqida, ya'ni uning umumiy qismida markaziy o'rinni egallaydi. Ma'muriy akt institutiga bo'lgan qiziqishning asosiy sababi davlat boshqaruvi jarayonida davlat boshqaruvi tomonidan ko'rilayotgan choralardan huquqiy himoyalani sh yo'llari to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish zarurati hisoblangan [3].

XIX asrda davlat boshqaruvi ma'muriy faoliyatining ayrim shakllari, xususan, ma'muriy harakat faqat muayyan vositalar bilangina tartibga solingan. Shu sababli davlat boshqaruvining muayyan harakatlardan huquqiy himoya qilish mumkinligini aniqlash uchun har bir aniq holatda "ma'muriy akt" tushunchasini aniqlash zarurati paydo bo'lgan [4]. Ushbu harakatni uni amalga oshirish shakliga muvofiq saral-

ash kerak edi. Bu borada Germaniya Federativ Respublikasida 1960-yilda Ma'muriy protsessual kodeksning kuchga kirishi [5], davlat tomonidan 1976-yil 25-mayda qabul qilingan Ma'muriy protsessual qonunning qabul qilinishi ma'muriy aktning aniq yagona ta'rifi ishlab chiqilishi va huquqiy jihatdan mustahkamlanishidan dalolatdir. Mazkur qonunning III bo'limi ma'muriy akt tushunchasiga bag'ishlangan. Germaniya huquqida ma'muriy aktni talqin qilishni aniq tushunish uchun uning huquqiy ta'rifida mavjud bo'lgan xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ushbu qonunda ma'muriy aktning mazmun-mohiyatini ochib berish uchun 6 ta element mavjud bo'lishi kerakligi keltirilgan. Ta'rifdagi oltita element bitta funksiyani bajaradi. Ular ma'muriy hujjatlarni davlat boshqaruvi faoliyatining amaldagi turli shakllaridan ajratib turadi. Biroq qonunning 35-bo'limida ko'rsatilgan ma'muriy aktning elementlari o'z-o'zidan aniq mezon emas va qo'shimcha ravishda batafsilroq talqin qilishni talab etadi [6].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda "ma'muriy hujjat" termini o'zini to'liq oqlay olmaydi. Shu jihatdan ham yangi qonun loyihasiga ma'muriy akt tushunchasi kiritilmoqda. Ma'muriy aktning mazmunini to'liq anglashimiz uchun ilmiy jihatdan o'rganib, tahlil olib borishimiz zarur. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun loyihasiga yuzlanadigan bo'lsak, ma'muriy akt ma'muriy organning ommaviy-huquqiy munosabatlarini yuzaga keltirish, o'zgartirish yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yuridik shaxslar yoxud muayyan individual belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ta'sir chorasi hisoblanadi. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ma'muriy akt ma'lum bir ommaviy-huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirish, o'zgartirish yoki tugatishga qa-

ratilgan huquqiy ta'sir chorasidir. Xo'sh, bu huquqiy ta'sir chorasining belgilari qanday bo'lishi mumkin?

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Germaniya qonunchiligiga qaraydigan bo'lsak, ma'muriy akt belgilarini izchil hisobga olgan holda birinchi navbatda, huquqiy ta'rifda "kuch o'lchovi" sifatida belgilangan element, ya'ni bir tomonlama va maqsadli harakat, boshqarish maqsadida amalga oshiriladigan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita inson faoliyatiga e'tibor qaratish lozim. Ushbu chora haqida bunday keng tushuncha ma'muriy faoliyatning ko'plab sohalarida avtomatlashtirilgan ma'muriy hujjatlarni yaratadigan texnik vositalardan foydalanilganligi sababli qabul qilindi. Jumladan, shaxsiy kompyuter yordamida chiqarilgan soliq yoki to'lov qarori ham ma'muriy organ irodasining kuch ifodasidir, ya'ni ma'muriy aktdir. Bunda avtomatlashtirilgan yechim kelib chiqadi. Bu turdagi yechimlarning mavjudligi butunlay ma'muriy organning irodasiga bog'liq bo'lishi muhim hisoblanadi. Muayyan adresatlarga yo'naltirilgan vakolatli chorani tan olishning muhim mezoni bu – vakolatli chorani qabul qilish vaqtida uning aniq manzilini belgilash imkoniyati. Shu bilan birga, kuch o'lchovining bir aniq shaxs yoki bir nechtasiga qaratilganligi muhim emas, tartibga solinadigan vaziyatning o'ziga xosligi belgisini o'rnatish uchun ma'lum bir shaxslar doirasini individuallashtirish kifoya.

Ikkinchi belgisi "haqiqiy harakatlar" [7]. Masalan, ma'muriy organ tomonidan amalga oshirilgan binoni buzish to'g'risidagi qaror ijrosini ta'minlash haqiqiy harakat emas, chunki bu holda biz vakolatli idoraning buzish buyrug'ini amalda bajarish haqida gapirmoqdamiz, ya'ni ushbu holatda buzish to'g'risidagi qarorning o'zigina ma'muriy akt hisoblanadi, ijroni ta'minlash bundan mustasno. Ushbu holatda harakatsizlik ham ma'muriy akt bo'lishi mumkin emas, chunki kuch o'lchovi har doim iroda

jarayoni bilan bog'liq faol harakatni ta'minlaydi. Irodaning shakllanishi sodir bo'lgan, lekin u "tashqi" ifodalanmagan bo'lsa, irodaning ifodasi bo'lmagan taqdirda ham ma'muriy akt chiqarish mumkin emas. Ya'ni bu yerda Fiktiv ma'muriy akt mavjud deb hisoblay olmaymiz. Demak, bu yerda sukut iroda ifodasi emas. Biroq ushbu qoidadan istisnolar maxsus qonunchilik ta'rif bilan belgilanishi mumkin. Huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi, masalan, maxsus shaklni talab qilmaydigan daromad deklaratsiyasini qabul qilish [8].

Irodaning aniq ifodasi davlat boshqaruvi subyekting sukutidan ajralib turishi kerak, qachonki irodaning ifodasi ma'muriy organ irodasining mazmuni aniq bo'lgan og'zaki yoki yozma bayonotni almashtiradigan tegishli xatti-harakatlar bilan aniqlansagina ma'muriy akt bo'lishi mumkin. Masalan, muayyan politsiya xodimining to'xtash joyini tark etish yoki baxtsiz hodisa joyidan o'tib ketish buyrug'ini bildirgan imo-ishorasi. Agar qonunda maxsus shakl nazarda tutilgan bo'lsa, irodani ifoda etishning aniq shakli chiqarib tashlanadi.

Ma'muriy aktning keyingi xususiyati ma'muriy organ (hokimiyat)ni ko'rsatish bilan ifodalanadi [9]. Bu xususiyat ma'muriy akt sifatida kvalifikatsiya qilingan kuch o'lchovining manbasini aniqlashtirish funksiyasini bajaradi. "Germaniyaning federal ma'muriy tartib to'g'risida"gi Qonunga binon, ma'muriy organ davlat boshqaruvi (davlat boshqaruvi) vazifalarini amalga oshiruvchi har qanday tarkibiy shaxs (organ, muassasa, ularning bo'linmasi) sifatida aniqlanadi. Ushbu ta'rif bilan u davlat boshqaruvi jarayonida ishtirok etadigan juda ko'p organ va muassasalarni qamrab oladi.

Qonunchiligimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ma'muriy organlar bu – ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari,

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar hisoblanadi [10]. Qonun loyihasida esa quyidagicha keltirilgan: ma'muriy organlar – bu ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan maxsus tuzilgan komissiyalar va boshqa shaxslar. Demak, Germaniya qonunchiligida keltirilgan ma'muriy aktning belgilari sifatida ma'muriy organ qatorida berilgan har qanday tarkibiy shaxs qonunchiligimizda ham mustahkamlanishi tavsiya etiladi.

Germaniya qonunchiligiga muvofiq, ma'muriy organlar qatoriga barcha federal hokimiyatlar, federal shtatlar va shahar hokimiyatlari, shuningdek, davlat korporatsiyalari, institutlari, fondlari ham kiradi. Davlat lavozimlarini egallagan shaxslar ham bir vaqtning o'zida monokratik bo'lsa-da, bir kishilik butun bir organni ifodalovchi ma'muriy organlar hisoblanadi. Ma'muriy organlarning alohida guruhini tashkil etadigan "erkin kasblar", ya'ni xususiy soha vakillari deb ataladigan tashkilotlarning palatalari va bo'limlari rahbarlari (advokatlar, notariuslar, shifokorlar, arxitektor)ning qarorlari ham ma'muriy aktdir.

### Xulosalar

Shuni ta'kidlash kerakki, Germaniya qonunchiligida mustahkamlangan va ma'muriy aktlarni davlat boshqaruvining boshqa shakllaridan aniq ajratib olishga imkon beradigan ma'muriy aktning barcha ko'rib chiqilgan xususiyatlari har doim ham davlat boshqaruvining harakati yoki qarorini ma'muriy akt sifatida belgilash uchun aniq mezon emas. Biroq ular ma'muriy aktlarni aniqlash va ularning o'ziga xos xususiyat-

larini belgilash nuqtayi nazaridan Rossiya qonunchiligini takomillashtirish uchun ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu, albatta, umuman davlat boshqaruvini optimallashtirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarni noqonuniy harakatlar yoki davlat boshqaruvi qarorlaridan huquqiy himoya qilish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelimiz.

Birinchi, ma'muriy akt ma'muriy organ yoki vakolat berilgan organlar tomonidan chiqarilgan qarorlar bo'lishi mumkin. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda 24-qarori 5-bandiga ko'ra, "Qaror deganda, ma'muriy organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yakka yoki kollegial tarzda qabul qilingan va muayyan huquqiy oqibat tug'diruvchi hujjat tushuniladi. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, qarorlar belgilangan shaklda (masalan, joylardagi ijro hokimiyati organlari qarorlari) yoki erkin tarzda (masalan, fuqaroning murojaatini qanoatlantirishni rad etish to'g'risidagi yozma xabar) qabul qilinishi mumkin".

Ikkinchi, ma'muriy akt muayyan hujjatni berish yo'li bilan qabul qilinadi. Masalan, shaxsni tasdiqlovchi hujjat, haydovchilik guvohnomasi.

Uchinchi, ma'muriy akt faqat qog'oz (hujjat) ko'rinishida bo'lmaydi, chunki yozmadan tashqari uning og'zaki, elektron, belgili kabi shakllari ham mavjud. Bundan tashqari, ma'muriy akt ma'muriy organning ichki idoraviy munosabatlari emas, balki tashqi subyektlarga yo'naltirilgan munosabatlariga nisbatan chiqarilishi, jazolash va normativ xususiyatga ega bo'lmasligi, tartibga solish (regulyativ) xususiyatiga ega bo'lishini ham ta'kidlab o'tish lozim. Masalan, yo'l belgilari, ichki ishlar xodimining harakat yo'nalishini ko'rsatuvchi belgilar.

## REFERENCES

1. Jörn I. Allgemeines Verwaltungsrecht [General administrative law]. Berlin, 2000.
2. Maurer H. Allgemeines Verwaltungsrecht [General administrative law]. 15th ed. Munich, 2008.
3. Peine F.-J. Allgemeines Verwaltungsrecht [General administrative law]. 9th ed. C.F. Mueller, 2008.
4. Wolff H.J., Bachof O., Stober R. Verwaltungsrecht I. [Administrative law]. 6th ed. Munich, 2000.
5. Bundesverfassungsgericht [Federal Constitutional Court]. *New Legal Weekly*, 1987, no. 2501.
6. Bundesverfassungsgerichtsentscheidung [Federal Constitutional Court decision]. No. 19.68.
7. Bundesgerichtshof [Federal Court of Justice]. *New Legal Weekly*, 1987, no. 1945.
8. Verwaltungsgerichtshof Baden-Wuerttemberg [Administrative Court of Baden-Wuerttemberg]. *New journal for administrative law*, 1987, no. 431f.
9. Oberverwaltungsgericht Nordrhein Westfalen [Higher Administrative Court of North Rhine-Westphalia]. *Higher Administrative Court decisions*, no. 16, p. 289.
10. Saidazimov Y. Teoreticheskiy i pravovoy analiz administrativnykh dokumentov [Theoretical and legal analysis of administrative documents]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 3, spec. iss., pp. 19–24. DOI: 10.24412/2181-919X-2020-3-19-24/.
11. Nematov J. Transformation of soviet administrative law: Uzbekistan's case study in judicial review over administrative acts. *Administrative Law and Process*, 2020, no. 1 (28), pp. 105–125. DOI: 10.17721/2227-796X.2020.1.08/.
12. Sardorbek Y. Analysis of problems in the process of parliamentary consideration of budget execution reports in Uzbekistan. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, Legal sciences, 2021, vol. 1, no. 1.4. Available at: <https://berlinstudies.de/index.php/berlinstudies/article/view/189/>.
13. Goziev K. Democratization of state power and governance is an important condition for the principle of separation of powers. Proceedings of the *International Scientific and Current Research Conferences*, 2021, November, pp. 124–132. Available at: <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/166/>.
14. Akhrorov A. Environmental control of public administration bodies in the Republic of Uzbekistan. Proceedings of the *International Scientific and Current Research Conferences*, 2021, no. 1 (1), pp. 175–179. Available at: <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/522/>.
15. Rajabova K. Stages of legislation development regarding court review of disputes regarding the actions (decisions) of election commissions. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2022, no. 2 (12), pp. 1371–1378. Available at: <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/6765/>.
16. Juraev S. Protection of the right of human environmentally safe living. Proceedings of the *International Scientific and Current Research Conferences*, 2021, April, pp. 153–157. Available at: <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/518/>.

UDC: 347.4:338.48(045)(575.1)

## HAQ EVAZIGA TURISTIK XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA MAJBURIYATLAR SUBYEKTLARI HUQUQIY MAQOMINING AYRIM MASALALARI

**Ruzinazarov Shuhrat Nuraliyevich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Biznes huquqi kafedrası professori, yuridik fanlar doktori  
ORCID: 0000-0001-9770-6137  
e-mail: s.ruzinazarov @tsul.uz

**Achilova Liliya Ilhomovna,**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Biznes huquqi kafedrası dotsenti,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ORCID: 0000-0003-0111-0546  
e-mail: Liliya.achilova@mail.ru

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada haq evaziga turistik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlar, ularning shartnomaviy huquqiy tabiati, ayniqsa, turistik kompaniyalarning huquqiy maqomi, turistik operator va turistik agentlarning huquq subyektligi, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari haqida so'z yuritilgan. Turistik kompaniyalarning o'zaro hamda turist oldidagi majburiyatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda bu bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan. O'rganilgan xorij tajribasi va O'zbekiston tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. Turistik kompaniyalarning o'z majburiyatlarini lozim darajada bajara olmasligi ommaviy tarzda yuzaga kelganda, qanday yo'l tutilishi mumkinligi xorijda va O'zbekistonda yuz bergan holatlar misolida yoritib berilgan. Ushbu holatlarda milliy qonunchilikning qo'llanishi masalalariga to'xtalib o'tilgan. Keltirilgan amaliy misollarda yuz bergan holatlarning oldini olish uchun turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida aks etishi lozim bo'lgan eng muhim shartlar yuzasidan tavsiyalar berib o'tilgan. Mazkur shartlar jahon turizm tashkiloti tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarga muvofiq bo'lishi lozimligi yuzasidan xulosalar bildirilgan. Maqolada keltirib o'tilgan fikrlar turistik xizmatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishda qo'llanishi mumkin.*

***Kalit so'zlar:** haq evaziga turistik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlar, turistik faoliyat subyektlari, turistlar, turoperator, turagent, turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi.*

### НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО СТАТУСА СУБЪЕКТОВ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ ПО ПРЕДОСТАВЛЕНИЮ ВОЗМЕЗДНОГО ОКАЗАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ

**Рузиназаров Шуҳрат Нуралиевич,**

доктор юридических наук, профессор кафедры «Бизнес-право»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Ачилова Лилия Илхомовна,**

доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
доцент кафедры «Бизнес-право»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются обязанности по возмездному оказанию туристских услуг, их договорно-правовая природа, особенности правового положения туристских организаций, юридических лиц туроператоров и турагентов, их сходства и различия. Проанализированы нормативные правовые документы, регламентирующие обязательства туристических компаний друг перед другом и перед туристами, а также опыт зарубежных стран в этом отношении. Сравнительно проанализирован изученный зарубежный опыт и опыт Узбекистана. Как поступать при неисполнении туристическими компаниями своих обязательств должным образом – поясняется на примерах, имевших место за рубежом и в Узбекистане. В этих случаях обсуждается применение национального законодательства. В качестве примера даны рекомендации относительно наиболее важных условий, которые должны быть отражены в договоре оказания туристских услуг, чтобы не допустить возникновения ситуаций, имевших место на практических примерах. Сделаны выводы относительно того, что эти условия должны соответствовать международным документам, принятым Всемирной туристской организацией. Упомянутые в статье моменты могут быть использованы в договорно-правовом регулировании туристских услуг.

**Ключевые слова:** обязательства по возмездному оказанию туристских услуг, субъекты туристской деятельности, туристы, туроператор, турагент, договор оказания туристских услуг.

## SOME ISSUES OF THE LEGAL STATUS OF THE SUBJECTS OF OBLIGATIONS TO PROVIDE PAID TOURIST SERVICES

**Ruzinazarov Shukhrat Nuralievich,**  
Professor of the Department of Business Law,  
Tashkent State University of Law,  
Doctor of Law

**Achilova Liliya Ilkhomovna,**  
Assistant Professor of the Department of Business Law,  
Tashkent State University of Law,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

**Abstract.** This article discusses the obligations for the provision of tourist services for a fee, their contractual and legal nature, the peculiarities of the legal status of tourist organizations, legal entities of tour operators and travel agents, their similarities and differences. The normative legal documents regulating the obligations of travel companies to each other and to tourists, as well as the experience of foreign countries in this regard, are analyzed. The studied foreign experience and the experience of Uzbekistan are comparatively analyzed. How to deal with the failure of travel companies to properly fulfill their obligations is explained by examples of cases that took place abroad and in Uzbekistan. In these cases, the application of national legislation is discussed. As an example, recommendations are given regarding the most important conditions that should be reflected in the contract for the provision of tourist services in order to prevent the occurrence of situations that occurred in practical examples. Conclusions are drawn that these conditions must comply with international documents adopted by the World Tourism Organization. The points mentioned in the article can be used in the contractual and legal regulation of tourist services.

**Keywords:** obligations derived from the contractual relation regarding tourist services, subjects of tourist service, tourists, tourist operators, tourist agency, tourist service contracts.



## Kirish

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Eng avvalo, shuni ta'kidlash joizki, turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni yechish, ish o'rinlarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilganligi bilan izohlanadi. Turizm sohasida qisqa muddatli istiqbolga mo'ljallangan maqsadli vazifa va ustuvorliklardan kelib chiqib, quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni faol amalga oshirish ko'zda tutilgan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli farmoniga muvofiq tasdiqlangan 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasida turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari nazarda tutilgan. Xususan, turistik faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni joriy etish, shu jumladan, turistik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish, bunda qonunchilik asosini kuchaytirish va turizm sohasida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlovchi normalarni yagona hujjatga birlashtirishni nazarda tutish; respublikaga asosiy turistik oqimni ta'minlovchi, iqtisodiy barqaror va xavfsiz davlatlarning fuqarolari uchun viza rejimini yanada liberallashtirish bo'yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlarni amalga oshirish; xususiy sektorni jalb qilish va tadbirkorlar faolligini rag'batlantirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, sohani barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; davlat-xususiy sheriklik mexanizm-

larini joriy etish va keng qo'llash kabilar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmonga muvofiq, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi 35-maqsadida:

- "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish;

- To'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish;

- 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish;

- Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish;

- Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va "Aydar-Arnasoy" ko'llar tizimida qo'shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlari barpo etish, 300 million AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o'rni yaratish;

- Samarqandni "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish;

- Turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash;

- 2022-yilda "Abadiy shahar" tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan Samarqand turizm markazi va zaruriy infratuzilmani tashkil etish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orol bo'yida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish. Bunda Mo'ynoqning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- Xorazm viloyatida turizm yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish;

- Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish;

- Navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish;

- Toshkent shahrida turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash;

- Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish bilan bog'liq bir qator vazifalar nazarda tutilgan.

Davlatimizda turizmni rivojlantirishga oid ustuvor vazifalardan kelib chiqib sohada jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Turizmning rivojlanishi turistik xizmat ko'rsatish sifatiga, qolaversa, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomaviy majburiyatlar bo'yicha taraflarning o'z zimmalariga olgan huquq va majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga uzviy bog'liq. Ayniqsa, turistik xizmat ko'rsatishning qonunchilik asoslarini rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida qarab, uning zamonaviy tendensiyalarini inobatga olib takomillashtirilayotganligi va uni amaliyotda qo'llash samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning ta'sirchanligini yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Eng muhimi, haq evaziga turistik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarda turistik kompaniyalarning huquqiy maqomini ilmiy-amaliy yoritib berish dolzarb muam-molardan biri hisoblanadi.

### **Mareial va metodlar**

Mazkur ilmiy maqolani tadqiq etishda umumilmiy uslublar: funksional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy metodlardan foydalanildi. Mavzu yuzasidan olimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilinib, tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

### **Tadqiqot natijalari**

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni 2019-yil 18-iyulda qabul qilinib, unga sohaning hozirgi rivojlanish bosqichidan kelib chiqqan holda, yangi tushunchalar kiritildi, turizm sohasidagi davlat

siyosatining prinsiplari va asosiy yo'nalishlari belgilandi. Shuningdek, turistik faoliyat subyektlari toifalarga ajratildi.

Afsuski, yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarga salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Xususan, 2020-yilda O'zbekistonda turistik xizmatlar eksportidan tushgan daromad 80 foizga pasayib ketdi [1]. Shunga qaramasdan, ushbu soha pandemiya-dan so'ng jadal tiklanayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu turistik xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar, mehmonxonalar va oilaviy mehmonxonalar sonining o'sishida ham o'z aksini topmoqda. Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yil davomida hududlarda 133 ta yangi mehmonxona (xonalar soni 3 384 ta) va 210 ta xostel (xonalar soni 1 946 ta) faoliyati yo'lga qo'yilib, jami joylashtirish vositalari soni 1 442 ta, ulardagi o'rinlar soni esa 71 247 taga yetkazildi.

1 096 ta oilaviy mehmon uy (xonalar soni 3 952 ta)lari tashkil etilib, ularning umumiy soni 2 458 ta, o'rinlar soni 21 018 taga yetdi. Turistlar uchun xizmat ko'rsatuvchi 137 ta yangi turistik tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida ularning soni 1 483 taga yetkazildi. Tiklanish yurtimizga kelayotgan sayyohlar soni o'sishida ham kuzatilmogda. Jumladan, 2022-yil sentabrgacha yurtimizga kelgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 baravarga ko'paydi. Yil boshidan buyon turizm eksporti hajmi 926 million dollarga yetdi. Yurtimizga kelgan mehmonlarning sayohati o'rtacha 4–5 kungacha, sarflagan mablag'i 305 dollargacha ko'paydi. Ichki sayyohlar soni ham o'tgan yilga nisbatan 3,5 baravarga o'sib, 7,5 million nafarni tashkil qildi [2]. Endilikda 2023-yilda kamida 7 mln xorijiy hamda 12 mln ichki turistni jalb qilish vazifa sifatida belgilab olinmogda [3].

Bularning barchasi turistik xizmatlar bozori ishtirokchilari bo'lgan xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchi subyektlar soni ke-

ngayayotganini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda turistik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha qonunchilikni tahlil qilish va xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarda turistik kompaniyalarning huquqiy maqomini belgilash masalalariga to'xtalishni lozim topdik.

Turizm sohasidagi huquqiy munosabatlar va ularning subyektlari huquqiy maqomi xususida bir qator olimlar ish olib borishgan.

S.N. Bratanovskiyning fikricha, turizm sohasidagi huquqiy munosabatlar subyektlarining huquqiy maqomi qonunchilikda belgilangan huquq va majburiyatlar, shuningdek, javobgarlik yig'indisidir. Turistik xizmatlar sohasidagi huquqiy munosabatlarning bosh subyekti iste'molchi hisoblanadi. Turizm agentligi yoki turoperator sifatida turistik xizmat ko'rsatuvchi shaxslar ularning buyurtmalari ijrochisi sifatida ish olib boradilar [4].

Dunyo tajribasida turistik kompaniyalarning ikki turi – turistik agentliklar va turoperatorlar keng tarqalgan. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda ish olib boradi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, turagentlik faoliyati – turistik mahsulotni targ'ib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati bo'lsa, turoperatorlik faoliyati – turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib etish va realizatsiya qilish yuzasidan faqat yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi [5]. Ushbu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, turoperatorlik faoliyati turpaketni shakllantirishi sababli turagentlikka nisbatan ustuvorlikka ega.

Huquq nazariyasida ham mazkur turistik xizmat ko'rsatish subyektlari va ularning huquqiy maqomiga doir fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan. Jumladan, Y.L. Pisarevskiy turistik agentlikni turoperator tomonidan shakllantiriladigan, turistik mahsulotlarni targ'ib etish va realizatsiya qilish bilan shug'ullanadigan, shuningdek, turizm bilan bog'liq bo'lmagan boshqa xizmatlarni (transport va turar joy) amalga oshiradigan shaxs deb ta'riflaydi [6].

D.S. Ushakov esa turistik agentlikni turoperator tomonidan shakllantiriladigan, turistik mahsulot tuzilishi bo'yicha turistga ma'lumot beruvchi va reklama qiluvchi rolga ega subyekt sifatida tavsiflaydi hamda uning turistik xizmat ko'rsatish subyekti emasligini asoslashga harakat qiladi [7].

Bizningcha, turistik agentlik turistik mahsulotni targ'ib etish bilan birga uni realizatsiya qilish huquqiga ega ekan, turistik xizmat ko'rsatish subyektlaridan hisoblanmasdan iloj yo'q. Negaki uning faoliyati turistga turistik xizmatlar haqida axborot berish va reklama qilishdangina iborat emas. U turistlar uchun transport, turar joy xizmatlari ko'rsatar ekan, mazkur xizmat turlari turistik xizmat sohasi bilan uzviy bog'liqdir.

Bunda turoperatorlik faoliyatining turagentlik faoliyatidan ikkita asosiy farqli jihati mavjud: mazkur faoliyat faqat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi; turagentlikdan farqli ravishda faqat turistik xizmatlarni targ'ib qilish va sotish bilan shug'ullanmasdan uni o'zi shakllantiradi. Turistik mahsulot targ'ibotini ham, realizatsiyasini ham mustaqil ravishda o'zi amalga oshirishi yoki turagentlar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlashi mumkin.

Shuningdek, 2019-yil 18-iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son qonuni 25-moddasiga ko'ra, turagent turistik mahsulotni targ'ib etishni turoperator bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiradi. Ya'ni turagent turoperatorning topshirig'iga ko'ra harakatlanadi. Shu sababli mazkur ikki turistik kompaniya turining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Qonunning 29-moddasida turoperatorlar hamda turagentlarning huquq va majburiyatlari umumiy sanab o'tilgani ham bejiz emas. Mazkur holat ularning turistik xizmat ko'rsatish subyekti sifatidagi huquqiy maqomi deyarli bir xil ekanini anglatadi.

Albatta, mazkur holatda turist ham o'ziga xos huquq va majburiyatlarga ega. Umuman

olganda, qonun turistik soha subyektlarining asosiy huquq va majburiyatlarini sanab o'tadi. Har ikki tomonning shartnomaviy huquq va majburiyatlari esa turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi o'z yuridik tabiatiga ko'ra haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining bir turi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 703-moddasiga ko'ra, FKning haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasiga doir qoidalarini sayyohlik xizmati shartnomalariga tatbiq etiladi.

Turist yoki uning vakili turistik mahsulotning buyurtmachisi sifatida turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasini tuzar ekan, shartnomada: turoperator va (yoki) turagentning nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili), litsenziyasining yo'nalishi va raqami; turistik mahsulotning buyurtmachisi to'g'risidagi, uning turistik mahsulotni realizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan hajm doirasidagi ma'lumotlar; turistik mahsulotning qiymati va uni to'lash tartibi; turoperator va (yoki) turagent hamda turistik mahsulot buyurtmachisining huquqlari va majburiyatlari; shartnomani o'zgartirish va bekor qilish shartlari; turoperator va (yoki) turagent va turistik mahsulot buyurtmachisining javobgarligi hamda nizolarni ko'rib chiqish tartibi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Xorij tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, haq evaziga turistik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarda turistik kompaniyalarning huquqiy maqomi qonunchilikda belgilanishi va shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqishida yorqin namoyon bo'ladi.

Haq evaziga turistik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarda turistik kompaniyalarning huquqiy maqomi belgilangan shartnomalar turli davlatlar qonunchiligida turlicha ifodalanadi. Masalan, Germaniya fuqarolik qonunchiligida mazkur shartnoma turistik xizmatlar shartnomasi, Rossiya Federatsiyasining "Turizm to'g'risida"gi qonunida turistik mahsulotni realizatsiya qilish to'g'risidagi

shartnoma, Yevropa Ittifoqining "Turpaketlar va ular bilan bog'liq turistik xizmatlar to'g'risida" 2006/2004 "turpaket realizatsiyasi to'g'risida shartnoma", O'zbekiston qonunchiligida turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi deb yuritiladi. Ular nomlanishidan farq qilsa-da, mazkur davlatlar uchun ham, O'zbekiston uchun ham turistik xizmat ko'rsatish shartnomasi shakli 1970-yil 23-aprelda Bryusselda imzolangan Sayohat uchun shartnoma bo'yicha xalqaro konvensiyaga binoan belgilangan [8]. M.R. Pliyevaning fikricha, mazkur xalqaro hujjat turizm sohasidagi majburiyat munosabatlari va turoperatorlarning javobgarligi masalalarini tartibga soluvchi yagona xalqaro shartnoma hisoblanadi [9].

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, turagent doimo turoperator bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, mazkur shartnoma doirasidan chiqmagan holda ish olib borishini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik.

Shundan kelib chiqqan holda turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi bo'yicha turkompaniyalarning o'zaro va turist oldidagi majburiyatlari turoperator va turagent o'rtasidagi shartnomada belgilab qo'yiladi. Mazkur shartnoma qaysi shartnoma turiga mansub bo'lishi kerakligi xorijiy davlatlar qonunchiligida ham aniq belgilanmagan.

Xususan, Ukrainaning "Turizm to'g'risida"gi qonunida "tomonlarning huquqlari va majburiyatlari, javobgarligi hamda turoperator va turagent o'rtasidagi shartnomaning boshqa shartlari agentlik shartnomasining umumiy qoidalariga muvofiq belgilanadi, agar ular o'rtasidagi shartnomada, shuningdek, mazkur qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa" deb belgilab qo'yilgan [10].

Belarus Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonunida "turistik faoliyat subyekti (turoperator, turagent)ga turni sotish komissiya shartnomasi yoki qonun bilan taqiqlanmagan boshqa shartnomalar asosida amalga oshiriladi" [11]. Mazkur mamlakatlar

qonunchiligiga muvofiq, turoperatorlar va turagentlar o'zaro shartnoma tuzayotganda, shartnoma turini tanlashda erkindir.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunida ham turoperator va turagent o'rtasidagi munosabatlar shartnoma asosida belgilanishi bayon qilingan bo'lsa-da, uning turiga nisbatan hech qanday talab qo'yilmaydi. Bu bilan Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan shartnoma tuzish erkinligi prinsipiga asoslangan deyish mumkin. Huquq nazariyasida ham mazkur yondashuv to'g'riligi bo'yicha fikrlar bildirilgan [12].

Ammo qonunning 26-moddasida turagent va turoperator o'rtasidagi shartnomada nimalar ko'rsatilishi kerakligi aniq qilib belgilab qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat: turistik mahsulotni turagent tomonidan realizatsiya qilish shartlari; turagentning turistik mahsulotni turoperator yoxud o'z nomidan realizatsiya qilishga doir huquq va majburiyatlari; turagent tomonidan ikkilamchi agent shartnomalarini tuzish mumkinligi (mumkin emasligi)ni nazarda tutuvchi shartlar; ularga turistik mahsulotning buyurtmachisi tomonidan turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasini ijro etish borasida e'tirozlar bildirilgan taqdirda turoperator va turagentning hamkorligi tartibi; turistik mahsulot to'g'risida axborot taqdim etmaganlik yoki noto'g'ri axborot taqdim etganlik, turistik xizmatlar ko'rsatishga doir shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun turistik mahsulotning buyurtmachisi oldida turoperator va turagentning javobgarligi, shuningdek, taraflardan har birining javobgarligi.

Ijrochi sifatida esa turkompaniyalar turistik xizmatlar oldida quyidagi majburiyatlarni bajaradi: xususan, buyurtmachiga ushbu shartnomada shartlashilgan va sertifikatlashtirilgan xizmatlar ko'rsatish; turistik xizmatlar ko'rsatilmagan yoki to'la hajmda yoxud lozim darajada sifatli ko'rsatilmagan taqdirda buyurtmachiga yetkazilgan zararining o'rni-

ni qoplash; buyurtmachiga turni tashkil qilish tartibi va shartlari, uning huquq va majburiyatlari to'g'risida to'liq axborot berish; buyurtmachiga uning turistik xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va bu xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlovchi hujjat sifatida turistik yo'llanma (vaucher) taqdim etish; buyurtmachini joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko'rsatish va uning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar ko'rsatish; buyurtmachini sug'urta qilish. Sayyohlik xizmati ko'rsatuvchi tashkilotning shartnomada ko'rsatilganidan boshqa majburiyatlari [13].

Turistik xizmatlar ko'rsatishga doir shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik va uning huquqiy oqibatlari qanday bo'lishini belgilab beruvchi xalqaro hujjat ham mavjud bo'lib, mazkur hujjat Ispaniyaning Madrid shahrida 2021-yil dekabrda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) 24-assambleyasida qabul qilingan Turistlar himoyasi xalqaro kodeksi hisoblanadi [14]. Garchi milliy amaliyotimizda ko'p uchramayotgandek bo'lib tuyulsa-da, mazkur xalqaro kodeks talablari biz uchun ham dolzarb hisoblanadi. Buni quyiroqda keltirib o'tiladigan keyslarda batafsil tahlil qilishga harakat qilamiz.

Mamlakatimizda turfirmalar tomonidan turistlar oldidagi shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslik holati bo'yicha ayrim keyslar yuzaga kelishni allaqachon boshlagan. Xususan, 2019-yil 26-noyabr kuni Andijon viloyatida joylashgan turistik firmalardan biri tomonidan Jidda shahriga borgan 14 nafar o'zbekistonlik vatandoshimizning viza si qalbaki bo'lib chiqqan. Din ishlari bo'yicha qo'mita ma'lumotida buni qaysi turfirma qilganligi, unga nisbatan qanday choralar ko'rilganligi, tomonlar sudlashgan-sudlashmaganligi to'g'risida ma'lumot berilmagan. Shuningdek, umra viza bilan emas, balki turistik viza bilan Saudiya Arabistoniga borib, politsiya idorasiga qatnab, sarson bo'lgan

yurtdoshlarimiz haqida xabarlar ham uchrab turmoqda [15].

Xorij amaliyotida esa bu kabi misollarni ko'plab uchratish mumkin.

Qonunchilikka ko'ra, turistik mahsulotga kiritilgan xizmatlarning ajralmas qismi bo'lgan turistlarni dam olish joyi va orqaga havo orqali tashish shartlari va muddatlariga rioya qilmaslik, shuningdek, turistik xizmatlar sifatining buzilishi va sayyohlar foydasiga ma'naviy zarar [16], shuningdek, ular tomonidan qilingan qo'shimcha xarajatlar kompensatsiya undirish uchun asosdir. Misol uchun, 2014-yilda fuqarolar F.I., F.V. har birining foydasiga ma'naviy zararni qoplashni undirish uchun "SANMAR TUR" MCHJ (turoperator), "Leon" MCHJ (turagent)ga nisbatan da'volar bilan sudga murojaat qilgan. O'z talablarini asoslash davomida ular "SANMAR TUR" MCHJ F.I. va F.V. uchun Moskva–Barselona yo'nalishi bo'yicha "Ural aviayo'llari aviakompaniyasi" OAJdan 2014-yil 2-iyuldagi U6-3501 reys uchun bilet sotib olganligi, aviabiletida uchish davomiyligi muddati 04:05 soat deb ko'rsatib o'tilganligi, ammo samolyot uchishi kechiktirilganligi va sayyohlar Barselonaga 13 soat 10 daqiqada yetib borganlarini keltirib o'tgan. Sudning qarori bilan da'volar qisman qondirilgan. "Sanmar TUR" MCHJdan ma'naviy zararni qoplash, da'vogarlar foydasiga jarima va byudjet daromadiga davlat boji undirilishi belgilangan. "Leon" MCHJga nisbatan da'volarini qondirish rad etilgan. Sud mazkur holat bo'yicha turagent emas, balki turoperator turistik mahsulotni o'z ichiga olgan barcha uchinchi shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) uchun turist oldida javob beradi, degan xulosaga kelgan [17].

Shu bilan bir qatorda, ayrim sud amaliyoti materiallariga ko'ra, turoperator turistik mahsulot haqida ishonchli va to'g'ri ma'lumot bermaganligi sud tomonidan turoperatorga yetkazilgan zararni qoplash yoki ko'rsatilgan turistik xizmatlar uchun

to'langan summani kamaytirish majburiyati yuklanishiga olib kelgan holatlar ham mavjud. Bunda shartnomada belgilangan yashash sharoitlari aniq ko'rsatilgan bo'lishi iste'molchilar huquqlarini real himoya qilishning yagona kafolati hisoblanadi. Xususan, 2008-yil 21-yanvarda sud fuqaro P.ning sifatsiz xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan zararni qoplash to'g'risidagi "MGP – N" MCHJga nisbatan da'vosi bo'yicha fuqarolik ishini ko'rib chiqqan.

Ish materiallarida aniqlanishicha, fuqaro P. tomonidan sotib olingan turistik vaucherga ko'ra, xizmatlar to'plami dengiz va bog' manzarali mehmonxona xonasida joylashtirishni o'z ichiga olgan. Buning uchun P.dan 675 rubl miqdorida qo'shimcha haq undirilgan. Dam olish maskanida ma'lum bo'lishicha, "Yutai International" mehmonxonasida P. uchun band qilingan xonaning derazalari qurilish maydonchasiga qaragan. Ushbu mehmonxona shartnomada ko'rsatilgan xizmatlar sifatiga javob bermagan, chunki mehmonxona hududida va uning ichida doimiy ravishda ta'mirlash va qurilish ishlari olib borilgan; restoranda taomlarning cheklangan tanlovi mavjud bo'lgan; eng yaqin plyaj taxminan 1 km uzoqlikda joylashgan; mehmonxona odatdagi gigiyena me'yorlariga rioya qilmagan: xonani nam tozalash va choyshabni almashtirish faqat bu bo'yicha e'tiroz qilinganidan keyin amalga oshirilgan.

Yuqoridagi barcha jihatlar P. joylashgan mehmonxona besh yulduzli mehmonxonalar toifasiga aniq nomuvofiqligidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan sud hal qiluv qaroriga ko'ra P.ning "MGP – N" MCHJga nisbatan tegishli da'vosi to'liq qanoatlantirilgan. Turoperator o'zini oqlash uchun P. borgan davlat standarti bo'yicha "Yutai International" mehmonxonasi "besh yulduzli" mehmonxonalar toifasiga kirishini bildirgan. Sud mazkur vajni asossiz deb topgan. Sudning fikricha, ushbu standart bo'yicha to'liq va to'g'ri ma'lumot berish turoperatorning vazifasi hisoblanadi.

Ushbu holatlar amaliyotdagi ayrim misollar bo'lib, turist va turoperatorga bog'liq bo'lmagan holatda turoperator tomonidan ommaviy ravishda majburiyatlar bajarilmay qolishi holatlari ham ro'y bermoqda.

### Xulosalar

Haq evaziga turistik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarda turistik kompaniyalarning huquqiy maqomi mavzu doirasida o'rganilgan masalalarni tizimli tahlil etish natijasida bir qator asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldi. Xususan, bu haqda quyidagi ilmiy-amaliy ta'rif va nuqtayi nazarlarni izohlab berish mumkin:

1) turizm sohasidagi huquqiy munosabatlar subyektlarining huquqiy maqomi deganda qonunchilikda nazarda tutilgan, ular huquq subyektligi, faoliyat yuritishining tartibi va asoslarini belgilaydigan huquqiy normalar yig'indisi tushuniladi;

2) turagent turoperatorning topshirig'iga ko'ra harakatlanadi. Shu sababli mazkur ikki turistik kompaniya turining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ularni bir-biridan alohida deb tasavvur qilishning imkoni yo'q.

Turoperator va turagent o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro va turist oldidagi huquq hamda majburiyatlari shartnomada belgilanadi. Mazkur shartnomaning turi qonunchilik bilan belgilanmagan. Ammo 1970-yil 23-aprelda Bryusselda imzolangan Sayohat uchun shartnoma bo'yicha xalqaro

konvensiya buni vositachilik shartnomasi sifatida ta'riflaydi.

Turistik xizmat ko'rsatish shartnomasining namunaviy shaklida ijrochi sifatida turkompaniyalar turistlarga buyurtmachiga turni tashkil qilish tartibi va shartlari, uning huquq va majburiyatlari to'g'risida to'liq axborot berishi lozimligi ko'rsatilgan. Biz bunga qo'shimcha ravishda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi 433-son qarori bilan tasdiqlangan "Turoperator va turagentlik xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi nizomning 21-bandida belgilangan tartibda harakatlanish, turar joy va ovqatlanish, ularning darajasi to'g'risida (misol uchun, "besh yulduz"li mehmonxona) ma'lumot hamda mazkur ma'lumotga muvofiq shart-sharoitlarni ta'minlash majburiyati ham shartnomada aks etishi lozim deb hisoblaymiz. Bu sayyohga o'zi borayotgan davlatning turistik xizmatlari darajasi va standartlari haqida batafsil ma'lumot berishni ham o'z ichiga olishi kerak. Shuningdek, reyslar turkompaniya aybiga ko'ra emas, balki aviakompaniya aybi bilan kechikkan taqdirda kompensatsiya masalasi ham shartnomada oldindan hal etilgani ma'qul. Ana shundagina yuqoridagi keyslarga o'xshash holatlarning yuzaga kelishining oldi olinadi. Yuzaga kelgan taqdirda ham ikki tomonning qanday yo'l tutishi oldindan ma'lum bo'ladi. Shu bilan birga, turkompaniyaning ham, turistning ham huquqlari buzilmasdan, nizolarni sudgacha o'zaro kelishuv bilan hal etish imkoniyati yuzaga keladi.

## REFERENCES

1. Ahrorov D. Pandemiyadan keyingi turizm: O'zbekiston nimalarga e'tibor qaratishi kerak? [Post-pandemic tourism: What should Uzbekistan focus on?] Available at: <https://kun.uz/11780695?q=%2F11780695/>.

2. Turizm va madaniy meros vazirligining hisobot matbuot anjumani bo'lib o'tdi [A report press conference of the Ministry of Tourism and Cultural Heritage was held]. Available at: <https://yuz.uz/news/turizm-va-madaniy-meros-vazirligining-hisobot-matbuot-anjumani-bolib-otdi/>.

3. Turizm sohasidagi ulkan imkoniyatlar va ulardan foydalanish bo'yicha vazifalar ko'rsatib o'tildi [Huge opportunities in the field of tourism and tasks for their use were shown]. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/5552/>.
4. Bratanovski S.N., Bratanovskaya M.S., Kocherga S.A. Pravovoye regulirovaniye turizma v Rossiyskoy Federatsii [Legal regulation of tourism in the Russian Federation]. Moscow, 2014, pp. 23–28.
5. Pisarevsky E.L. Pravovoye regulirovaniye turistskoy deyatel'nosti [Legal regulation of tourism activities]. St. Petersburg, 2007, p. 43.
6. Zolotovskiy V.A., Zolotovskaya N.Ya. Pravovoye regulirovaniye v sfere turizma [Legal regulation in the sphere of tourism]. Volgograd, 2015, p. 34.
7. Mezhdunarodnaya konventsia po kontraktu na puteshestviye [International travel contract convention]. Brusel, 1970, April 23. Available at: <https://www.lawmix.ru/abro/552/>.
8. Pliyeva M.R. Otvetstvennost' turoperatora po dogovoru okazaniya mezhdunarodnykh turistskikh uslug [Responsibility of the tour operator under the contract for the provision of international tourist services]. Moscow, 2008, p. 13.
9. Zakon Ukrainy «O turizme» [Law of Ukraine "On Tourism"]. 1995, no. 324/95-VR. Available at: [https://urst.com.ua/ru/download/act/o\\_turizme.pdf/](https://urst.com.ua/ru/download/act/o_turizme.pdf/).
10. Zakon Respubliki Belarus' «O turizme» [Law of the Republic of Belarus "On Tourism"]. 1999, no. 326-Z. Available at: <https://e-cis.info/cooperation/3310/78718/>.
11. Solovyev S.S. Bezopasnyy otdykh i turizm [Safe recreation and tourism]. Academia, 2016, p. 28.
12. International code protection tourists. UNWTO, Madrid. DOI: 10.18111/9789284423507/.
13. Turist hizmat kursatish shartnomasi [Tourism service contract]. Available at: <https://yurxizmat.uz/uz/document/483/>.
14. Andijondagi travel agency tomonidan Umra ziyoratiga junatilgan 14 nafar [The visas of 14 Uzbeks sent for Umrah pilgrimage turned out to be fake]. Available at: <https://sangzor.uz/jamiyat/2275-andizhondagi-turfirma-tomonidan-umra-zieratiga-zhnatilgan-14-nafar-zbekistonlikning-vizasi-sohta-blib-chidi.html/>.
15. Appellyatsionnoye opredeleniye Saratovskogo oblastnogo suda [Appellate ruling of the Saratov Regional Court]. St. Petersburg, Consultant Plus, 2016.
16. Kak vernut' den'gi za otmenennyye zarubezhnyye tury? [How to get a refund for canceled foreign tours?]. Available at: [https://www.tourismsafety.ru/news\\_one\\_6525\\_60.html/](https://www.tourismsafety.ru/news_one_6525_60.html/).
17. Ruzinazarov Sh., Achilova L. Aktual'nyye voprosy sovershenstvovaniya zakonodatel'stva po obyazatel'stvam prichineniya vreda [Topical issues of improving legislation on obligations to cause harm]. *Review of Law Sciences*, 2017, no. 1, pp. 134–141.
18. "Mehmonxonalar deyarli band bo'ldi, 400 ming so'mlik xonalar 800-900 ming so'mdan sotilmoqda" – ruslarning oqimi uy-joyga bo'lgan talabni keskin oshirdi [“The hotels are almost fully booked, rooms for 400,000 soums are sold for 800-900,000 soums” - the influx of Russians has sharply increased the demand for housing]. Available at: <https://kun.uz/59524790/>.
19. Ruzinazarov Sh., Rakhmonkulova N.Kh., Achilova L.I. Some questions of organizational and legal aspects of hotel services in the terms of COVID-19. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt. Egyptology*, 2020, vol. 17 (6), pp. 1938–1947. Available at: <https://archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/1088/>.



UDC: 347.78(045)(575.1)

# AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA VA INTELEKTUAL MULK SOHASIDAGI QONUN HUJJATLARIDA MUALLIFLIK HUQUQIGA DOIR MAVJUD NORMALARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich,**Toshkent davlat yuridik universiteti  
Intellektual mulk huquqi kafedrası dotsenti v. b.,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ORCID: 0000-0002-2940-8718  
e-mail: a.yuldashov@tsul.uz

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborot kommunikatsiyalari, aloqa hamda intellektual mulk sohasidagi qonun hujjatlarida mualliflik huquqining muhofazasi va himoyasi bilan bog'liq normalar hamda ularning mazmun-mohiyati yuzasidan qiyosiy-huquqiy tahlil amalga oshirilgan. Ma'lumki, bugungi kunda mualliflik huquqi bilan bog'liq jarayonlar Internet va telekommunikatsiya tarmoqlari yordamida amaliyotga kirib kelmoqda. Bu borada aynan mualliflik huquqi obyektlari himoyasining texnik vositalari alohida o'rin tutadi. Texnik choralarning maqomi va harakati esa o'z navbatida mualliflik huquqiga doir qonun normalarida aks etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunida asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi, muallif, turdosh huquqlar egasi yoxud asarlarga yoki turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarning boshqa egasi tomonidan ruxsat etilmagan harakatlar amalga oshirilishining oldini oluvchi yoki ularni cheklovchi har qanday texnik qurilmalar yoxud ularning tarkibiy qismlari mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalar deb e'tirof etilishi belgilangan. Maqolada muallif telekommunikatsiya tarmoqlaridagi qonunosti hujjatlarida asarlar va turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish bilan bog'liq jarayonlarda mualliflik huquqi normalarini to'laqonli ravishda qo'llash bilan bog'liq masalalarni tanqidiy tahlil qilgan hamda tegishli qonunchilikni takomillashtirish bilan bog'liq masalalar va kelgusidagi huquqiy oqibatlar bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalarga kelgan.

**Kalit so'zlar:** intellektual mulk, mualliflik huquqi, telekommunikatsiya tarmog'i, aloqa tarmog'i, kontrafakt mahsulot, axborot tizimi, mualliflik shartnomasi.

## ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕЙСТВУЮЩИХ НОРМ ОБ АВТОРСКОМ ПРАВЕ В НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ АКТАХ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННО- КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ

**Юлдашов Абдумумин Абдугопирович,**доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
и. о. доцента кафедры «Право интеллектуальной собственности»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ норм, связанных с охраной и защитой авторского права в правовых документах в сфере информационных

коммуникаций, связи и интеллектуальной собственности, и их содержания. Известно, что сегодня процессы, связанные с авторскими правами, широко реализуются с помощью сети Интернет и телекоммуникационных сетей. В связи с этим особое место занимают технические средства защиты объектов авторского права. Состояние и действие технических мер, в свою очередь, отражено в правовых нормах об авторском праве. В частности, Закон Республики Узбекистан «Об авторском праве и смежных правах» запрещает действия, не разрешенные автором, обладателем смежных прав или иным обладателем исключительных прав на произведения или объекты смежных прав, осуществляющим контроль за использованием произведений или объектов смежных прав. Определено, что техническими средствами, обеспечивающими охрану авторских и смежных прав, признаются любые технические устройства или их составные части, препятствующие или ограничивающие их увеличение. В ходе проведенного критического анализа вопросов о полном применении норм авторского права правовых документов в сфере телекоммуникационных сетей в процессах, связанных с использованием произведений и объектов смежных прав, автор статьи пришел к научно-теоретическим выводам о грядущих правовых последствиях и выдвинул предложения по совершенствованию соответствующего законодательства.

**Ключевые слова:** интеллектуальная собственность, авторское право, сеть телекоммуникаций, сеть связи, контрафактный продукт, информационная система, авторский договор.

## ISSUES OF IMPROVEMENT OF THE EXISTING NORMS OF COPYRIGHT IN LEGAL ACTS IN THE FIELD OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES AND INTELLECTUAL PROPERTY

**Yuldashov Abdumumin Abdugopyrovich,**  
Acting Associate Professor,  
Department of Intellectual Property Law,  
Tashkent State University of Law,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences

**Abstract.** This article provides a comparative legal analysis of the rules related to the protection of copyright in legal documents in the field of information communications and intellectual property and their content. It is known that today the processes associated with copyright are widely implemented using the Internet and telecommunications networks. In this regard, a special place is occupied by technical means of protecting objects of copyright. The state and operation of technical measures, in turn, are reflected in the legal norms on copyright. In particular, the Law of the Republic of Uzbekistan “On Copyright and Related Rights” prohibits actions not authorized by the author, owner of related rights or another owner of exclusive rights to works or objects of related rights that control the use of works or objects of related rights. The issues related to the full application of copyright norms in the processes related to the use of works and objects of related rights in the legal documents of telecommunication networks are critically analyzed. The author came to scientific theoretical conclusions on the issues related to the improvement of the relevant legislation and the future legal consequences.

**Keywords:** intellectual property, copyright, telecommunications network, communication network, counterfeit product, information system, copyright agreement.

### Kirish

Telekommunikatsiya tarmoqlarining tez sur’atlarda rivojlanishi hamda ijtimoiy munosabatlarga jadallik bilan kirib kelishi

ijodkorlarni o‘z asarlariga bo‘lgan mutlaq huquqlar muhofazasini yetarli darajada ta‘minlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rishga undamoqda. Ma‘lumki, so‘nggi yil-

larda insonning axborot va ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyoji har qachongidan ham yuqori darajaga chiqqan. Ayniqsa, internet va telekommunikatsiya tarmoqlarining keng rivojlanishi natijasida bu bilan bog'liq jarayonlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda "axborot uzatuvchi" va undan "foydalanuvchi" o'rtasida ushbu axborotni tashkil qiluvchi ma'lumotlar asosan mualliflik huquqi obyektlari hisoblanadi. Aynan ushbu jarayonda telekommunikatsiya tarmoqlari va ularda mualliflik huquqi bilan bog'liq munosabatlarni o'rganish muhim sanaladi.

Zamonaviy qoidalarda telekommunikatsiya deganda elektron ma'lumot va axborotlarni uzatishni ta'minlaydigan har qanday texnologiya, xizmat, tizim yoki manba (resurs) lar tushuniladi. Telekommunikatsiya manbalari ovoz va ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, simsiz xizmatlar, ma'lumotlarni yuqori tezlikda uzatish, telefonlar, tarmoqli serverlar, elektron xabarlarini uzatishda foydalaniladigan xizmat va tizimlar tushuniladi [1]. Ta'kidlash kerakki, telekommunikatsiya tarmoqlari bilan bog'liq jarayonlarni mualliflik huquqi obyektlarining ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bunda o'z navbatida mualliflik huquqi obyektlaridan foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Asarlardan foydalanish hamda ularni fuqarolik muomalasiga boshqacha tarzda kiritish bo'yicha nazoratning huquqiy mexanizmlari sifatida asosan asarlarni shartnoma asosida boshqarish va himoyalashning texnik usulini kiritish mumkin. Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarning deyarli barcha jabhalariga internet va telekommunikatsiya tushunchalari hamda ular bilan bog'liq munosabatlar kirib borganini hamda buni fuqaroviy-huquqiy, jinoiy-huquqiy va ommaviy-huquqiy munosabatlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ta'kidlash kerakki, kompyuter texnologiyalari yordamida axborot almashinuvi bilan bog'liq munosabatlar sabab huquqiy munosabatlarda bir qancha muammolar yuzaga

kelmoqda [2]. "Telekommunikatsiya" atamasi yunon va lotin tillarining o'zaro aralashuvidan kirib kelgan bo'lib, "tele" – yunoncha "uzoqda" va lotincha "communico" – "bo'lishmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu so'zning bugungi kundagi mazmunda foydalanilishi fransuz tilidan kirib kelgan va 1904-yilda fransuz muhandisi va yozuvchisi Eduard Estone tomonidan muomalaga kiritilgan [3].

Agarda mamlakatimizdagi norma ijodkorligi jarayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u xoh jinoyat, xoh fuqarolik qonunchiligi bo'lsin, oxirgi kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar aynan telekommunikatsiya tarmoqlari bilan bog'liq. Xususan, buni 2006-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida ham ko'rish mumkin. Mazkur qonunning oldingi tahririda "barchaning e'tiboriga yetkazish" atamasi mavjud bo'lmagan. Ma'lumki, barchaning e'tiboriga yetkazish – asarlarni yoki turdosh huquqlar obyektlarini simlar yoki simsiz aloqa vositalari orqali telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanuvchilar o'z tanloviga ko'ra istalgan joyda va istalgan vaqtda foydalana olishi uchun yuborishdir. Mazkur qonunning oldingi tahririda bu kabi tushunchalar mavjud bo'lmagan. Mualliflik huquqida eng muhim jihat mutlaq huquqlarga oiddir. Yuqoridagi qonunning 19-moddasida aynan ushbu huquqlar tasnifi keltirilgan bo'lib, e'tiborli jihati mazkur harakatlarni (tarjima qilish, takrorlash, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish, omma oldida namoyish etish v.h.) barchasini bevosita telekommunikatsiya tarmoqlari yordamida amalga oshirish mumkin.

Ayni ushbu yo'nalishda xalqaro normalarni yaratish bo'yicha ishlar ancha ilgari boshlanganini hamda bugungi kunga kelib O'zbekiston ham sohaga doir bir qator xalqaro shartnomalar a'zosi ekanligini qayd etish lozim. Xususan, 1996-yilda Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (BIMT) muallif va

huquq egalarining asarlarini raqamli muhitda himoyasini ta'minlash maqsadida BIMTning mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi hamda BIMTning ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasini qabul qildi [4]. Ma'lumot o'rnida qayd etish lozimki, O'zbekiston 2019-yil 16-fevralda yuqoridagi ikkita xalqaro shartnomaga qo'shilgan. Qaysidir mazmunda mamlakatimizda internetda mualliflik huquqi buzilishiga qarshi kurashishni ushbu davr bilan bog'lash mumkin. Odatda biron-bir sohada qonun qabul qilinsa yoki ushbu yo'nalishdagi xalqaro shartnomaga qo'shilish davri tegishli soha bo'yicha faoliyatning boshlanishi hisoblanadi. Masalan, 2013-yilda Rossiya Federatsiyasida axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida intellektual mulkka doir qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritildi hamda ushbu qonun "qaroqchilikka qarshi qonun" degan nom oldi va 2013-yil Rossiyada Internet tarmog'ida mualliflik huquqiga qarshi kurash boshlangan davr sifatida tarixga kirdi [5].

BIMTning mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasining 11-moddasiga ko'ra, ahdlashuvchi tomonlar mazkur shartnoma yoki Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi bo'yicha o'z huquqlarini amalga oshirish munosabati bilan mualliflar foydalanadigan mavjud texnik vositalarni chetlab o'tishdan va o'z ijodiga ruxsat bermagan harakatlarni cheklashga qaratilgan tegishli huquqiy himoya va samarali vositalarni ta'minlaydilar. Aynan ushbu mazmundagi norma turdosh huquq subyektlari bo'lgan ijrochilar va fonogramma tayyorlovchilarga nisbatan qo'llanishi bo'yicha BIMTning ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasining 18-moddasidan o'rin olgan [6].

#### **Material va metodlar**

Tadqiqot doirasida huquqiy fanlarda ilmiy metodlar bo'lgan ilmiylik, xolislik, taqqoslash, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduksiya hamda boshqa metodlardan foydalanilgan.

#### **Tadqiqot natijalari**

Ahamiyatlisi, mamlakatimizning "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni 63-moddasida ham asarlarni himoya qiluvchi texnik vositalar haqida so'z yuritilgan. Xususan, "asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi, muallif, turdosh huquqlar egasi yoxud asarlarga yoki turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarning boshqa egasi tomonidan ruxsat etilmagan harakatlarni amalga oshirilishining oldini oluvchi yoki ularni cheklovchi har qanday texnik qurilmalar yoxud ularning tarkibiy qismlari mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnik vositalar deb e'tirof etiladi". Aynan ushbu normani Rossiya Federatsiyasining mualliflik huquqiga doir qonunining 481-moddasida ham ko'rishimiz mumkin [7].

Yuqoridagi kabi texnik vositalardan chetlab o'tishga harakat qilishni cheklashga qaratilgan qoidalar BIMTning yuqoridagi "internet shartnomalari"ni imzolagan davlatlar milliy qonunchiligidan o'rin olgan. Dastlab AQSh ushbu qoidani o'z qonunchiligiga kiritgan bo'lib, 1998-yildagi mualliflik huquqi qonunidan, 2001-yilda esa mualliflik huquqi bo'yicha Yevropa Ittifoqi direktivasidan o'rin olgan. AQShda mazkur cheklovni buzgan shaxslar fuqarolik va jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Yuqoridagi ikki xalqaro hujjatning "internet shartnoma" deb yuritilishiga asosiy sabab aynan ushbu tarmoqning keng taraqqiy etishi va ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga kirib borishi bilan bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan ham XX asrning 90-yillariga kelib, mualliflik huquqini nafaqat boshqa telekommunikatsiya tarmoqlarida, balki internetda ham muhofaza qilish zaruriyati paydo bo'ldi. Shu o'rinda telekommunikatsiya tarmoqlari sirasiga qaysi aloqa-axborot texnologiyalari kirishini ta'kidlash joiz. Bular:

- kompyuter tarmoqlari;
- telefon tarmoqlari;
- radio tarmoqlar;

- televizion tarmoqlar.

Yuqoridagi “internet shartnoma”larning qabul qilinishi muallif va huquq egalari muhim himoya vositalari berish orqali ularning mutlaq huquqlari mustahkamlanishiga erishildi [8]. Ushbu qoidadan foydalangan holda mualliflar o‘z asarlariga nisbatan turli darajadagi himoyaning texnik usullarini qo‘llay boshlashdi. Intellektual mulkda, xususan, mualliflik huquqida doimiy ikkita qarama-qarshi fikr mavjud bo‘lib, ulardan biri intellektual mulkda mutlaq huquqdan to‘laqonli foydalanish tarafdori bo‘lsa, ikkinchi toifa esa intellektual mulk jamiyat tomonidan foydalanish uchun ochiq bo‘lishi kerak degan fikrni ilgari surishadi. Shuningdek, ikkinchi toifa vakillarining fikriga ko‘ra, himoyaning texnik vositalari tijoriy nusxa ko‘chirish uchun kuchsiz bo‘lib, aksincha, ilmiy-tadqiqot yoki shaxsiy maqsadda foydalanish uchun qattiq cheklovlarni qo‘ygan. Ushbu fikr tarafdorlari ko‘rish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun cheklovlar jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini, bu orqali esa ularning ilm olishga, madaniyat va san‘at yutuqlaridan foydalana olmasligini keltirib chiqarishini ta’kidlashadi. Biroq qayd etish lozimki, BMT tomonidan ayni shu maqsadda 2013-yil 27-iyunda Ko‘zi ojiz, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan va bosma axborotni idrok etishda boshqa jihatdan qobiliyati cheklangan shaxslarning nashr etilgan asarlardan foydalanishini yengillashtirish to‘g‘risidagi Marokash shartnomasi qabul qilgan.

O‘zbekistonda intellektual mulk huquqiga doir so‘nggi paytlarda qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida ushbu sohaning telekommunikatsiya tarmog‘i bilan aloqadorligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-221-son qarorida ham telekommunikatsiya sohasida mualliflik va turdosh huquqlarni muhofaza qilish bo‘yicha quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi:

- O‘zkomnazorat Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2022-yil 1-oktabrga qadar internetda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan veb saytlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oluvchi Mualliflik va turdosh huquqlar sohasidagi qonunbuzilishlar reyestri axborot tizimini ishga tushirish;

- veb saytlar tomonidan mualliflik va turdosh huquqlar tizimli ravishda buzilishi isbotlangan taqdirda O‘zkomnazorat Adliya vazirligining xulosasi asosida mazkur veb saytlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qonunbuzilishlar reyestriga kiritadi va uning ko‘rsatmasiga muvofiq Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ushbu veb saytlar faoliyatini mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzuvchi xatti-harakatlar bartaraf etilmaguniga qadar cheklash;

- 2022-yil 1-maydan boshlab Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining fonogrammalar va audiovizual asarlarni tarqatishda mualliflik huquqi himoyasini ta‘minlash bo‘yicha qonunchilikka rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini to‘liq O‘zkomnazoratga o‘tkazish;

- Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti ko‘magida Adliya vazirligi hamda O‘zkomnazorat faoliyatida “WIPO Alert” onlayn platformasidan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Bugungi kunda O‘zbekiston oldida noqonuniy kontentni cheklash tartibi bilan bog‘liq muammo, ya‘ni qaysi bosqichda va qanday tartiblar asosida ushbu jarayoni amalga oshirish turibdi. Mualliflik huquqi sohasidagi taniqli mutaxassis Iri Stamatoudi internet tarmog‘ida mualliflik huquqini himoya qilish bo‘yicha “*ex post*” (postfaktum) (kontentni yo‘qotish orqali hisob yozuvini yoki shaxsiy ma‘lumotlarni yopish), sud yoki ma‘muriy, yoki “*ex ante*” (kontentni filtratsiya qilish yordamida) tartibida huquq egasining

arizasiga muvofiq, ya'ni oldindan cheklanish holati ham mavjud [9].

Yuqoridagi qarorda mualliflik huquqini internet va telekommunikatsiya tarmoqlarida muhofaza qilishga doir muhim jihatlar o'rin egallagan bo'lib, ushbu vazifalar o'zining ahamiyatiga ko'ra juda ham dolzarb hisoblanadi.

Telekommunikatsiya va mualliflik huquqi tushunchasidan bitta kontekstda foydalanish huquqiy oqibatni keltirib chiqarishi nuqtayi nazaridan juda ahamiyatli hisoblanadi. Buni quyidagi idoraviy hujjatni tahlil qilish orqali ham anglab yetishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalari"ning 229-qismini tahrir qilish maqsadga muvofiq. Zero, unga ko'ra, eshittiruvchi dasturlarini tarqatish (translyatsiya, retranslyatsiya qilish) va sotish, shuningdek olingan dasturlarni tarqatish (translyatsiya, retranslyatsiya qilish) va sotish faoliyatini xususiy yoki alohida mualliflik shartnomalari asosida amalga oshirishi belgilangan [10]. Mualliflik huquqi yo'nalishidagi qonun hujjatlari va doktrinal manbalarga tayanadigan bo'lsak, "mualliflik shartnomasi" va "muallifning roziligi (ruxsati)" tushunchalariga duch kelamiz. Xususan, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunning 19-moddasi, shuningdek turdosh huquqlarga doir qismi (masalan, 47-, 50-moddalari)da o'z aksini topgan. Amaliyot ham ayni ushbu tushunchalar negiziga asoslangan. Rozilik (ruxsat) oddiy yozma shaklda bo'lishi va unda "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunning 19-moddasida keltirilgan mulkiy harakatlardan biri, bir qanchasi yoki hammasiga ham foydalanishga ruxsat berish nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. "Mualliflik shartnomasi" esa "Mualliflik huquqi

va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 38–39-moddalarida keltirilgan talab va shartlarga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim. Shunga muvofiq, yuqoridagi qoidalarining 229-qismiga mualliflik shartnomalari yoki muallifning roziligi asosida amalga oshirish lozim degan tushunchalarni kiritish zarur. Shu bilan birga, ushbu qoidalarining 304-bandi ikkinchi xatboshisida eshittiruvchi o'z faoliyatini qonunchilik hujjatlari va telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalari asosida hamda mualliflik shartnomalari amalga oshirilishi belgilangan. Xuddi yuqoridagi kabi mualliflik huquqi bilan bog'liq harakat faqatgina shartnomalar bilan cheklanmaydi, shuningdek mualliflik shartnomasi tushunchasi, unda ishtirok etayotgan ikki tarafning (muallif va foydalanuvchi) huquq va majburiyatlari bilan bog'liqligi sababli tor tushuncha bo'lib, u o'zida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bilan bog'liq barcha harakatlarni qamrab olmaydi. Shu sababli ham mazkur qoidalarda mualliflik huquqi bilan bog'liq harakatlarni aniq va batafsil yozish lozim. Zero, har bir harakat muallif (huquq egasi)ning mutlaq huquqlari bilan bog'liqdir.

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Telekommunikatsiya tarmoqlarida na faqat mualliflik huquqini ta'minlash, balki ushbu sohani rivojlantirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda ushbu tarmoqlardan keng foydalanish, undagi axborot xavfsizligini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, so'nggi yillarda O'zbekistonda ham axborot xavfsizligini ta'minlash, zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlarini ijtimoiy hayotga keng targ'ib etish borasida zarur amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan, telekommunikatsiya, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasidagi nazorat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ular-

ni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4024-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiya-yasi (O'zkomnazorat) tashkil etildi. Mazkur qaror bilan inspeksiyaning asosiy vazifalari qatoriga ilk marotaba fonogrammalar, audiovizual asarlar, EHM uchun dasturlarni tarqatishda mualliflik huquqlariga rioya etilishi bo'yicha vakolatlar (o'rganish, monitoring qilish, tekshirish, xulosalar tayyorlash) hamda internet tarmog'ida mualliflik huquqi obyektlari noqonuniy tarqalishini (barchaning e'tiboriga yetkazilishini) bartaraf etish choralarini ko'rish kiritildi. Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-sentabrdagi PQ-4452-son qarori bilan yuqoridagi inspeksiya faoliyati qaytadan tashkil etildi. O'zkomnazoratga qo'shimcha vazifa sifatida axborot tizimlari va resurslarini yaratish hamda xavfsiz ma'lumot almashishni ta'minlash belgilandi. Shu o'rinda xavfsizlik atamasini nafaqat texnik, balki mualliflik huquqi yo'nalishi jihatidan ham tushunish maqsadga muvofiq. O'zkomnazoratga o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda huquqiy ta'sir choralarini qo'llash vakolatini berish lozim. Zero, bugungi kunda internet tarmog'ida intellektual mulk, xususan, mualliflik huquqi obyektlaridan ruxsatsiz foydalanish juda ham ko'p.

Hozirgi kunda axborot uzatuvchi tarmoqlardan foydalanish doirasi juda ham kengayib bormoqda. Bu yo'nalishda albatta xavfsizlik va himoya nuqtayi nazaridan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish talab etiladi. Huquqni himoya qilish uning muhofaza qilinishi va ta'minlanishining eng muhim omillaridan biridir. Amaliyotga ko'ra, har qanday huquq himoya mexanizmi bilan mustahkamlangan bo'lsagina, uni amalga oshirish mumkin [11]. Umuman olganda, O'zbekistonda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini

ta'minlash bo'yicha aniq o'ylangan va mustahkam davlat siyosatini ishlab chiqish talab etiladi [12].

### **Xulosalar**

Telekommunikatsiya tarmoqlarida mualliflik huquqini himoya qilishni yanada takomillashtirish bo'yicha ishlarni xalqaro standartlar asosida yuritish uchun O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirish lozim:

- virtual muhitda asarlardan foydalanish uchun shartnomaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va keng joriy etish;

- mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish institutini takomillashtirish;

- mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini huquqiy muhofaza qilishning yangi tartiblarini (blokcheyn) joriy etish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini bajarish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini yaratish.

Shu bilan birga, Jinoyat kodeksida mualliflikning o'zlashtirilgani uchun hamda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning buzilganligi uchun alohida moddalarni kiritish lozim. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzganlik uchun javobgarlik choralarini oshirish Jahon Savdo Tashkiloti TRIPS bitimining ham talablaridan biri hisoblanadi [13].

Yuqoridagi takliflar bo'yicha ishlarning to'g'ri va tizimli yo'lga qo'yilishi, o'ylaymizki, mualliflik huquqi himoyasini ta'minlashga bu orqali esa ijodkorlar mehnati uchun tegishli haqlarni to'lanishiga hamda mamlakatimizda madaniyat va san'atni rivojlantirishga olib keladi. Shu bilan birga, telekommunikatsiya tarmog'ida mualliflik huquqlari himoyasini ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish hamda O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi tadqiqot ishlari hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ishlarni jadallashtirish zarur ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. Adeka M.I., Shepherd S.J., Abd-Alhameed R.A. Telecommunication Network Security. 2015.
2. Zharova A.K. Informatsiya. Pravovoye regulirovaniye obrasheniya informatsii v Internete [Information. Legal regulation of the circulation of information on the Internet]. Moscow, Institute of State and Law of the RAS, 2006, pp. 197–207.
3. Geht A.B., Komissarova T.S., Moseev V.I., Tsverianashvili I.A. Istoriya svyazi [Communication history]. Federal Communications Agency. Federal State Budgetary Educational Institution of Higher Education, St. Petersburg State University of Telecommunications named after M.A. Bonch-Bruевич. St. Petersburg, 2016.
4. WIPO administered treaties. Available at: <https://www.wipo.int/treaties/en/>.
5. Yakhatin S.A. Zashchita intellektual'nykh prav v informatsionno-telekommunikatsionnykh setyakh [Protection of intellectual rights in information and telecommunication networks]. *Vestnik Rossijskogo universiteta kooperatsii – Bulletin of the Russian University of Cooperation*, 2014, no. 1 (15), pp. 55–59.
6. WIPO agreement on performances and phonograms. Available at: <https://wipolex.wipo.int/en/text/295480/>.
7. About copyright and allied rights. Law of RF from 09.07.1993 N 5351-1, ed. from 20.07.2004. Available at: [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_2238/7ab3351a6763020eaca4d370cca514d2cdf30f69/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_2238/7ab3351a6763020eaca4d370cca514d2cdf30f69/).
8. EU copyright Directive Arts 6 and 7. Available at: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/en/TXT/HTML/?uri=CELEX:32019L0790/>.
9. Yuldashov A., Usmonov V. Copyright protection in telecommunications networks: the example of blockchain technology. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*. Tashkent, 2022, no. 4, pp. 22–29.
10. Stamatoudi I.A. Copyright Enforcement and the Internet. Kluwer Law International, 2010, p. 319.
11. Yuldashov A. Mualliflik huquqini xalqaro doirada muhofaza qilishning muhim jihatlari va shartnomaviy-huquqiy bazani rivojlantirish [Important aspects of copyright protection in the international framework and development of the contractual legal framework]. *Review of Law Sciences*, 2020, p. 231.
12. Yuldashov A. Intellektual mulk bo'yicha milliy strategiyalarning ahamiyati va Butunjahon intellektual mulk tashkilotining bu borada tutgan o'rni [The importance of national intellectual property strategies and the role of the World Intellectual Property Organization in this regard]. *Legal Information*, 2020, no. 1 (2), pp. 53–59.
13. Yuldashov A., Choriyev M. Dogovorno-pravovyye otnosheniya v oblasti avtorskogo prava i otvetstvennosti za narusheniye avtorskogo prava: natsionalnyy i zarubezhnyy opyt [Contractual legal relations in the field of copyright and liability for copyright infringement national and foreign experience]. *Society and Innovation*, 2020, no. 1/s, pp. 511–522.
14. Eurasian Economic Commission. Available at: <http://www.eurasiancommission.org/ru/act/finpol/dobd/intelsobs/Documents/pdf/>.
15. Uktamzhonova M., Xuzhayev Sh. Formy zashchity smezhnykh prav v telekommunikatsiyakh [Forms of protection of related rights in telecommunications]. *Society and Innovation*, 2021, vol. 2, no. 4/S, pp. 34–41.
16. Bobur M. Pravovaya okhrana ob'yektov intellektual'noy sobstvennosti –zalog razvitiya predprinimatel'skoy deyatel'nosti [Legal protection of an object in intellectual property is the key to the development of entrepreneurial activity]. *Review of Law Sciences*, 2020, vol. 2, spec. iss.



UDC: 347.9(045)(575.1)

## TARAFLAR TORTISHUVI VA TENG HUQUQLILIGI: FUQAROLIK ISHLARI BO'YICHA SUDLAR AMALIYOTI

**Esanova Zamira Normurotovna,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy  
protsessual huquqi kafedrası professori,  
yuridik fanlar doktori  
ORCID: 0000-0003-2140-8067  
e-mail: zamira.esanova@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritishda javobgar manfaatlarini himoya qilishning dolzarb protsessual masalalari haqida fikr bildirilgan. Unda javobgar huquq va manfaatlarini himoya qilishning protsessual vositalari sifatida e'tiroz va qarshi da'vo masalalari, ularning bir-biridan o'xshash va farqli jihatlari, mazkur institutlarning sud amaliyotidagi o'рни, ilmiy tadqiqotlardagi munozarali jihatlari, fuqarolik sud ishlarini yuritishda taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi haqidagi fikr-mulohazalar, taklif-tavsiyalar yoritilgan. Shuningdek, taraflarga berilgan teng huquq va imkoniyatlar sifatida sirdan hal qiluv qarori, sud buyrug'i ustidan shikoyat berish tartib-taomillari, da'voni ta'minlash oqibatlarini tugatish bo'yicha javobgarga berilgan protsessual imkoniyatlar haqida fikrlar bildirilgan. Maqolada teng huquqlilik va tortishuvchanlikni ifodalovchi protsessual institutlarning qiyosiy tahlili ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra da'vogar va javobgarga teng huquq va imkoniyatlar berilishi, dastlabki da'vo bilan qarshi da'voning o'zaro bog'liqligi va xususiyatlari ochib berilgan. Bundan tashqari, taraflar bilan bir qatorda ishda ishtirok etuvchi prokuror, vakil (advokat), ekspert, mutaxassis, guvoh va boshqalarning sud muhokamasidagi protsessual huquqiy maqomi, ularning isbotlash jarayonidagi tengligi va tortishuvchanligining muhim ko'rinishlari tadqiq etilgan. Shu bilan birga, maqolada "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuvchanlik prinsiplarini ro'yobga chiqarishning aniq protsessual mexanizmlari haqida taklif-tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik protsessi, sud muhokamasi, da'vogar, javobgar, e'tiroz, qarshi da'vo, protsessual kafolat, protsessual imtiyoz, e'tiroz, shikoyat, da'voni ta'minlash.

### СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТЬ И РАВНОПРАВИЕ СТОРОН: СУДЕБНАЯ ПРАКТИКА ПО ГРАЖДАНСКИМ ДЕЛАМ

**Эсанова Замира Нормуротовна,**  
доктор юридических наук,  
профессор кафедры «Гражданское процессуальное  
и экономическое процессуальное право»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье выражено мнение по актуальным процессуальным вопросам защиты интересов ответчика в гражданском судебном процессе. В ней рассматриваются вопросы возражения и встречного иска как процессуальных средств защиты прав и интересов ответчика, их сходство и различие, роль этих институтов в судебной практике, спорные

аспекты в научных исследованиях, мнения об оспаривании и равноправии сторон при ведении гражданских судебных дел, выделены предложения. Также в качестве предоставленных сторонам равных прав и возможностей были высказаны мнения о процессуальных возможностях, предоставляемых ответчику в отношении вынесения заочного решения, порядке обжалования судебного приказа, прекращения последствий обеспечения иска. В статье представлен сравнительный анализ процессуальных институтов, представляющих равноправные и противную стороны, согласно анализу, истцу и ответчику предоставляются равные права и возможности, также раскрываются взаимосвязь и признаки первоначального иска и встречного иска. Кроме того, исследованы процессуально-правовой статус прокурора, представителя (адвоката), эксперта, свидетеля и других лиц, участвующих в деле наравне со сторонами, важные аспекты их равных прав и обжалования в процессе доказывания. При этом в рамках Стратегии развития в статье представлены предложения о конкретных процессуальных механизмах реализации принципов реального равноправия и обжалования сторон в судебном процессе.

**Ключевые слова:** гражданский процесс, судебное разбирательство, истец, ответчик, возражение, встречный иск, процессуальная гарантия, процессуальная привилегия, возражение, жалоба, обеспечение иска.

## THE ADVERSARIAL NATURE AND EQUALITY OF THE PARTIES: JUDICIAL PRACTICE IN CIVIL CASES

**Esanova Zamira Normurotovna,**  
Professor of the Department of Civil  
and Economic Procedural Law,  
Tashkent State University of Law,  
Doctor of Law

**Abstract.** This article expresses an opinion on topical procedural issues of protecting the interests of the defendant in civil litigation. It deals with the issues of objection and counterclaim as procedural means of protecting the rights and interests of the defendant, their similarities and differences, the role of these institutions in judicial practice and controversial aspects in scientific research. Opinions on contestation and equality of the parties, parties in the conduct of civil litigation, and proposals related to this issue are highlighted. Also, as equal rights and opportunities are granted to the parties, opinions were expressed on the procedural opportunities provided to the defendant in relation to the issuance of a default judgment, the procedure for appealing a court order, and the termination of the consequences of securing a claim. The article presents a comparative analysis of procedural institutions representing equality and the opposite side, according to which the plaintiff and the defendant are given equal rights and opportunities, and the relationship and features of the initial claim and the counterclaim are revealed. In addition, the procedural and legal status of the prosecutor, representative (lawyer), expert, witness, etc., participating in the case on an equal level with the parties, important aspects of their equality and appeal in the process of proof have been studied. At the same time, within the framework of the Development Strategy, the article presents proposals on specific procedural mechanisms for implementing the principles of real equality and appealing to the parties in a lawsuit.

**Keywords:** civil process, trial, plaintiff, defendant, objection, counterclaim, procedural guarantee, procedural privilege, objection, complaint, securing a claim.

### Kirish

*Mavzuning dolzarbligi.* Fuqarolik protsessual huquqi, nazariya va amaliyoti, xususan, fuqarolik sudlov amaliyoti fuqarolik prot-

sessual huquqiy munosabatning muhim subyektlari bo'lgan taraflar (da'vogar va javobgar)ning huquq va manfaatlari tengligini ilgari suradi. Garchi nizolashuvchi subyekt-

lar manfaatlari bir-biriga to‘qnash kelsa-da, nizoni hal qilish imkoniyati faqat bir taraf foydasiga chiqarilishi mumkin bo‘lsa-da, protsessual harakatlarni amalga oshirishda teng huquq va imkoniyatlar berilgan. Hattoki protsessual kodeksda ayrim protsessual imtiyozlar ham mustahkamlangan. Mazkur imkoniyat va imtiyozlar respublikamiz siyosatidagi muhim va ustuvor qoida bo‘lgan “Inson qadri uchun” prinsipining amaldagi isbotidir.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining II bo‘limi “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” (13–20-maqсадlar o‘rin olgan) deb nomlanib, jumladan, aynan fuqarolik sudlov faoliyatiga tegishli bo‘lgan jihatlari ichida “Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro‘yobga chiqarish” masalasi qayd etilgan.

Yana shunisi e‘tiborliki, 2022-yil 14-noyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev odil sudlovni ta‘minlash borasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi va shunday dedi: “Sudlar faoliyati avvalo inson taqdiriga, barcha sohalar tartibi va taraqqiyotiga daxldor masaladir. Shuning uchun ham mamlakatimizda sudlar mustaqilligini mustahkamlash, ishlarni ko‘rishda xolislik, adolat va qonuniylikni ta‘minlash choralarini ko‘rilmoqda”. So‘ng “...Sudlarda tortishuv muhitini shakllantirish...” vazifasini takror-takror eslatdi [1].

Haqiqiy tenglik nimalarda ko‘rinadi, uni qanday mexanizmlar orqali ko‘rsatish mumkin? Fuqarolik protsessual kodeksida tenglik tushunchasi va prinsipi bor-ku, degan savol tug‘ilishi tabiiy, ammo ish bo‘yicha xolislik va adolatni ta‘minlash, qonuniy, asosli va adolatli sud hujjatlari chiqarish maqsadida, shuningdek, protsess ishtirokchilarining tengligi prinsipini yanada kuchaytirish, ularning maqomini suiiste‘mol qilmaslik, o‘zaro teng faoliyat ko‘rsatishlariga imkoniyat va sharoit yaratish maqsadida ushbu

prinsip yana bosh vazifa sifatida belgilandi. Odil sudlov siyosatini takomillashtirishning o‘tgan 30 yildagi bosqichlarida, xususan, Harakatlar strategiyasi va undan keyingi Taraqqiyot strategiyasi yo‘nalish va maqsadlarida mavjud edi. Chunki adolatni ko‘rsatuvchi bu prinsipning maqsadi va vazifasi amalda to‘laqonli tatbiq etilmas ekan, bot-bot takrorlanaveradi va yangi normalar orqali yanada takomillashaveradi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud majlisi jarayonida taraflar (da‘vogar, javobgar, uchinchi shaxs, ularning vakillari va boshqa protsess ishtirokchilarining) tengligi hamda ularning isbotlash subyekti sifatidagi o‘rni, maqomi, sud majlisida tortishuvchanlik prinsipining amaldagi ko‘rinishi ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga yordam beradi.

#### **Material va metodlar**

Mantiqiy va qiyosiy tahlil, statistik tahlil, analiz va sintez, sotsiologik, tizimli tahlil, fundamental yondashuv.

*Maqolada ikki vazifa ustuvorligi belgilandi:*

- Birinchi, Taraqqiyot strategiyasining 15-maqсадida ifodalangan “Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro‘yobga chiqarish” vazifasining maqsadi va mazmun-mohiyatini ochib berish.

- Ikkinchi, fuqarolik sud ishlarini yuritishning barcha toifalarida ishda ishtirok etuvchi shaxslar, xususan, taraflarning tengligi va tortishuvchanligi prinsipining protsessual shakllarini ilmiy-nazariy tahlil etishga qaratildi.

#### **Tadqiqot natijalari**

Fuqarolik protsessual kodeksining 10-moddasiga binoan fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi. Taraflarning teng huquqliligi prinsipi javobgarning berilgan da‘vodan himoyalani huquqini kafolatlaydi. Ushbu prinsip sudda ishtirok etayotgan bir necha da‘vogar va bir necha javobgarga nisbatan tatbiq etiladi.

Mazkur kafolatlar aynan quyidagi protsessual harakatlarda ifodalanadi [2, 87–89-b.]:

- da’vogar va javobgarga teng huquq hamda imkoniyatlar berilishi;

- da’vogar va javobgarga teng imtiyozlar berilishi;

- vakil va prokurorga teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilishi;

- da’voga qarshi e’tiroz bildirish va qarshi da’vo berish vositalari;

- sirdan ish yuritish tartib-taomillari;

- buyruq tartibida ish yuritish tartib-taomillari;

- da’voni ta’minlash oqibatlarini bartaraf etishda va boshq.

Da’vogar va javobgarga teng huquq va imkoniyatlar berilishi quyidagilarda ko’rinadi:

- da’vogarning da’vo arizasi bilan murojaat qilishi;

- javobgarga da’vo ariza nusxasining yuborilishi;

- dalillar taqdim etishdagi tenglik;

- ishni ko’rish bilan bog’liq chiqimlarni taqsimlashdagi tenglik;

- e’tiroz, iltimosnoma, ariza, qarshi da’vo, qo’shimcha arizalarni berishdagi tenglik;

- tushuntirishlar va savollar berishdagi tenglik;

- vakillarni jalb qilishdagi tenglik;

- protsessual institutlardan (dalillarni ta’minlash, da’voni ta’minlash, sud topshirig’i, videokonferensaloqadan foydalanish va boshq.);

- ish ko’rishni keyinga qoldirish, ish ko’rishni to’xtatib turish va boshqalardagi tenglik;

- sud hujjatlari nusxalarini olishdagi (yetkazishdagi) tenglik;

- shikoyat berishdagi tenglik;

- da’voni ta’minlash oqibatida javobgarga yetkazilgan zararni undirishdagi tenglik.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Sud jarayonida da’vogar ham, javobgar ham keltirilgan talablar, taqdim etilgan dalillarga nisbatan moddiy yoki protsessual huquqiy e’tiroz bildirishi mumkin.

Aynan da’voga qarshi himoyalanişning subyekti faqat javobgar va uning vakili bo’la

olishi nazarda tutilgan bo’lib, “da’voga qarshi e’tiroz bildirish” tushunchasi mazmunida da’vo talabi, uning hajmi va doirasi, da’vo asosiga nisbatan e’tirozlar mavjud deb baholash mumkin.

Da’voga qarshi e’tiroz bildirish ikki turga, ya’ni moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy e’tirozga ajratiladi. E’tirozning maqsadi sud tomonidan da’voni to’liq yoki qisman qanoatlantirishni rad etishga erishishga qaratilgan [3, 176–177-b.]

Moddiy-huquqiy ma’nodagi e’tiroz – nizoli talab vujudga kelgan moddiy-huquqiy munosabatga tegishli bo’lib, aynan da’vo talablariga qarshi yo’naltirilgan bo’ladi va bunday e’tirozlar moddiy huquq normalariga havola berish orqali asoslantiriladi.

Masalan, moddiy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qator kodekslardagi normalarga (talabga, da’vo talabiga) nisbatan e’tiroz bildirish, rad etish, qo’shimmaslik harakatlari ifodalanadi. Da’vo talabiga e’tiroz, da’vo talabi miqdoriga e’tiroz. Shartnomani haqiqiy emas deb topish, bekor qilish yoki muayyan bandlariga o’zgartirish kiritish. Yoxud yetkazilgan zarar miqdorini (bahosini) o’zgartirish kabi e’tirozlar.

Protsessual-huquqiy ma’nodagi e’tiroz – nizoli talabni hal qilishga qaratilgan, protsessual qonun hujjatlarida ko’rsatilgan protsessual harakatlarga nisbatan vujudga kelib, aynan sud jarayonining borishi, amalga oshirilayotgan protsessual harakatlarga qarshi yo’naltirilgan bo’ladi.

Masalan, ish yuritishni tugatish asoslari bo’yicha e’tiroz (ayni bir taraflar o’rtasidagi, ayni bir predmet to’g’risidagi va ayni bir asoslar bo’yicha chiqqan nizo yuzasidan sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki da’vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishini qabul qilish to’g’risidagi yoxud taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash to’g’risidagi ajrimi mavjud bo’lsa; taraflar o’rtasida ushbu nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish haqida hakamlik bitimi tuzilgan bo’lsa va boshq.); arizani ko’rmas-

dan qoldirish asoslari bo'yicha e'tiroz (manfaatdor shaxs nomidan arizani ish yuritishga vakolati bo'lmagan shaxs bergan bo'lsa; sud ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan ish yuritayotgan bo'lsa va boshq); da'vo talablarini birlashtirish yoki ajratishga e'tiroz yoki qarama-qarshi taraf iltimosnomalarini rad etish yoki qanoatlantirishga nisbatan e'tiroz va boshq.

Ta'kidlash kerakki, e'tiroz sud jarayonida og'zaki yoki yozma bildirilishi mumkin. Ammo uning shakliga qo'yilgan talablar belgilanmagan. Biroq har qanday e'tiroz sud majlisi bayonnomasida rasmiylashtiriladi. E'tirozni nafaqat javobgar, balki ishda qatnashayotgan da'vogar, uning vakili (advokati), shuningdek, ish holatiga, isbotlash vositalariga ko'ra ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ham berishi (bildirishi) mumkin. Shu jihati bilan qarshi da'vodan farqlanadigan tomonlari mavjud.

Bu borada protsessual qonun hujjatlari-da, jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksining 39-moddasiga ko'ra, taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb tan olinadi. Shunga ko'ra ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida Fuqarolik protsessual kodeksining 40-moddasiga binoan taraflar boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish huquqiga egadirlar.

Fuqarolik protsessual kodeksining 44-moddasiga ko'ra, taraflar protsessual huquqlardan teng foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar. Mazkur qoidaning isboti sifatida dastlabki da'voga nisbatan e'tiroz va qarshi da'vo berish masalalarini ko'rsatish mumkin.

Fuqarolik protsessual kodeksining 199–200-moddalari qarshi da'vo taqdim etish institutiga bag'ishlangan. Protsessual

kodeksda qarshi da'voni taqdim etish hamda qarshi da'voni qabul qilish shartlari ko'rsatilgan. Qarshi da'voning subyekti dastlabki da'voga qarama-qarshi talab qo'yayotgan shaxs sanaladi. Asosan bunday talab bilan javobgar(lar) murojaat qiladi hamda qarshi da'voni taqdim etish huquqi javobgar(lar) ning asosiy dispozitiv (erkin, mustaqil huquq) huquqlaridan biri sanaladi.

Qarshi da'vo mustaqil da'vo sifatida rasmiylashtiriladigan, o'z huquq va manfaatlari-ni himoya qilish maqsadida javobgar tomonidan da'vogar boshlagan protsessda dastlabki da'vo bilan birga ko'rib chiqilishi uchun hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar berilgan talab sanaladi [3, 177–178-b.].

Qarshi da'vo berishdan maqsad da'vogar tomonidan berilgan dastlabki da'vo talabiga nisbatan himoyalani, ishning haqiqiy holatini ochish, ishning tez va to'g'ri ko'rilishini ta'minlash, ish bo'yicha kam xarajat sarflab, vaqtni tejash, qarama-qarshi manfaatli hal qiluv qarorlari chiqarishning oldini olishga qaratilgan.

Qarshi da'vo shunchaki javobgarning da'vogarga nisbatan beradigan oddiy da'vo-si yoki e'tirozi emas, balki da'voga qarshi himoyalani vositasidir.

Javobgar da'vogarning talabini to'liq yoki qisman tan olishga, qarshi da'vo taqdim etishga haqli.

Sud tomonidan ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqarilguniga qadar javobgar dastlabki da'vo bilan birgalikda ko'rib chiqish uchun da'vogarga nisbatan qarshi da'vo taqdim etishga haqli.

Fuqarolik protsessual kodeksining 200-moddasida qarshi da'voni qabul qilish shartlari ko'rsatilgan bo'lib, sudya quyidagi hollarda qarshi da'voni qabul qilishi shart, agar:

1) qarshi da'vo dastlabki da'voni qoplashga qaratilgan bo'lsa;

2) qarshi da'voning qanoatlantirilishi dastlabki da'voning qanoatlantirilishini butunlay yoki qisman istisno etsa;

3) qarshi va dastlabki da’vo o’rtasida o’zaro bog’lanish mavjud bo’lsa hamda ularni birgalikda ko’rish nizoning tezroq va to’g’ri ko’rib chiqilishiga yordam bersa.

Qarshi da’voni qabul qilish uchun yuqorida keltirilgan uchta asosdan birining bo’lishi yetarli sanaladi.

Qarshi da’voning xususiyatlari quyidagilarda ko’rinadi [3, 177–179-b.]:

- da’vo predmeti va asosiga ega ekanligi;
- da’vo arizalariga qo’yilgan talablar asosida rasmiylashtirilishi;
- qarama-qarshi taraflar manfaatlarini to’qnashuvining vujudga kelishi;
- da’vogar talabiga nisbatan javobgar talabining qarshi qo’yilishi;
- boshlangan protsessga nisbatan taqdim etilishi;
- dastlabki da’voning sudlovligiga asoslanishi;
- hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar berilishi;
- dastlabki da’vo bilan birgalikda ko’rilishi;
- qarshi da’voni qabul qilishga qo’yilgan asoslardan birining qanoatlantirilishi;
- qarshi da’vo taqdim etilganda, ish muhokamasi keyinga qoldirilishi.

Dastlabki da’vo bilan qarshi da’voning o’zaro bog’liqligi quyidagilarda ko’rinadi:

- da’vo predmeti bo’yicha;
- da’vo asosi bo’yicha (*masalan, aliment undirish to’g’risidagi ishlarda javobgar bolaning otasi ekanligi; bolaning nikohda tug’ilganligi; otaning bolaga nisbatan aliment to’lamayotganligi;*

- nizoni vujudga keltiruvchi moddiy huquqiy munosabat bo’yicha (*masalan, dastlabki da’vo nikohdan ajralish to’g’risida, qarshi da’vo esa nikoh davomida orttirilgan mol-mulkni bo’lish haqida berilgan*).

Masalan, da’vogar S. Mamajonovning javobgarlar Shodiyev Rustam Djurayevich, Shodiyeva Gulchexra Azimovna, Shodiyeva Lola Rustam qizi, Shodiyeva Nozima Rustam qizi va Shodiyev Suxrob Rustam o’g’liga nisbatan uy-joydan boshqa turar joy bermasdan

ko’chirish haqidagi da’vo arizasi, Shodiyev Rustam Djurayevich va Shodiyeva Gulchexra Azimovnalarning javobgar Mamajonov Sobirga nisbatan uy-joyga nisbatan yashash va foydalanish huquqini belgilash haqidagi qarshi da’vo arizasi yuzasidan fuqarolik ishlari bo’yicha Mirobod tumanlararo sudi tomonidan hal qiluv qarori chiqarilgan.

Fuqarolik protsessual kodeksi (282-moddada)da sirdan ish yuritish tartibi maxsus (ishtinoliklar) belgilangan bo’lib, unga ko’ra:

- Ish sirdan ish yuritish tartibida ko’rilganida sud ishdagi mavjud dalillarni tekshirish bilan kifoyalanadi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vajlari va iltimoslarini e’tiborga olib, sirdan hal qiluv qarori chiqaradi.

- Da’vogar tomonidan da’voning predmeti yoki asosi, da’vo talablari miqdori o’zgartirilganda, sud mazkur sud majlisida ishni sirdan ish yuritish tartibida ko’rishga haqli emas.

- Ishni ko’rish davomida da’vo arizasidagi da’vo predmeti yoki asosi, da’vo talablari miqdori o’zgartirilsa, bu holda javobgarga arizani topshirish uchun keyinga qoldiriladi.

Agar sud majlisiga kelmagan javobgardan ishni uning ishtirokisiz ko’rish haqida ariza kelib tushsa, ish sirdan ish yuritish tartibida emas, umumiy tartibda ko’rilishi lozim [4, 29–33-b.].

Fuqarolik protsessual qonunchiligida sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko’rishning o’ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunda ham da’vogarning, ham javobgarning manfaatlarini e’tiborga olinib, shikoyat berish (protest keltirish)ning turli usullaridan foydalanish huquqi kafolatlangan.

Fuqarolik protsessual kodeksining 285-moddasiga asosan, javobgar hal qiluv qarorini sirdan chiqargan sudga shu hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin 15 kun ichida uni qayta ko’rish haqida ariza berishga haqli.

Sud ishdan ishtirok etuvchi shaxslarni sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko’rib chiqish to’g’risidagi arizani ko’rib chiqish vaqti va joyi haqida xabardor qiladi,

ularga ushbu ariza va unga ilova qilingan materiallarning ko'chirma nusxalarini yuboradi.

Qonunchilik normalari taraflarga o'z vaqtida tegishli tartib-qoidalar asosida sud hujjatlari yetkazilishini ta'minlaydi. Ushbu normaning maqsadi:

- taraflarning protsessual tengligini ifodalaydi;

- taraflarga sud hujjatlari nusxalari o'z vaqtida yetkazilishini kafolatlaydi;

- sud hujjati bilan o'z vaqtida tanishish, e'tiroz va shikoyatlarini o'z vaqtida berish imkoniyatini ta'minlaydi.

Sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza shu hal qiluv qarori chiqargan sudga faqat javobgar tomonidan beriladi. Ushbu normada arizada ko'rsatilishi lozim bo'lgan talablar berilgan.

Arizani nafaqat javobgar, balki uning vakili ham berishi va imzolashi mumkin. Bu tartib ham javobgar manfaatlarini himoya qilishning bir usuli sanaladi.

Sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza u kelib tushgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida sud majlisida ko'rib chiqiladi. Sud arizani ko'rib chiqib, ajrim chiqaradi. Sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish haqidagi yoki sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinmaydi (protest keltirilmaydi).

Fuqarolik protsessual kodeksida sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish asoslari boshqa alohida moddalarda ko'rsatilmagan. Faqat mazkur normada belgilangan asoslar orqali sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilishga yo'l qo'yiladi. Jumladan:

- tarafning sud majlisiga kelmaganligiga uzrli sabablar borligi aniqlansa;

- bu haqda (uzrli sabablar haqida) sudni o'z vaqtida xabardor qilish imkoniyati bo'lmaganligi aniqlansa;

- taraf tomonidan sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorining mazmuniga ta'sir ko'r-

satishi mumkin bo'lgan dalillarni taqdim qilayotganligi aniqlansa.

Mazkur asoslar sudya tomonidan tekshirilib, ilova hujjatlari asosida aniqlanib, o'z isbotini topsa, sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarori bekor qilinib, ishni mazmunan ko'rib chiqish tiklanishi lozim.

Buyruq tartibida ish yuritish instituti yana ikki yo'nalishda ham o'z afzalliklariga ega, xususan, elektron sudlov tartibini joriy etishda (E-XSUD axborot tizimi orqali) hamda pandemiya sharoitida onlayn murojaatlar va ularni ko'rib chiqishda yaqqol ko'ringdi. Ayniqsa, sud buyrug'i berish to'g'risidagi arizalarni ro'yxatga olish, ularning hisobini yuritish va sud statistik hisobotini tayyorlash kabi harakatlarni avtomatlashtirish amaliyot uchun ham, fuqarolar uchun ham muayyan qulayliklar yaratdi [5, 52–54-b.].

Da'vogarda:

- Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza;

- Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qaytarish haqidagi ariza;

- Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etilganda undiruvchi tomondan to'langan davlat bojini qaytarish to'g'risidagi ariza;

- Sud buyrug'ining yozuvidagi xatolarni va ochiq ko'rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish bo'yicha ariza.

Javobgarda:

- Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risida e'tiroz (ariza).

O'tkazib yuborilgan e'tiroz muddatini tiklash haqidagi ariza berish imkoniyatlari mavjud [6, 177–182-b.].

*Taraflarning tortishuvchanligi.* Ushbu prinsip asosan sud muhokamasi jarayonida vujudga keladi. Mazkur prinsipning ro'yobga chiqarilishi isbotlash va dalillar bilan bog'liq [7, 24–28-b.].

Fuqarolik ishlari bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli sud qarorlari chiqarishning yagona yo'li ish bo'yicha isbotlash jarayonining to'liq va aniq o'tkazilganligi bilan bog'liq. Bu esa bevosita ishning haqiqiy holatini ochish-

ga hamda ishga oid dalillarni har taraflama, to‘liq va xolisona aniqlashga yordam beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ishning yakuni har doim ham ikkala tomon foydasiga hal bo‘lmaydi. Chiqarilgan sud hujjati nizoni hal etish, muammoga yechim berish, ishni adolatli hal etishga qaratiladi. Faqat ikkala tomon manfaatlariga yechim bermaydi va buning imkoni ham yo‘q. Bir tarafning huquq va manfaatlari to‘g‘ri deb topiladi va shu orqali qonun buzilish, huquq buzilish holatlari oldi olinadi.

Biroq sud jarayonida barchaga barobar isbotlash majburiyati va faoliyati berilgan. Har bir protsess ishtirokchisi bu huquqdan foydalana oladi, cheklov yo‘q. Asosiysi, ishning haqiqiy holatini ochishga xizmat qilishi zarur. Masalan, da’vogar va javobgar, vakil va javobgar, da’vogar advokati hamda javobgar va boshqalar. Hattoki ushbu huquqdan protsessual ma’nodagi da’vogarlar sanalgan prokuror, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, uyushmalar va killari ham foydalana oladi. Sud jarayonida da’vogar va ekspert, javobgar va mutaxassis, advokat va guvoh hamda boshqalarning tortishuvchanlik harakatlarini uchratish mumkin [8, 3–6-b.]. Chunki ularning protsessual vakolatlarida bundan foydalanish huquqi va ayrim majburiyatlari belgilangan.

Taraflar birinchi instansiya sudlarida nizoni ixtiyoriy tartibda kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv asosida bartaraf etishlariga protsessual imkoniyatlar berilgan va ushbu mexanizm orqali ish yuritishni tugatishlari yoki da’voni ko‘rmasdan qoldirish haqidagi ajrim chiqarilishiga erishiladi [9, 1785–1793-b.].

### **Xulosalar**

Mazkur institutni tadqiq etish natijalari yuzasidan quyidagi takliflar bildiriladi:

*Birinchi*, sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda ish yangidan ko‘rib chiqilganda qabul qilingan hal qiluv qarori sirtidan qabul qilingan deb tan olinmaydi va javobgar bu hal qiluv qarori sirtidan qabul qilingan qaror sifatida qayta

ko‘rib chiqilishini so‘rab ariza berishga haqli emas. Jumladan, javobgarning sud majlisida ishtirok etmaganligini sirtidan ish yuritish va sirtidan hal qiluv qarori chiqarish asoslari sifatida baholab bo‘lmaydi.

*Ikkinchi*, Fuqarolik protsessual kodeksi-ning “280-modda. Sirtidan ish yuritish asoslari”da javobgarning takroran kelmasligi qoidasi nazarda tutilmagan, ammo “281-modda. Sudga kelgan tarafning huquqlari”da “Tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga takroran kelmasa, sud da’vogarning fikridan qat’i nazar, ishni sirtidan ish yuritish tartibida ko‘radi” deb “takroran” talabi berilgan. Vaholanki, ushbu talab FPKning “280-modda. Sirtidan ish yuritish asoslari”da shartli talab sifatida ko‘rsatilsa, taraflarning protsessual qoidalarga rioya qilishi to‘liq ta’minlanadi.

*Uchinchi*, sud buyrug‘i chiqarish vakolatini sudya katta yordamchisiga o‘tkazish va o‘z navbatida sudya katta yordamchisining huquqiy maqomini kuchaytirish (ma’lumoti, yosh senzi, malaka va tajribasi, benuqson obro‘-e’tibori yuzasidan qo‘yiladigan talablar).

*To‘rtinchi*, sud buyrug‘ini qayta ko‘rish tartibini takomillashtirish (sud buyrug‘i us-tidan faqat qarzdor e’tirozi emas, balki taraflar tomonidan shikoyat keltirish huquqi ham berilishi) va qayta ko‘rish vakolatini sudyaga o‘tkazish taklifi beriladi.

*Beshinchi*, fuqarolik sud ishlarini yuritishda isbotlash subyektlari deganda sud, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar tushuniladi. Fuqarolik protsessual kodeksida (71-modda) mazkur subyektlarning isbotlash jarayonidagi o‘rni va vazifalari o‘ziga xos taqsimlanmagan. Bu holat sud muhokamasida tortishuvchanlik prinsipining amaldagi harakatini biroz cheklaydi. Masalan, mutaxassis, xolis, ashyoviy dalillarni saqlovchilarning isbotlash jarayonidagi faoliyati faol emas.

*Oltinchi*, Fuqarolik protsessual kodeksi-ning “Dalillar”ga oid 8-bobida tan olish, tan



olingan fakt tushunchalari va harakatlari haqida berilishi kerak. Chunki ushbu tushunchalar, xususan, tan olish (sudga qadar, sudan tashqari, sudda) turli shakllarda ifodalanib, sud majlisida asosan ishda ishtirok etuvchi shaxslar, xususan taraflar (uchinchi shaxslar) tomonidan amalga oshiriladigan

harakat, isbotlashdan ozod qiladigan faktlar sanaladi. Shuningdek, tan olish – boshqa shaxslar tomonidan keltirilgan dalillarni (holatlarni) tan olish haqidagi tushuntirishlar. Tan olingan fakt boshqa shaxslarni (boshqa faktlarni) isbotlash majburiyatidan ozod qiladi (FPK 75-modda).

## REFERENCES

1. Sud sohasidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi [Priorities in the judicial sphere were discussed]. 14.11.2022. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/5695/>.
2. Esanova Z.N. Fuqarolik protsessual qonunchiligini rivojlanish tendentsiyalari: yangi protsessual institutlar [Trends in the development of civil procedural law: new procedural institutions]. Tashkent, TSUL, 2022, 117 p.
3. Esanova Z.N. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. General part. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2022, 328 p.
4. Esanova Z.N. Fuqarolik ishlarini sirtidan ko'rib hal qilishning protsessual masalalari [Procedural issues of solving civil cases in absentia]. *Odil sudlov jurnali – Journal of Justice*, 2022, no. 3, pp. 29–33.
5. Esanova Z.N., Yodgorov Kh.B. Uproshchennoye sudoproizvodstvo: sudebnyy prikaz v grazhdanskom protsesse (analiz po zakonodatel'stvu Respubliki Uzbekistan) [Simplified proceedings: court order in civil proceedings (analysis under the legislation of the Republic of Uzbekistan)]. *Polish journal of science*, 2021, no. 42, pp. 52–54.
6. Esanova Z.N. Prikaznoye proizvodstvo (analiz protsessual'nogo zakonodatel'stva Respubliki Uzbekistan) [Mandatory proceedings (analysis of the procedural legislation of the Republic of Uzbekistan)]. *Problemy i perspektivy razvitiya nauki i obrazovaniya v XXI veke – Problems and prospects for the development of science and education in the XXI century*, 2021, pp. 177–182.
7. Esanova Z. Rol' ot del'nykh protsessual'nykh institutov v sudoproizvodstve: na primere grazhdanskikh del [The role of individual procedural institutions in legal proceedings: on the example of civil cases]. *Review of law sciences*, 2018, no. 2, pp. 24–28.
8. Atalykova G., Khabibullaev D. Some issues of improving the procedure for the participation of the prosecutor in the trial. *Norwegian Journal of Development of the International Science*, 2021, no. 62-2, pp. 3–6.
9. Esanova Z. Priority aspects application of the institute of mediation in resolution of disputes: national and foreign experience. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29.5, pp. 1785–1793.
10. Esanova Z.N., Xabibullayev D.Y. Sudga murojaat qilish (tartibini bilib oling) [Applying to court (find out the procedure)]. Tashkent, TSUL, 2020, 50 p.
11. Oila va nikoh munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolar bo'yicha sud amaliyoti [Court practice on disputes arising from family and marital relations]. Tashkent, TSUL, 2017, 275 p.
12. Yodgorov X., Saidmuratov B. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilish tartibi [The procedure for applying to the court on civil cases]. Tashkent, Baktria press Publ., 2017, 208 p.
13. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessi [Civil procedure]. Manual for judges in civil cases. 2nd ed. with additions and changes. Tashkent, Noshirlik yogdusi Publ., 2017, 480 p.
14. Mamasiddiqov M.M., Mirzayev U. Buyruq tartibida ish yuritish [Work in order]. Tashkent, Adabiyot uchqunlari Publ., 2015, 204 p.
15. Mamasiddiqov M.M., Yodgorov X.B., Davletov O'M. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. General part. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, 400 p.

UDC: 342.565(045)(575.1)

## SUDYA YORDAMCHISI (SUD MAJLISI KOTIBI)NING IQTISODIY PROTSESSDAGI HUQUQIY MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xudoynazarov Dadaxon Avaz o'g'li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

tayanch doktoranti

ORCID: 0000-0002-1571-1839

e-mail: dadaxon.xudoynazarov92@mail.ru

***Annotatsiya.** Mazkur maqoladan asosiy tushunchalar, milliy va xorijiy huquqshunos olimlarning sudya yordamchisi va sud majlisi kotibi borasidagi fikr va mulohazalari, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) faoliyatining huquqiy asoslari, sudya yordamchisi va sud majlisi kotibi uchun zarur talablar, ularning odil sudlovni amalga oshiruvchi shaxslar bilan munosabatlari, sud apparati xodimlari borasida fikrlar, sudya yordamchisi va sud majlisi kotibining sud majlisida ishtirok etishi, xorijiy davlatlar tajribasi asosida vazifa va vakolatlari, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ning huquq va majburiyatlari, javobgarligi, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ning vakolatlari va vazifalari, ularga yuklatilishi taklif qilinayotgan qo'shimcha ishlar, vakolat va vazifalarni kengaytirish, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy protsess ishtirokchilari ichida alohida guruh sifatida keltirish, protsessual huquq va muomala layoqati, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ning huquq subyektiligi, sudya yordamchilari (sud majlisi kotibi)sonini oshirish, o'z-o'zini rad qilish asoslari, sud majlisidagi tartib, milliy va xorijiy tajriba, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar o'rin olgan.*

***Kalit so'zlar:** sudya yordamchisi, sud majlisi kotibi, bayonnoma, iqtisodiy protsess, zarur talablar, arbitraj, hakamlik, rad qilish.*

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОГО ПОЛОЖЕНИЯ ПОМОЩНИКА СУДЬИ (СЕКРЕТАРЯ СУДЕБНОГО ЗАСЕДАНИЯ) В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

**Худойназаров Дадахон Аваз угли,**

базовый докторант

Ташкентского государственного юридического университета

***Аннотация.** В данной статье рассмотрены мнения и замечания отечественных и зарубежных ученых-правоведов относительно положения помощника судьи и секретаря судебного заседания, основные понятия, правовые основы их деятельности, необходимые требования к помощнику судьи и секретарю судебного заседания, их взаимоотношения с лицами, осуществляющими правосудие, состав судебного аппарата, участие помощника судьи и секретаря судебного заседания в судебном заседании, их обязанности и полномочия в соответствии с опытом зарубежных стран. Автором предложено конкретизировать полномочия и обязанности помощника судьи (секретаря судебного заседания), а возложение на них дополнительной работы рассматривается как расширение полномочий и обязанностей, кроме того, с учетом отечественного и зарубежного опыта выдвинут ряд предложений по совершенствованию законодательства: на основе выделения специфических признаков,*

отличающих их от лиц, содействующих осуществлению правосудия, выведение их в отдельную группу среди участников экономического процесса с закреплением процессуальных прав и дееспособности, правовой субъектности помощника судьи (секретаря судебного заседания), увеличение численности помощников судьи (секретаря судебного заседания), установление причин самоотвода, порядка участия в судебном заседании.

**Ключевые слова:** помощник судьи, секретарь судебного заседания, протокол, экономический процесс, необходимые требования, арбитраж, третейский суд, самоотвод.

## IMPROVING THE LEGAL STATUS OF THE ASSISTANT JUDGE (SECRETARY OF THE COURT) IN THE ECONOMIC PROCESS

**Khudoynazarov Dadakhon Avaz ugli,**  
Basic Doctoral Student of  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** In this article, the main concepts, opinions and comments of national and foreign legal scholars regarding the assistant judge and secretary of the court session, the legal basis of the activity of the assistant judge (secretary of the court session), the necessary requirements for the assistant judge and the secretary of the court session, their relationship with the persons who implement justice, opinions on the staff of the judicial apparatus, the participation of the assistant judge and secretary of the court session in the court session, duties and powers based on the experience of foreign countries, the rights and obligations of the assistant judge (secretary of the court session), responsibility, the powers of the assistant judge (secretary of the court session) and duties, additional work proposed to be assigned to them, expansion of powers and duties, specific characteristics that distinguish them from persons assisting in the administration of justice, bringing them as a separate group among the participants of the economic process, procedural rights and legal capacity, legal subjectivity of the assistant judge (secretary of the court session), increasing the number of assistant judges (secretary of the court session), reasons for self-refusal, order in the court session were discussed, national and foreign experience were learned, and suggestions were made for improving the legislation.

**Keywords:** assistant judge, judicial court, protocol, economic process, necessary requirements, arbitration, arbitration court, self-withdrawal.

### Kirish

Mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarini hisobga olgan holda mahalliy tadbirkorlar sonini oshirish, respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, huquqiy va boshqa tomondan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, respublikaning iqtisodiy, resurs va investitsion salohiyatini oshirish, investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, barcha sohalarda ichki imkoniyat va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiya, eksportbop tovarlarni

o'zlashtirish, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta'minlash bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi kunda kun sayin tadbirkorlik subyekt (xorijiy investor)lari soni ortib borishi natijasida ular o'rtasidagi nizolar ham ko'payib bormoqda. Bunday nizolar esa iqtisodiy sudlar tomonidan hal qilib kelinmoqda. Iqtisodiy protsessda tadbirkorlik subyekt (xorijiy investor)larining huquq va manfaatlarini ta'minlash hamda ularning sudlarga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) faoliyatini ko'rib chiqish zarur hisoblanadi.

Mazkur maqolada *tadqiqot obyekti* sifatida iqtisodiy protsessda sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) ishtirokiga oid barcha jarayonlar tahlil qilindi.

### **Material va metodlar**

Ushbu maqola doirasida tarixiy, analitik-tahlil, qiyosiy, analogiya, tizimli-funksional, modellashtirish metodlaridan foydalanilgan.

Iqtisodiy protsessual kodeksining 52-moddasiga binoan, **sudya yordamchisi (katta yordamchisi) – sud majlisining kotibi** sudyaning topshirig’i bo’yicha ishlarni sud muhokamasiga tayyorlash uchun zarur bo’lgan harakatlarni amalga oshiradi; ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sud muhokamasining vaqti va joyi haqida xabardor qiladi hamda ularning sudga kelgan-kelmaganini tekshiradi; kelmaganlik sabablarini aniqlashtiradi va bu haqda sudyaga ma’lum qiladi; bajarilayotgan protsessual harakatlar bo’yicha bayonnoma yuritadi; sudyaning sud majlisiga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazish, shuningdek, sud hujjatini ijroga yuborish bilan bog’liq bo’lgan boshqa barcha topshiriqlarini bajaradi. Ushbu moddaning birinchi qismida ko’rsatilgan protsessual harakatlar amalga oshirilayotgan vaqtda sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) sud majlisining kotibi sifatida qatnashadi. Fuqarolik protsessual kodeksi va Jinoyat protsessual kodeksida ham ushbu tushunchalar bir xil tarzda keltirilgan. Oliy Sud rayosati tomonidan tasdiqlanadigan sud bo’g’inlari sud apparati xodimlarining mansab yo’riqnomalarida sudya yordamchisining vazifalari keltirib o’tiladi. Unda asosan kodeksda keltirilgan vazifalardan tashqari texnik ishlar ham batafsil ko’rsatilgan. Jumladan, u sud qarorining xulosa qismi e’lon qilingandan so’ng uni internet tarmog’ida to’liq matn bilan e’lon qilish uchun taraflarning roziligi haqida tilxat olishi va ish hujjatlariga ilova qilishi keltirilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

*Sudya yordamchisi (katta yordamchisi)* – sud majlisi kotibining ishtiroki bo’yicha

huquqshunos olimlar fikrlari tahlil qilinadi, sudya yordamchisi faoliyatiga oid tushunchalar yoritiladi va mualliflik ta’rifi keltiriladi. Shundan kelib chiqib, taklif va tavsiyalar beriladi.

Iqtisodiy sudning mansabdor shaxslari, sudya yordamchisi, sud majlisi kotibi iqtisodiy protsess ishtirokchilarining yana bir alohida protsessual guruhini tashkil qiladi. Ushbu guruhning o’ziga xos xususiyati shundaki, bu shaxslar iqtisodiy sud apparati xodimlari sifatida protsessual huquqiy munosabatlarga kirishadilar. Sud yordamchisi (sud majlisi kotibi) odil sudlovni amalga oshiruvchi shaxsmi yoki sud apparati xodimimi, degan bir-biriga qarama-qarshi fikrlar mavjud. Agar ko’rib chiqilayotgan shaxslar arbitraj sudi bilan protsessual huquqiy munosabatlarga ega bo’lmasa, ular kim bilan protsessual huquqiy munosabatlarga kirishishi lozimligi noma’lum bo’lib qolmoqda.

Y.A. Tresheva sud majlisi kotibi va sudya yordamchisi arbitraj protsessual munosabatlarning subyektlari hisoblanishi, ammo u sud majlisi kotibi va sudya yordamchilari arbitraj sudi bilan protsessual huquqiy munosabatlarga ega protsess ishtirokchilariga kiritilishi mumkin, deb hisoblaydi [1]. M.I. Kleandrov sudya yordamchilarini arbitraj jarayonining alohida subyekti sifatida ajratib ko’rsatish yoki ularni sud (sudyalari) bilan tasniflashni taklif qiladi [2]. E.A. Treshcheva ushbu pozitsiyani qo’llab-quvvatlar ekan, hakamlik sudlari vakolatlarini amalga oshirishni ta’minlaydigan davlat xizmatchilari sifatida sudya yordamchilari, shuningdek, hakamlik sudlarida sud kotiblari hakamlik sudi bilan protsessual munosabatlarga ega emasligini ta’kidlagan. Shuning uchun ularni hakamlik sudi bilan protsessual munosabatlarda bo’lgan protsessning oddiy ishtirokchilariga (ishda ishtirok etuvchi yoki odil sudlovni amalga oshirishda yordam beruvchi shaxslar) kiritish mumkin emas [3]. Hakamlik sudi, uning mansabdor shaxslari, hakamlik sudi apparati xodimlari odil sudlovni amalga oshiradi-

gan (sudlar, alohida sudyalari) yoki sudyalari (sudya yordamchilari, sudyalari kotiblari) vakolatlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan hakamlik protsessual huquqiy munosabatlarning subyektlari hisoblanadi, deyilgan.

Sudya yordamchisining o'ziga xos protsessual roli to'g'risidagi yuqoridagi pozitsiya foydasiga yana bir dalil shundan iboratki, o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, sudya yordamchisi jarayonda qonuniy manfaatdor emas. Bundan tashqari, agar sudya yordamchisi ishda ishtirok etayotgan shaxslarning qarindoshi bo'lsa, ishning natijalaridan bevosita yoki bilvosita shaxsan manfaatdor bo'lsa yoki uning xolisligiga shubha qilish imkonini beradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa, shuningdek, yoki ishda ishtirok etuvchi shaxs yoxud uning vakiliga mansub yoki boshqacha tarzda qaram bo'lsa yoki u ko'rilayotgan ish bilan bog'liq masalalar bo'yicha ochiq bayonotlar bergan bo'lsa, yordamchi protsessdan chetlashtiriladi.

Sudya yordamchisi va sud majlisining kotibi ishda ishtirok etuvchi shaxslar va iqtisodiy protsessning boshqa ishtirokchilari bilan protsessual huquqiy munosabatlarga kirishmaydi, chunki ishda ishtirok etuvchi shaxslar ham, protsessning boshqa ishtirokchilari ham bevosita iqtisodiy sudi bilan protsessual huquqiy munosabatlarga kirishadi.

Sudya yordamchisi va sud majlisi kotibining faoliyati sud muhokamasini tashkil etish hamda sudning protsessual faoliyatini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga oladi. Sudya yordamchisi ham, sud majlisining kotibi ham sudga ishning haqiqiy holatlarini aniqlashda, dalillarni baholashda yordam bermaydi. Ularning vazifasi boshqa shaxslardan farqli o'laroq, sud muhokamasini tashkil etishda sudga yordam berishdir.

Sud muhokamasi davomida sudya yordamchisiga ham, sud majlisi kotibiga ham savollar berilishi mumkin emas. Ular ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash maqsadida sud muhokamasi ishtirokchilariga ham savollar berishga haqli emas.

Shuni alohida aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan, *amaldagi sud majlisi kotibi lavozimi tugatilib, belgilangan umumiy shtat birligi doirasida sudlarning tuzilmalariga sudya katta yordamchisi, yordamchisi lavozimlari kiritilgan* edi.

Rossiya Federatsiyasi arbitraj protsessual qonunchiligida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar qatoriga ekspertlar, guvohlar, tarjimonlar bilan birga sudya yordamchisi va sud majlisi kotibi ham kiritilgan. Arbitraj protsessida sudya yordamchisi va sud majlisi kotibi ekspert, guvoh va tarjimondan farqli o'laroq protsessual huquq subyekti maqomiga emas, vakolat (kompetensiya)ga ega. Chunki ular arbitraj sudi mahkamasi xodimlari hisoblanadi va ularning faoliyati arbitraj protsessidagi ommaviy subyektlar sifatida ularning qonunda belgilangan vakolatlarini hajmi bilan shartlanadi. Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligida sud kanselyariyasi xizmatchisi va sud ijrochisi odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxs toifasiga kiritilgan [4].

O'zbekiston Respublikasi IPKning 51-moddasida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarga ta'rif berilgan bo'lib, unga binoan, iqtisodiy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan bir qatorda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar – guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar ishtirok etishi mumkin, deb belgilangan.

Huquqshunos olimlarning tadqiqotlari va xorijiy davlatlar qonunchiligida sudya yordamchisi va sud majlisi kotibi alohida subyekt sifatida olinib, ularga alohida vazifalar yuklash hamda ularning vakolatlarini kengaytirish, huquqiy maqomini kuchaytirish kerakligi keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, sudyalari sonini ko'paytirish orqali sudlarda ish hajmini kamaytirishga erishiladi, deyil-

gan. Lekin bu har bir sudyaning unumdorligi past bo‘lgan holda davlat uchun katta moddiy xarajatlarga olib keladi. Shu bilan birga, sudya yordamchilari institutini modernizatsiya qilish orqali sud organlari faoliyatini optimallashtirish odil sudlovni amalga oshirish va boshqa sudlov faoliyati sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

I.V. Reshetnikova chet el tajribasiga tayanib, “sudyalarda uchun ish bo‘yicha ish yuritishni boshlash va ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida sudya yordamchisining vakolatlarini kengaytirish muhim yordam bo‘lishi, ish va sud muhokamasini tayyorlash bosqichida yordamchilar sudyaning rahbarligi ostida protsessual harakatlarni amalga oshirishlari mumkin”, deb hisoblaydi [5]. M.L. Skuratovskiy “sudya yordamchilariga mustaqil ravishda suhbat o‘tkazish, zarur dalillarni taqdim etish muddatlarini belgilash va ishni tayyorlashda yurisdiksiyaga tegishli bo‘lmagan boshqa funksiyalarni belgilash”ni taklif qiladi [6]. O.I. Vilyak “taraf va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirish, tarafdorlarga zarur dalillarni olish va nizolarni sudgacha ixtiyoriy hal qilishda yordam berish bo‘yicha harakatlar ko‘p jihatdan tayyorgarlik yoki yordamchi xarakterga ega bo‘lib, bevosita huquqiy oqibatlariga olib kelmaydi”, deb hisoblaydi. Muallif ularning ishini sudya nazorati ostidagi sudya yordamchisiga topshirishni taklif qiladi [7].

Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda, boshqa mamlakatlarda sudya yordamchilari va sud majlisi kotiblari huquqiy maqomining o‘ziga xos xususiyatlari alohida qiziqish uyg‘otadi. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasida sudya yordamchilari sudyalarnikiga yaqin huquqiy maqomga ega (bu ularning protsessual maqomi tengligiga ham tegishli). Xitoy Xalq Respublikasining “Sudyalarda to‘g‘risida”gi qonunining 2-moddasiga ko‘ra, sudyalarda tarkibiga o‘z sudyalik vakolatlarini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiruvchi xodimlar, jumladan, sudlov komis-

siyalari raislari, rais o‘rinbosarlari va a‘zolari, bosh sudyalarda va bosh sudya yordamchilari kiradi [8]. Oliy xalq sudidagi bo‘limlar sudyalarda va ularning yordamchilari, turli darajadagi mahalliy sudlar va harbiy sud kabi maxsus xalq sudlariga bo‘lingan.

*Germaniyada* rossiyalik sudya yordamchisiga o‘xshash lavozim – sud apparati kotibi (der Rechtspfleger) – yuqori martabali rasmiy lavozimlarga tegishli. Dastlab Germaniyada sudlarida, shuningdek, Rossiyada bu pozitsiyaning joriy etilishi sudyani sud ishlarini muntazam ravishda olib borishdan ozod qilish zarurati bilan bog‘liq edi. Uning vakolatlari 1969-yildagi “Sudya yordamchisi to‘g‘risida”gi qonun bilan belgilanadi. Fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi sud apparatining kotibi (der Rechtspfleger) qonun bilan o‘ziga yuklangan sudyaning ayrim funksiyalarini bajaradi. Kotiblar uchun uch yillik maxsus yuridik ta‘lim majburiy bo‘lib, u imtihon bilan yakunlanadigan maxsus o‘quv kursini ham o‘z ichiga oladi. Sud apparati kotibi instituti rivojlanishi bilan uning vakolatlari ham kengaydi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda, masalan, to‘lovga layoqatsizligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishda ish yuritishning muammosiz borishini ta‘minlash, kreditorlar yig‘ilishini o‘tkazish va shikoyatlarni hal qilish kotibning mas‘uliyati hisoblanadi [9].

Yuridik kotiblar *Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi* rus sudya yordamchilarining o‘ziga xos analogidir. Ularning asosiy vazifasi huquqiy masalalarni o‘rganish va ish bo‘yicha protsessual hujjatlarni tayyorlashdan iborat. Biroq kotiblarning vazifalari bu bilan cheklanmaydi, chunki ish bo‘yicha huquqiy masalalarni o‘rganish huquqiy tadqiqotlar o‘tkazish, ish bo‘yicha brifinglar tayyorlash, ayrim masalalar bo‘yicha buyruqlar va xulosalar tayyorlash kabi juda katta protsessual va tashkiliy vakolatlarini o‘z ichiga oladi. Ba‘zi sudyalarning odatiga ko‘ra, ko‘rib chiqilayotgan ishlarni advokatlar bilan muhokama qilish va hatto ular bilan ehtimolli yechimlar haqida maslahatlashish mumkin. Ko‘pincha

sud kotiblari hujjatlarni to'playdi, sud zalida qo'ng'iroqlarni tashkil qiladi va sudya uchun boshqa topshiriqlarni bajaradi [10].

Kotiblarning tashkiliy funksiyalari xilma-xil va o'ziga xosdir. Kotibning ishxonasida siz sud jarayonini o'tkazish tartibini aniq tushuntirib beradigan video dasturni ham ko'rishingiz mumkin. Deyarli barcha sudlarda ishning asosiy bosqichlari – ariza berishdan tortib hal qiluv qarorini ijro etishgacha bo'lgan nizolarning ayrim toifalari uchun namunali dalillar ro'yxatini o'z ichiga olgan bosma nashrlar mavjud [11].

Yuqorida aytilganlarni ish bo'yicha ish yuritishni qo'zg'atish va ishni sud majlisiga tayyorlash bosqichlaridagi harakatlarga kiritish mumkin: taraflarga va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirish, taraflarga zarur hujjatlarni olishda yordam berish. dalillar, shuningdek nizolarni ixtiyoriy ravishda sudgacha hal qilish (vositachi funksiyalari). Ushbu protsessual harakatlar asosan tayyorgarlik yoki yordamchi xarakterga ega bo'lib, bevosita huquqiy oqibatlariga olib kelmaydi, masalan, ishni mohiyatan hal etmaydi yoki sud jarayonini tugatmaydi. Ular sudya nazorati ostidagi yordamchiga ishonib topshirilishi mumkin. Ishni sudga tayyorlash bosqichida sudyaning bir qator vakolatlarini o'z yordamchilariga o'tkazish bo'yicha xorijiy tajribani hisobga olish zarurati mavjud [12].

*Gruziya Respublikasi* "Sudlar to'g'risida"gi qonunda "Sudya yordamchisi va sud kotibi" nomli [13] modda mavjud. Unda sudya yordamchisi fuqarolarni, ularning shikoyat va arizalarini qabul qiladi, ishlarni sud majlisida ko'rish uchun tayyorlaydi; tegishli huquqiy adabiyotlar va sud amaliyoti materiallarini tanlaydi; tegishli hujjatlar loyihalarini tuzadi va sudyaning topshirig'iga ko'ra, sudyaning vakolatlari doirasida boshqa vazifalarni bajaradi. Sudda ishlar sud majlisi kotibi ishtirokida ko'riladi.

*Armaniston Respublikasi* qonunchiligining

2-bob 11-bo'limida sudyalarning maqomi keltirilgan va unda sud apparati xodimlari haqida so'z yuritilgan. Unda birinchi instansiya va apellatsiya sudining har bir sudyasi bittadan yordamchi va bitta kotibga ega [14]. Kassatsiya instansiyasi sudi raisi, sudyalari va kollegiyalari raislarining har birida ikkitadan yordamchi bor. Sudya yordamchisi va kotibi sudyaga birlashtirilgan sud xizmatchilari hisoblanadi.

*Belarus Respublikasining* "Sud hokimiyati va sudyalarning maqomi to'g'risida"gi kodeksi sud majlisining kotibi (sud majlisining kotibi – sudya yordamchisi) [15] birinchi instansiya sudlarida fuqarolik va jinoyat ishlari, zarur hollarda esa ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar sud majlisi kotibi (sud majlisi kotibi – sudya yordamchisi) ishtirokida ko'riladi. Birinchi instansiya xo'jalik sudlarida ishlar sud majlisining kotibi – sudya yordamchisi ishtirokida ko'riladi. Sud majlisi kotibining (sud majlisi kotibi – sudya yordamchisining) huquq va majburiyatlari, uning ishlarni ko'rishda ishtirok etish tartibi qonun bilan belgilanadi.

*Moldova Respublikasi* qonunchiligiga binoan, "sud instansiyalarining tuzilishi" keltirib o'tilgan. Unda sudya yordamchisi – sudyaga o'z vazifalarini bajarishda yordam beradigan sud xodimi. Har bir hakamga faoliyatni amalga oshirishda yordamchi hakam yordam beradi [16].

*Polsha* qonunchiligining 4-bo'lim 155-moddasiga binoan, sudlarda sudyalarning yordamchilari va sudyalarning katta yordamchilari ishga olinishi mumkin. Sudyalarning yordamchilari haqida gap ketganda, unga sudyalarning katta yordamchilari ham kiradi [17]. Sudyaning yordamchisi sud ishlarini ko'rib chiqishga tayyorlash bo'yicha harakatlar va sudlarning ma'muriy faoliyatiga oid harakatlarni amalga oshiradi. Sudyaning katta yordamchisi lavozimini quyidagi shaxslar egallashi mumkin: sudya yordamchisi lavozimida kamida o'n yil ishlagan va ijobiy xulosaga ega bo'lgan yoki imtihonni

topshirgan prokuror [18]. Sudya, prokuror, notarius yoki advokatlik imtihonidan o‘tgan shaxslar sudya yordamchilari uchun shogirdlikni tugatish majburiyatidan ozod qilinadi.

*Tojikiston Respublikasi* qonunchiligida xo‘jalik, fuqarolik, jinoyat va oilaviy ishlar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar sud majlisi kotibi ishtirokida ko‘riladi [19]. Sud majlislari kotiblarining soni ushbu sudlar sudyalarining soniga mos kelishi kerak. Sud raisining yordamchilari, sud ijrochilari, sud majlisi kotiblariga qo‘yiladigan talablar mavjud. Unga binoan, *sud raisining yordamchisi*, qoida tariqasida, oliy yuridik ma‘lumotga ega va o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajara oladigan bo‘lishi kerak. *Sud majlisining kotibi*, qoida tariqasida, o‘rta yuridik ma‘lumotga ega va o‘ziga yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajara olishi lozim.

*Rossiya Federatsiyasida* sudyalarning yordamchilariga qo‘yiladigan talablar mavjud: davlat tilini bilishi, 18 yoshga to‘lgan bo‘lishi [20], oliy kasbiy ma‘lumoti, tajribasi yoki mutaxassislik bo‘yicha ish tajribasi hamda kasbiy bilim va ko‘nikmalari mavjud bo‘lishi.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Sudya yordamchisi va sud majlisi kotibi (sud tarkibi bo‘yicha mutaxassis) o‘rtasidagi vazifalarni taqsimlash to‘g‘risidagi nizomda sudya yordamchisi va sud majlisi kotibi (sud sudyasi mutaxassisi) vazifalari belgilanishi mumkin. Sudya yordamchisi uzrli sabablarga ko‘ra (xizmat safari, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik [21], ta‘til va boshqalar) ishda bo‘lmagan taqdirda, uning ishi sud majlisining tegishli kotibi yoki sud majlisining mutaxassisi tomonidan amalga oshiriladi. Sud majlisi kotibi (sud tarkibi mutaxassisi) yuqorida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra ishda bo‘lmagan taqdirda, uning vazifalari sudya yordamchisi tomonidan amalga oshiriladi [22].

Shunday qilib, *sudya yordamchisi* boshqalar qatori quyidagi vazifalarni bajaradi: da‘vo arizalari (arizalar) [23], sud ishlari va ish yuritish bo‘limidan keladigan boshqa hujjatlarni

imzoga qarshi qabul qiladi; kiruvchi arizalar bo‘yicha statistik kartochkalarni to‘ldiradi; barcha sud hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazadi; protsess ishtirokchilarini xabardor qiluvchi yoki chaqiruvchi sud hujjatlari nusxalarining tayyorlanishi va o‘z vaqtida yuborilishi us-tidan nazoratni amalga oshiradi.

*Sud majlisining kotibi* (sud tarkibi bo‘yicha mutaxassis) ishlarni shakllantirish va sud hujjatlari nusxalarini tarqatish doirasida sud majlisi bayonnomalari, sud ishlarini shakllantirish va yuritish, ishning inventarizatsiyasini tuzish; nusxalarga guvohnoma shtamplarini yopishtirish [24], bir necha varaqdan iborat sud hujjatlari nusxalarini shtapellash va boshqalar; sud hujjatlari va boshqa protsessual hujjatlar nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek, sudyaning ko‘rsatmasi bo‘yicha boshqa shaxslarga yuborish; chiquvchi yozishmalarni ro‘yxatga olish, konvertatsiya qilish (qadoqlash), sud ishlarini shakllantirish va topshirish, ishning ro‘yxatini tuzishni amalga oshiradi. Hakamlik sudlarida sudya yordamchisi sud majlisi kotibining (sud apparati mutaxassisi) sud ishlarini shakllantirish [25], sud hujjatlarini tarqatish bo‘yicha ishini nazorat qiladi.

### **Xulosalar**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu tadqiqot natijasida ko‘rdikki, asosan iqtisodiy sud va boshqa sudlarda sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) ishtiroki bilan bog‘liq yutuq va kamchiliklar mavjud. Buni xorijiy davlatlar tajribasi va amaliyotdagi ba‘zi holatlar bilan tahlil qildik. Ushbu masalalarni hal qilish uchun bir qator mavjud muammolarni yechish va qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalarni keltirib o‘tamiz.

*Birinchi*, “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunga sudya yordamchisi va sud majlisi kotibi tushunchasini kiritish;

*Ikkinchi*, Iqtisodiy protsessual kodeksga sudya yordamchisi va sud majlisi kotibi tushunchalarini alohida kiritish hamda ularning huquq, majburiyatlari, vazifalarini aniq qilib



belgilash lozim. Jumladan, ularning vazifalarini quyidagicha sudya yordamchisi sudyaga sud muhokamasini tayyorlash va tashkil etish, shuningdek, sud hujjatlari loyihalarini tayyorlashda yordam beradi. Sudya yordamchisi raislik qiluvchining topshirig'iga ko'ra, sud majlisi bayonnomasini yuritadi; sud majlisining borishini texnik vositalar yordamida yozib borish ustidan nazoratni ta'minlaydi; sud majlisida ishtirok etishi shart bo'lgan shaxslarning sudga kelishini tekshiradi. Tegishli kodeksda nazarda tutilgan hollarda va tartibda majlis o'tkazadi hamda boshqa protsessual harakatlarni amalga oshiradi. Sudya yordamchisi ishda ishtirok etuvchi shaxslar va hakamlilik muhokamasi boshqa ishtirokchilarining huquq yoki majburiyatlarining paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishiga olib keladigan harakatlarni amalga oshirishga haqli emas.

*Sud majlisining kotibi* sud majlisining bayonnomasini yuritadi va sud majlisining borishini texnik vositalar yordamida yozib borish ustidan nazoratni ta'minlaydi. U ba-

yonomada sudning harakatlari va qarorlari, shuningdek, hakamlilik muhokamasi ishtirokchilarining sud majlisi davomida sodir bo'lgan harakatlarni to'liq va to'g'ri ko'rsatishi shart. Sud majlisining kotibi raislik qiluvchining topshirig'iga ko'ra, sud majlisida ishtirok etishi shart bo'lgan shaxslarning sudga kelishini tekshiradi.

*Uchinchi*, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) sud apparati xodimi bo'lganligi bois uni sud tarkibi nomli bobda aks ettirish;

*To'rtinchi*, sudya yordamchisi va sud majlisi kotibining aniq vazifa va funksiyalarini belgilab berish;

*Beshinchi*, sudya yordamchisiga sudyaning ayrim vakolatlari, ya'ni fuqarolar yoki tadbirkorlarning huquq va manfaatlariga ta'sir qiladigan vazifalaridan tashqari qolgan protsessual vazifalarni yuklash va sudyalik uchun zaxira tizimini yaratish;

*Oltinchi*, sudya yordamchisi va sud majlisi kotibi lavozimi uchun talablar ishlab chiqish taklif etiladi.

## REFERENCES

1. Treshcheva E.A. Sub'yekty arbitrazhnogo protsessa [Subjects of the arbitration process]. Doctor's degree dissertation. Moscow, 2009, p. 146.
2. Kleandrov M.I. Arbitrazhnyy protsess [Arbitration process]. Moscow, 2003, p. 50.
3. Treshcheva E.A. Obshcheteoreticheskiye voprosy ponyatiya i klassifikatsii predmetov [General theoretical issues of the concept and classification of subjects]. Samara, Samara University, 2006, vol. 1, pp. 127–134.
4. Vanyarkho A.V. Litsa, sodeystvuyushchiye osushestvleniyu pravosudiya, – uchastniki arbitrazhnogo protsessa Rossiyskoy Federatsii [Persons contributing to the implementation of justice – participants in the arbitration process of the Russian Federation]. Abstract of Ph. D. thesis. 12.00.15.
5. Afanasovich V.Ye., Skifskiy F.S. Pervyy opyt: pomoshchnik sud'i [First experience: assistant judge]. *Vestnik Federal'nogo Arbitrazhnogo suda Zapadno-Sibirskogo okruga Bulletin of the Federal Arbitration Court of the West Siberian District*, 2005, no. 4, SPS "Garant".
6. Skuratovskiy M.L. Podgotovka dela k sudebnomu razbiratel'stvu v arbitrazhnom sude pervoy instantsii [Preparation of the case for trial in the arbitration court of first instance]. Moscow, Wolters Kluwer Publ., 2007, pp. 74–75.
7. Vilyak O.I. Pozitsiya v chasti vozmozhnosti uchastiya pomoshchnika sud'i v dosudebnom uregulirovanii sporov ne do kontsa ponyatna, poskol'ku rech' idet o sudebnom razbiratel'stve [The position regarding the possibility of participation of an assistant judge in the pre-trial settlement of disputes is not completely clear, since we are talking about litigation].

8. Vilyak O.I. Konstitutsionno-pravovyye instituty statusa sudey v Rossiyskoy Federatsii i Kitayskoy Narodnoy Respublike (nekotoryye sravnitel'no-pravovyye aspekty) [Constitutional and legal institutions of the status of judges in the Russian Federation and the People's Republic of China (some comparative legal aspects)]. State and legal systems of the countries of the Asia-Pacific region: prospects for cooperation with the Russian Federation. Proceedings of the III International scientific-practical conference. Ulan-Ude, 2010, June 17–19. Ed. Yu.I. Skuratov. Ulan-Ude, Publishing House of the Buryat State University, 2011, vol. 1, pp. 138–144.

9. Trutnikov S.S. Vozbuzhdeniye proizvodstva po delam o nesostoyatel'nosti v Germanii i Italii [Initiation of insolvency proceedings in Germany and Italy]. *Russian Yearbook of Civil and Arbitration Process*, 2002, no. 1, pp. 363–364.

10. Chambers Handbook for Judhes Law Clerks and Secretaries. Federal Judicial Center, Washinhthon, 1994.

11. Nosyreva Ye. Sudy melkikh iskov v amerikanskoy pravovoy sisteme [Small Claims Courts in the American Legal System]. *Russian Justice*, 2000, no. 6, pp. 52–54.

12. Ayriyan K.S. Podgotovka del k razbiratel'stvu v angliyskom sude [Preparation of cases for proceedings in the English court]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1989, p. 5.

13. Organic Law of Georgia on General Courts. Available at: <http://www.matsne.gov.ge/>.

14. Judicial Code of the Republic of Armenia.

15. Code of the Republic of Belarus on the judiciary and the status of judges. 2006, June 29, No. 139-Z.

16. Law on the judiciary of the Republic of Moldova. 1995, July 6, No. 514-XIII.

17. Act on the Organisation of the Ordinarycourts Strasbourg. 2017, November 20, Opinion no. 904 /2017. Available at: [www.venice.coe.int/](http://www.venice.coe.int/).

18. Doniyorbek D. The Procedure and Grounds for Applying the Measure of Compulsory Attendance. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2022, no. 3 (7), pp. 59–66.

19. On the Courts of the Republic of Tajikistan Constitutional Law of the Republic of Tajikistan. Dushanbe, 2001, July 23, No. 212.

20. Bebutova Z. The essence of the institution of pro bono and its importance in civil courts. *Norwegian Journal of Development of the International Science*, 2022, no. 77-3, pp. 46–50.

21. Asal X. Alternative Ways of Resolving Disputes in the Modern Legislation of Uzbekistan. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2022, no. 3 (7), pp. 67–77.

22. Khudoynazarov D. The implementation of modern information and communication technologies in the activities of courts in the action strategy development of our country: results and prospects: the implementation of modern information and communication technologies in the activities of courts in the action strategy development of our country: results and prospects. *TSUL Legal Report International Electronic Scientific Journal*, 2021, July, vol. 2, no. 1, pp. 101–108. Available at: <https://legalreport.tsul.uz/index.php/journal/article/view/50/>.

23. Khudoynazarov D.A. Issues Of Introducing Digital Technologies Into The Activities Of Courts. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2022, Jan., vol. 4, no. 01, pp. 1–6. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume04Issue01-01/.

24. Khudoynazarov D.A. Some comments on the role of websites in the economic process. *International Engineering Journal For Research & Development*, 2022, Jan., vol. 6, no. ICRRTNB, p. 3. DOI:10.17605/OSF.IO/J8M3D/.

25. Khudoynazarov D. Judicial system: on the example of Uzbekistan and Japan. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2022, no. 2.7, pp. 10–18.

26. Kudryavtseva E.V. Grazhdanskoye sudoproizvodstvo Anglii [Civil litigation in England]. Moscow, Gorodets, 2008, p. 60.

UDC: 349.2+314.74(045)(575.1)

## MEHNAT MIGRATSIYASINI RAQAMLASHTIRISH VA UNGA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ QILISH ISTIQBOLLARI

**Musayev Bekzod,**Toshkent davlat yuridik universiteti  
Xususiy huquq fakulteti dekani, DSc, dotsent  
ORCID: 0000-0003-2068-4035  
e-mail: b.musaev@tsul.uz

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada demografik va globallashtirish jarayonidagi o'zgarishlar, Covid-19 ning jamiyatdagi ijtimoiy hamda umumiy huquqiy yondashuvlarga ko'rsatgan ta'siri natijasida shakllanayotgan raqamli jamiyatda migratsiyani tartibga solish istiqbollari, uning oqibatlarini va sabablari o'rganilgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" konsepsiyasini tatbiq etishga bo'lgan harakatlar hayotiy muhim bo'lgan mehnat migratsiyasi jarayonlarini raqamlashtirish, ushbu sohaga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish vazifasini qo'yimoqda. Bu, o'z navbatida, sohani raqamlashtirishning texnik vositalari bilan bir qatorda huquqiy asoslari, kiberxavfsizlik masalalari, shaxsga doir axborotlar muhofazasi kabi muammolarni hal qilish zarurligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi o'tgan o'n yillikda alohida davlatlarda sezilmas darajada rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlarga "aqlli boshqaruv" texnologiyalarini joriy qilishning katta kuch bilan tezlashuviga sabab bo'ldi. Ushbu jarayonlardan mehnat munosabatlari ham chetda qolmadi. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), sun'iy intellekt va "aqlli boshqaruv" usullari raqamlashtirish shaklida mehnat bozorida o'zining samaradorligini qisqa muddatlarda isbotladi. Mazkur yangi yondashuvlarni milliy qonunchilikka joriy qilish uchun O'zbekistonning migratsiya sohasidagi qonunchiligini xalqaro talablarga moslashtirish, uni raqamlashtirishda, eng avvalo, inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan fundamental prinsiplarga rioya qilinishini ta'minlash kerak. Muallif ushbu masalalarning huquqiy yechimini topishda asosiy yo'nalish insonning bir joydan ikkinchi joyga ko'chish va mehnat qilish huquqini kafolatlash hamda ushbu jarayonlarni soddalashtirishga qaratilgan axborot texnologiyalari bo'lishi zarur, degan qat'iy pozitsiyani ilgari suradi.

**Kalit so'zlar:** migratsiya siyosati, mehnat migratsiyasi, sun'iy intellekt, virtual migratsiya, IT texnologiyasi, elektron onlayn platformalar.

### ПЕРСПЕКТИВЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ И ПРИМЕНЕНИЯ К НЕЙ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

**Мусаев Бекзод,**доктор юридических наук, доцент,  
декан факультета частного права

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются перспективы регулирования миграции, ее последствия и причины в цифровом обществе, которое формируется в результате изменений демографического и глобализационного процессов, влияние COVID-19 на социальные и

общеправовые устои в обществе. В последние годы усилия по внедрению в нашей стране концепции «Цифровой Узбекистан – 2030» поставили на первый план задачу цифровизации жизненно важных процессов трудовой миграции и внедрения технологий искусственного интеллекта в этой сфере. Это, в свою очередь, показывает необходимость решения таких проблем, как правовые основы и вопросы кибербезопасности, защиты персональной информации, наряду с техническими средствами цифровизации отрасли. Кроме того, пандемия COVID-19 ускорила внедрение интеллектуальных технологий в сложную экономику и социальные отношения, развивавшиеся на беспрецедентном уровне в некоторых странах за последнее десятилетие. Не остались в стороне от этих процессов и трудовые отношения. Современные технологии в виде коммуникационных технологий, искусственного интеллекта и других интеллектуальных методов доказали свою эффективность на рынке труда за короткий промежуток времени. Для внедрения этих новых подходов в национальное законодательство необходима адаптация законодательства Узбекистана в сфере миграции к международным требованиям, обеспечение соблюдения основополагающих принципов, направленных на обеспечение прав человека при его цифровизации. Автор выдвигает твердую позицию о том, что основным направлением в поиске правового решения данных вопросов должны стать информационные технологии, направленные на обеспечение прав человека на перемещение с одного места на другое и работу, а также на упрощение этих процессов.

**Ключевые слова:** миграционная политика, трудовая миграция, искусственный интеллект, виртуальная миграция, IT-технологии, электронная онлайн-платформа.

## PROSPECTS FOR DIGITALIZATION OF LABOR MIGRATION AND APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES TO IT

**Musaev Bekzod,**

Dean of the Faculty of Private Law  
of Tashkent State University of Law,  
Doctor in Law, Associate Professor

**Abstract.** *This article examines the perspectives of migration regulation, its consequences and causes in the digital society, which is formed as a result of changes in the demographic and globalization process, the impact of COVID-19 on social and general legal approaches in society. In recent years, efforts to introduce the concept of “Digital Uzbekistan – 2030” in our country have set the task of digitizing vital labor migration processes and introducing artificial intelligence technologies in this field. This, in turn, shows the need to solve problems such as legal bases, cyber security issues, protection of personal information, along with technical means of digitalization of the industry. In addition, the COVID-19 pandemic has accelerated the adoption of “intelligent” technologies into the complex economy and social relations that have been developing at an unprecedented level in some countries over the past decade. Labor relations were not left out of these processes. Modern technology in the form of communication technology (ICT), artificial intelligence and “intelligent regulation” methods of packaging has proven its efficiency in the labor market in a short period of time. In order to introduce these new approaches into the national legislation, it is necessary to adapt the legislation of Uzbekistan in the field of migration to international requirements, to ensure that fundamental principles aimed at ensuring human rights are followed in its digitization. The author puts forward a firm position that the main direction in finding a legal solution to these issues should be information technologies aimed at guaranteeing the right of a person to move from one place to another and to work and to simplify these processes.*

**Keywords:** migration policy, labor migration, artificial intelligence, virtual migration, IT technology, electronic online platform.

## Kirish

Dunyo 2020-yil o'rtalaridan buyon COVID-19 pandemiyasi sababli og'ir iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga duch keldi. Shu davrgacha dunyo iqtisodiyoti uchun alohida muhim o'rin tutgan turizm, migratsiya jarayoni va ishlab chiqarish, tovarlar harakati kabi sohalarida jiddiy cheklovlar o'rnatilishi barcha mamlakatlar qatori O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Millionlab xorijiy davlatlarda mehnat qilayotgan fuqarolarimiz pandemiya boshlanishi bilan oq, uni qisqa muddat bo'lishidan umid qilgan holda O'zbekistonga qaytib kelishi kuzatildi. Ishchi kuchini import qiluvchi davlatlar esa, o'z navbatida, o'z chegaralarini mustahkamlash va xorijiy davlatlardan fuqarolarni kiritmaslik bo'yicha choralarni ishlab chiqishga kirishganiga guvoh bo'ldik.

Pandemiya sharoitida mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishining barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishga asoslangan. O'z navbatida, iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biri sanalgan mehnat bozoriga raqamli texnologiyalar ta'sir ko'rsatmoqda. Mehnat bozorining eng muhim xususiyatlaridan biri bu ishchi kuchining harakatchanligi aynan raqamli texnologiyalarga bevosita bog'liqdir.

Mehnat qilish orqali daromad topish maqsadida doimiy yashash joyidan milliy va xalqaro darajada ko'chib ketish shaklida yuz beradigan mehnat migratsiyasi ishchi kuchi hududiy harakatchanligining asosiy namoyon qiluvchi shakli sanaladi. Raqamlashtirish jarayoni xalqaro mehnat migratsiyasining miqdoriy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

«Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida mehnat migratsiyasi sohasida bir qator chora-tadbirlarni belgilash nazarda tutilgan. Jumladan, Andijon viloyati Xonobod shahrida aholi hamda xotin-qizlar, migrantlar va yoshlarni ish bilan ta'minlashni raqamlashtirish sohasida shahar bandlik darajasi, aholining ishsizlar soni, bo'sh ish o'rinlarini

raqamlashtirish chora-tadbirlari belgilangan [1]. Ushbu chora-tadbirlar hududlar kesimida dastlab bajarish, agar o'z samarasini ko'rsatasa, boshqa viloyatlarga ham tatbiq qilish rejalashtirilgan.

Farmon bilan mazkur chora-tadbirni 2020-yil oktabr oyida amalga oshirish belgilangan. Lekin ushbu torshiriq bajarilganligi haqidagi axborot matbuot va tuman hokimiyati tomonidan jamoatchilikka taqdim etilmagan.

Endi asosiy masalalarga e'tibor qaratsak. Mehnat munosabatlariga raqamlashtirishning qanday aloqasi bor, degan savol tug'ilishi tabiiy. «Raqamlashtirish mehnat bozorida o'zaro munosabatlarning yangi shakli bo'lib, u, o'z navbatida, mehnat munosabatlarining yangi formatini belgilaydi» [2, 45-b.]. Ushbu yangi format nafaqat milliy doirada, balki chet el elementi bilan murakkablashgan mehnat munosabatlarini mazmunan va shaklan o'zgartirishga turtki bermoqda.

Mehnat bozorini raqamlashtirish 2020-yildan so'ng dolzarb masala sifatida ko'ringan bo'lsa-da, lekin ushbu fenomen 2000-yillarning boshlaridayoq tadqiqotlar obyekti bo'lgan. Mehnat munosabatlariga AKTni joriy qilish orqali uni raqamlashtirish – bu yangi fenomen emas. Bu jarayonni o'tgan yigirma yillikda o'zini ko'rsatish va samaradorligini isbotlash uchun vaqt poylab turganga o'xshatish mumkin.

Raqamlashtirishni mehnat bozoriga samarali ta'sir qiluvchi vosita sifatida mehnat bozorida texnologik o'zgarish (RBTC) gipotezasi dastlab D.H. Autor, F. Levy va R.J. Murnane [3, 1279-1333-b.] tomonidan ilgari surilgan bo'lsa, keyinchalik Acemoglu va Autor [4, 1043-1171-b.]lar uni takomillashtirgan.

Raqamlashtirish – bugungi kunda jahon iqtisodiyotining deyarli barcha jarayonlariga ta'sir ko'rsatadigan hodisa. Raqamlashtirish jarayoni ko'pincha sanoat va ishlab chiqarish sohalariga qaratilgan bo'lib, E. Brynjolfsson va A. McAfeelarning qayd etishicha, "ushbu texnologiyalar mahsulot ishlab chiqarishda

raqamli texnologiyalardan foydalanish va Industry 4.0 da qo'llanishi samarali sanalasa" [5, 744-b.], K€orfer va R€othigning qayd etishicha, "raqamli texnologiyalar xizmatlarni onlayn platformalar orqali outsorsing shaklida ko'rsatishda ko'proq namoyon bo'ladi" [6, 233–236-b.].

2020-yilga kelib raqamli texnologiyalar yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan global miqyosda ishlab chiqarish, ish o'rinlari yaratish va bandlik munosabatlarini boshqarish jarayonlariga ham ta'sir ko'rsata boshladi. G. Raj-Reichert, S. Zajak va N. Helmerich [7, 78-b.] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda ushbu jarayonlarning iqtisodiy samaradorligi chuqur tahlil qilib o'tilgan.

Raqamli mehnat munosabatlarida faol subyekt sifatida ish beruvchi – kompaniya namoyon bo'lsa, xodimlar passiv ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Xodimlar nafaqat passiv aktyorlar sifatida, doimiy ravishda o'zgarib turadigan, boshqariladigan subyekt, balki o'zgaruvchan sharoitga mos ravishda o'z imkoniyatlarini qayta qurishning yangi usullari va strategiyalarini o'rganadigan subyekt ham sanaladi.

Izabella Majcher yuridik nuqtayi nazardan raqamlashtirishni mehnat migratsiyasi jarayoniga tatbiq qilishda, avvalo, Yevropaga migrantlarning kirishida shaxsni identifikatsiyalashga imkon beradigan shaxsiy ma'lumotlar bazasini yaratish, kirib keluvchi ikkinchi davlat fuqarosini identifikatsiya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratadi [8, 998-999-b.].

V.Y. Vasilevning "katta shaharlarning postindustrial iqtisodiyoti aloqa tezligi, mehnat bozorining moslashuvchanligi, xizmat ko'rsatish sohasining o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashish sohalarida yangi talablarni qo'yimoqda" [9, 122-144-b.], degan fikrlari o'rinlidir.

D. Demenesku o'z tadqiqotida global o'zgarishlar bir vaqtning o'zida turli aloqa shakllariga "bog'langan" yangi migrantlar qiyofasining

paydo bo'lishi bilan birga shakllanishi haqida fikr bildirgan [10, 565–579-b.]. Ushbu qarashlar migratsiya faoliyatining to'liq raqamlashtirilishi bilan birga ularning turli axborot oqimlariga ulanishi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy muhitning o'ziga xosligi haqida fikr yuritishga asos bo'ladi. K. Lers va S. Ronzanesi ta'kidlaganidek, chegara ichidagi mehnat migratsiyasi bilan kechadigan inkassulyatsiya va kosmopolitizatsiya jarayonlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud [11, 4-20-b.].

Ishchi kuchining yangi shakllarini o'rganish, raqamli texnologiyalarni mehnat munosabatlariga tatbiq qilish masalalari, davlatlar hamda ish beruvchilar o'rtasida yangi texnologiyalar va resurslarga bo'lgan noteng imkoniyatlar transmilliy mehnat faolligining yangi strategiyalarini o'rganish va tahlil qilishni taqozo etadi. Bu borada so'nggi yillarda Brookes [12, 17-b.], Soul [13, 25–43-b.], Zajak [14, 899–921-b.] va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ahamiyatlidir [15, 211–232-b.].

So'nggi yillarda sun'iy intellekt, mashinasozlik va algoritmlarga havolalar asta-sekin ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasidagi tadqiqotlarga ham kirib bormoqda (K. Crawford va K. Miltner [16, 311-315-b.], R. Calo [17, 399–435-b.], R. Kitchin [18, 14–29-b.], L. McGregor, D. Murray va V. Ng [19, 309–343-b.]).

A. Beduschi tomonidan 2020-yilda e'lon qilingan maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining xalqaro migratsiyaga ta'siri, huquqiy oqibatlar va iqtisodiy samaradorligi o'rganilgan bo'lib, AKT texnologiyalarining mehnat munosabatlariga ta'siri raqamli migratsiyani kelgusi o'n yillikda kengaytirishga xizmat qiladi, degan g'oya ilgari surilgan [20, 788–792-b.]. Ushbu qarashni to'liq qo'llab-quvvatlaymiz.

Sun'iy intellekt texnologiyalari davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqaro migratsiyani boshqarish uslublarini tubdan o'zgartirish imkoniyatiga ega. M. Chui va boshqalar muallifidagi maqolada "sun'iy intellekt asta-sekin shaxsni tekshirish, che-

gara xavfsizligi va nazorati, viza va boshpana so'rovchilari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish kabi vazifalarni bajarish uchun qo'llanishi yuqori samaradorligi bilan ajralib turishi" [21, 41–42-b.] qayd etilgan.

Mehnat migratsiyasini raqamlashtirish haqida o'z fikrini bildirar ekan, T.V. Cherevichko "jamiyatni raqamlashtirish bilan migratsiya modifikatsiyalari: yashash joyini o'zgartir-masdan mehnatning hududiy harakatchanligi oshishi, bu esa migratsiya turlari va yo'nalishlarining o'zgarishiga olib keladi. Boshqacha aytganda, bu jarayon migratsion munosabatlar va ularning shakllarida "o'zgaruvchan xilma-xillik"ning paydo bo'lishiga olib keladi" [22, 77–82-b.], degan fikrlariga pandemiya sharoitida xalqaro mehnat sohasida yuzaga kelgan muammolardan kelib chiqqan holda to'liq qo'shilish mumkin.

Qo'shimcha qilib aytganda, pandemiya sharoitida o'z yashash joyidan chiqmagan holda, nafaqat milliy darajada, balki chet el davlatlarida ham ishlash mumkin bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar ro'yxati kengaydi.

Yevropa davlatlarida raqamlashtirish bo'yicha texnologiyalarni mehnat migratsiyasi jarayoniga tatbiq qilish uzoq yillardan beri qo'llanib kelinmoqda. I. Soysüren va M. Nedelcu chet elliklarni deportatsiya qilish uchun Yevropa Ittifoqi tomonidan yaratilgan uch xil turdagi vositalarni ko'rsatib o'tadilar: qonuniy, faoliyat ko'rsatish jarayoni bilan bog'liq va texnologik vositalar [23, 142–145-b.]. Aynan raqamli texnologiyalarning mehnat migratsiyasi texnologik vositalari doirasiga kiritilishi chet ellik ishchilarni boshqarish va mamlakat qonunlarini buzgan taqdirda ularni deportatsiya qilishni soddalashtirgan.

Qayd etish zarurki, bugungi kunga qadar O'zbekiston, umuman, Markaziy Osiyo davlatlarida mehnat migratsiyasi jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish, ushbu sohani raqamlashtirish natijasida qonunchilikni qo'llashda yuzaga kelgan muammolar konseptual, nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinmagan.

Shu maqsadda ushbu tadqiqot jarayonida uchta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchi, O'zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonini raqamlashtirish zarurati nimalarda namoyon bo'ladi; ikkinchi, ushbu sohada dunyoda qanday samarali huquqni qo'llash amaliyoti shakllangan; uchinchi, O'zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonini xalqaro tajriba asosida raqamlashtirish zarurati bormi?

Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, O'zbekiston qonunchiligidagi bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Demak, ushbu maqola O'zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarini raqamlashtirish hamda unga sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashni konseptual, nazariy va amaliy tushunishga qaratilgan.

#### Material va metodlar

Migratsiya jarayonlarini raqamlashtirish, unga sun'iy texnologiyalarni tatbiq qilishning ommalashuvi ilm-fanda yangi tushunchalarning shakllanishiga turtki berdi. "Transmilliy migratsiya", "migratsiya qamrovi va oqimlari", "raqamli diasporalar", «bog'langan muhojir (connected migrant)" [24, 168-b.], "virtual migratsiya", "raqamli migratsiya" tushunchalari shular jumlasidandir.

"Bog'langan muhojir (connected migrant)" tushunchasi fransuz tadqiqotchisi D. Demenesku tomonidan globallashtayotgan jamiyatda muhojirning yangi qiyofasini ko'rsatish uchun taklif qilingan [25, 465-b.].

D. Demenesku "bog'langan muhojir"ni to'rt xil darajaga ajratgan holda tahlil qilishni taklif qiladi [25, 466-467-b.]:

- 1) global mobillik nuqtayi nazaridan migrantlar tahlili;
- 2) migrantlar harakatchanligi doirasidagi majburiyatlar va o'zaro almashishning munosabatlar tizimi;
- 3) migrantlarning xizmat ko'rsatish tarmoqlari va ijtimoiy xizmatlarga (bank tarmog'i, tibbiy xizmat) ulanishini tahlil qilish;
- 4) "harakatchanlik xotirasi" bilan ishlash sifatida tarmoq ma'muriy nazoratini tahlil qilish.

Bundan tashqari, transmilliy korporatsiyalar tomonidan sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida boshqa davlatlarda joylashgan ishlab chiqarish korxonalarida xodimlarning mehnat intizomiga rioya qilishi, ish o'rinlarining holati, samaradorlikni real vaqt rejimida kuzatish, har oylik tahlil qilish imkoniyati mavjud [26, 301-b.].

Aqlli fabrikalar menejerlarga individual ravishda ishchilarni elektron tarzda kuzatib borish imkonini yaratmoqda va ishchining ma'lum bir mahsulotni qayta ishlashga qancha vaqt ketishi tahlil qilinmoqda [27, 25-43-b.].

Ishchilarni boshqarishning bunday raqamli usullari yirik kompaniyalar tomonidan tobora ko'proq qo'llanmoqda. Bu esa oflayn iqtisodiyotdan ko'ra onlayn iqtisodiyotning samaradorligini ko'rsatadi [28, 235-b.].

Raqamlashtirishning mehnat munosabatlari ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar bizga raqamlashtirishning mehnat va global ishlab chiqarishga ta'siri bilan bog'liq uchta muhim munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalalarini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Bular (1) raqamli texnologiyalar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar, (2) xodimlar tomonidan mehnat faoliyatini onlayn amalga oshirish va ularning mehnat shart sharoitlarini yaratish hamda (3) ishlab chiqarish geografiyalarining o'zgarishi natijasida milliy qonunchiliklar o'rtasidagi kolizion munosabatlardir.

Bizningcha, ushbu uch jihatni tahlil qilish va huquqiy baho berish orqali raqamlashtirishning mamlakatlar, korxonalar va xodimlar uchligi o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga qanchalik samarali ta'sirini baholash imkoniga ega bo'lamiz.

Transmilliy korporatsiyalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ishchi kuchiga raqamli texnologiyalar ko'p jihatdan ta'sir qiladi. Ushbu ta'sir ham ijobiy, ham salbiy xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Sun'iy intellektni migratsiya jarayoniga tatbiq qilish bo'yicha ayrim davlatlarda allaqachon milliy tajriba shakllanib ulgurgan.

Misol uchun, Kanadada immigratsiya va boshpana berish jarayonida algoritmik qarorlar qabul qilish jarayonida [29, 14-16-b.] qochqinlar integratsiyasini yaxshilash uchun algoritimli qarorlar qabul qiladigan elektron tizim [30, 325-329-b.] bir necha yildan buyon samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Yevropa Ittifoqining migratsiya jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi Shengen axborot tizimi (SIS) 2018-yildan boshlab sun'iy intellekt texnologiyalaridan "migrantlarning o'z ona vatanlariga qaytishini osonlashtirish uchun yuzni aniqlash, DNK va biometrik ma'lumotlarni tahlil qilish" [31] sohasida foydalanib kelmoqda.

2015-yildan buyon Malayziyada raqamlashtirish va markazlashtirishni isloh qilish doirasida raqamli migratsiyani boshqarish texnologiyalarini joriy qilish hamda ularni xususiyashtirish jarayoni boshlangan. Mazkur davlatda mehnat migratsiyasi jarayoniga sun'iy intellektning joriy qilinishi chet ellik ishchilarni jalb qilish xizmatini ko'rsatishdan foyda ko'radigan vositachilarning ishtirokini yo'q qilish va xususiy bandlik agentliklari tomonidan chet ellik ishchilarning noqonuniy ekspluatatsiyasini to'xtatishda o'zining samaradorligini ko'rsatdi [32, 28-29-b.].

Malayziya tajribasining bir ijobiy jihati mehnat migrantlarini eksport qiluvchi davlat sifatida O'zbekistonda ham mehnat migratsiyasi jarayonini raqamlashtirishning samaradorligini ko'rsatadi.

Jumladan, Malayziya xususiy bandlik agentliklarining ish bilan ta'minlab berish bo'yicha faoliyatini samarali qisqartirish va chet el ishchilarini munosib ish o'rinlari bilan ta'minlashning eng samarali yo'li sifatida mehnat munosabatlarini raqamlashtirishga o'tgan.

### **Tadqiqot natijalari**

So'nggi yillarda xususiy bandlik agentliklari orqali o'n minglab fuqarolarimizni xorijga ishga yuboraman deb firibgarlik jinoyatlarini qisqartirishda aynan raqamlashtirish



samaradorligiga oid Malayziya tajribasi biz uchun ham muhimdir.

Yuqorida qayd etilgan davlat – Malayziya da hukumat xususiy bandlik agentliklarining ishtirokisiz to'g'ridan to'g'ri ish beruvchilarga xodimlar tomonidan murojaat qilish imkoniyatini yaratuvchi elektron onlayn platformalarni yaratish orqali shaffof va samarali ishga qabul qilish tizimini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Uchta onlayn ishga yollanish tizimi o'rnatildi: chet ellik ishchilar uchun ariza berish tizimi (SRRA), chet el ishchilarining birlashgan boshqaruv tizimi (eRRAx) va chet elliklar uchun MYXrats tizimi [32, 25-26-b.].

Bugungi kunda raqamli rivojlanish Malayziyaning odam savdosi va ishchilar ekspluatatsiyasining oldini olish, xususiy bandlik agentliklarini tugatish jarayoni bilan bir vaqtda olib borilmoqda.

A. Beduschi sun'iy intellektni joriy qilish orqali migratsiyani boshqarish deganda tegishli subyektlar tomonidan muhokama qilingan va qabul qilingan turli strategiyalar, siyosatlar, jarayonlar va tartiblarga axborot texnologiyalarini tatbiq qilish tushuniladi [33, 89–92-b.], deb ta'kidlagan. F. Crereau va I. Atakning fikricha, “ushbu tushuncha migratsiya boshqaruviga bevosita bog'liq, lekin doirasi torroq” [34, 113-b.]. L. Ansems de Vries va E. Guildlar tadqiqotlarida “migratsiyani boshqarishda sun'iy intellektni joriy qilish – munozarali tushuncha” [35, 2156-b.] ekanligi aytilgan.

S. Gaziyeva “hukumatlar, ishchilar va ish beruvchilar tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlar mehnat migratsiyasi dasturlari, tizimlari va boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanishni allaqachon qo'llamoqda yoki hech bo'lmaganda ko'rib chiqmoqda” [36, 45-b.] deb ta'kidlaydi.

Bizningcha, migratsiya jarayonlariga sun'iy intellektni joriy qilishga asoslangan boshqaruv shakli, o'z navbatida, xalqaro darajada migratsion oqimlarni tartibli va tizimli tarzda boshqarishga xizmat qiladi.

S. Gaziyevaning fikricha, “O'zbekistonda migratsiyaning texnologiyaga asoslangan mobillik siyosati quyidagicha bo'lishi mumkin: 1) raqamli boshqaruv tizimlari: samaradorlik va shaffoflikni oshirish; 2) ishga qabul qilish platformalari: xarajatlarni kamaytirish, javobgarlikni oshirish; 3) xabar almashish ilovalari va ijtimoiy tarmoqlar: targ'ibot, tarmoq va xizmat ko'rsatishni yaxshilash; 4) mobil to'lov tizimlari: pul o'tkazmalari va moliyaviy inklyuziya xarajatlarini hal qilish; 5) mehnatni tekshirish va hisobot berish uchun raqamli vositalar: muvofiqlikni yaxshilash” [36, 45-b.].

Bizningcha, sun'iy intellekt vositalari orqali xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonini boshqarish va uni tartibga solish dastlab to'rt asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1) davlatlar va mintaqalar o'rtasida axborot (ish o'rinlari, milliy mehnat qonunchiligidagi yangiliklar, mehnat migrantlariga yaratilgan imkoniyatlar, mehnat migrantlarini soliqqa tortish, sug'urtalash va boshq.) almashinuvini kengaytirish;

2) davlatlar va xalqaro tashkilotlarning o'zaro axborot almashinuvi, ularni tahlil qilish va amaliyotini keng joriy qilish;

3) migratsiyani boshqarish va chegara xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy chora-tadbirlarni kuchaytirish;

4) mehnat migrantlarining mehnat faoliyatini olib boruvchi davlatdagi qonunchilikka rioya qilishi, odam savdosi qurboni bo'lishining oldini olish, ularga huquqiy va moddiy ko'mak berish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Davlatlararo global hamkorlik, insonlarning harakatlanishidagi iqtisodiy, huquqiy va siyosiy to'siqlarning kamayishi, mintaqalararo yagona transmilliy zonalar (masalan, Yevropa Ittifoqi)ning yaratilishi, eng asosiysi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi tufayli millionlab odamlar boshqa davlatlarga mehnat migrantlari sifatida ishlash uchun ketib, o'z oilalarini boqmoqda. Axborot texnologiyalari mehnat migratsiyasi-

ni yanada qulay, ochiq va sodda tarzda tashkil qilishga xizmat qilmoqda.

Yevropa davlatlarida 2015–2016-yillarda yuz bergan migratsiya inqirozi davlatlar va xalqaro tashkilotlar oldiga migratsiyani boshqarishning global mexanizmlarini kuchaytirish vazifasini qo’ydi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2016-yilda “Qochqinlar va muhojirlar” deklaratsiyasi [37] qabul qilingan bo’lsa, so’ngra muzokaralar natijasida ikkita global bitim: “Qochqinlar to’g’risida”gi global shartnoma [38] va Xavfsiz, tartibli va muntazam migratsiya uchun global shartnoma [39] qabul qilindi. Xalqaro darajada hujjatlar qabul qilinganiga qaramasdan, davlatlar global darajada asimmetrik tarzda o’zaro ta’sir ko’rsatishda davom etmoqdalar [40].

Sun’iy intellekt texnologiyalari migratsiya va boshpana berish jarayonlari uchun foydali. Ular asosan mehnat muhojirlari va boshpana izlovchilarning talablariga asoslangan. Shu bois davlatlar allaqachon bu sohada sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni o’ylamoqda [41, 25-26-b.].

Misol uchun, Germaniya migratsiya va qochoqlar federal byurosi (Bundesamt fu’r Migration und Fluchtlinge, BAMF) bergan ma’lumotlarga ko’ra, ushbu davlatda 2018-yildan boshlab avtomatik ravishda yuz yoki shevalarni tanib olish, ismni transliteratsiya qilish va identifikatsiyani tekshirish uchun mobil ma’lumotlar qurilmalarini tahlil qilish, boshpana aniqlash jarayonida qaror qabul qilishni avtomatlashtirish kabi texnologiyalardan foydalangan holda, migratsiya jarayonlarini tartibga solish texnologiyalari joriy qilingan [42].

Mutaxassislar mazkur texnologiyalarning afzalliklari haqida yozar ekan, “ushbu texnologiyalardan ko’zlangan maqsad muhojirlarning kimligi va kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlarni tezkorlik bilan tekshirish ekanligi, aks holda, uzoq vaqt davomida mutaxassis ekspert-tilshunoslarning bahosini kuza-tish zarurati yuzaga kelishi” [43-, 15–17 b.]ni qayd etishgan.

2018-yildan boshlab Yevropa Ittifoqida ham migratsiya va xavfsizlik sohalarida sun’iy intellekt va unga tegishli texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan yangi huquqiy hujjatlar qabul qilingan (2018/1860-sonli; 2019/816-sonli; 2019/818-sonli reglamentlar). Bangladesh, Nepal va Malayziya kabi davlatlar ham migratsiyani boshqarish tizimini ushbu davlatlarda qo’llangan avtomatlashtirish texnologiyasidan foydalanmoqda [44, 74–76-b.].

Bundan tashqari, ayrim davlatlarda “migratsiya inqirozi”ni prognoz qilish maqsadida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari o’rganilmoqda. Ushbu masalalar M. Carammia va J.C. Dumont tadqiqotlarida tahlil qilinib, unda Shvetsiyada kelgusidagi migratsiya oqimini prognoz qilish uchun mashinasozlik kabi metodlarga asoslangan “migratsiya algoritmlari”dan foydalanish va uning samaradorligi o’rganilgan [45, 28–30-b.]. Xitoyda sun’iy intellekt texnologiyalarini dastlab ijtimoiy kredit tizimini boshqarish va undagi muammolarni aniqlashda qo’llash boshlangan [46, 74-76-b.].

Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi xalqaro migratsiya sohasida faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlarning amaliyotiga ham ta’sir qila boshladi. Xalqaro tashkilotlar allaqachon yangi texnologiyalarni qo’llashga katta qiziqish bildirgan. Ba’zilar allaqachon biometrik texnologiyalar bilan birgalikda mashinasozlik va sun’iy intellektdan foydalanishni joriy qilgan [47].

XMT tomonidan xalqaro migratsiyada texnologiyalardan foydalanishni o’rganish va ushbu texnologiyalarni davlatlar tomonidan tatbiq qilishga qaratilgan “Migratsiya uchun katta ma’lumotlar” alyansi ishga tushirildi [48]

Yuqoridagi misollar davlatlar oldiga, mehnat migrantlarini ham eksport, ham import qiluvchi O’zbekiston oldiga mehnat migratsiyasi jarayonlarini raqamlashtirish, ushbu jarayonlarga zamonaviy algoritmlarga asoslangan sun’iy intellekt texnologiyalarini

tatbiq qilish istiqbollarini o'rganish vazifasini qo'yadi.

O'zbekiston sharoitida bugungi kunda xorijiy davlatlarga mehnat qilish uchun chiqib ketayotgan mehnat migrantlari faoliyatida ushbu texnologiyalarni mehnat migrantlarini qabul qiluvchi davlatda xavfsiz va qonuniy mehnat faoliyatini olib borishiga ko'maklashish, ularga iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy maslahatlarni taqdim etish, muammoli vaziyatlarni yechishda turli samarali usullarni ko'rsatib berish, xavfli hududlar va sog'liqni saqlashga oid ogohlantirishlarni avtomatik yuborish kabi sohalarda samarali qo'llash mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalardan chegarada chet el fuqarolarining shaxsini aniqlash, xorijiy davlatlarda jinoyat sodir etgan yoki ta'qibda ekanligini o'rganish, vaksina olinganligini tekshirish maqsadlarida foydalanish istiqbolli yo'nalish sanaladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini migratsiya jarayonlariga tatbiq qilishda uning faqat iqtisodiy samaradorligi, xavfsizlikni ta'minlashdagi yuqori natijalariga asosiy urg'uni bermasdan, ushbu texnologiyalarning inson huquqlarini buzmasligi, huquqiy asoslarini samarali ishlab chiqish bo'yicha o'ziga xosligini ham unutmash lozim. Bu borada tadqiqot olib borgan L. McGregor, D. Murray, V. Ng [19, 309-b.] va L. Floridi [49, 689-b.] ning xulosalari aynan sun'iy texnologiyalarning inson huquqlari va tabiiy huquqlarga ta'siriga baho berishga qaratilganligi e'tiborlidir.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini migratsiya jarayonlariga tatbiq qilishda yana bir xavf – shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash bilan bog'liq masaladir. Inson ijtimoiy hayotda bo'lgani kabi internet va axborot texnologiyalarida ham shaxsiy huquqlar, ularni himoya qilish, shaxsiy axborotlarga ham ega bo'ladi. Bu haqda 2012-yildagi Inson huquqlari kengashi; 2014-yilda BMT Bosh Assambleyasi [50]; 2016-yilda Inson huquqlari kengashining tegishli qarorlarida davlatlar zimmasiga maj-

buriyatlar yuklatilgan [51, 21–23-b.]. Ushbu hujjatlardagi umumiy g'oya shaxsiy hayotni hurmat qilish huquqi telekommunikatsiya va elektron ma'lumotlarga ham taalluqlidir, degan qarash atrofida birlashgan.

Axborot dunyosida shaxsiy ma'lumotlarni saqlash bo'yicha bir qator sud muhokamaları va nizolari (2010-yilda Uzun Germaniyaga (Uzun v. Germany)ga qarshi 2010 [52]; 2008-yilda Marrer Buyuk Britaniyaga qarshi (Big Brother Watch and others v. United Kingdom) [53] sud ishlari) bo'lganligi ham migratsiya sohasida axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni saqlash masalalari inson huquqlarini ta'minlashda muhim ekanligini ko'rsatadi.

M. Geiger va A. Re'oudning fikricha, sun'iy intellektning xalqaro migratsiya jarayonlariga tatbiq qilinishi ushbu sohada uchta muhim yo'nalishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi: birinchi, mehnat migratsiyasi ishtirokchilari sanalgan davlatlararo munosabatlar hamda xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar; ikkinchi, davlatlarning milliy amaliyoti; uchinchi, xalqaro migratsiyani boshqaruvchi xalqaro va milliy tashkilotlar faoliyati samaradorligi [54, 18–20-b.]. Biz ushbu fikrga to'liq qo'shilamiz. Buning isbotini xalqaro amaliyot ham tasdiqlaydi.

Qayd etish zarurki, sun'iy intellekt texnologiyalari va internet aloqalari mehnat migrantlari uchun tubdan yangi mexanizmlar va imkoniyatlarni yaratish bilan birga O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishni rejalashtirayotgan migrantlarning uzoqdan ijtimoiy va huquqiy moslashuviga ko'maklashadi.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Hozirda O'zbekistondan xorijiy davlatlarga mehnat migranti sifatida chiqib ketgan fuqarolarimiz duch kelayotgan eng katta muammolardan biri samarali, ishonchli, tezkor va tizimli huquqiy axborot bilan ta'minlash masalasidir.

Qisqa qilib aytganda, davlat har bir fuqaroni O'zbekistondan ishlash uchun chiqib

ketishni rejalashtirgan vaqtdan boshlab to ishlab, vatanga qaytgunga qadar bo'lgan davrda kuzatish, huquqiy yordam berish va muammolarini hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan sun'iy intellektga asoslangan elektron tizimni yaratish yaqin yillardagi O'zbekistonning ushbu sohadagi vazifasi sanaladi.

Mehnat migratsiyasi jarayonlariga raqamlashtirish masalalari nafaqat chegara yoki migrantlarga huquqiy va boshqa axborotlarni yetkazish bo'yicha davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar, balki mehnat migrantlarini qabul qiluvchi davlatdagi ijtimoiy munosabatlari, uning moslashuvini tezlashtirish, mahalliy aholi madaniyatiga kirishi jarayoniga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Mehnat migrantlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish bilan bevosita aloqador bo'lgan masalalarning huquqiy yechimlari bugungi kunda milliy darajada hal qilinmagan.

Birinchi, raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq migratsiya siyosatining tarkibiy qismlari va subyektlarining maqomiga huquqiy baho berish. Bunga mavjud strategiya va dasturlar, shuningdek, milliy va xalqaro amaliyot hamda turli yo'nalishdagi mintaqaviy ijtimoiy xizmatlar tahlili kiritiladi.

Ikkinchi, O'zbekistondan xorijiy davlatlarga ketayotgan mehnat migrantlarini tartibga solishda raqamli texnologiyalarning rolini aniqlash, mehnat migrantlari va xususiy bandlik agentliklari (keyingi o'rinlarda – XBA) faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslarini shakllantirish.

Uchinchi, O'zbekistondan xorijiy davlatlarga chiqib ketgan fuqarolarni yangi yashash va ishlash joyiga moslashtirish amaliyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish modellari tahlil qilish orqali eng maqbul yo'nalishni belgilab olish.

Umuman olganda, migratsiyani raqamlashtirish jarayoni xalqaro mehnat migratsiyasi oqimining son jihatdan o'sishi, hududiy (xalqaro, mintaqaviy) va malaka hamda kas-

biy harakatchanlik darajasining ko'tarilishiga turtki beradi. Shu bilan birga, raqamlashtirish nafaqat ishchi kuchi, balki ish o'rinlari harakati uchun ham shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi. Bu esa xalqaro jismoniy mehnat migratsiyasi oqimining ma'lum darajada kamayishiga olib keladi.

Migratsiya jarayonini raqamlashtirish chet ellarga o'z vatanlarini tashlab, ishlash uchun borishdan ko'ra, virtual tarzda xorijiy davlatlar ish beruvchilarining buyurtmalarini bajarish yoki virtual tarzda chet el korxonalarida ishlash imkonini beruvchi kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talabning ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Albatta, bunday kasb egalari yuqori malakali mutaxassislar toifasini tashkil etadi. Bugungi kunda ularning soni juda kam ekanligini ham ta'kidlash zarur. Shu bilan birga, xalqaro va milliy darajada virtual ishlash jarayonining shaffofligini ta'minlash, uzoqdan ishchilarning mehnat sharoitlarining xalqaro standartlarga muvofiqligini nazorat qila olish uchun masofaviy ish joylarini hisobga olish va tahlil qilish usullarining texnik va huquqiy asoslarini yaratish zarurligini ham unutmaslik kerak.

Bundan tashqari, demografik o'zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish, aloqa texnologiyalari yutuqlari va transport vositalarida yuz berayotgan inqilobiy o'zgarishlar ham mehnat migratsiyasining soni va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi xalqaro tajriba asosida O'zbekiston Respublikasining 2021–2026-yillarga mo'ljallangan davlat tashqi migratsiya siyosati konsepsiyasini qabul qilish taklif qilinadi.

Unda migratsiya sohasiga raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni tatbiq qilish orqali elektron migratsiyani rivojlantirishning uzoq va qisqa istiqbolli strategiyasini ishlab chiqish zarur.

Elektron migratsiya konsepsiyasi elektron demokratiya va elektron hukumat konsepsiyalari bilan integratsiyalashuv asosida yaratilishi muhim.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi – O'zbekis-

tondan chiqib ketayotgan mehnat migrantlari uchun yagona axborot-huquqiy “elektron ishonch maydonini” yaratish.

Davlat va mehnat migrantlari o'rtasida ishonchning obyektiv inqirozi mavjud. Mehnat migrantlarini talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'rgatish, qabul qiluvchi xorijiy davlatlarning ijtimoiy-madaniy va huquqiy makoniga ijtimoiy moslashuvi, integratsiyasi va huquqiy himoyasini ta'minlashning samarali mexanizmlari mavjud emas.

Ushbu konsepsiyada quyidagi asosiy yo'nalishlarni belgilab berish taklif qilinadi: migratsion vaziyatning o'zgarishini o'rganish va uni prognozlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lish uchun qonuniy asosga ega bo'lmagan chet el fuqarolarining kirish va chiqishlarini o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf qilish imkonini beruvchi texnik vositalar bilan jihozlash;

migratsiya sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish maqsadida shaxsiy identifikatsiyalash uchun zamonaviy biometrik texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish;

jamoat xavfsizligini ta'minlash va migratsiya sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatish;

O'zbekistondan xorijiy davlatlarga ishlash uchun chiqib ketayotgan mehnat migrantlarining soni, ularning kasbiy faoliyati, mutaxassisligi, istaklarini aniqlash va tahlil qilish, prognozlashtirish bo'yicha axborotlarni to'plash va tahlil qilish;

xorijiy davlatlarga ishlash uchun chiqib ketayotgan mehnat migrantlarining xorijiy davlatlarda bo'lib turish davrida ularni nazorat qilishning elektron tizimini joriy etish;

davlat axborot tizimlarini yaratish, saqlash va rivojlantirish orqali migratsiya sohasida ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish.

O'zbekiston fuqarolarini chet el davlatlariga ishga yuborish yoki mustaqil ravishda ish topish jarayoniga axborot texnologiyalarini tatbiq qilishda mamlakatimiz hududidan chiqib ketishidan avval barcha bosqichlarni raqamlashtirish talab qilinadi. Bugungi kunda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining RF-5785-son farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida labormigration.uz elektron portali ishga tushirilgan.

Unda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil 14-avgust holatiga 339 506 nafar fuqarolarimiz ro'yxatdan o'tgan, 257 nafar ish beruvchilar bilan mehnat shartnomasi tuzilgan, 10 304 ta bo'sh ish o'rinlari taqdim etilgan bo'lsa, jami ko'rsatilgan xizmatlar 346 915 tani tashkil qiladi [55].

Bizningcha, labormigration.uz – elektron portali quyidagi axborot-huquqiy masalalar va texnik imkoniyatlarni qamrab olishi zarur:

mustaqil va avtomatik ravishda fuqaroni identifikatsiya qilish va tekshirish (fuqaro, chet el fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxs, qochqinning shaxsini aniqlash va tekshirish);

mehnat migrantlari uchun samarali va tezkor onlayn axborot-huquqiy qo'llab-quvvatlash, internet aloqasi yo'q vaziyatda oflayn rejimda yordam so'rash yoki audio xabar yuborish imkoniyatini yaratish;

turli axborot tizimlariga integratsiya qilish orqali axborotlarning ishonchliligini turli manbalardan tekshirish imkoniyatini yaratish;

elektron boshqaruv texnologiyalariga asoslangan boshqaruv komponentini yaratish orqali fuqarolar huquq va erkinliklarining bajarilishini masofadan turib kuzatib borish, migrantlar huquqlarini ta'minlash sohasidagi hozirgi holatni baholash imkonini beradigan elektron nazorat tizimini joriy qilish;

elektron media ta'lim texnologiyalari asosida yuridik ta'lim va huquqiy ta'limning platformada mavjudligi. Ayniqsa, MDHga a'zo davlatlarda mehnat qilish uchun chiqib ketayotgan muhojirlar uchun media-ta'lim texnologiyalari va metodlariga asoslangan elektron ta'limning yuqori darajasini ta'minlash dolzarb sanaladi;

xorijiy davlatlardagi fuqarolar o'rtasida o'zaro axborot va aloqa vositalarini tashkil qilish zarur. Bunda xorijiy davlatlarda mehnat

qilayotgan fuqarolarimiz uchun davlatlar kesimida yagona axborot-kommunikatsiya resursini (ijtimoiy tarmoq, internet portal) shakllantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat hokimiyati organlari bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratish lozim;

elektron jamoatchilik nazorat tizimini yaratish. Fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar orqali mehnat migrantlarining ijtimoiy moslashuvi hamda integratsiyasining samarali tizimini yaratish zarur. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mehnat migratsiyasi sohasida jamoatchilik nazoratini tubdan yangi sifat darajasiga olib chiqishga imkon beradi.

Bizningcha, mazkur portaldagi xizmatlar doirasi va mazmunini to'liq yangilash hamda uning Android va iOS tizimlariga mo'ljallangan mobil ilovasini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu elektron platformalarda chet elga chiqmoqchi bo'lgan barcha fuqarolarni ro'yxatdan o'tkazish, eng muhimi, unda ularning kasbi, mutaxassisligi yoki qo'lida qanday hunari borligini qayd etish darkor.

Elektron platformada, bundan tashqari, chet ellik ish beruvchilarning ma'lum ish yoki kasbga bo'lgan ishchi kuchi ehtiyojlari, qo'yilgan talablariga oid bo'limni ham joriy qilish maqsadga muvofiq.

Chet ellik ish beruvchilarning talablari va bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumotlar bazasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan chet ellik hamkorlar bilan amalga oshirilgan hamkorlik doirasida olingan takliflar asosida to'ldiriladi.

O'zbekiston fuqarolari chet ellik ish beruvchilarning takliflarini qabul qilgan taqdirda ular o'rtasidagi barcha munosabatlar dastlabki mehnat shartnomasi yoki o'zaro ish bilan ta'minlash to'g'risidagi kelishuv bilan rasmiylashtirishi kerak. Bu, o'z navbatida, fuqarolarimizning kafolatlangan ish o'rinlariga bo'lgan huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt tizimi bunday dastlabki kelishuvni rasmiylashtirish jarayonida ishga bormoqchi bo'lgan fuqaroni ushbu davlatga kirishga taqiq borligi yoki yo'qligi, O'zbekistondan chiqib ketishga taqiq qo'yilgan yoki qo'yilmaganligini avtomatik ravishda tekshirib, bo'lajak mehnat migranti va ish beruvchini ogohlantirishi zarur. Agar taqiq mavjud bo'lsa, ushbu dastlabki kelishuvni rasmiylashtirish imkoniyati avtomatik ravishda taqiqlanadi.

Barcha tibbiy ko'rik natijalari va mehnat migrantida COVID-19 kasalligi yo'qligini tasdiqlovchi hujjatlar mehnat migrantini import qiluvchi davlatda o'tkazilishi zarur va ushbu tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotlar chet elga safar qilishdan ko'pi bilan bir sutka oldin elektron tizimga yuklanishi talab qilinadi.

Ushbu raqamli texnologiyalarga asoslangan tizim noqonuniy migratsiyani cheklash va mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mobil ilova orqali mehnat migrantiga qabul qiluvchi davlat qonunchiligi, ushbu davlatda ishlash huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni onlayn tarzda yuborish imkoniyatlari haqida xabarlarini avtomatik tarzda yuborib turadi.

Mobil ilovada geolokatsiya tizimining o'rnatilishi mehnat migrantini doimiy ravishda aloqada ushlab turishga xizmat qiladi. Agar mobil ilova orqali mehnat migranti bilan aloqa bir oy muddatga uzilsa, avtomatik ravishda tegishli elchixonalar, davlat organlariga xabar yuborish tizimini o'rnatish taklif qilinadi.

Bundan tashqari, mobil ilova tizimi mehnat migrantiga qabul qiluvchi davlatda huquqbuzarlik sodir etmaslik, milliy qonunchilikning o'ziga xosligi haqida ham ma'lumotlarni doimiy ravishda yetkazib turishi lozim. Qabul qiluvchi davlatda tegishli ruxsatnomalar olish va qonuniy mehnat faoliyatini tashkil qilish muhim bo'lganligi sababli elektron tizimga mehnat qilish huquqini tasdiqlovchi ruxsatnomaning amal qilish muddati tugashi haqida mehnat migrantini ogohlantiruvchi funksiyani kiritish taklif qilinadi.

Elektron migratsiya tizimini joriy etish konsepsiyasi doirasida mehnat migrantlarining axborot-huquqiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega [56, 207–2014-b.]. Ushbu fikrga to'liq qo'shilamiz. Mazkur komponentsiz mehnat migrantlarini xorijiy davlatlarda huquqiy himoya qilish va ularning huquqlarini kafolatlash imkoniyati pasayib ketadi.

Bizningcha, mehnat migrantlarining qabul qiluvchi davlatda samarali mehnat qilishi va jamiyatga tez integratsiyasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan axborot va huquqiy madaniyatning minimal darajasi bo'lgan – "mehnat migrantlarining axborot-huquqiy portfeli"ni ishlab chiqish zarur.

### Xulosalar

Yuqoridagilar asosida quyidagi nazariy xulosalarni ilgari surish mumkin.

Birinchi, mehnat munosabatlariga raqamli texnologiyalarning tatbiq qilinishi, xalqaro huquq, xalqaro xususiy huquq, ma'muriy huquq, mehnat huquqi sohalarida raqamli mehnat munosabatlarini tadqiq qilish yangi fundamental qarashlar, g'oyalar va nazariyalarni yaratishga xizmat qiladi.

Ikkinchi, mehnat migratsiyasi jarayonini tartibga solishni raqamlashtirish va unga

sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq qilish ishga qabul qilish va joylashtirish bilan bog'liq ma'muriy jarayonlarni yengillashtirish, mehnat migrantlari haqida boshqaruv ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish hamda mavsumiy mehnat migratsiyasi davrida yuridik yordam, ijtimoiy yordam va onlayn o'qitish imkoniyatlarini o'z ichiga olgan migrant ishchilarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yaratishga xizmat qiladi.

Uchinchi, mehnat munosabatlariga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish orqali xalqaro xususiy mehnat shartnomalari, ish haqlari va boshqa to'lovlarning to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar, tibbiy ma'lumotnoma, ish o'rinlari haqidagi axborotlarning "raqamli iz"ini qoldirish orqali mehnat migranti haqida individual axborot bazalarini yaratish imkoniyati yaratiladi. Ushbu ma'lumotlar elektron dalil sifatida mehnat migranti va ish beruvchi o'rtasida kelib chiqadigan mehnatga oid nizolarni hal qilish hamda mehnat migrantining huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

To'rtinchi, mobil ilova va elektron kartalar ishlab chiqish orqali mehnat migrantlariga hujjatlarni rasmiylashtirish va xizmatlardan onlayn foydalanish imkoniyati yaratiladi.

## REFERENCES

1. Cherevichko T.V. Migratsiya truda v kontekste tsifrovoy ekonomiki [Labor migration in the context of the digital economy]. *Bulletin of the Saratov State Socio-Economic University*, 2019, no. 4 (78).
2. Autor D.H., Levy F., Murnane R.J. The skill content of recent technological change: An empirical exploration. *The Quarterly journal of economics*, 2003, vol. 118, no. 4, pp. 1279–1333.
3. Acemoglu D., Autor D. Skills, tasks and technologies: Implications for employment and earnings. *Handbook of labor economics*, Elsevier, 2011, vol. 4, pp. 1043–1171.
4. Brynjolfsson E., McAfee A. The second machine age: Work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies. WW Norton & Company, 2014.
5. Körfer A., Röthig O. Decent crowdwork – The fight for labour law in the digital age. *European Review of Labour and Research*, 2017, no. 23 (2), pp. 233–236.
6. Raj-Reichert G., Zajack S., Helmerich N. Introduction to special issue on digitalization, labour and global production. 2021.
7. Majcher I. The Schengen-Wide Entry Ban: How are Non-Citizens' Personal Data Protected? *Journal of Ethnic and Migration Studies*, 2020. DOI: 10.1080/1369183X.2020.1796279/.

8. Vasil'yev V.Ye., Yeremenkova YU.I., Yermokhina A.N., Nikiforov A.A., Soldatenkov I.V. Rol' tsifrovoykh tekhnologiy v adaptatsii trudovoykh migrantov iz Sredney Azii v sovremennoy Rossii [The role of digital technologies in the adaptation of labor migrants from Central Asia in modern Russia]. *Questions of Ethnopolitics*, 2019, no. 3, pp. 122–144.
9. Diminescu D. The connected migrant: an epistemological manifesto. *Social Science Information*, 2008, vol. 47, no. 4, pp. 565–579.
10. Leurs K., Ponzanesi S. Connected migrants: Encapsulation and cosmopolitanization. *Popular Communication*, 2018, vol. 16, no. 1, pp. 4–20.
11. Brookes M. *The New Politics of Transnational Labor: Why Some Alliances Succeed*. Ithaca, ILR Press, 2019.
12. Soul J. Local unions in a transnational movement: The role of Mexican unions in the making of international networks. *Journal of Labor and Society*, 2019, no. 22 (1), pp. 25–43.
13. Zajak S., Egels-Zanden N., Piper N. Networks of labour activism: Collective action across Asia and beyond: An introduction to the debate. *Development and Change*, 2017, no. 48 (5), pp. 899–921.
14. Zajak S., Scheper C. The dual nature of transparency: Corporatization and democratization of global production networks. Eds. Berger S. and Owetschkin D. *Contested Transparencies, Social Movements and the Public Sphere*. London, Palgrave Macmillan, 2019, pp. 211–232.
15. Crawford K., Miltner K., Gray M.L. Critiquing Big Data: Politics, Ethics, Epistemology', *International Journal of Communication*, 2014, no. 8, pp. 1663–1672.
16. Calo R. Artificial Intelligence Policy: A Primer and Roadmap. *UC Davis Law Review*, 2017, no. 51, pp. 399–435.
17. Kitchin R. Thinking Critically about and Researching Algorithms. *Information, Communication & Society*, 2017, vol. 20 (1), pp. 14–29.
18. McGregor L., Murray D., Ng V. International Human Rights Law as a Framework for Algorithmic Accountability. *International and Comparative Law Quarterly*, 2019, vol. 68 (2), pp. 309–343.
19. Beduschi A. *International migration management in the age of artificial intelligence*. Migration Studies, 2020.
20. Chui M. et al. Notes from the AI frontier: Applying AI for social good. McKinsey Global Institute, 2018, pp. 41–42.
21. Cherevichko T.V. Migratsiya truda v kontekste tsifrovoy ekonomiki [Labor migration in the context of the digital economy]. *Vestnik Saratovskogo gosudarstvennogo sotsial'no-ekonomicheskogo universiteta – Bulletin of the Saratov State Socio-Economic University*, 2019, no. 4 (78).
22. Soysüren I., Nedelcu M. European Instruments for the Deportation of Foreigners and Their Uses by France and Switzerland: The Application of the Dublin III Regulation and Eurodac. *Journal of Ethnic and Migration Studies*, 2020. DOI: 10.1080/1369183X.2020.1796278/.
23. «Tsifrovyye diaspori» migrantov iz Tsentral'noy Azii: virtual'naya setevaya organizatsiya, diskurs «voobrazhayemogo soobshchestva» i konkurentsia identichnostey [“Digital diasporas” of migrants from Central Asia: a virtual network organization, the discourse of the “imaginary community” and the competition of identities]. Ed. I.P. Kuzheleva-Sagan. Tomsk, Publishing House of Tomsk State University, 2016, 168 p.
24. Diminescu D. The connected migrant: an epistemological manifesto. *Social Science Information SAGE*, 2008. Available at: <http://ssi.sagepub.com/content/47/4/565/>.
25. Barnes S.A., Green A., De Hoyos M. Crowdsourcing and work: Individual factors and circumstances influencing employability. *New Technology, Work and Employment*, 2015, no. 30, p. 1.
26. Soul J. Local unions in a transnational movement: The role of Mexican unions in the making of international networks. *Journal of Labor and Society*, 2019, vol. 22 (1), pp. 25–43.
27. De Stefano V. The rise of the “just in time workforce”: On-demand work, crowdwork, and labour protection in the “gig-economy.” *Conditions of Work and Employment Series*. Geneva, International Labour Office, 2016, no. 71.



28. Molnar P., Gill L. Bots at the gate: a human rights analysis of automated decision-making in Canada's immigration and refugee system. 2018, pp. 14–16.
29. Bansak K. et al. Improving refugee integration through data-driven algorithmic assignment. *Science*, 2018, vol. 359, no. 6373, pp. 325–329.
30. Regulation 2018/1860/EU on the use of the Schengen Information System for the return of illegally staying third-country nationals OJ L312.
31. Low C.C. Digitalization of Migration Management in Malaysia: Privatization and the Role of Immigration Service Providers. *Journal of International Migration and Integration*, 2021, pp. 1–29.
32. Beduschi A. International migration management in the age of artificial intelligence. *Migration Studies*, 2020.
33. Cre'peau F., Atak I. Global Migration Governance. Avoiding Commitments on Human Rights, Tracing a Course for Cooperation. *Netherlands Quarterly of Human Rights*, 2016, vol. 34 (2), pp. 113–146.
34. De Vries L. A., Guild E. Seeking refuge in Europe: spaces of transit and the violence of migration management. *Journal of ethnic and migration studies*, 2019, vol. 45, no. 12, pp. 2156–2166.
35. Gazieva S. Digitalization of labor migration is a new agenda for migrants' contributions to societies of the world. *Archive of scientific studies*, 2020, no. 22.
36. New York Declaration for Refugees and Migrants, A/RES/71/1. UN Global Pulse, 2018. Available at: <https://www.unglobalpulse.org/> (accessed 06.11.2020).
37. Global Compact on Refugees. UNGA, 2018, September 13, vol 2, no. A/73/12. Available at: [https://www.unhcr.org/gcr/GCR\\_English.pdf/](https://www.unhcr.org/gcr/GCR_English.pdf/) (accessed 06.11.2020).
38. Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration. UNGA, 2019, January 11, no. A/RES/73/195. Available at: [https://www.un.org/en/ga/search/view\\_doc.asp?symbol=A/RES/73/195/](https://www.un.org/en/ga/search/view_doc.asp?symbol=A/RES/73/195/) (accessed 06.11.2019).
39. UK Research and Innovation. GCRF South-South Migration, Inequality and Development Hub, 2019. Available at: <https://gtr.ukri.org/projects?ref=ES%2FS007415%2F1/> (accessed 06.11.2020).
40. Tangermann J. Documenting and Establishing Identity in the Migration Process: Challenges and Practices in the German Context; Focussed study by the German National Contact Point for the European Migration Network. EMN, 2017, pp. 25–26.
41. Federal Office for Migration and Refugees, 2018. Digitisation Agenda 2020. Success stories and future digital projects at the Federal Office for Migration and Refugees, BAMF. Nuremberg, Federal Office for Migration and Refugees.
42. Patrick P.L. Language analysis for the determination of origin, LADO: an introduction. Language analysis for the determination of origin. Springer, Cham, 2019, pp. 1–17.
43. Gelb S., Krishnan A. Technology, migration and the 2030 Agenda for Sustainable Development. London, Overseas Development Institute, 2018, pp. 74–76.
44. Carammia M., Dumont J.C. Can we anticipate future migration flows? *Migration Policy Debates, OECD/EASO*, 2018, no. 16, pp. 28–30.
45. Matsakis L. How the West Got China's Social Credit System Wrong. 2019.
46. The Engine Room & OXFAM, 2018. Biometrics in the Humanitarian Sector. London, The Engine Room.
47. IOM & European Commission, 2018. Big Data for Migration Alliance (BD4M). Harnessing the Potential of New Data Sources and Innovative Methodologies for Migration. Brussels, 2018. Available at: <https://bluehub.jrc.ec.europa.eu/bigdata4migration/uploads/attachments/cjio8ha96019f99zvr9xq6025-big-data-for-migration-alliance-concept-note.pdf/> (accessed 06.11.2019).
48. Floridi L. et al. AI4People—an Ethical Framework for a Good AI Society: Opportunities, Risks, Principles, and Recommendations. *Minds and Machines*, 2018, no. 28 (4), pp. 689–707.
49. Resolution 68/167. The Right to Privacy in the Digital Age, A/RES/68/167.
50. Ledeneva V.YU., Rakhmonov A.KH. Riski gosudarstvennogo upravleniya v migratsionnoy sfere v usloviyakh tsifrovoy transformatsii [Risks of Public Administration in the Migration Sphere in the Conditions of Digital Transformation]. *Control*, 2020, vol. 8, no. 4.

51. Uzun v. Germany, 2010, no. 35623/05, ECHR 2010-VI.
52. Big Brother Watch and others v. United Kingdom, 2018, no. 58170/13 62322/14 24960/15, ECHR.
53. Geiger M., Pe'coud A. The Politics of International Migration Management. Basingstoke, Palgrave Macmillan, pp. 1–20.
54. Labor-migration, software complex. Available at: <https://labormigration.uz/>.
55. Vidyasova L.A., Bolgov R.V., Chugunov A.V. Elektronnoye pravitel'stvo v stranakh Yevraziyskogo ekonomicheskogo soyuza: opyt pilotnogo issledovaniya i perspektivnyye metody [E-government in the countries of the Eurasian Economic Union: pilot study experience and promising methods]. *Yevraziyskiy yuridicheskiy zhurnal – Eurasian Law Journal*, 2016, no. 7 (98), pp. 207–214.
56. Calo R. There is a Blind Spot in AI Research. *Nature*, 2016, vol. 538/7625, pp. 311–313.
57. Data Bulletin, Informing a Global Compact for Migration. IOM, 2017. Issue no. 3. Geneva, IOM, 2018. Big Data and Migration. Geneva, IOM, 2019a. Migration Data Portal, Geneva, 2019. Available at: <https://migrationdataportal.org/> (accessed 06.11.2020).

UDC: 349.227(045)(575.1)

## MEHNAT SHARTNOMASINING TARAFLAR IXTIYORIGA BOG'LIQ BO'LMAGAN HOLATLAR BO'YICHA BEKOR QILINISHI

**Murodullayev Dostonjon Nig'matullo o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0000-0001-7313-9706  
e-mail: doston.murodullayev@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “mehnat shartnomasini bekor qilish”, “mehnat shartnomasini to'xtatish” va “ishdan bo'shatish” tushunchalarini qo'llash masalalari hamda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslaridan biri sifatida mehnat shartnomasining taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilinishi tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari aniq belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, ushbu asoslarni amalda qo'llash mexanizmi mavjud emas. Ya'ni qaysi asos bilan qanday tartibda va qanday muddatlarda mehnat shartnomasini bekor qilish mumkinligi haqida qoidalar belgilanmagan. Hatto boshqa qonun hujjatlarida ham bu masalaga havola qilingan normalar uchramaydi. Shu sababli hozirgi kunda ushbu asoslarni qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolar soni ortib bormoqda. Buning oqibatida esa xodimlarning mehnat qilish huquqlari buzilish hollari mavjud. Vujudga kelayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida belgilangan asoslarni qo'llash mexanizmi ishlab chiqilishi va qonunchilikka tatbiq etilishi zarur. Kodeksdagi bunday bo'shliqlarning yo'qotilishi va normalarning takomillashtirilishi nafaqat xodim huquqlarini ta'minlaydi, balki ish beruvchilarni ham huquq normasini to'g'ri qo'llashga yo'naltiradi.

**Kalit so'zlar:** mehnat shartnomasi, xodim, ish beruvchi, mehnat shartnomasini bekor qilish, mehnat shartnomasini to'xtatish, ishdan bo'shatish.

### ПРЕКРАЩЕНИЕ ТРУДОВОГО ДОГОВОРА ПО ОБСТОЯТЕЛЬСТВАМ, НЕ ЗАВИСЯЩИМ ОТ ВОЛИ СТОРОН

**Муродуллаев Достонжон Нигматулло угли,**  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы применения понятий «прекращение трудового договора», «расторжение трудового договора» и «увольнение» и случаи, когда трудовой договор был прекращен по обстоятельствам, не зависящим от воли сторон. Хотя Трудовой кодекс Республики Узбекистан четко определяет основания прекращения трудового договора в случаях, не зависящих от воли сторон, механизм применения этих оснований на практике отсутствует. Иными словами, не существуют правил прекращения трудового договора: на каком основании, в каком порядке и на какой срок. В других правовых документах также отсутствуют нормы, касающиеся этого вопроса. В результате в настоящее время становится все больше проблем, возникающих при применении этих

оснований. И по этой причине имеются случаи нарушения трудовых прав работников. В целях устранения возникающих проблем и недостатков необходимо разработать механизм применения принципов, определенных в Трудовом кодексе Республики Узбекистан, и внедрить их в законодательство. Устранение подобных пробелов в Трудовом кодексе и совершенствование его норм не только обеспечат права работников, но и соориентируют работодателей на правильное применение правовых норм.

**Ключевые слова:** трудовой договор, работник, работодатель, прекращение трудового договора, расторжение трудового договора, увольнение.

## TERMINATION OF EMPLOYMENT CONTRACT DUE TO CIRCUMSTANCES BEYOND THE CONTROL OF THE PARTIES

**Murodullayev Dostonjon Nigmatullo ugli,**  
Researcher of Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article discusses the application of the concepts of “cancellation of the employment contract”, “termination of the employment contract”, “dismissal” and cases when the employment contract was terminated due to circumstances beyond the control of the parties. Although the Labor Code of the Republic of Uzbekistan clearly defines the grounds for termination of an employment contract in cases beyond the control of the parties, there is no mechanism for applying these grounds in practice. In other words, there are no rules for terminating an employment contract, on what basis, in what order, and for how long. Norms relating to this issue are not even in other legal documents. As a result, there are now more and more problems arising in the application of these grounds. And for this reason, there is a case of violation of the labor rights of workers. In order to eliminate emerging problems and shortcomings, it is necessary to develop a mechanism for applying the principles defined in the Labor Code of the Republic of Uzbekistan and introduce them into legislation. Eliminating such loopholes in the Code and improving regulations not only ensure the rights of workers, but also guide employers to the correct application of legal norms.

**Keywords:** employment contract, employee, employer, termination of the employment contract, cancellation of the employment contract, dismissal.

### Kirish

Ma'lumki, ijtimoiy huquqlar orasida shaxslarning mehnatga oid huquqlari alohida o'rin egallaydi. Chunki mehnat qilish va uning natijasi bo'lgan daromad yoki foydani olish har bir insonga berilgan huquqdir. Bu huquqdan foydalanishga esa har bir shaxs haqli. Inson huquqlari eng oliy qadriyat sifatida baholanar ekan, har bir shaxsning mehnatga oid huquqlari ham xalqaro darajada, ham davlatlarning milliy qonunchiligida alohida tartibga solinadi va muhofaza etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan mehnat qilish huquqini ta'minlovchi va ro'yobga chiqaruvchi asosiy omil mehnat shartnomasi hisoblanadi.

Mehnat shartnomasini tuzish orqali mehnat qilish huquqi bevosita qonun himoyasiga olinadi. Chunki ushbu shartnomada xodim va ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlar tartibga solinadi.

Mehnat shartnomasining yuridik tabiati shu bilan ifodalanadiki, ushbu huquqiy institut jamiyatda mehnat-huquqiy munosabatlar amalga oshirilishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Mehnat shartnomasi konsepsiyasini L.S. Tal ishlab chiqqan bo'lib, uning konsepsiyasi mehnat huquqida nazariy asos darajasiga ko'tarilgan [1].

Professor O.V. Smirnov mehnat huquqida mehnat shartnomasini uchta aspektda tushunish lozimligini belgilaydi [2]:

birinchidan, mehnat shartnomasi fuqarolarning mehnat qilishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish shakli;

ikkinchidan, mehnat shartnomasi mehnat huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi va davom etishining asosi;

uchinchidan, mehnat shartnomasi fuqarolarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish va ularni ishdan bo'shatishni tartibga soluvchi normalarni o'zida mujassam etgan mehnat huquqi instituti.

Shuningdek, mehnat shartnomasi, bir tomondan, mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilishni o'zida aks ettiruvchi mehnat huquqining muhim instituti bo'lsa, boshqa tomondan, mehnat shartnomasi mavjud bo'lgan mehnat shartlarini belgilovchi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuv hisoblanadi. Bu borada huquqshunos olim M. Gasanovning fikrini ta'kidlab o'tish lozim. Uning qarashlariga ko'ra, mehnat shartnomasini tuzishga asoslanmagan, ishga yollash bilan bog'liq bo'lmagan mustaqil mehnat huquqi bilan tartibga solinmaydi [3].

Shuningdek, huquqshunos olimlar Sh. Ismoilov [4], X. Burxanxodjayeva [5], M. Rahimov [6], L. Rahimqulova [7], M. Karimjonov [8], M. Xojabekov [9], A. Haqberdiyev [10], N. Yusupovlar [11] o'z ilmiy asarlarida mehnat shartnomasini bekor qilishga doir ayrim muammolarni tahlil qilganlar.

### **Material va metodlar**

Tadqiqot jarayonida ikkita savolga javob berishga harakat qilindi: 1) mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi va bu borada huquqshunos olimlarning fikrlari qanday; 2) mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilishning alohida xususiyatlari mavjudmi?

Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilishning bir qator muhim xususiyatlari alohida ta'kidlandi. Ushbu maqola xorijiy keng tarqalgan usullarni konseptual, nazariy, konstitutsi-

yaviy-huquqiy va amaliy tushunishga qaratilgan. Tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 72-moddasida mehnat shartnomasi tushunchasiga huquqiy jihatdan ta'rif berilgan. Unga ko'ra, mehnat shartnomasi – xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir.

O'z navbatida, mehnat shartnomasining tarkibiy institutlari (subinstitutlari)ni mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi normalar tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtda ko'p ukladli bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqqan holda aytadigan bo'lsak, mehnat shartnomasini tuzish va o'zgartirishdan ko'ra, mehnat shartnomasini bekor qilish muammosi dolzarb masalalardan biridir [12].

Mehnat shartnomasini bekor qilish mehnat huquqining muhim institutlaridan biri bo'lib, doimo olimlarning diqqat-markazida bo'lib kelgan. Bunda ayrim olimlar tomonidan mehnat huquqi va qonunchilikda "mehnati shartnomasini bekor qilish", "mehnati shartnomasini to'xtatish" va "ishdan bo'shatish" tushunchalarini qo'llash yuzasidan ko'p munozaralar qilingan.

A.A. Alpakov "to'xtatish" termini faqat mehnat-huquqiy munosabatlariga nisbatan qo'llanadi, mehnat shartnomasiga nisbatan esa "bekor qilish" terminini ishlatish kerak, xodimni ishdan bo'shatish esa mehnat shartnomasini bekor qilishning oqibati va ma'muriyat tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishni hujjatlarda rasmiylashtirish uchun qo'llanishi kerak, deb hisoblaydi [13].

K.N. Gusov va V.N. Tolkunovalarning fikriga ko‘ra, “mehnat shartnomasini bekor qilish”, “mehnat shartnomasini to‘xtatish” va “ishdan bo‘shatish” tushunchalari – mehnat munosabatlarini tugatishni bildiradi. Lekin yuqoridagi ikkala tushuncha, ya‘ni “mehnat shartnomasini bekor qilish” va “mehnat shartnomasini to‘xtatish” mehnat shartnomasi, “ishdan bo‘shatish” tushunchasi esa xodimga nisbatan qo‘llanadi [14].

Fransuz olimlarining fikricha, Fransiya mehnat qonunchiligida mehnat shartnomasini bekor qilish (terminate employment contract) termini ostida mehnat munosabatlarining tugatilganligi tushuniladi. Xodim bilan mehnat munosabatlarini tugatish asoslari Fransiya qonunchiligida xodimni ishdan bo‘shatish (dismissal) asoslari sifatida ko‘riladi [15].

Milliy mehnat qonunchiligimizda mehnat shartnomasini bekor qilish va ishdan bo‘shatish tushunchalarini qo‘llash bo‘yicha muammolar mavjud emas, chunki o‘zbek tilida ushbu tushunchalar to‘g‘ri va mazmunan mos ravishda qo‘llanadi.

M.Y. Gasanov bu haqda alohida to‘xtalib o‘tgan. Uning ta‘kidlashicha, Mehnat kodeksi mehnatga oid munosabatlar bekor qilinishini ifodalash uchun faqat bir atama – “mehnat shartnomasini bekor qilish”ni qo‘llaydi. Undan buyruqlarda, shuningdek, xodimlarning mehnat daftarchalariga qaydlar yozishda foydalanish kerak [16].

Rossiya huquqshunos olimlarining qayd etishicha, Rossiya Federatsiyasining Mehnat kodeksida “mehnat shartnomasini bekor qilish” tushunchasi 49 marotaba, “shartnomani to‘xtatish” 51 marotaba va “ishdan bo‘shatish” tushunchasi 105 marotaba keltirilgan bo‘lib, bu tushunchalardan bugungi kunda ham qonunchilikda foydalanilmoqda [17].

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi mehnatga oid munosabatlarning tugaganini bildiradi. Mehnat shartnomasini

to‘xtatish deganda esa munosabatlar ma‘lum muddatgagina to‘xtatib turilishi mumkinligini anglash mumkin.

Shuningdek, mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi ham shu kunga qadar turli nuqtayi nazar bilan ifodalangan. Rus olimi A.L. Anisimovning fikricha, mehnat shartnomasini bekor qilish xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi mehnat munosabatlarining tugatilganligini anglatadi [18].

Boshqa olimlar esa mehnat shartnomasini bekor qilish mehnat munosabatlarining bekor bo‘lishiga olib keluvchi yuridik fakt bo‘lib, uning natijasida taraflar bir-biriga nisbatan xodim va ish beruvchi munosabatida bo‘lishni to‘xtatadi hamda huquq va majburiyatlaridan ozod bo‘ladi, deb ta‘kidlashadi [19].

Demak, mehnat shartnomasi bekor bo‘lganda, xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi mehnat munosabatlari ham bekor bo‘ladi, shu bilan birga, xodim va ish beruvchining mehnat shartnomasidan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlari ham to‘xtatiladi. Ayrim hollarda esa huquq va majburiyatlari davom etishi ham mumkin, agar mehnat shartnomasini bekor qilish asosi noqonuniy bo‘lsa. Shuning uchun ham mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari Mehnat kodeksida aniq qilib belgilab qo‘yilgan.

Mehnat qonunchiligida mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari mustahkamlangan bo‘lib, ushbu asoslarni noto‘g‘ri qo‘llagan holda yoki belgilangan asoslardan chetga chiqib, mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda qonun buzilishi kuzatilib, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish masalasi ko‘riladi.

Mehnat shartnomasini bekor qilishda ma‘lum shartlarga rioya qilish talab etiladi: birinchidan, qonuniy asoslarning mavjudligi; ikkinchidan, ushbu asoslar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya qilinishi; uchinchidan, mehnat-huquqiy munosabatlar tugatilishi to‘g‘risidagi yuridik hujjatning xodimga o‘z vaqtida yetkazilishi [20].

Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari qonun bilan tan olingan yuridik fakt sifatidagi hodisalar hisoblanadi. Hodisalar yuridik ahamiyatga ega bo'lishi uchun ular yuridik normalar bilan belgilangan va tartibga solingan bo'lishi kerak.

Bunday yuridik faktga misol tariqasida mehnat shartnomasining shartnoma muddati tugaganligi sababli bekor qilinishini keltirib o'tish mumkin. Bu yerda yuzaga kelgan yuridik fakt shartnoma muddatining tugaganidir.

Mehnat shartnomasini bekor qilishning asosi bo'lib xizmat qiluvchi yuridik hujjatlar esa bevosita mehnat shartnomasi ishtirokchilarining xohish-irodasiga zid bo'lishi ham mumkin. Bunda aynan taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan asoslarda mehnat shartnomasi bekor qilinishida rol o'ynovchi yuridik hujjatlarni misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin. Masalan, xodimni jazoga mahkum etgan sudning hukmi qonuniy kuchga kirsam, ushbu hukm yuridik hujjat sifatida mehnat shartnomasini xodim bilan bekor qilishga asos bo'ladi.

Ayrim olimlarning fikricha, mehnat shartnomasini bekor qilishda belgilangan normaning o'zigina asos bo'la olmaydi. Bunda ishdan bo'shatish asosi sifatida normativ-huquqiy hujjat emas, tashkilot mansabdor shaxsi yoki davlat organining huquqni qo'llovchi hujjati tan olinadi [1].

Mehnat shartnomasini bekor qilish uchun asos deyilganda, albatta, qandaydir dalil yoki faktning mavjudligi yetarli emas. Bunda xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasining bekor bo'lganligini tasdiqlovchi asosiy hujjat ish beruvchining mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyrug'i hisoblanadi. Negaki ish beruvchi uchun xodimni ishdan bo'shatish majburiyat emas, bu uning huquqidir (xodim mehnat shartnomasini bekor qilish tashabbusi bilan chiqqan hollardagina majburiyat bo'lishi mumkin).

Ammo masalaning shu tarafi ham borki, mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari

Mehnat kodeksida qat'iy belgilangan bo'lib, ish beruvchining mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyrug'ining asossiz chiqarilishi mehnat shartnomasining bekor qilinishiga olib kelmaydi. Bu jarayonda mehnat qonunchiligi normalari buzilgan hisoblanadi.

Mehnat qonunchiligida ayrim yuridik faktlarning vujudga kelishi mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilish asoslaridan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilish mustaqillikdan oldin mehnat qonunchiligida mavjud bo'lmagan va u yangi institut hisoblanadi.

Umuman olganda, mehnat shartnomasini bekor qilish deganda, mehnat-huquqiy munosabatlarning tugashini tushunishimiz lozim. A.Inoyatovning fikriga ko'ra, mehnat shartnomasini bekor qilish keng tushuncha bo'lib, u avvalo mehnatga oid huquqiy munosabatlarning tugatilishini bildiradi. Odatda bunday munosabatlar ijtimoiy hayotdagi turli holatlar yuzaga kelganda bekor qilinadi va ular mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari deb ataladi. Mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi barcha holatlar, shu jumladan, xodimning vafoti munosabati bilan uning bekor qilinishini ham o'z ichiga oladi [21].

Mehnat shartnomasini bekor qilish xodimning kelgusida mehnat qilishga bo'lgan huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkinligini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida belgilangan asoslardan tashqari hollarda mehnat shartnomasini bekor qilishga qonunda yo'l qo'yilmaydi. Mehnat kodeksida ushbu qoida alohida belgilab berilgan bo'lmasa-da, unda belgilangan mehnat shartnomasini bekor qilishga oid normalarning mazmunidan kelib chiqib, mehnat shartnomasini bekor qilish asosli va qonuniy bo'lishi lozimligini ko'rish mumkin.

### Tadqiqot natijalari tahlili

Shunday qilib, mehnat shartnomasini qonuniy tarzda bekor qilish uchun quyidagi uchta holatning birgalikda mavjud bo'lishi talab etiladi [18]:

birinchidan, mehnat shartnomasini bekor qilish asosining qonunda mavjudligi;

ikkinchidan, ushbu asos bilan mehnat shartnomasini bekor qilish tartibiga rioya qilinganligi;

uchinchidan, mehnat shartnomasini bekor qiluvchi yuridik aktning mavjudligi.

Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarini nazariyada quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Taraflardan birining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari;

2. Taraflarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari;

3. Yuqoridagi ikkala holatga ham taalluqli bo'lmagan holda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari.

V.I. Yegorov mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarini umumiy va maxsus asoslarga ajratadi, shuningdek, umumiy asoslarni subyektiv, maxsus asoslarni esa obyektiv asoslar, deya tasniflaydi. Bunda mehnat shartnomasini bekor qilishning maxsus asosi sifatida taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarini ko'rsatadi [19].

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 97-moddasida mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy asoslari keltirilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) taraflarning kelishuviga ko'ra;

2) taraflardan birining tashabbusi bilan;

3) muddatning tugashi bilan;

4) taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra;

5) mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra;

6) yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo'yicha o'tmaganligi) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munosabati bilan.

Mehnat kodeksida yuqorida berilgan asoslarni qo'llashning o'ziga xos tartibi mavjud bo'lib, har bir asos bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilishda ma'lum tartib-qoidalarga rioya qilish talab etiladi.

Mehnat shartnomasini bekor qilishga oid normalarning qo'llanishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 12-sonli "Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakti) bekor qilinishini tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanishi haqida"gi qarorida mehnat shartnomasini bekor qilishda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida nazarda tutilgan asoslarni qo'llashda nimalarga e'tibor berish kerak ekanligi yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berilgan bo'lib, xodimlar ham, ish beruvchilar ham ushbu qoidalarga rioya qilishi lozimligi belgilangan.

Mehnat shartnomasini bekor qilishning tarkibiy qismi sifatida taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 106-moddasida keltirilgan bo'lib, unga binoan, mehnat shartnomasi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

1) xodim harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilgan taqdirda;

2) shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ishga tiklangan taqdirda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senatida doimiy asosda ishlagan Senat a'zosi vakolatlari muddati tugaganligi yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hamda Senati tarqatib yuborilganligi munosabati bilan avvalgi lavozimiga (ishiga) qaytgan taqdirda;

3) xodimni jazoga mahkum etgan sudning hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda, basharti buning natijasida xodim avvalgi ishini davom ettirish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lsa, shuningdek, xodim sudning qaroriga binoan, ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasasiga yo'llangan taqdirda;



4) ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar buzilganligi munosabati bilan, agar yo'l qo'yilgan qoidabuzarlikni bartaraf etishning imkoni bo'lmasa va u ishni davom ettirishga to'sqinlik qilsa;

5) xodimning vafoti munosabati bilan;

6) qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

Mehnat shartnomasini bekor qilishning yuqorida ko'rsatilgan asoslarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish uchun boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan yuridik faktlarning mavjudligi inobatga olinadi. Shuningdek, ayrim davlat organlari tomonidan o'rnatilgan bunday yuridik faktlar, o'z navbatida, mehnat-huquqiy munosabatlar tugatilishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 106-moddasida nazarda tutilgan asoslarni qo'llab, mehnat shartnomasini bekor qilishda unda ko'rsatilgan holatlarning haqiqatda yuzaga kelganligini isbotlash talab etiladi. Shu sababdan bunda boshqa huquq sohasi qonunchilik normasini qo'llashga zarurat tug'iladi.

Mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda bekor qilish uchun boshqa huquq sohalari qonunchilik normalarini qo'llash oqibatida xodim mehnat munosabatlarini davom ettirish imkoniyatini amalda yo'qotadi.

Boshqa huquq sohasining bunday normalariga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonun hujjatlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 106-moddasida nazarda tutilgan asoslar ro'yxatini yuqorida sanab o'tilgan mehnat shartnomasini bekor qilish sabablarini keltirib

chiqaruvchi yuridik faktlar (Mehnat kodeksining 99-, 100-, 105-moddalari) doirasiga kiritib bo'lmaydi. Bu moddada, yuqorida ta'kidlanganidek, mehnat shartnomasi taraflarining mehnat munosabatlarini bekor qilish tashabbusi mavjud emas. Ammo boshqa yuridik faktlarning mavjudligi, ya'ni xodimning harbiy xizmatga uchinchi shaxslar tomonidan chaqirilishi, uchinchi shaxsning ishga tiklanishi va shu kabi uchinchi tarafning xohish-irodasi yoki biror-bir tashqi vaziyatning mavjud bo'lishi mehnat shartnomasining xodim va ish beruvchining tashabbusisiz ham bekor qilinishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham 106-moddada keltirilgan asoslar taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar deb nomlanadi.

Demak, taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bu – xodim va ish beruvchining mehnat shartnomasini bekor qilishga bo'lgan xohish-irodasini istisno qiluvchi va ma'lum bir yuridik faktning mavjud bo'lishini taqozo etuvchi holatlardir.

Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan asoslarda mehnat shartnomasini bekor qilish mehnat shartnomasini bekor qilishning boshqa asoslaridan quyidagi belgilarning mavjudligi bilan farqlanadi:

birinchidan, taraflarning tashabbusiga bog'liqlikning yo'qligi. Shuni unutmaslik kerakki, bunda ish beruvchining mehnat shartnomasini bekor qilish tashabbusi baribir ham mavjud bo'ladi, ya'ni ish beruvchi mehnat shartnomasini bekor qilish uchun buyruq chiqarmas ekan, xodim ham mehnat munosabatlarini davom ettiraveradi. Bu yerda ish beruvchining tashabbuskorligi bilan uning o'z majburiyatlarini bajarish erkini farqlash lozim, chunki taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlarning yuzaga kelishi ish beruvchining xohish-irodasiga qaramasdan, unda mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida buyruq chiqarish majburiyatini vujudga keltiradi;

ikkinchidan, boshqa qonunchilik sohalari bilan aloqador bo'lib, normalar muvofiqlashtirilgan tartibda qo'llanadi, ya'ni

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 106-moddasini qo‘llash uchun boshqa qonun va normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi;

uchinchidan, mehnat munosabatlarining tugatilishi xodimning ham, ish beruvchining ham xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmaydi. Bunda xodim faqat qonun doirasidagina mehnat munosabatlarini davom ettirish imkoniga ega bo‘lishi mumkin.

### **Xulosalar**

Ayrim olimlarning fikricha, mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan hollarda bekor qilish bu – uchinchi shaxslarning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishdir [22].

S.Y. Filchakova esa o‘zining ilmiy ishida uchinchi shaxs sifatida davlatni ham tushunish kerak, deydi, bunda davlat o‘zining vakolatli organlari: harbiy komissariat, mehnat inspeksiyasi yoki sud orqali ishtirok etadi.

Ammo mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan asoslar bilan bekor qilish har doim ham uchinchi shaxslarning tashabbusi bilan bo‘lmaydi. Bunda hatto davlat organlari ham tashabbuskor bo‘lmasligi mumkin. Masalan, xodimning vafot etishi va uning vafotini tasdiqlovchi guvohnomaning mavjudligi u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga asos bo‘luvchi yuridik fakt hisoblanib, bunda hech qanday uchinchi tarafning tashabbusi ham, irodasi ham rol o‘ynamaydi.

Shu sababli mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlar bo‘yicha bekor qilish uchun huquqni to‘xtatuvchi sabablarni tasdiqlovchi tegishli hujjat (akt)ning mavjudligi yetarlidir.

Bundan kelib chiqadiki, taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlarning amalda mavjud bo‘lishi emas, ushbu holatlarning mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarning ish beruvchida bo‘lishi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga asos bo‘lar ekan.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 106-moddasida nazarda tutilgan

mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarini qo‘llashda mehnat shartnomasi taraflarining mehnat munosabatlarini davom ettirishga xohishi bor yoki yo‘qligi ham e‘tiborga olinmaydi. Chunki amaldagi mavjud yuridik faktlar va ularni tasdiqlovchi hujjatlar kelgusida mehnat shartnomasidan kelib chiqadigan munosabatlarning davom ettirilishiga bevosita to‘sqinlik qiladi.

Shunday qilib, mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlar bo‘yicha bekor qilish mehnat shartnomasini bekor qilishning tarkibiy qismi bo‘lib, ushbu holatlarning mavjud bo‘lishi xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi mehnat-huquqiy munosabatlarning butunlay tugashiga sabab bo‘ladi va kelgusida xodim ish beruvchi bilan o‘zaro mehnat-huquqiy munosabatlarini to‘xtatishga majbur bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, ushbu asoslarni amalda qo‘llash mexanizmi mavjud emas. Ya‘ni qaysi asos bilan qanday tartibda va qanday muddatlarda mehnat shartnomasini bekor qilish mumkinligi haqida qoidalar belgilanmagan. Hatto boshqa qonun hujjatlarida ham bu masalaga havola qilingan normalarni ko‘rmaymiz.

Shu sababli hozirgi kunda ushbu asoslarni qo‘llashda yuzaga kelayotgan muammolar soni bir qanchani tashkil qiladi. Buning oqibatida esa xodimlarning mehnat qilish huquqlari buzilish hollari mavjud.

Vujudga kelayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 106-moddasida belgilangan asoslarni qo‘llash mexanizmi ishlab chiqilishi va qonunchilikka tatbiq etilishi zarur. Kodeksdagi bunday bo‘shliqlarning yo‘qotilishi va normalarning takomillashtirilishi nafaqat xodim huquqlarini ta‘minlagan, balki ish beruvchilarni ham qonun normasini to‘g‘ri qo‘llashga yo‘naltirgan bo‘lar edi.

## REFERENCES

1. Fil'chakova S.YU. Prekrashcheniye trudovogo dogovora po obstoyatel'stvam, ne zavisyashchim ot voli storon [Termination of an employment contract due to circumstances beyond the control of the parties]. PhD thesis. Moscow, 2003, p. 12.
2. Dolova A.Z. Yuridicheskiye fakty v trudovom prave [Legal facts in labor law]. Doctor's degree dissertation. Moscow, 2009, p. 108.
3. Gasanov M.Yu. Trudovoye pravo Respubliki Uzbekistan [Labor law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Lesson Press Publ., 2016, p. 21.
4. Ismoilov Sh.A. New tendencies of liberalization of labor legislation of the Republic of Uzbekistan. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 2021, vol. 9 (12), pp. 582–589. Available at: <https://www.internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/746/>.
5. Vaxdatovna B.X. Labor legislation of the Republic of Belarus and Uzbekistan: a new stage of development. *Academicia Globe, Inderscience Research*, 2022, vol. 3 (4), pp. 136–144. DOI: 10.17605/OSF.IO/KCNX7/.
6. Rahimov M.A. Jamoalarga doir mehnat nizolarini hal qilish huquqining ta'minlanishi [Provision of the right to resolve labor disputes concerning collectives]. *Science and Education*, 2022, vol. 3 (2), pp. 920–925.
7. Rahimqulova L.U. Mehnat munosabatlarida nizolarning hal etilishi: Yaponiya qonunchiligi tahlili [Dispute resolution in labor relations: an analysis of Japanese law]. *Journal of Legal Studies*, 2022, spec. iss., no. 3.
8. Karimjonov M. A disciplinary responsibility by the labor legislation of the Republic of Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, vol. 3 (5), pp. 121–129.
9. Khozhabekov M. Analiz teorii dopolnitel'noy raboty po trudovomu zakonodatel'stvu zapadnykh stran [Analysis of the theory of additional work on the labor legislation of Western countries]. *Society and Innovation*, 2022, vol. 3.7/S, pp. 310–318.
10. Haqberdiyev A.K. O'zbekistonda xodimlar soni (shtati)ni qisqartirish tushunchasi, shakllari va tartib-taomillari [The concept, forms and procedures of reducing the number of employees (staff) in Uzbekistan]. *Science and Education*, 2022, vol. 3 (9), pp. 527–536.
11. Yusupov N.A. Legal regulation of working time in the Republic of Uzbekistan and their peculiarities. *JournalNX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 2021, pp. 393–396. Available at: <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1661/>.
12. Murodullayev D. Znachenkiye mezhdunarodno-pravovyykh standartov v oblasti okhrany truda [Importance of international legal standards in the field of labor protection]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 4, spec. iss., pp. 82–87.
13. Geykhman V.M. et al. Trudovoye pravo [Labor law]. Ed. V.M. Geykhman. Moscow, Yurayt Publ., 2016, p. 98.
14. Gusov K.N., Tolkunova V.N. Trudovoye pravo Rossii [Labor Law of Russia]. Moscow, 2005, p. 220.
15. Worldwide guide to termination, employment discrimination, and workplace harassment Laws. Baker & McKenzie International is a Swiss Verein with member law firms around the world, 2009, pp. 124–147. Available at: [www.digitalcommons.ilr.cornell.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1049&context/](http://www.digitalcommons.ilr.cornell.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1049&context/).

16. Gasanov M.Y., Sokolov Y. O'zbekistonning mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari [Labor laws of Uzbekistan]. Tashkent, Iqtisodiyot va huquq dunyosi Publ., 1999, p. 171.

17. Dmitriyeva I.K., Kurennoy A.M. Trudovoye pravo Rossii [Labor law of Russia]. Moscow, Yustitsinform, Jurisprudence Publ., 2011, p. 357.

18. Anisimov A.L. Trudovyye otnosheniya i trudovyye spory [Labor relations and labor disputes]. Moscow, Yustitsinform Publ., 2008, p. 55.

19. Gusov K.N., Zaytseva O.B. Zaklyucheniye trudovogo dogovora (voprosy teorii i praktiki) [Conclusion of an employment contract (questions of theory and practice)]. Moscow, Prospekt Publ., 2015, p. 108.

20. Abayeva T.V. Pravovoye regulirovaniye rastorzheniya trudovogo dogovora po soglasheniyu storon i po initsiative rabotnika [Legal regulation of termination of an employment contract by agreement of the parties and at the initiative of the employee]. Abstract of PhD thesis. Vladikavkaz, 2011.

21. Inoyatov A.A. O'zbekiston Respublikasi mehnat huquqi [Labor law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Iqtisodiyot va huquq dunyosi Publ., 2002, p. 159.

22. Andreyeva L.A., Gusov K.N., Medvedev O.M. Nezakonnoye uvol'neniye [Illegal dismissal]. *Law. Journal of the Higher School of Economics*, 2014, no. 4, p. 13. Available at: <https://law-journal.hse.ru/data/2017/01/25/1106492290/%D0%9F%D1%80%D0%B0%D0%B2%D0%BE%204-2014-%D0%9E%D0%92.pdf/>.

UDC: 349.3/.6(045)(575.1)

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISROFGARCHILIGINI KAMAYTIRISHDA EKOLOGIK-HUQUQIY TARG'IBOTNING AHAMIYATI

**Xudoyqulova Dilorom Xolovna,**  
Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani  
adliya boshqarmasi bosh mutaxassisi  
ORCID: 0000-0001-6041-7690  
e-mail: Khudaykulova77@umail.uz

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dunyoda kuzatilayotgan oziq-ovqatlar taqchilligiga qaramasdan, minglab tonna oziq-ovqat chiqindilarga aylanayotgan, buning evaziga dunyoda millionlab odamlar ochlikdan aziyat chekayotgan ta'kidlangan. Bugungi kunda respublikamizda ekologik va huquqiy targ'ibot orqali oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirish va kam ta'minlangan aholini bepul xayriya yo'li bilan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash mumkinligi ko'rsatib berilgan va misollar asosida ma'lumotlar keltirilgan. Xalqimiz orasida keng tarqalgan to'ylarda oziq-ovqat isrofgarchiligiga yo'l qo'yilishi, chiqindilarning ko'p qismi oziq-ovqat mahsulotlarini tashkil etishi achinarli holat. Bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ekologik-huquqiy targ'ibot orqali aholiga shunday salbiy holatlarni kamaytirish yo'li ko'rsatilgan. Xorijiy tajribaga asoslanib, elektron platforma tuzish taklifi kiritilib, uy xo'jaliklari va tadbirkorlik subyektlari o'zlaridagi ortiqcha mahsulotlar haqida ma'lumot berishi, volontyorlar esa ushbu mahsulotlarni ehtiyojmand insonlarga yetkazib berishi mumkinligi yoritilgan. Maqsad xayriya qilingan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash va saqlash hamda zarur bo'lgan uskunalarni xarid qilish, oziq-ovqat mahsulotlarini tashish uchun zarur transport vositalarini sotib olish, oziq-ovqat banklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularga davlat zaxirasidagi bo'sh turgan binolarni bepul ijara huquqi asosida taqdim qilish tartibini joriy qilishdir.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat mahsulotlari, isrofgarchilik, kam ta'minlangan aholi, chiqindilar, ekologik-huquqiy targ'ibot, jahon miqyosidagi vaziyat, oziq-ovqat banklari, ekologik muhitni asrash, yaroqlilik muddati oz qolgan oziq-ovqatlar, mahsulotlarni xayriya maqsadida tekin berish, umumiy ovqatlanish shoxobchalari.

### ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГО-ПРАВОВОЙ ПРОПАГАНДЫ В СНИЖЕНИИ ЧРЕЗМЕРНОГО ПОТРЕБЛЕНИЯ ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ

**Худойкулова Дилором Холовна,**  
главный специалист управления юстиции  
Кумкурганского района Сурхандарьинской области

**Аннотация.** В данной статье рассмотрена проблема дефицита продовольствия в мире, в том числе из-за того, что тысячи тонн продуктов питания ежегодно превращаются в отходы, вследствие чего миллионы людей в мире испытывают голод. На примерах показаны и приведены данные по снижению уровня чрезмерного потребления продуктов питания посредством эколого-правовой пропаганды, описаны возможности обеспечения излишними продуктами питания малообеспеченных слоев населения за счет благотворительности. В этой связи отмечено, что часто на свадебных церемониях можно наблюдать излишнее

потребление продуктов питания, что приводит к большому количеству отходов. По этому поводу представители правоохранительных органов в своей работе по эколого-правовой пропаганде регулярно доводят до сведения населения об этой негативной ситуации и мерах по устранению данного явления. Также в статье речь идет о зарубежном опыте создания электронной платформы, где предприниматели и другие субъекты хозяйственной деятельности предоставляют информацию об излишках продукции, а волонтеры имеют возможность перенаправить эти товары малоимущим слоям населения, нуждающимся в продуктах питания. Целью исследования является разработать предложения и рекомендации по оказанию финансовой поддержки продовольственным банкам на приобретение оборудования, необходимого для переработки, упаковки и хранения продовольственных товаров, транспортных средств, необходимых для их перевозки, введению порядка предоставления пустующих зданий на основании безвозмездной аренды для описанных выше задач.

**Ключевые слова:** продукты питания, расточительство, малообеспеченные слои населения, отходы, эколого-правовая пропаганда, ситуация во всем мире, продовольственные банки, продукты с малым сроком годности, бесплатная раздача продуктов на основе благотворительности, пункты общественного питания.

## THE IMPORTANCE OF ENVIRONMENTAL AND LEGAL ADVOCACY IN REDUCING EXCESSIVE FOOD CONSUMPTION

**Khudoykulova Dilorom Kholovna,**

Chief specialist of the Justice Department  
of the Kumkurgan district of the Surkhandarya region

**Abstract.** This article examines the problem of food scarcity in the world, including the fact that thousands of tons of food are turned into waste each year, as a consequence of which millions of people in the world experience hunger. Examples are shown and data on the reduction of excessive food consumption through ecological and legal advocacy are described, and possibilities of providing surplus food to the poor through charity are described. In this regard, it is noted that often at wedding ceremonies one can observe excessive consumption of food, which leads to a large amount of waste. In this regard, representatives of law enforcement agencies in their work on environmental and legal advocacy regularly inform the population about this negative situation and measures to eliminate this phenomenon. The article also deals with the foreign experience of creating an electronic platform where entrepreneurs and other business entities provide information about surplus products, and volunteers have the opportunity to redirect these goods to the poor in need of foodstuffs. The aim of the study is to develop proposals and recommendations on the provision of financial support for food banks to purchase equipment necessary for processing, packaging, and storage of food products, vehicles necessary for their transportation, the introduction of the procedure of providing vacant buildings on the basis of free rent for the tasks described above.

**Keywords:** food, waste, low-income people, waste, environmental and legal advocacy, the situation around the world, food banks, products with a short shelf life, free distribution of food based on charity, public catering points.

### Kirish

Dunyoda kuzatilayotgan oziq-ovqat taqchilligiga qaramasdan, minglab tonna oziq-ovqat chiqindilarga aylanayotganligi, buning evaziga dunyoda millionlab odamlar ochlikdan aziyat chekayotganligini biz har kuni om-

maviy axborot vositalari orqali ko'rib turibmiz.

Jamiyatda fuqarolarning ekologik-huquqiy madaniyatini ko'tarish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlarini ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymasdan ishlatish va kam

ta'minlangan aholini bepul xayriya yo'li orqali oziq-ovqat bilan ta'minlash zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Fuqarolarda tejamkor va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik fazilatlarini shakllantirishda targ'ibot tadbirlarining ahamiyati katta. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 30-dekabr-dagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi" PQ-76-sonli qarori va 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonida "Targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralari ko'rish" belgilangan.

Bu borada "Oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirish va kam ta'minlangan aholini bepul iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash" masalasiga ham alohida e'tibor berilmoqda.

### **Material va metodlar**

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, tegishli taklif va xulosalarga kelindi.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Mamlakatimizda yirik tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda "Oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirish va kam ta'minlangan aholini bepul iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash" masalasi o'rganilib, tahlil etildi.

Oziq-ovqat chiqindilarining har bir kilogrammi yiliga o'rtacha 2,5 kg karbon dioksidi ajratib chiqaradi. 3 million tonna oziq-ovqat chiqindisi o'rnatilgan tartibda utilizatsiya qilinmasa, 7,5 million tonna issiqxona gazlari chiqariladi.

Afsuski, aholining aksariyat qismi oziq-ovqat mahsulotlarining isrofgarchiligiga yo'l qo'ymoqda. Buning misoli to'ylardir. To'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar (keyingi o'rinlarda oilaviy tadbirlar deb yuritiladi) milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi hisoblanib, xalqimizning uzoq yillik qadriyatlari va an'alarini o'zida aks ettirgan bo'lsa-da, biroq keyingi paytlarda oilaviy tadbirlarni o'tkazishda shuhratparastlik, o'zini ko'z-ko'z qilish, boshqalarning ijtimoiy ahvolini inobatga olmaslik va oziq-ovqat isrofgarchiligiga yo'l qo'yish hollari kuzatilmoqda.

Bu borada adliya organlari xodimlari tomonidan to'xtovsiz targ'ibot va tashviqot ishlari olib borilmoqda, oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirish va kam ta'minlangan aholini bepul iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash orqali odamlarni nochorlik, ochlikdan saqlash va tejamkorlik, insonparvarlik, bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirishga harakat qilinmoqda.

Ekologik-huquqiy targ'ibotlar orqali fuqarolarga oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirish usullari va kam ta'minlangan aholini bepul xayriya yo'li bilan iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi dunyo miqyosida olib borilgan tahlillar bilan solishtirilgan holda, aholiga yetkazish choralari ko'rilmoqda.

Bunday targ'ibot-tashviqot ishlarining amaliy metodlari va usullari tahlil qilinganda, quyidagi natijalar ko'zga tashlandi.

### *Bugungi jahon miqyosidagi vaziyat*

Dunyo miqyosida isrof qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining bozor qiymati 940 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Chiqindiga aylanayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining faqatgina 25 foizi butun dunyodagi ochlik muammosini to'liq hal qilishi mumkin. 2021-yilda dunyoda 811 million inson ochlikdan aziyat chekkanligi qayd etilgan. Dunyo aholisining 21 % dan ortig'i oziq-ovqat mahsulotlaridan "to'yib" foydalansa, 63 % aho-

li esa normada, ichki imkoniyatlariga qarab yashamoqda, 15 % aholi esa doimiy ochlik va nochorlikda hayot kechiradi [5, 21-b.].

#### *O'zbekiston Respublikasidagi holat*

BMT ma'lumotlariga ko'ra (*UNEP Food waste index report 2021*), O'zbekistonda har yili 3 million tonna oziq-ovqat mahsulotlari uy xo'jaliklari tomonidan isrof qilinadi. Birgina Toshkent shahrida kuniga 2 tonna, yiliga 730 tonnaga yaqin non mahsuloti chiqindiga aylanadi. O'zbekiston Respublikasi aholisining 11,5 foizi kam ta'minlangan bo'lib (4 million), ular daromadining 67 foizi oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadi.

*Oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirish hamda ortiqcha iste'mol mahsulotlarini xayriya maqsadida tekin berishga to'siq bo'layotgan muammolar*

Bu borada ekologik-huquqiy targ'ibot ishlari hali yetarlicha yo'lga qo'yilmagan. Har bir hududda oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirish hamda ortiqcha iste'mol mahsulotlarini xayriya maqsadida tekin berishga yo'naltirilgan targ'ibot ishlari olib borish orqali ekologik-huquqiy normalarni insonlar ongiga yetkazish zaruriy jarayon hisoblanadi. Shulardan kelib chiqib, quyidagilarga e'tibor berish muhimdir.

1. *Xayriya maqsadida tekin berilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun tadbirkorlik subyektlariga yuqori soliq yuki mavjud.*

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, xayriya maqsadida tekin berilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun soliqlardan voz kechish lozim, chunki tadbirkorlar muddati o'tishiga yaqin qolgan oziq-ovqat mahsulotlarini tekinga berishdan ko'ra, yo'q qilish amaliyotini afzal ko'rishmoqda. Fransiya, Germaniya kabi bir qator Yevropa davlatlarida mazkur faoliyat uchun soliq undirilmaydi.

2. *Tekinga berilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun foyda solig'idan imtiyozlar mavjud emas. Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Vengriya, Daniya, Portugaliya, Slovakiya, Qozog'iston kabi davlatlarda xayriya faoliya-*

*ti uchun foyda solig'idan imtiyozlar mavjud. Xususan, Buyuk Britaniyada xayriya qilingan mahsulotning tannarxi xayriya qilayotgan tadbirkorlik subyekting foyda solig'i bazasidan chiqarib tashlanadi.*

3. *Mahsulot sifatida kamchiliklar mavjud, biroq iste'molga yaroqli oziq-ovqat mahsulotlarini xayriya qilish imkoniyati cheklangan.*

"Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi qonunda sifatsizligi belgi berib turgan, taqqoslash va ishlab chiqaruvchisini aniqlash mumkin bo'lmagan oziq-ovqat mahsulotlari yo'q qilinishi zarurligi belgilangan. Italiya qonunchiligiga ko'ra, noto'g'ri markirovka qilingan, biroq yaroqlilik muddati to'g'ri ko'rsatilgan mahsulotlar, agarda ular allergen yoki ta'sirchanligi yuqori bo'lmasa, beg'araz berilishi mumkin. Italiyada har yili o'rtacha 5 million tonna oziq-ovqat mahsuloti chiqindiga tashlanadi. Mazkur mahsulotlarning bozor qiymati 13 milliard yevroni tashkil etadi.

4. *Oziq-ovqat mahsulotlarining yaroqlilik muddatini belgilash tizimida qator kamchiliklar mavjud. Xususan, qonunchilikda faqatgina iste'molga yaroqlilik holati tugaydigan muddat (use by) ko'rsatilgan, biroq xalqaro amaliyotda keng qo'llanadigan maqbul bo'lgan iste'mol muddati (best before) qo'llanmaydi. Yevropa Ittifoqida iste'mol mahsulotlari qadog'ida Use by yoki Best before shaklida yaroqlilik muddati ko'rsatiladi.*

*Use by mahsulotning iste'molga yaroqli holati tugaydigan muddat bo'lib, sifati tez buziladigan mahsulotlar uchun qo'llanadi. Mazkur muddat tugagandan so'ng mahsulot inson sog'ligi uchun zarar yetkazishi mumkin va iste'molga yaroqli hisoblanmaydi.*

*Best before (maqbul bo'lgan iste'mol muddati) – oziq-ovqat mahsuloti o'zining optimal sifatini saqlab qoladigan muddat bo'lib, uzoq muddat sifatini saqlab qoladigan oziq-ovqat mahsulotlari uchun qo'llanadi. Ushbu muddat tugagandan keyin mahsulot o'zining eng yaxshi holatini saqlab qolmasligi mumkin, ammo*



*muayyan muddat iste'molga yaroqli hisoblanadi.*

Fransiyaning 2016-yil 11-fevraldagi "Oziq-ovqat chiqindilariga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, maydoni 400 metr kvadratdan kam bo'lmagan savdo do'konlari yaroqlilik muddati tugagan (best before), ammo iste'molga yaroqli bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini xayriya fondlariga beg'araz taqdim etishga majbur. Shunday tartib Chexiyada ham o'rnatilgan.

Fransiyada har yili 7,1 million tonna oziq-ovqat mahsuloti chiqindiga tashlanadi. Xayriya tashkilotlari faqatgina 100 ming tonna mahsulot qabul qiladi. 2018-yilda chiqindiga tashlangan mahsulotlarning bozor qiymati 18,2 milliard AQSh dollarini tashkil etgan.

5. *Fudshering platformalari mavjud emas.* Germaniya, Avstriya va Shveysariyada Foodsharing.de platformasi faoliyat yuritadi. Mazkur platforma orqali uy xo'jaliklari va tadbirkorlik subyektlari o'zlaridagi ortiqcha mahsulotlar haqida ma'lumot berishi, volontyorlar esa ushbu mahsulotlarni ehtiyojmand insonlarga yetkazishi mumkin. 2012-yildan beri platforma orqali 20,1 million tonna oziq-ovqat mahsuloti saqlab qolingan.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida Fudshering (Foodsharing) – yaroqlilik muddati oz qolgan, iste'molga yaroqli bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini maxsus tashkilotlar yoki onlayn platformalar orqali ehtiyojmand insonlarga beg'araz taqdim etish amaliyoti keng qo'llaniladi.

2020-yilda Yaponiya qishloq xo'jaligi vazirligi oziq-ovqat banklari va oziq-ovqat mahsulotlarini xayriya qiluvchilarni o'zaro bog'lovchi elektron platformani ishga tushirgan.

Mazkur tizim orqali oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va savdo do'konlari egalari qaysi turdagi mahsulotlarni qancha miqdorda va qaysi muddatda beg'araz taqdim etishi mumkinligi, oziq-ovqat banklari hamda boshqa jamoat birlashmalari esa

qanday mahsulotlar zarur ekanligi haqida ma'lumot almashishi mumkin.

6. *Oziq-ovqat banklari mavjud emas.* 2020-yil 5-oktabrda Olmaota shahrida Qozog'iston Qizil Yarim Oy jamiyati tomonidan mamlakatdagi birinchi oziq-ovqat banki – Food Bank Kazakhstan tashkil etilgan. Faoliyatining dastlabki 4 oyida tashkilotga umumiy qiymati 90 ming AQSh dollariga teng bo'lgan, 88 tonna oziq-ovqat mahsuloti beg'araz taqdim etilib, 4000 dan ortiq oilalarga oziq-ovqat mahsuloti yetkazib berilgan.

Oziq-ovqat banki (Food bank) – ishlab chiqaruvchi, tarqatuvchi va savdo tashkilotlaridan yaroqlilik muddati o'tib ketmagan oziq-ovqat mahsulotlarini to'plab, ularni ehtiyojmand aholiga bepul tarqatish bilan shug'ullanuvchi xayriya tashkiloti.

7. *Oziq-ovqat banklari faoliyatini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.* Xususan, xayriya qilingan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash va saqlash uchun zarur bo'lgan uskunalarni xarid qilish, oziq-ovqat mahsulotlarini tashish uchun zarur transport vositalarini sotib olish uchun oziq-ovqat banklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularga davlat zaxirasidagi bo'sh turgan binolarni bepul ijara huquqi asosida taqdim qilish tartibi mavjud emas.

8. *Oziq-ovqat isrofgarchiligini kamaytirish va ortiqcha iste'mol mahsulotlarini xayriya qilishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan reklamalar uchun imtiyozli tariflar mavjud emas.*

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Shulardan kelib chiqib, amaliyotda kuza-tilgan bir necha misolni keltirmoqchimiz.

Shu o'rinda quyidagi hikoyaga e'tiborigizni qaratmoqchimiz.

"Qadimda bir boy shahzoda bo'lgan ekan. U nihoyatda boy va tejamkor ekan. Boyliklari shunchalik ko'p ekanki, ularni nima qilishini bilmay bir kuni Ollohga murojaat qilibdi: "Ey Ollohim! Menga shunchalik ko'p boylik berdingki, nima qilishini bilmay qoldim. Ularni

qanday qilib kamaytirsam bo'ladi?" Shunda Oллоhdan vahiy kelibdi: "Shahzoda, bir tuyaga minib, nonni yeb ketaver". Shunda shahzoda tuyaga minib, non yeb ketaveribdi. Bir joyga kelganda, non ushug'i yerga tushib ketibdi. Shahzoda tuyadan yerga tushib, ushoqni rosa axtaribdi, ammo topa olmabdi. Nima qilishini bilmay odamlarni chaqiribdi. Ular ham topa olishmagach, mardikor yollab, ushoq tushgan joyning atrofini devor bilan o'ratibdi. Shundan keyin shahzodaning hayoti yana doimgidek davom etibdi. Boyligi esa kundan kun ortaveribdi. Shahzoda yana Oллоhga murojaat qilibdi: "Ey Oллоhim! Sen buyurgan ishni bajardim, ammo boyligim yana ham ortib ketdi. Bu nima, menga berilgan jazomi?" Shunda Oллоhdan yana vahiy kelibdi: "Ey shahzoda, sen bir ushoqni shunchalik e'zozlab, uni tejagan bo'lsang, isrofgarchilikka yo'l qo'ymagan bo'lsang, qanday qilib sening boyligingni kamaytiraman, aksincha, boyliging ziyoda bo'ladi-da!" [13, 42-b.]

Targ'ibot jarayonida yoshlarni oziq-ovqat mahsulotlariga hurmat ruhida tarbiyalash, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka o'rgatish – huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy targ'ibot faoliyatining yadrosi hisoblanadi. Dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida ham isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik maqsadida barcha holatlar qonun asosida rasmiylashtirilgan.

Hayotiy misollardan yana birini ko'rishimiz mumkin. Germaniyaga o'qishga borgan bir yigit shunday hikoya qiladi: "Germaniya sanoatlashgan, o'ta rivojlangan davlat. U yerda turli sohalarga oid mahsulotlarning eng saralari ishlab chiqariladi. Ko'pchilik bu mamlakat aholisi nihoyatda to'kin-sochin, o'ta dabdabali yashaydi, deb o'ylaydi. Safarimdan oldin men ham shu fikrda edim. Gamburg shahriga kelganimda, u yerdagi tanishlarim bir restoranda ziyofat uyushtirishdi. Restoranga bordik. Qarasak, restoranda odam kam, bir nechta yoshi ulug' ayollar bor. Bir chetdagi stolda yosh er-xotin o'tiribdi. Oldlarida ikki likopcha ovqat va ikkita ichim-

likdan boshqa narsa yo'q. Biz ham bir stolga borib o'tirdik. Qornimiz ochib ketgandi. Shu sababli sherigim ko'p ovqat buyurtma qildi. Restoran tinch ekan, ovqat ham tezda keldi. Ovqatlanib bo'lgach, ketishga shaylandik. Likopchada esa buyurtma qilingan ovqatning deyarli uchdan biri ortib qolgan edi. Restoran eshigiga yetib bormagan ham edikki, kimdir bizni chaqirdi. Qarasak, yoshi ulug' xonimlar restoran boshlig'iga nimalarnidir deyapti. Bilsak, ular ko'p ovqat qoldirib ketayotganimizdan shikoyat qilayotgan ekan. Sherigim: "O'zimiz buyurtma bergan ovqat, pulini to'ladik, sizlarga daxli bo'lmagan narsaga nega aralashasizlar?" dedi. Xonimlardan biri bizga qattiq g'azab bilan qarab turdi-da, telefon oldiga borib, kimgadir sim qoqdi. Ko'p o'tmasdan, rasmiy kiyimda bir kishi kirib keldi. O'zini "ijtimoiy ta'minot muassasasi zobiti" deb tanishtirdi. Bizga 25 yevro jarima soldi. Biz javob qaytarolmadik. Sherigim uzr so'rab, 25 yevro to'ladi. Zobit samimiy ohangda: "Ortib qolmasligiga ko'zlaring yetgan taomni buyurtma qilinglar. *Pul sizlarniki, lekin resurslar barchaniki*. Dunyoda ko'plab odamlar resurs, oziq-ovqat taqchilligiga duch kelmoqda, siz esa behudaga ketkazyapsiz", dedi. Biz rosa xijolat bo'ldik. Uning gaplari haq edi.

Bizda o'zi resurs ko'p emas, shunday bo'lsa ham, birovni chaqirsak, odamlar nima deydi, deb, dasturxonga ko'p yegulik qo'yamiz. Natijada kimlardir zor bo'layotgan ovqatlar isrof bo'lib qolib ketadi. Bu voqea biz uchun yaxshigina dars bo'ldi. Sherigim o'sha jarima qog'ozini suratga olib, har birimizga bittadan nusxasini esdalik sifatida berdi. Biz uni isrof qilmasligimizni eslatib tursin deb, xonamiz devoriga osib qo'ydik... "*Pul o'zingniki, lekin resurslar barchaniki*". Bu qoidani har doim resurslar, masalan, elektr, gaz, suv va hokazolarni ishlatayotganimizda eslashimiz kerak". [17, 48-b.].

#### **Xulosalar**

*Ilg'or xorij tajribasi asosida bir nechta takliflar havola etiladi.*

Oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirish va kam ta'minlangan aholini bepul iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi Prezident qarori loyihasini ishlab chiqish taklif qilinadi:

- tadbirkorlik subyektlari tomonidan us-tavida aholiga bepul iste'mol mahsulotlarini yetkazib berish maqsadi va vazifasi nazarda tutilgan nodavlat notijorat tashkilotlariga xayriya qilinib, ular tomonidan ehtiyojmand fuqarolarga yetkazilgan oziq-ovqat mahsulotlari qiymatini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish, shuningdek, ushbu oziq-ovqat mahsulotlari tannarxini tadbirkorlik subyek-tining foyda solig'i bazasidan chegirib tash-lash;

- noto'g'ri qadoqlangan, biroq yaroqlilik muddati to'g'ri ko'rsatilgan hamda iste'mol-ga yaroqli bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini, agarda ular allergen yoki ta'sirchanligi yuqori bo'lmasa, xayriya qilishga ruxsat berish;

- sifati tez buziladigan oziq-ovqat mahsu-lotlarining yaroqlilik muddatini iste'molga yaroqli holati tugaydigan muddat (use by) shaklida belgilash;

- uzoq muddat sifatini saqlab qoladigan oziq-ovqat mahsulotlarining yaroqlilik mud-datini maqbul bo'lgan iste'mol muddati (best before) shaklida belgilash. Ushbu muddat tugaganidan keyin mahsulot muayyan vaqt

davomida iste'molga yaroqli hisoblanadi hamda ularni xayriya qilishga ruxsat etiladi;

- oziq-ovqat mahsulotlarini xayriya qi-luvchi tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslar bilan fuqarolik jamiyati institut-lari, xayriya mahsulotlarini ehtiyojmand-larga yetkazib beruvchi volontyorlar ham-da ushbu mahsulotlarga muhtoj insonlarni bog'lovchi platformani (foodsharing.uz) ish-ga tushirish;

- ijtimoiy sohada faoliyat yurituvchi no-davlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik-da, avvalo, Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Namangan, Buxoro shaharlarida oziq-ovqat banklari faoliyatini yo'lga qo'yish;

- xayriya qilingan oziq-ovqat mahsulotla-rini qayta ishlash, qadoqlash va saqlash uchun zarur bo'lgan uskunalarni xarid qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlarini bir joydan boshqa joyga tashishga mo'ljallangan yuk mashinalarini sotib olish uchun oziq-ovqat banklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularga davlat zaxirasidagi bo'sh turgan binolarni bepul ijara huquqi asosida taqdim qilish tartibini ishlab chiqish;

- oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligini kamaytirish, tadbirkorlik subyektlari va no-davlat notijorat tashkilotlari tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini xayriya qilishni rag'bat-lantirishga qaratilgan axborotni ijtimoiy reklamali axborot deb e'tirof etish.

## REFERENCES

1. Xolmuminov J.T., Daminov A.A. Voprosy ob'ekta i subyekta ekologicheskogo straxovaniya [Issues of the object and subject of environmental insurance]. *Filosofiya i pravo – Philosophy and Law*, 2011, no. 2, pp. 9-11.
2. Xolmo'minov J.T. Ekologik huquq [Environmental law]. Tashkent, Akademiya, 2001, p. 176.
3. Xolmo'minov J.T. Ekologik tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish huquqiy muammolarining ilmiy-nazariy tahlili [Scientific-theoretical analysis of legal problems of prevention and elimination of ecological threats]. Tashkent, TSUL, 2016, p. 91.
4. Abdurahimov A. Ekologik bilimlar amaliyotda [Ecological knowledge in practice]. *Xalq ta'limi – Public education*, 1998, no. 6, pp. 99–101.
5. Kenjayev R.X. O'zbekistonda yerlarni muhofaza qilishni huquqiy ta'minlash [Legal provision of land protection in Uzbekistan]. Tashkent, TSUL, 2020.

6. Karimova O. Huquqiy tarbiya metodikasi [Methodology of legal education]. Tashkent, TSPU, 2000, p. 63.
7. Aydarov Y.B. O'quvchi yoshlarga tabiiy hududni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish [Providing environmental education to schoolchildren through the protection of the natural area]. Tashkent, Ilm-Ziyo-Zakovat Publ., 2019.
8. Jurayev Y.A. Pravo i upravlenie v oblasti ispol'zovaniya i okhrany prirodnoy sredy Respubliki Uzbekistan [Law and management in the field of use and protection of the natural environment of the Republic of Uzbekistan]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Moscow, IGP, 1996, pp. 32–33.
9. Yo'ldoshev H.S., Avazov Sh.M. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari [Basics of ecology and nature protection]. Tashkent, Mehnat Publ., 2003.
10. Mirzaabdullayeva M.R. Qishloq xo'jaligida yer nazorati: qonun va amaliyot [Land control in agriculture: law and practice]. Tashkent, TSUL, 2020, p. 88.
11. Saburov N., Najimov M. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, TSIL, 2009, p. 98.
12. Xudoyqulov X.J. O'qituvchi va tarbiyachilarni ekologik tarbiyaga oid targ'ibotga tayyorlash [Preparing teachers and educators for environmental education]. *Xalq ta'limi – Public education*, Tashkent, 2000, no. 4, pp. 20–21.
13. Xudoyqulov X.J. Komillik fazilatlarini [Qualities of perfection]. Tashkent, Innovatsiya-Ziyo Publ., 2021.
14. Ergashev A.E. et al. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish [Ecology and nature protection]. Tashkent, Fan Publ., 2009.
15. Otamurodova R. Talaba yoshlarning ekologik ma'naviy tarbiyasi [Environmental moral education of students]. *Xalq ta'limi – Public education*, Tashkent, 1994, no. 4, pp. 26–27.
16. Nishonova N. O'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari [Specific aspects of education of ecological culture in students]. *Xalq ta'limi - Public education*, Tashkent, 2001, no. 4, pp. 89–93.
17. Rustamboyev M.H., Usmonov M.B., Xolmo'minov J.T. Ekologiya huquqi [Environmental law]. Tashkent, Adabiyot Fund, 2001, p. 328.
18. Xamrokulova Sh.E., Allayarova S.N. Ekologik tarbiyani rivojlantirishda tadqiqotchilik ko'nikmasining ahamiyati [The importance of research skills in the development of ecological education]. *Academic research in educational sciences*, 2021, no. 2 (11), pp. 1089–1094.

UDC: 343.988(045)(575.1)

## QASDDAN ODAM O'LDIRISHNING JINOYAT-HUQUQIY JIHATLARI

**Niyozova Salomat Saparovna,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga  
qarshi kurashish kafedrasini professori, y.f.d.  
ORCID: 0000-0003-3970-2985  
e-mail: salomat.niyozova@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qasddan odam o'ldirishning jinoyat-huquqiy jihatlari tahlil etilgan bo'lib, muallif bu masalada olimlarning fikr va mulohazalarini o'rganib, tegishli taklif hamda tavsiyalar bergan. Bundan tashqari, muallif maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limi "Shaxsga qarshi jinoyatlar", aynan birinchi bob "Hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlar"ning mustahkamlanishi, yana bir bor insonning yashash huquqi kafolatlanganligi haqida so'z yuritadi. Shuningdek, uning barcha qadriyatlardan ustun ekanligidan dalolat berishi hamda qasddan odam o'ldirish jinoyatida jinoyat sodir etish usulining ahamiyati va uning o'ziga xos ijtimoiy xavfliligi, eng ulug' ne'mat bo'lmish hayotdan insonni mahrum etish jamiyatga juda ham katta ziyon yetkazadi, degan fikrni bildiradi. Maqolada qasddan odam o'ldirish jinoyatining obyektiv va subyektiv belgilariga ham to'xtalib o'tilgan bo'lib, umumiy va bevosita obyektlar farqlangan. Bu yerda qilmishning umumiy obyekti sifatida shaxs, maxsus obyekt sifatida umuman inson hayoti, bevosita obyekt sifatida esa muayyan odamning hayoti amal qilishi o'z ifodasini topgan. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga odam o'ldirish tushunchasini kiritish yuzasidan mualliflik taklifi ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** qasd, odam o'ldirish, jinoyat-huquqiy, jazo, javobgarlik, jihatlar, obyektiv, subyektiv, belgilar, ruhiy, jismoniy.

### УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УМЫШЛЕННОГО УБИЙСТВА

**Ниязова Саломат Сапаровна,**  
доктор юридических наук, профессор  
кафедры «Уголовное право, криминология  
и противодействие коррупции»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье проанализированы уголовно-правовые аспекты умышленного убийства, автор изучил мнения и комментарии ученых по данному вопросу, сделал соответствующие предложения и рекомендации. Кроме того, в статье автор приводит доводы об усилении части первой особенной части Уголовного кодекса Республики Узбекистан «Преступления против личности», главы первой «Преступления против жизни», также гарантирующих право на жизнь человека. Очевидность преступления умышленного убийства и присущая ему общественная опасность, значение способа совершения преступления свидетельствуют о том, что лишение жизни человека – величайшего дара, превосходящего все ценности, – причиняет большой вред обществу. В статье также затронуты объективные и субъективные признаки преступления умышленного убийства, выделены общие и непосредственные объекты. Здесь общим объектом действия выступает человек, в качестве

специального объекта – человеческая жизнь вообще, а в качестве непосредственного объекта – жизнь конкретного человека. Приводится авторское предложение относительно включения понятия убийства в Уголовный кодекс Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** умысел, убийство, уголовное право, наказание, ответственность, аспекты, объективное, субъективное, признаки, психические, физические.

## CRIMINAL LEGAL ASPECTS OF INTENTIONAL HOMICIDE

**Niyozova Salomat Saparovna,**

Professor of the Department of Criminal Law,  
Criminology and Anti-Corruption,  
Tashkent State University of Law, Doctor of Law

**Abstract.** *The criminal-legal aspects of intentional homicide are analyzed in this article, the author studied the opinions and comments of scientists on this issue, and made relevant suggestions and recommendations. In addition, in the article, the author talks about the strengthening of the first section of the special part of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan “Crimes against the person”, especially the first chapter “Crimes against life”, once again guaranteeing the right to life of a person. Also, its evidence that it is superior to all values and the importance of the method of committing the crime in the crime of intentional homicide and its inherent social danger indicates that depriving a person of the greatest gift, life, causes great harm to society. The article also touched on the objective and subjective signs of the crime of intentional homicide, distinguishing general and direct objects. Here, the general object of the action is the person, as a special object - human life in general, and as a direct object - the life of a specific person. In this article, the author’s proposal is also given regarding the inclusion of the concept of murder in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.*

**Keywords:** *Intent, murder, criminal law, punishment, responsibility, aspects, objective, subjective, signs, mental, physical.*

### Kirish

Bizga ma’lumki, insonning yashash huquqi nafaqat xalqaro miqyosdagi hujjatlar, balki o’zimizning ichki qonunlarimiz bilan ham kafolatlanadi.

Shu o’rinda aytish mumkinki, sud-huquq tizimini isloh qilish, o’z navbatida, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish va liberal-lashtirishga qaratilgan bir qancha vazifalarni amalga oshirishni ham taqozo etadi. Bu vazifalar qatoriga jinoyat qonunchiligida belgilangan hayotga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik asoslari va uning o’ziga xos xususiyatlarini oydinlashtirish ham kiradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “... yangi turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish jarayonlarida fuqarolarning qadr-

qimmati va erkinligini himoya qilishning samaradorligini yanada oshirish ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettirilishi” belgilandi.

Yashash (24-modda), erkinlik va shaxsiy daxlsizlik (25-modda), turar joy daxlsizligi (27-modda) huquqi hamda boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni himoya qilish jinoyat-huquqiy normalar bilan amalga oshiriladi.

Insonga berilgan ulug’ ne’matlardan biri uning hayoti bo’lib, uning daxlsizligi to’g’risida g’amxo’rlik qilish va uni muhofaza qilish davlatning barcha huquqiy institutlari, sud-tergov organlarining diqqat-markazidadir. Shu bilan bir qatorda, jinoyat qonunining vazifasi sifatida shaxs, uning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish belgilangan. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi shaxsga qarshi jinoyatlar qatorida qasddan

odam o'ldirish jinoyati alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limi "Shaxsga qarshi jinoyatlar", aynan birinchi bobi "Hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlar"ning mustahkamlanishi, yana bir bor insonning yashash huquqi kafolatlanganligi uning barcha qadriyatlardan ustun ekanligidan dalolat beradi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatida jinoyat sodir etish usulining ahamiyati va uning o'ziga xos ijtimoiy xavfliligi eng ulug' ne'mat bo'lmish hayotdan insonni mahrum etadi va shu bilan jamiyatga juda ham katta ziyon yetkazadi.

### Material va metodlar

Mazkur maqolani tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyotini tahliliy o'rganib chiqish usullaridan foydalanildi.

### Tadqiqot natijalari

Qasddan odam o'ldirish jinoyati tushunchasini yoritishdan avval odam o'ldirish jinoyatiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ma'lumki, jinoyat huquqi nazariyasida biron-bir qilmishda jinoyat belgilari, ya'ni qilmishning ijtimoiy xavfliligi, aybning mavjudligi, qilmishning huquqqa xilofligi va jazoga sazovorligi [1] mavjud bo'lsa, u jinoyat deb topiladi. Xuddi shu singari odam o'ldirishga ko'pchilik olimlar jinoyat sifatida ta'rif berar ekanlar, jinoyat huquqida belgilab berilgan, barcha jinoyatlar uchun xos bo'lgan belgilardan foydalanadilar.

M.D. Shargorodskiyning fikricha, "Odam o'ldirish – boshqa odamni hayotidan noqonuniy mahrum qilishdir" [2]. S.V. Borodin esa "Odam o'ldirish – boshqa odamning hayotiga tajovuz qiluvchi va uning o'limini keltirib chiqaruvchi Jinoyat Kodeksining Maxsus qismi moddalarida ko'zda tutilgan aybli harakatlardir", deb ta'kidlaydi.

M.H. Rustamboyev "Odam o'ldirish – qasddan, huquqqa xilof ravishda boshqa odamni hayotidan mahrum qilish yoki ehtiyotsizlikdan uning o'limini keltirib chiqarishdir" [4, 5], degan fikrni bildiradi. Shuningdek, huquqiy adabiyotlarda "Odam o'ldirish – jinoiy javobgarlik uchun asos bo'luvchi, g'ayriqonuniy (g'ayrihuquqiy) qasddan yoki ehtiyotsizlikdan boshqa odamning hayotidan mahrum qilishdir" [6, 7] degan fikrlar keltirilgan.

Yuqoridagi olimlar odam o'ldirishga o'z nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib ta'rif bergan bo'lsalar-da, ularning yondashuvlarini umumlashtirib, odam o'ldirish masalasida muayyan bir xulosaga kelishimiz mumkin.

Demak, odam o'ldirish – jinoiy javobgarlik uchun asos bo'luvchi, boshqa odamning hayotidan huquqqa xilof ravishda (Jinoyat kodeksi maxsus qismi moddalar bilan taqiqlab qo'yilgan harakatlar bilan) aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) mahrum etishdir.

Odam o'ldirish jinoyati tushunchasi haqidagi qarashlar turli xilligiga qaramasdan, mazmun jihatidan ularning fikrlari yakdillikka ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, qasddan odam o'ldirish jinoyati tushunchasiga to'xtalib o'tamiz.

Buyuk nemis olimi F. Engels shunday yozgan edi: "Agar bir odam boshqasiga jismoniy zarar yetkazsa va bunday zarar jabrlanuvchining o'limini keltirib chiqarsa, biz buni odam o'ldirish deb ataymiz. Agar qotil mazkur zarar odamni o'ldirishini oldindan bilgan bo'lsa, biz uning harakatlarini qasddan odam o'ldirish deb ataymiz" [8]. Nemis olimining mazkur fikridan ko'rinib turibdiki, qasddan odam o'ldirish odam o'ldirish jinoyati subyektiv tomonining ayb shakliga ko'ra bir ko'rinishidir. Ya'ni qasddan odam o'ldirishda jinoyat subyektivi o'zining sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi va uning oqibatlariga qasd ko'rinishidagi ruhiy munosabatda bo'ladi. Shunday ekan, qasddan odam o'ldirish jinoyatiga berilgan ushbu ta'rifga qo'shib bo'lmaydi.

Qasddan odam o'ldirish – qonunga xilof ravishda qasddan boshqa kishining hayotidan mahrum qilishdir [9].

Agar aybdor o'z harakatlarining natijasi jabrlanuvchining o'limi bo'lishini oldindan ko'ra bilsa va uning o'limi kelib chiqishini istagan bo'lsa (to'g'ri qasd) yoki o'limi kelib chiqishiga yo'l qo'ysa (egri qasd), bunday odam o'ldirishni qasddan sodir etgan bo'ladi.

O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida ham qasddan odam o'ldirishga yuqoridagi ta'riflarga o'xshash ta'riflar beriladi, ya'ni qasddan odam o'ldirish qonunga xilof ravishda boshqa kishini qasddan hayotdan mahrum qilishdir. Qasddan odam o'ldirishda aybdor o'z harakati oqibatida jabrlanuvchining hayotidan mahrum bo'lishiga ko'zi yetadi va uning o'lishini istaydi yoki jabrlanuvchining o'lishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi [10].

Demak, qasddan odam o'ldirish to'g'ri qasddan yoki egri qasddan sodir etilishi mumkin. Bu haqda hali yana quyida, ya'ni qasddan odam o'ldirish jinoyatining subyektiv tomonini tahlil qilganimizda batafsil to'xtalamiz.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi 97-moddasining 1-qismi "oddiy" odam o'ldirganlik, 2-qismida esa og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Bunda jinoyat subyektini tomonidan odam o'ldirish uchun sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishda odam o'ldirganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlari mavjud bo'lmasa, u "oddiy" odam o'ldirish jinoyatini sodir etgan hisoblanadi va amaldagi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi [5].

Har qanday holatda ham odam o'ldirish bo'lganmi-yo'qmi, degan savolga javob berish uchun ushbu jinoyatning belgilarini aniqlash zarur. Hayotdan mahrum qilish uchun jinoiy javobgarlik savoliga javob berish chog'ida, bir vaqtning o'zida jinoyatni kvalifikatsiya qilish savolini yechmay qoldirish mumkin emas. Shuning uchun ham odam o'ldirishni tavsiflaydigan belgilar tahlili jinoiy javobgarlik

savolini yechish uchun qanday ahamiyatga ega bo'lsa, berilgan jinoyatlarining kvalifikatsiyasi uchun ham shunday ahamiyatga ega [3].

"Shaxsning hayotiga qarshi jinoyatlar qayta tiklab bo'lmaydigan, qoplanmaydigan oqibatlarini vujudga keltiradi, chunki shaxsning hayotini qaytarib bo'lmaydi" [11].

Shunday qilib, odam o'ldirishga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Qasddan odam o'ldirish – ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, o'zga shaxsni hayotidan qasddan mahrum qilish". Bizning fikrimizcha, qonun uchun bunday tushunchani berish yetarli bo'lar edi. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini yuridik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, Jinoyat huquqida qabul qilingan an'anaga binoan, agar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 97-moddasi JK Maxsus qismining "Shaxsga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan birinchi bo'limiga "Hayotga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan birinchi bobga kiritilgan, moddaning dispozitsiyasida inson hayotiga tajovuz qilish nazarda tutilgan bo'lsa, umumiy va bevosita obyektlar farqlanishidan kelib chiqqanda, bu yerda qilmishning umumiy obyekt sifatida shaxs, maxsus obyekt sifatida umuman inson hayoti, bevosita obyekt sifatida esa muayyan odamning hayoti amal qiladi. Ammo bu "jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy munosabatlar amal qiladi" degan fikrga mos kelmaydi [12].

Hozirgi vaqtda bu g'oya qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. So'nggi yillarda ko'pgina kriminalist olimlarning asarlarida bu g'oyadan voz kechish va ko'rib chiqilayotgan muammo bo'yicha boshqacha qoidalarni ilgari surish hollari kuzatilmoqda. Jumladan, A.V. Naumov jinoyat qonuni bilan qo'riqlanuvchi ijtimoiy munosabatlar nazariyasi universal deb topilishi mumkin emasligini asoslashga harakat qilar ekan, "huquqiy ne'mat sifatidagi obyekt nazariyasiga qaytilishi mumkin", deb hisoblaydi [13]. Bu qaytish bugungi kunda real tus olmoqda. Bir guruh olimlar [14] jinoyat obyektini sifatida "jinoyat



sodir etuvchi shaxs tajovuz qiladigan va natijada jiddiy ziyon yetkaziladigan, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanuvchi muhim boyliklar, manfaatlar va ne'matlar"ni e'tirof etadilar.

Maxsus obyekt – o'z xususiyatiga ko'ra, juda yaqin bo'lgan jinoyatlar turi (kichik guruhi) obyektidir [15]. Bunga ko'ra, agar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismining birinchi bo'limida insonni unga xos bo'lgan, uning hayot faoliyati imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan uzviy qadriyatlar bilan birga umumiy obyekt deb hisoblasak, mazkur bo'limning turli boblarida muhofaza ostiga olingan bu qadriyatlarning turli ro'yxati bu boblarning har birida o'zining alohida maxsus obyektini tashkil etadi. Qasddan odam o'ldirishning maxsus obyektini ham "Hayotga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan II bobidan o'rin olgan qasddan odam o'ldirish, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish, onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirishi, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turish zarur choralarini chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish, ehtiyotsizlik orqasidan odam o'ldirishning maxsus obyektini kabi inson hayotidir. Maxsus obyektining mazkur talqinidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bobida o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish o'rinli ravishda hayotga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritilganki, bu uni odam o'ldirishlar tarkibi bilan bir guruhga birlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan qasddan odam o'ldirishning bevosita obyektini insonning yashash huquqidir, deb hisoblash to'g'ri bo'ladi.

M.H. Rustamboyevning fikricha, JKning 97-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning obyektini deganda, inson hayotini oliy qadriyat deb tan olish, har qanday insonning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish hamda u bilan rahmsiz muomala qilishga yo'l qo'ymaslik bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tushuniladi [5].

Jinoyat huquqi nazariyasidan ma'lumki, hayotga qarshi qaratilgan barcha jinoyatlarning obyekti boshqa insonning hayotidir. Shunday ekan, qasddan odam o'ldirish jinoyatining ham obyekti boshqa insonning hayoti hisoblanadi.

M.H. Rustamboyev ta'kidlaganidek, odam o'ldirishning obyektiv tomoni huquqqa xilof ravishda boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilishdan iboratdir [5]. Agar boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilish qonunga xilof bo'lmasa, u odam o'ldirish deb hisoblanishi mumkin emas.

Qasddan odam o'ldirish jinoyati moddiy tarkibli jinoyat bo'lganligi uchun uning obyektiv tomoni quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi: ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik, ijtimoiy xavfli harakat (harakatsizlik) ning oqibati va ijtimoiy xavfli qilmish bilan uning oqibati o'rtasidagi sababiy bog'lanish.

Hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlar, xususan, qasddan odam o'ldirish jinoyati ham faol harakatlar, ham harakatsizlik yo'li bilan sodir etilishi mumkin. Ko'pincha odam o'ldirish boshqa insonning hayoti uchun muhim bo'lgan a'zolari funksiyalari yoxud anatomik butunligi buzilishiga qaratilgan harakatlar bilan sodir etiladi. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etishda ayblanuvchi o'zining mushak kuchlari (qo'l bilan bo'g'ish, qo'l va oyoqlar bilan zarbalar berish, balandga ko'tarib tashlash) yoki buning uchun qandaydir qurol yoki vositalar (pichoq, bolta yoki g'isht bilan o'ldirish, kuydirish, zaharlash, elektr toki bilan ta'sir ko'rsatish, o'ta sovuq yoki o'ta issiq yerda qoldirish, to'pponchadan otish)dan foydalanadi. Amaliyotda qasddan odam o'ldirish jinoyati aksariyat hollarda jismoniy ta'sir etish orqali sodir etilishi kuzatiladi. Biroq ba'zi hollarda boshqa shaxsning o'limi ruhiy ta'sir etish yo'li bilan ham keltirib chiqarilishi mumkin. Agar shaxs boshqa shaxsning yurak yoki yurak-qon tomir tizimi kasalligini bilgan va uni o'ldirish maqsadi bilan o'limini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan, ruhiy jarohat yetkazish unda bunday

jinoiy harakatlar qasddan odam o'ldirish sifatida qaralmog'i lozim [4]. Ruhiiy ta'sir etish boshqa ko'rinishlarda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Jumladan, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazishda ayblanuvchi insonni hayotidan mahrum etishga bevosita qandaydir kuchlarni sarflamaydi, biroq jabrlanuvchiga shunday yo'sinda ta'sir etadiki, natijada jabrlanuvchi o'zini o'zi hayotdan mahrum etadi.

“Odam o'ldirish uchun sodir etiladigan harakatlar, albatta, huquqqa xilof bo'lishi lozim”, deb yozgan edi M.H. Rustamboyev [5]. Darhaqiqat, odam o'ldirish jinoyati g'ayri-huquqiy belgilarsiz sodir etilsa, mazkur jinoyatning tarkibi ham bo'lmaydi. Jinoyat tarkibi yo'q ekan, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs ham jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Bunday hollarda qilmishning jinoyatligini istisno etuvchi holatlar yuz bergan bo'ladi. Odam o'ldirish jinoyatiga nisbatan qilmishning jinoyatligini istisno etadigan holatlarga zaruriy mudofaa (O'zR JK 37-m.) yoki oxirgi zarurat (O'zR JK 38-m.) holatida; ijtimoiy xavfli jinoyat sodir etgan shaxsni ushlash (O'zR JK 39-m.) yoxud buyruq yoki boshqa tarzdagi vazifani bajarish (O'zR JK 40-m.) chog'ida odam o'ldirish jinoyatlari kiradi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyati obyektiv tomonining alomati sifatida jinoyatning sodir etish usulini belgilash mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Jinoyatni sodir etish usuli uning qanday sodir etilganligi, uning tartibi, uslubini ko'rsatadi. Jinoyatni sodir etish usuli qonunda muayyan jinoyatning zaruriy yoki tasnifiy belgisi sifatida ko'rsatilishi mumkin. Xususan, qasddan odam o'ldirish jinoyatini quyidagi usulda sodir etish javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatda sodir etilgan hisoblanadi: a) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda; b) o'ta shafqatsizlik bilan odam o'ldirish. Jinoyat sodir etish usulini noto'g'ri aniqlash muayyan jinoyatning zaruriy yoki tasnifiy belgisi bo'lsa, hukmni o'zgartirish uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko'ra, shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi. Mazkur qoidaning qonunchilikda belgilanishi shundan dalolat beradiki, shaxs sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishda aybi mavjud bo'lsagina javobgarlikka tortiladi. Aks holda, shaxsni javobgarlikka tortish uchun hech qanday asos bo'lishi mumkin emas.

Jinoyat huquqi nazariyasiga ko'ra, ayb – jinoyatchining sodir qilgan ijtimoiy xavfli harakati yoki harakatsizligi hamda uning ijtimoiy xavfli oqibatiga qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ruhiy munosabatidir. Jinoyat huquqida shaxsning qilmishi uchun javobgarlik belgilanar ekan, bunda shaxs o'zining ijtimoiy xavfli xulqining ijtimoiy-siyosiy mohiyatini anglagan va ongi bilan boshqarib, o'z erk-irodasi bilan bog'liq holda sodir etganligiga asoslanadi [15].

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Aynan ayb barcha jinoyatlar tarkibining zaruriy belgisi hisoblanadi. Bundan shuni anglash mumkinki, barcha jinoyatlar, xususan, odam o'ldirish jinoyatlari ham qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiladi. Jinoyat huquqi nazariyasida aybning qasd yoki ehtiyotsizlik shakllari yuzasidan ziddiyatlar, kelishmovchiliklar yo'q desak yanglishmagan bo'lamiz.

Jinoyat kodeksining 21-moddasida ta'kidlanishicha, shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan ko'ra bilgan va shunday oqibatlarining yuz berishini istagan (to'g'ri qasd) yoki ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan (egri qasd) bo'lsa, jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan, biroq bunday oqibatlar yuz bermasligiga asossiz ravishda umid qilgan (o'z-o'ziga ishonish) bo'lsa yoki bunday oqibatlarini keltirib chiqarishini oldindan ko'ra bilmagan

bo'lsa-da, lekin ko'ra bilishi lozim va mumkin bo'lgan (beparvolik) bo'lsa, jinoyat ehtiyotsizlikdan sodir etilgan deb topiladi (JK 22-modda).

Nazariya va amaliyotda qasdning ikki turi mavjud: ma'lum (konkretlashgan) va noma'lum (konkretlashmagan).

Biz ko'rib chiqayotgan qasddan odam o'ldirish jinoyati o'z nomi bilan ko'rinib turibdiki, aybning qasd shaklida sodir etiladi. Qasddan odam o'ldirish to'g'ri yoki egri qasddan sodir etilishi mumkin.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 2-bandida: "Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etayotganda, aybdor jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish qasdi bilan harakat qiladi, qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetadi, o'lim yuz berishini istaydi (to'g'ri qasd) yoki bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi (egri qasd)", deb ko'rsatilgan.

Demak, qasddan odam o'ldirish, agar jinoyat subyekti o'z qilmishining ijtimoiy xavfliligi (g'ayriqonuniyligi)ni anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibati, ya'ni jabrlanuvchining ulushini oldindan ko'ra bilgan va uning o'limi yuz berishini istagan bo'lsa, to'g'ri qasd bilan sodir etilgan bo'ladi; agar jinoyat subyekti o'z qilmishining ijtimoiy xavfliligi (g'ayriqonuniyligi)ni anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibati, ya'ni jabrlanuvchining o'lishini oldindan ko'ra bilgan va uning o'limi yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, egri qasd bilan sodir etilgan bo'ladi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatidan farqlash uchun aybdorning qasdi nimaga qaratilganligi, uning o'z harakatlari oqibati, ya'ni jabrlanuvchining o'limiga nisbatan subyektiv munosabatini inobatga olish darkor.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etayotganda, aybdor shaxsni hayotdan mahrum qilish niyatida harakat qiladi,

badanga og'ir shikast yetkazish shaxsning o'limiga sabab bo'lgan hollarda esa o'limga nisbatan uning aybi ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi.

To'g'ri qasddan odam o'ldirishning tafakkuriy (intellektual) holati shaxsning o'z harakatlari yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli xarakterni anglashi va uning ijtimoiy xavfli oqibati, ya'ni jabrlanuvchining o'limini ko'ra bilishidadir.

To'g'ri qasddan odam o'ldirishning irodaviy holati shaxsning jabrlanuvchi o'limi kelib chiqishini istagani bilan karakterlanadi. Masalan, subyekt odam o'ldirishda aynan boshqa shaxsni hayotdan mahrum etishni xohlaydi, badanga shikast yetkazishda esa aybdor aynan jabrlanuvchi badaniga og'ir shikast yetkazilishini istaydi.

Aynan irodaviy holat bo'yicha to'g'ri qasddan odam o'ldirish egri qasddan odam o'ldirishdan farqlanadi. To'g'ri qasddan odam o'ldirishda aybdorning harakatlari da jabrlanuvchi o'limining yuz berish istagi mavjud bo'ladi. Egri qasdda esa jabrlanuvchi o'limining yuz berishi istagi emas, balki ongli ravishda yo'l qo'yilishi, ya'ni jabrlanuvchi o'limining kelib chiqishiga aybdor befarq qaraydi. Egri qasddan odam o'ldirishda aybdor jabrlanuvchi o'limi kelib chiqishini istamaydi, balki o'zining boshqa maqsadiga erishish uchun jabrlanuvchining o'limi kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 13-sonli qarorida aybdorning qasdi masalasini aniqlashda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlangan. Xususan, unda "Aybdorning qasdi nimaga qaratilganligi to'g'risidagi masalani hal etishda qilmishning barcha holatlari majmuyidan kelib chiqilishi, xususan, jinoyatni sodir etish usuli va quroli, tan jarohatlari soni, xususiyati va o'rni (masalan, odam hayoti uchun muhim a'zolarining jarohatlanganligi), jinoiy harakatlar to'xtashi sabablari, shuningdek,

aybdor va jabrlanuvchining jinoyat sodir etilgunga qadar bo'lgan fe'l-atvori, o'zaro munosabatlari, aybdorning jinoyat sodir etilgandan keyingi harakatlari xususiyati e'tiborga olinishi lozim"ligi ko'rsatib berilgan. Darhaqiqat, mazkur holatlarni batafsil o'rganib chiqish aybdorning qasdi, jumladan, jinoyatni to'g'ri qasddan sodir etganmi yoki egri qasddan, aniqlashda muhim o'rin tutadi. Masalan, agar subyekt jabrlanuvchining yonginasida uning yuragini mo'ljallab o'q uzsa yoki pichoq bilan ursa, uning harakatlari to'g'ri qasddan sodir etilganidan dalolat beradi. Chunki uning harakatlari jabrlanuvchining hayoti uchun muhim bo'lgan a'zosiga bevosita qaratilganligi, aybdorda jabrlanuvchini o'ldirish istagi mavjudligini ko'rsatadi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatining subyektiv tomonini tahlil qilishda jinoiy harakatning motiv va maqsadini ham o'rganish zarur. Negaki jinoyatning motiv va maqsadi jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda, jinoyatni boshqa tarkibli jinoyatlardan chegaralash va adolatli jazo tayinlashda muhim ahamiyatga ega.

M. Usmonaliyev fikricha esa jinoyatning motivi – shaxsda muayyan talab va manfaatlarini qondirishga qaratilgan jinoyat sodir etishga jur'at tug'diruvchi va jinoyat sodir qilishda unga amal qilinadigan ichki qo'zg'atuvchi kuch (niyat)dir. Jinoyatning maqsadi esa jinoyat sodir etish orqali kelajakda muayyan natijaga erishishga qaratilgan shaxsning ongidagi fikriy intilishidir [16].

Jinoyat motivi – jinoyat subyektiv tomonining fakultativ belgilaridan biri. Jinoyat motivi qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda, jinoyatni boshqa jinoyat tarkibidan farqlash va adolatli jazo tayinlashda muhim ahamiyatga ega. Jinoyat motivi muayyan maqsadning vujudga kelishi, uning yo'nalishini ifodalaydi. Ayrim hollarda jinoyat motivi jinoyatning zaruriy belgisi, boshqa hollarda jazoni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Jinoyat motivi shaxsda jinoyat sodir qilish qarori va xohishini uyg'otuvchi ichki hissiyotdir. Jinoyat mo-

tivi faqat qasddan sodir etilgan jinoyatlarga xos. Jinoyat motivi rashk, o'ch olish, bezorilik, millatlararo, shaxsiy g'araz va hokazolar zaminida shakllanadi. Shuningdek, u sodir etilgan boshqa jinoyatni yashirish, murdaning a'zolarini transplantatsiya qilish uchun olish, shahvoniy ehtiyojni qondirish, xalqaro aloqalarni yomonlashtirish maqsadida urushni targ'ib qilish, nazorat qilinmaydigan foyda olish kabilar bo'lishi mumkin [17].

Jinoyat motiviga turli adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, M.H. Rustamboyev motivni quyidagicha ta'riflagan: "Motiv muayyan harakatlarni sodir etishga bo'lgan niyat bo'lib, xususan, jinoyat motivi o'zida odam ruhiyatida ro'y beradigan juda qiyin emotsional (hissiy) va irodaviy jarayonni namoyon etadi. Chunonchi, motiv jinoiy faoliyatga shaxsning faol qiziqtiruvchi omili (stimul) hisoblanuvchi kuch va shiddat bilan intilishni beradi. Jinoyat motivi shart bo'lgan muayyan ehtiyoj va manfaatlarining anglangan yoki anglanmagan ichki xohish-niyati bo'lib, shaxs unga jinoyat sodir etishda tayyanadi" [18].

Bu ta'riflardan ko'rinadiki, jinoyat motivi jinoyat sodir etishga tayyorgarlikning hissiy bosqichi hisoblanadi. Hayotga qarshi jinoyatlar, jumladan, qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining keng tarqalgan motivlariga o'ch olish, rashk, hasad, bezorilik, millatlara-ro shaxsiy g'araz kabilar kiradi.

Jinoyatning maqsadi deyilganda, aybdorning ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish orqali intilgan narsa, ya'ni aybdor uchun istalgan natija tushuniladi. Unga intilish shunchalik yuqoriki, shaxs jinoyat sodir etadi. Qasddan odam o'ldirish jinoyatining maqsadini aniqlash uni boshqa tarkibli jinoyatlardan farqlash imkonini beradi. Buni yuqorida keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorining 4-bandida ham ko'rishimiz mumkin. Unda belgilanishicha, "Qasddan odam o'ldirish jinoyatini jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatidan

farqlash uchun aybdorning qasdi nimaga qaratilganligi, uning o'z harakatlari oqibati, ya'ni jabrlanuvchining o'limiga nisbatan subyektiv munosabatini inobatga olish darkor. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etayotganda, aybdor shaxsni hayotdan mahrum qilish niyatida harakat qiladi, badanga og'ir shikast yetkazish shaxsning o'limiga sabab bo'lgan hollarda esa o'limga nisbatan uning aybi ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi".

Qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining motiv va maqsadi mazkur jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Chunki ular ba'zi jinoyatlar tarkibining zaruriy belgisi sifatida qonunchilikda o'rnatib qo'yiladi. Masalan, tamagirlik niyatida, milliy yoki irqiy adovat zamirida, bezorilik oqibatida (O'zR JK 97-m. 2-q. "i-p" bandleri) sodir etilgan jinoyatlar javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirishning zaruriy belgilaridir.

Shunday qilib, agar motiv inson nima uchun jinoyatni sodir etdi, degan savolga javob bersa, unda maqsad shaxs nima sababdan uni sodir etdi va qanday natijaga erishmoqchi bo'lganligini ko'rsatadi [19].

Shuningdek, hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlar sodir etilishining motiv va maqsadini aniqlash ana shu jinoyatlarga qarshi kurashning shakl va uslublarini belgilashda, ularning oldini olish choralarini ishlab chiqishda muhim o'rinni egallaydi.

Biz tahlil qilayotgan, qasddan odam o'ldirish jinoyatining subyektini deyilganda, mazkur jinoyatni sodir etgan shaxs tushuniladi. Albatta, jinoyat subyektiga berilgan bu ta'rif tor ma'nodadir. Chunki qasddan odam o'ldirish jinoyatining subyektini ham har qanday jinoyatning subyektini ega bo'lishi lozim bo'lgan muayyan belgilarni o'zida aks ettirishi kerak. Aks holda, u qasddan odam o'ldirish jinoyatining subyektini hisoblanmaydi. Demakki, uni jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Shariatda odam o'ldirishning beshta turi bo'lib, ularning barchasiga ta'rif berishda subyektga nisbatan

"aqli", "boliq" degan shartlar ishlatilgan [20]. "Aqli" deyilganda, subyektning aqli rasoligi, "boliq" deyilganda esa shariatda belgilangan balog'at yoshiga yetganligi tushunilmog'i lozim.

Jinoyat qonuni jinoyat subyektini sifatida faqat jismoniy shaxs, ya'ni insonni tushunadi. Bu yuridik shaxslar va hayvonlarning javobgarlikka tortilmasligini bildiradi [21].

Qasddan odam o'ldirish jinoyati yuridik shaxs nomidan sodir etilganda, jinoyatni sodir etishda aybdor bo'lgan jismoniy shaxslar (masalan, jinoyatning bajaruvchisi, tashkilotchisi, yollovchisi) jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, ba'zi chet el davlatlari (Angliya, AQSh, Kanada, Italiya) jinoyat qonunchiligida jinoyat subyektini deb topiladigan yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligiga yo'l qo'yilgan [22].

#### Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qasddan odam o'ldirishning jinoyat-huquqiy jihatlari tahlil qilish natijasida quyidagicha xulosaga kelindi.

Birinchi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida, ma'lumki, odam o'ldirish tushunchasi umuman berilmagan. Bunda ushbu tushunchani umum qabul qilingan deb taxmin qilingan ko'rinadi. Bu qaror noto'g'ri, chunki odam o'ldirish tushunchasi bahsli masala hisoblanib, umumiy ma'noda qabul qilingan.

Odam o'ldirish jinoyati tarkibining murakkabligi shundaki, bunda jinoyat qonunchiligida jinoyat masalasini diqqat bilan o'rganishga ehtiyoj seziladi.

Odam o'ldirish tushunchasini shunday shakllantirish kerakki, ushbu tushunchaga yaqin bo'lgan boshqa tushunchalardan ajralib turishi kerak. Odam o'ldirish tushunchasida ikkita narsaga e'tibor qaratish lozim: odam o'ldirishni cheklaydigan hayotdan mahrum qilishning boshqa holatlari bo'lgan huquqqa xiloflik hamda odam o'ldirishni cheklovchi o'lim sabablari huquqqa xilofligining boshqa holatlari.

Natijada odam o'ldirish tushunchasi bu – boshqa insonning hayotini qasddan huquqqa xilof ravishda mahrum qilish. Ta'kidlash kerakki, odam o'ldirish tushunchasi hayotdan mahrum qilish tushunchasidan farq qilib, har qanday hayotdan mahrum qilish huquqqa xilof bo'lmaydi va unga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanmaydi.

Urush yoki boshqa vaziyatlarda hayotdan mahrum qilish oxirgi zarurat va zaruriy mudofaa holatida sodir etilsa, odam o'ldirish huquqqa xilof hisoblanmaydi. Ehtiyotsizlik natijasida hayotdan mahrum qilish odam o'ldirish deb atalmay, bu termin faqat qilmish qasddan sodir etilganda ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga yuqorida bayon etilgan odam o'ldirish tushunchasini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, qonun chiqaruvchi qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun javobgarlikni ularning ijtimoiy xavflilik darajasidan qat'i nazar, aybning og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarini inobatga olgan holda bir nechta tabaqalarga ajratadi.

Subyektiv belgilarga ko'ra, qasddan odam o'ldirish jinoyatining turlarini ko'rib chiqayotib, quyidagi alohida belgi va xususiyatlarni aniqlash mumkin.

Tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qism "i" bandi) har xil naf olish yoki moddiy harakatlardan qutulish istagida odam o'ldirishdir. Ushbu jinoyatning kvalifikatsion belgisi odam o'ldirish motivi sifatida tamagirlik hisoblanadi.

Tamagirlik niyatida odam o'ldirishning shakli haqidagi masalaga kelganda, subyekt har doim to'g'ri qasd bilan harakat qiladi. Aybdor jabrlanuvchining hayotidan mahrum qilmasdan turib, o'zining tamagirlik maqsadiga erisholmasligini anglaydi. Lekin ba'zi hollarda tamagirlik niyatida odam o'ldirish egri qasd bilan sodir etilishi mumkin bo'lib, bunda aybdor jabrlanuvchining o'limini xohlamaydi, lekin o'lim ro'y berib, uning taqdiriga befarq bo'lishini anglaydi.

Boshqa odamning hayotiga tajovuz qasddan hamda ehtiyotsizlikdan sodir etilib, o'limning muqarrarligi to'g'ri qasdning tarkibi hisoblanadi.

Qasdning tarkibiga tushuncha berishda odam o'ldirilayotganda, barcha holatlar inobatga olinib, ular aybdor va jabrlanuvchining jinoyat sodir qilinguncha o'zaro munosabatlari, jinoyat quroli, jarohatlarning joylanishi, aybdorning qilmishni sodir qilgandan keyingi harakati va boshqalar kiradi. Ushbu jinoyatning kvalifikatsiyasiga qasddan odam o'ldirish jinoyati sodir etilayotganda, motiv va maqsad inobatga olinadi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 20-bandining ikkinchi qismiga "Bir guruh shaxslar – guruh tarkibida kamida ikki yoki undan ortiq shaxs bajaruvchi sifatida ishtirok etgan shaxslar tushuniladi" degan tushunchani kiritishni taklif etamiz.

Mazkur taklif bildirilishiga olib kelgan hayotiy zaruriyat amaliyotda ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarning aksariyati uchun bevosita jinoyat obyektiv tomonining biron-bir qismini bajarmagan shaxslarga (yordamchi, dalolatchi, tashkilotchi) ham maxsus qism moddasi og'irlashtiruvchi qismida o'rnatilgan "bir guruh shaxslar" belgisi bilan kvalifikatsiya qilinayotganligidir. Bu holatlarda jinoyatning bevosita yoki qisman obyektiv tomoni harakatlarini bajarmagan shaxslarni JKning 28-moddasi va tegishli bajaruvchi tomonidan sodir etilgan jinoyat bilan javobgar qilish lozim. Shuning uchun mazkur plenum qarorida tegishli ravishda bir guruh shaxslar tushunchasining o'rnatib qo'yilishi amaliyotdagi ayrim muammolarning hal qilinishiga sabab bo'ladi.

Bu xususida Oliy Sud Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida jabrlanuvchiga nisbatan zo'rlik ishlatib, uni hayotdan mahrum

qilish jarayonida bevosita ishtirok etgan ikki yoki undan ortiq shaxsning harakatlari JK 97-moddasi ikkinchi qismining “p” bandi bilan, ya’ni bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a’zosi tomonidan yoxud o’sha guruh manfaatlarini ko’zlagan holda sodir etganlik bilan kvalifikatsiya qilinadi. Qasddan odam o’ldirishda bevosita ishtirok etmagan

hamda jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy zo’rlik ishlatmagan, biroq o’zgaralar tomonidan qotillik sodir etilishida ko’maklashgan boshqa shaxslarning harakatlari Jinoyat kodeksining 28-, 97-moddasi tegishli qismi bo’yicha kvalifikatsiya qilinadi deb tushuntirish bergan. Shularni inobatga olib, tegishli o’zgartirish kiritish maqsadga muvofiq.

## REFERENCES

1. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Tashkent, Nasaf Publ., 2010, p. 43.
2. Shargorodsky M.D. Otvetstvennost’ za prestupleniya protiv lichnosti [Responsibility for crimes against the person]. Leningrad, 1953, p. 14.
3. Borodin S.V. Prestupleniya protiv zhizni [Crimes against life]. St. Petersburg, Legal Center Press, 2003, p. 21.
4. Rustambaev M.Kh. Prestupleniya protiv lichnosti [Crimes against the person]. Tashkent, 1998, p. 12.
5. Rustambayev M.X. O’zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Special part. Crimes against the person. Crimes against peace and security. 2nd ed., supplem. and revised. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, vol. 3, pp. 30, 412.
6. Avkhia Zh. Bor’ba s prestupleniyami protiv zhizni [Combating crimes against life]. Moscow, Legal Literature Publ., 1997, p. 16.
7. Zagorodnikov N.I. Prestupleniya protiv zhizni po sovetскому уголовному праву [Crimes against life according to Soviet criminal law]. Moscow, Gosyurizdat, 1991, p. 22.
8. Engels F., Marks K. Polozheniye rabochego klassa v Anglii [Condition of the working class in England]. Works, vol. 3, p. 388.
9. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Justice, 1997, p. 129.
10. O’zbekiston yuridik ensiklopediyasi [Legal encyclopedia of Uzbekistan]. Resp. ed. N. Toychiev. Tashkent, Adolat Publ., 2010, p. 606.
11. Uголовное право России [Russian criminal law]. Ed. prof. A.I. Raro. Moscow, Prospekt Publ., 2003, p. 297.
12. Tarayni V.Ya. Ob’yekt i predmet prestupleniya v uголовном prave [Object and subject of a crime in criminal law]. Kharkiv, 1998, pp. 14–15.
13. Naumov A.V. Rossiyskoe uголовное право [Russian criminal law]. General part. Moscow, 1996, p. 147.
14. Kurs uголовного prava. Ucheniye o prestuplenii [Criminal law course. Doctrine of Crime]. Eds. N.F. Kuznetsova, M. Tyazhkova. Moscow, 1999, vol. 1, p. 202.
15. Popov A.N., Kondrashova T.V. Problemy uголовной otvetstvennosti za prestupleniya protiv zhizni, zdorov’ya, polovoy svobody i polovoy neprikosnovennosti [Problems of criminal liability for crimes against life, health, sexual freedom and sexual integrity]. Ekaterinburg, 2000, p. 25.
16. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Tashkent, Nasaf Publishing house, 2010, p. 196.
17. Yuridik atamalarning izohli lug’ati [Annotated dictionary of legal terms]. Tashkent, Adolat Publ., 2012, vol. 1, p. 171.

18. Rustomboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Ilm Ziyo Publ., 2011, p. 400.
19. Gurev M.S. Ubiystva na «razborkax» (methodika rassledovaniya) [Murders in "showdowns" (methodology of the investigation)]. Moscow – Kharkov – Minsk, Peter Publ., 2001, p. 78.
20. Muxtasar. Shariat qonunlariga qisqacha sharh [Brief Commentary on Sharia Laws. Tashkent, Chulpon Publ. house, 1994, pp. 304–305.
21. Ivchenko O. Otvetstvennost' za evtanaziyu po ugolovnomu zanadatel'stvu zarubezhnykh stran [Liability for euthanasia under the criminal laws of foreign countries]. *Criminal law*, 2001, no. 3, p. 19.
22. Pavlov V.G. Sub'yekt prestupleniya [Subject of the crime]. St. Petersburg, Yuridichesky Center Press, 2001, pp. 256-267.
23. Lopashenko N.A. Voprosy kvalifikatsii prestupleniy v sfere ekonomicheskoy deyatel'nosti [Issues of qualification of crimes in the sphere of economic activity]. Saratov, 1997, p. 11.



UDC: 343.8(045)(575.1)

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOIY JAZOLARNI IJRO ETISH TIZIMIDA MAHKUMLARNI AXLOQAN TUZATISH VOSITALARINING TURLARI VA ULARNING FUNKSIYALARI

**Matchanov Faxriddin Kuramboy o‘g‘li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0000-0002-5760-8223  
e-mail: matchanovfaxriddin@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada muallif O‘zbekiston Respublikasi jinoiy jazolarni ijro etish tizimida mahkumlarni axloqan tuzatish vositalarining turlari va ularning funksiyalarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilgan. Muallifning qayd etishicha, jinoyat-ijroiya qonunchiligida mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositalari orasida birinchi o‘rinda jazoni ijro etish va o‘tashning belgilangan tartibi (rejimi) belgilab qo‘yilgan. Chunki rejim jazoni ijro etishning butun jarayonini o‘z ichiga qamrab oladi. Maqolada mahkum jazoni ijro etish muassasasida bo‘lgan payt jazoni o‘tash bilan bog‘liq talablarni bajarishi shartligi hamda mazkur talablar rejimning jazolovchi, tarbiyalovchi, ogohlantiruvchi funksiyasidan kelib chiqib amalga oshirilishi qayd etilgan. Shuningdek, rejimning jazolash, tarbiyalash hamda ta‘minlash funksiyalari tahlil qilingan. Bundan tashqari, olib borilgan tahlil natijasida muallif mahkumni axloqan tuzatish vositalari jazoni ijro etish va o‘tashning belgilangan tartibi (rejimi), tarbiyaviy ish, ijtimoiy va foydali mehnat, umumiy va hunar ta‘limi, kasb tayyorgarligi hamda jamoat ta‘siridan iboratligi, mazkur axloqan tuzatish vositalari jazoni ijro etishda mahkumlarga nisbatan qo‘llanadigan maxsus chora-tadbirlar hisoblanishi va jazoni ijro etishning bir qismi ekanligi haqida xulosaga kelgan.

**Kalit so‘zlar:** mahkumlar, axloqan tuzatish vositalari, rejim, rejimning jazolovchi, tarbiyalovchi, ogohlantiruvchi funksiyalari, jazoni ijro etish va o‘tashning belgilangan tartibi.

### ВИДЫ СРЕДСТВ НРАВСТВЕННОГО ИСПРАВЛЕНИЯ ОСУЖДЕННЫХ И ИХ ФУНКЦИИ В СИСТЕМЕ ИСПОЛНЕНИЯ УГОЛОВНЫХ НАКАЗАНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Матчанов Фахриддин Курамбой угли,**  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье автор проанализировал виды средств нравственного исправления осужденных в системе исполнения уголовных наказаний Республики Узбекистан и особенности их функций. По замечанию автора, среди основных средств нравственного исправления осужденного в уголовно-исполнительном законодательстве на первое место выходит установленный порядок (режим) исполнения и отбывания наказания, потому что режим включает в себя весь процесс исполнения наказания. В статье отмечается, что осужденный должен выполнять требования, связанные с отбыванием наказания, при нахождении его в пенитенциарном учреждении, и эти требования реализуются исходя из карательной, воспитательной, предупредительной функции режима. Также были

проанализированы функции режима наказания, воспитания и обеспечения. Кроме того, в результате анализа автор пришел к выводу, что средства нравственного исправления осужденного состоят из установленного порядка (режима) исполнения и отбывания наказания, воспитательной работы, общественно-полезного труда, общего и профессионального образования, профессиональной подготовки, общественного воздействия, и исправительные средства считаются особыми мерами, применяемыми к осужденным при исполнении наказания и являющимися частью исполнения наказания.

**Ключевые слова:** осужденные, средства нравственного исправления, режим, карательная функция режима, воспитательная функция режима, предупредительная функция режима, установленный порядок исполнения наказания.

## TYPES OF MEANS OF MORAL CORRECTION OF CONVICTS AND THEIR FUNCTIONS IN THE PENAL SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Matchanov Fakhridin Kurambov ugli,**  
Independent Researcher  
of Tashkent State University of Law

**Abstract.** In this article, the author analyzed the types of means of moral correction of convicts and the specifics of their functions in the system of execution of criminal penalties of the Republic of Uzbekistan. The author notes that in the penal enforcement legislation, the established order (regime) of execution and execution of punishment is in the first place among the main means of moral correction of a convicted person. Because the regime includes the entire process of serving a sentence. The article notes that the convicted person is obliged to fulfill the requirements related to serving a sentence during his stay in a penitentiary institution, and also that these requirements are fulfilled based on the punitive, educational, preventive functions of the regime. Punitive, educational and supporting functions of the regime were also analyzed. In addition, as a result of the analysis, the author came to the conclusion that the means of moral correction of a convicted person consist of the established order (regime) of execution and execution of punishment, educational work, socially useful work, general and vocational education, vocational training and social impact, that these means of moral correction are special measures applied to convicts in the execution of punishment, and that means that is part of the execution.

**Keywords:** convicts, means of moral correction, regime, punitive, educational, preventive functions of the regime, the established procedure for the execution of punishment.

### Kirish

Axloqan tuzatish vositalari jazo turi, so-dir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, shuningdek, mahkumning shaxsi va xulq-atvorini inobatga olgan holda qo'llanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 7-moddasiga muvofiq, mahkumni axloqan tuzatish vositalariga quyidagilar kiradi:

- 1) jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi);
- 2) tarbiyaviy ish;
- 3) ijtimoiy-foydali mehnat;

4) umumiy va hunar ta'limi;

5) kasb tayyorgarligi;

6) jamoat ta'siri.

Jinoyat-ijroiya qonunchiligida mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositalari orasida birinchi o'rinda jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi) belgilab qo'yilgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki rejim jazoni ijro etishning butun jarayonini o'z ichiga qamrab oladi. Ilmiy adabiyotlarda rejim tushunchasiga quyidagicha ta'riflar berilgan: rejim (fransuz tilida *resime*, lotin tilida esa *resimen*) boshqaruv degan ma'noni anglatadi. Rejim so'zi bir necha lug'aviy ma'nolarga

ega bo'lib, davlat boshqaruvi, boshqaruv usuli, ishda, ovqatlanishda, dam olishda, uyquda, davolanishda o'rnatilgan hayot tartibi bo'lib, muayyan maqsadlarga erishish uchun qo'yiladigan qoidalar, tadbirlar, normalar yig'indisidir [1].

Rejim deganda, jinoyat-ijroiya qonunlari bilan tartibga solinadigan mahkumni axloqan tuzatish va uni ozodlikdagi mehnatga tayyorlashni ta'minlovchi jazoni ijro etish va o'tash tartibi tushuniladi.

Rejim shaxsni ozodlikdan mahrum qilgan holda, uning hayotini bir xil me'yorda saqlashdir. Mahkumning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish nuqtayi nazaridan qarasa, mahkumni qonun hamda qonunosti hujjatlarida belgilangan qoidalarga muvofiq yashashga o'rgatishdir. Bunda mahkumning hayot tarzi, mustaqil shaxsga xos bo'lgan o'ziga xos odatlari belgilangan qoidalarga moslashtirilishi lozim.

### Material va metodlar

O'zbekiston Respublikasi jinoiy jazolarni ijro etish tizimida mahkumlarni axloqan tuzatish vositalarining turlari va ularning funksiyalarini o'rganish, mazkur ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari normalarini tahlil qilish asnosida tahlil, tarixiy-qiyosiy uslub, xususiylashtirish va taqqoslash singari ilmiy bilishning usullaridan foydalanilgan.

### Tadqiqot natijalari

Jazoni ijro etish muassasalarida rejim – tegishli qonun hujjatlari hamda ular asosida qabul qilingan qonunosti hujjatlar talablariga rioya qilgan holda, ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni o'tash tartibi, mahkumlarni qo'riqlash xizmati, doimiy nazoratda tutish tartibi, mahkumlarning shaxsiy daxlsizligi va xavfsizligini ta'minlash, huquq va majburiyatlarini ta'minlash, mahkumlarining toifasiga qarab ularni tegishli jazoni ijro etish muassasalariga jazoni o'tash uchun yuborish, sud qaroriga binoan, mahkumning jazoni ijro etish sharoitini o'zgartirishdan iborat.

Rejim mahkumni axloqan tuzatish vositalarini qo'llashni ta'minlaydi. Rejim mahkumga tayinlangan jazoning mazmun-mohiyatini o'zida ifodalab, u mahkumga qo'llanadigan majburlov hamda huquqini cheklovchi vositalarni belgilaydi [2].

Rejim, shu bilan bir qatorda, barcha huquq subyektlarining jazoni ijro etishni ta'minlash bo'yicha huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Ya'ni rejim jazoni ijro etishni tashkil etish, jamoat birlashmalari, jazoni ijro etish muassasasi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlar va mansabdor shaxslarning bu boradagi faoliyatlarini ham belgilab beradi. Rejim amal qiladigan doirani belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Jazoni ijro etish muassasasi hududida vakolatli shaxslar mahkumlar, ularning narsalari, hujjatlari, shuningdek, jazoni ijro etish muassasasiga kirib chiquvchi avtotransport vositalarini tekshiradi.

Mahkum jazoni ijro etish muassasasida bo'lgan payt jazoni o'tash bilan bog'liq talablarni bajarishi shart. Mazkur talablar rejimning jazolovchi, tarbiyalovchi, ogohlantiruvchi funksiyasidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Rejimning quyidagi 3 ta funksiyasi mavjud: 1) jazolash; 2) tarbiyalash; 3) ta'minlash.

Rejimning jazolash funksiyasining mazmuni shundan iboratki, mahkum ozodlikdan mahrum etiladi, jamiyatdan ajratiladi, doimiy nazorat ostiga olinadi, shuningdek, majburiy mehnat, ta'lim va belgilangan tartibda dam olishga jalb qilinadi. Rejim jazoni ijro etish tartibi bo'lganligi tufayli, avvalambor, unda jazoning u yoki bu turining mazmuni jamlangan. U o'z ichiga mazkur jazo turiga xos bo'lgan mahkumlar uchun huquqiy cheklashlar va mahrum qilishlarning butun kompleksini olgan. Tabiiyki, rejim o'z ichiga jazo elementlarini olgan va jazolash funksiyalariga ega. Jazolashni amalga oshirar ekan, rejim talablari mahkumni ichki tartib-qoidalarga rioya qilish, intizomni buzmaslik, o'z xulqini o'zgartirishga majbur qiladi.

Psixologik nuqtayi nazardan qarasaq, rejim – bu uzoq muddatli tushkunlik bo'lib, mahkum ozodlikdan, fiziologik va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishdan mahrum etiladi [3]. Bunday ehtiyojlarning qondirilmaligi jismoniy va ma'naviy azob keltirib chiqaradi. Ehtiyojlarning cheklanishi, erk-irodasining nazorat qilinishi mahkumning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mahkumlarning nazorat ostida saqlanishi ularning yangi jinoyat sodir etishlarining oldini oladi.

Agar mahkumning barcha ehtiyojlari qondirilganda, jazodan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmas edi. Biroq mahkumga ko'rsatiladigan ta'sir choralari uning sog'lig'i hamda ruhiyatiga jiddiy putur yetkazmasligi kerak.

Rejimning jazo funksiyasi mahkumlar tomonidan turlicha qabul qilinadi. Kimdir jismoniy ehtiyojlari, kimdir ijtimoiy ehtiyojlarini qondirolmaligidan, yana kimdir esa ham unisidan, ham bunisidan qiynaladi [4].

Rejimning mustaqil tarbiya funksiyasi mavjud. Umuman olganda, kun tartibining belgilanishi (uyg'onish vaqti, uxlash vaqti, jismoniy tarbiya, mehnat vaqti va boshqalar) mahkumning hayotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu mahkumni tarbiyalaydi, vaqtni to'g'ri taqsimlash va undan unumli foydalanishga o'rgatadi.

Rejimning ta'minlovchi funksiyasi shundan iboratki, mazkur funksiya jazoni ijro etish muassasasida mehnatni tashkil etish, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, jamoa ishlari, mahkumlar tashkilotini tashkil etish va uni boshqarishni ta'minlaydi. Mazkur funksiya rejimning jazo hamda tarbiyaviy funksiyasidan ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlovchi funksiya hisoblanadi.

Rejim tekinox'rlilik, ishyoqmaslik, qimorbozlik hamda boshqa salbiy illatlarga qarshi kurashuvchi eng yaxshi vosita bo'lib, u mahkumning xulqi hamda ruhiyati ustidan to'la nazorat qilish imkonini beradi. Rejim qoidalarini buzgan shaxs tegishli tartibda jazolanadi (karser, boshqa koloniya turiga o'tkazish).

Bundan tashqari, jazoni ijro etishda

ma'lum tartibning o'rnatilishi maxsus muassasada joylashgan odamlarni boshqarishga xizmat qiladi. Shunday qilib, rejim talablari jazoni ijro etish organlari va muassasalari hayotining barcha sohalariga kirib boradi. U mahkumlarga ta'sir qilishning boshqa vositalarini tatbiq qilish uchun huquqiy va tashkiliy asoslar yaratadi.

Barcha mahkumlar, ma'muriyat vakillari va jazoni ijro etish organlari hamda muassalarining faoliyati bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan boshqa shaxslar rejim talablarini hisobga olishlari va ularga qat'iy rioya qilishlari kerak.

Jazoni o'tash rejimi va qonunda belgilangan axloqan tuzatishning boshqa funksiyasini bajarishiga qaramay, qonunchilik mahkumlarni axloqan tuzatishning mustaqil vositasi sifatida tarbiyaviy ishni ham belgilab qo'ygan.

Tarbiyaviy ish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 7-moddasiga muvofiq, mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, mahkumlarda qonun talablari, jamiyatda qabul qilingan qonun talablari va jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya etish, shuningdek, bilim va ma'naviy saviyasini oshirishga intilishini shakllantirishga qaratilgan.

Maxsus adabiyotlarda ushbu tushuncha mahkumlarni ma'naviy, huquqiy tarbiyalash, ularning madaniyat, ongillik va intizomlilik darajasini oshirish, ularning xulq-atvori, ongi, qarashlari va odatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish, mahkumlarda ijtimoiy foydali xislatlar va ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar yig'indisi sifatida ta'riflanadi. Mahkum bilan amalga oshiriladigan tarbiyaviy ish uni axloqan tuzatish, shaxs, jamiyat, qonun normalari, urf-odat hamda an'analariga hurmatda bo'lishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Tarbiyaviy ish biror jazo elementlaridan xoli hisoblanadi. Chunki u psixologik-pedagogik ta'sir metodiga asoslanadi. Biroq bu ish

jazoni o'tash sharoitlarida olib boriladi. Bu sharoit esa mahkumlarning ma'lum intizomga rioya etishlarini talab qiladi.

Tarbiyaviy ish huquq normalari tomonidan tartibga solinadi. Bu normalar tarbiyaviy ishning prinsiplari, muhim yo'nalishlari va shakllarini belgilaydi. Bu vosita pedagogika va psixologiya metodlarini qo'llashga imkon beradi [5].

Mahkumga ruhiy ta'sir etishning eng muhim jihati bu – uni qayta tarbiyalashdir. Qayta tarbiyalash deganda, mahkumning oldingi salbiy qarashlari o'rniga to'g'ri fikrni qayta shakllantirishdir. Mahkumni qayta tarbiyalashda, eng avvalo, uning oldingi qarashlarining kelib chiqish sabablarini aniqlab, uning noto'g'riligini mahkumga tushuntirish kerak. Agar mahkumni qayta tarbiyalashda muammolar kelib chiqsa, tarbiyalovchi buni bartaraf etish choralarini ko'rish shart. Biroq yangilish fikr – to'g'ri fikrlashdan voz kechishning bir turi.

Ko'p holatlarda mahkumlar o'z qarashlari noto'g'riligini anglab yetadi, lekin shunday bo'lsa-da, ulardan butunlay voz kecholmaydi: fikr qotib qolgan [3, 65-b.].

Qayta tarbiyalash noto'g'ri fikrlardan qaytarish bilan yakunlanmaydi. Ularni faqat to'g'ri yo'naltirish orqali qayta tarbiyalash mumkin. Insonda yangi dunyoqarash shakllantirishga urinish, uning ijobiy jihatlarini tushuntirish, shu bilan birga, uning "do'stlar"ini o'zgartirishga undash muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxs bilan qayta tarbiyalash ishlarini olib borish ancha qiyinchilik tug'diradi. Ularning ongiga ozodlikdan chiqqanidan keyin uzoq vaqt yashamasligi va shu sababli qayta tarbiyalanishdan hech qanday naf yo'q degan fikr o'rnashib qolgan. Mana shunday qarashni yo'q qilish qayta tarbiyalashning eng oliy cho'qqisidir. Qayta tarbiyalash mahkumning holatidan kelib chiqib bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Kun tartibida qatnashish majburiy bo'lgan tarbiyaviy ishlar albatta bo'lishi shart.

Tarbiyaviy ishlar mahkumning xulqi, uning sodir etgan qilmishi, jazoni o'tash sharoitidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Mahkumlarni axloqan tuzatishning asosiy shakl va metodlari mahkumni axloqan tuzatishga yo'naltirilgan axloqiy, huquqiy, mehnat, jismoniy va boshqa turdagi tarbiyaviy ishlardir [6].

Ma'naviy tarbiya – mahkumlarda jamiyatdagi axloq odob-qoidalarini hurmat qilishga qaratilgan umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishni nazarda tutadi va jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni axloqan tuzatish maqsadini ko'zlaydi.

Huquqiy tarbiya – mahkumlarda huquqiy madaniyat, huquqiy ong va qonunlarga ongli ravishda itoat qilish ruhini shakllantiradi. Aytish mumkinki, jazoni ijro etish muassasalarida huquqiy tarbiyaning yaxshi yo'lga qo'yilishi mahkumlarni ozodlikka chiqqanlaridan so'ng ham ularda qonunga nisbatan bo'lgan hurmatni kuchaytirish, ayni paytda uni buzganlik uchun bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy oqibatlarini to'g'ri anglashiga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya – mahkumlar o'rtasida turli xil jismoniy-ommaviy va sport tadbirlarini o'tkazishnigina emas, balki ularda kelgusida sog'lom turmush tarzini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Mehnat tarbiyasi – mahkumlarda mehnatga nisbatan halol munosabatda bo'lish, ijtimoiy-foydali mehnat shaxs hayotida uning farovon turmush kechirishiga asos bo'lib xizmat qiluvchi eng muhim omil ekanligiga ishonchni shakllantirishga qaratilgan [7, 148-b.].

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Mahkumlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishning yo'nalishlari va shakllarini tahlil qilganda, u asosan jazolash funksiyasidan xoli bo'lib, mahkumga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangandan ko'zlangan maqsad tushuntirilishi lozimligi haqida xulosa beradi. Biroq tarbiyaviy ish rejim qoidalaridan kelib chiqib amalga oshirilishi lozim. Shundaygina tarbiyaviy ish samarali tashkil etiladi va

bu mahkumning axloqan tuzalishiga yordam berishi mumkin.

Mahkumlarning ijtimoiy-foydali mehnati ularning axloqan tuzalishlaridagi asosiy vosita sifatida ko'rib chiqilgan. Biroq amaliyot va nazariyada uning roli ko'pincha oshirib yuborilardi. Bu mehnat mahkumlarni axloqan tuzatish va qayta tarbiyalash jarayonining asosi sifatida qaralar, jazoni ijro etish muassasalari esa davlat rejasini bajarishi va foyda keltirishi shart bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini hisoblanar edi.

Hozirgi vaqtda jazoni ijro etish siyosati va qonunchiligida mehnat tuzatishdan jinoyat-ijroiya tomonga yuz burildi. Shu bilan birga, mehnat jinoiy jazolarning ko'plab turini o'tashda muhim o'rin egallab kelmoqda. Ayniqsa, bu axloq tuzatish ishlari, ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni o'tayotgan mahkumlarga tegishli. Chunki ish bilan band bo'lmagan mahkumlar sonining oshishi jazoni ijro etish joylaridagi jinoiy holatni keskinlashtiradi.

Ijtimoiy-foydali mehnat – har bir mahkum jazoni ijro etish muassasasida majburiy mehnatga jalb qilinishi shart (bunda mahkumning yoshi, jinsi, mehnatga layoqatligi, sog'lig'i, mutaxassisligi inobatga olinadi).

Rejim bilan bir qatorda mehnat ham mahkumni axloqan tuzatishning muhim elementi hisoblanadi. Mahkumlarning mehnati ham tarbiyaviy, ham iqtisodiy rol o'ynaydi.

Mehnatning tarbiyaviy roli shundan iboratki, mehnat mahkumni tanazzuldan saqlaydi: u ruhiyatni shakllantiradi, maqsad qo'yishga undaydi, jamoa bilan ishlashni saqlab qoladi. Yaxshi tashkil etilgan mehnat inson hamda jamiyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'taydi. Shuningdek, F.M. Dostoevskiy ta'kidlaganidek, ishsiz mahkumlar bir-birini yeyishga tayyor o'rgimchakka o'xshaydi. Mahkumlarning bir-biriga yetkazadigan tazyiqi mehnat qobiliyatini pasaytiradi [3, 74-b.].

Ishlab chiqarishga mo'ljallangan mehnat mahkumning ham jismonan, ham aqliy rivo-

lanishiga turtki bo'ladi. Mehnat mahkumni turli xil yot qarashlar, shuningdek, jamiyatga qarshi ish qilishga qaratilgan o'ylab topishdan chalg'itadi.

Mehnat nafaqat tarbiyaviy funktsiya, shuningdek, iqtisodiy funktsiyani ham bajaradi. Mahkumlarning mehnati davlatning jazoni ijro etish muassasasiga qaratilgan xarajatlarni qisman kamaytiradi.

Yuqori darajada tashkil etilgan mehnat faoliyatining bir qator muhim tarbiyaviy funktsiyalari mavjud. Jumladan, mahkumning malakasini oshiradi, kasb mahoratini shakllantiradi. Jazoni ijro etish muassasasidagi mehnat ozodlikdagi mehnatdagidan ko'ra oddiygina vaqt o'tkazish uchun mo'ljallanmagan [8].

Mahkumlarni mehnatga jalb etish, mehnatni tashkil etish, ularga haq to'lash va boshqa munosabatlar mehnat qonunchiligi hamda jinoyat-ijroiya qonunchiligi normalari bilan tartibga solinadi.

Mahkum, ayniqsa, voyaga yetmaganlarni axloqan tuzatishning yana bir muhim vositasi bu – ta'limdir. Ko'plab tadqiqotlar va amaliyotning guvohlik berishicha, umumiy va hunar ta'limining darajasini ko'tarish mahkumning xulq-atvori bilan mustahkam aloqada bo'ladi. Umumiy ma'lumot darajasining o'sishi, ayniqsa, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan shaxslar uchun juda muhimdir. Umumiy va hunar ta'limi mahkumning shaxsini baholashda hisobga olinadi, uning huquqiy maqomiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim faoliyati JIEMga tegishli. Ta'lim mahkumga nisbatan ijobiy ta'sir qilib, u axloqan tuzalish va jamiyatga nisbatan muomala madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. JIEMda ta'lim mahkumning dunyoqarashini o'stirish, uni shaxs sifatida shakllantirish, muomala madaniyatini rivojlantirish, qonunlarga nisbatan hurmat tuyg'usini oshirishga xizmat qiluvchi aktiv faoliyatdir.

JIEMda ta'lim jarayonining 4 ta guruhdagi motivi o'rganilgan.

1-guruh jamoaviy yo'naltirishga qaratilgan. Bunda mahkumning maqsadi ta'lim olish, ta'limni davom ettirish, axloqan tuzalish yo'liga kirganligini isbotlash, madaniyati o'sganligini ko'rsatish va boshqalar.

2-guruh ta'limga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lganlarga nisbatan rag'batlantirish choralarini qo'llash: shartli ravishda ozod qilish, qo'shimcha imtiyozlarga ega bo'lish va boshqalar.

3-guruh muayyan jazodan qutulish uchun ta'lim oluvchi mahkumlar (majburlov vositasi sifatida).

4-guruh muvozanat xarakteriga ega (qo'shimcha mashg'ulot sifatida).

Motivatsiya ta'lim bilan bog'liq bir qator qiyinchiliklarga bevosita bog'liq. Jumladan:

1) ta'lim faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar;

2) mahkumning o'ziga nisbatan bo'lgan munosabat bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar;

3) mahkumning boshqalarga bo'lgan munosabati bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar;

4) jazo bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar.

Mazkur qiyinchiliklar toifasi bevosita mahkumning tarbiyaviy jarayoni bilan bog'liq. Haqiqatan ham, ta'lim bilan bog'liq jarayon mahkumning axloqan tuzatish jarayonini yanada rivojlantirishi yoki aks ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hammasi mahkumning mazkur qiyinchiliklarni qay tarzda qabul qilishiga bog'liq. Kuzatuvlar shuni aniqladiki, mahkumlarning qiyinchiliklarni yengib o'tishi ularning axloqan tuzalishiga ijobiy ta'sir etadi. Shunday qilib, ta'lim jarayoni mahkumni axloqan tuzatish jarayoniga ijobiy ta'sir qilishi uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

1) ta'limning maqsadini mahkum anglab yetishi;

2) ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning jamoat bilan ishlash muhitini shakllantirish;

3) ta'lim jarayonini qisman nazorat qilish mahkumlar tomonidan amalga oshirilishi;

4) jamoat o'rtasida do'stona muhitni shakllantirish.

Quyidagilar ta'lim bilan bog'liq jarayonning asosiy vositalari bo'lib xizmat qiladi: yagona va differentsiatsiyaviy psixo-pedagogik dastur ishlab chiqish; umumiy va maxsus topshiriqlar; ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantirish; qiziqishlarni o'rganish.

O'qituvchilarning faoliyati mahkumning individual-psixologik jihatidan kelib chiqib, uni ta'lim jarayonini o'zlashtirishga yordamlashishga qaratilgan bo'lishi kerak.

O'qituvchining faoliyati mahkumning shaxsini o'rganish va jamoaning ta'limga bo'lgan munosabatini o'rganishdan boshlanishi kerak. Mazkur faoliyat mahkumlarning bilim darajasini aniqlashga ham yordam beradi.

Ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasida hamkorlik munosabatlari o'rnatilishi lozim. Jumladan:

1) mahkumning ta'limdan ko'zlangan maqsadini aniqlash;

2) ta'lim jarayoni va uning natijalarini to'g'ri tashkillashtirish;

3) taraflar o'rtasida majburiyatlarning aniqlashtirilishi;

4) ta'lim jarayonidan ko'zlangan maqsadni asoslantirish;

5) mahkumlarning qobiliyatlarini inobatga olgan holda, ta'lim jarayonini tashkillashtirish;

6) ta'lim vositalarini to'g'ri tanlash;

7) mahkumlarning ta'limga bo'lgan munosabatini doimo kuzatib borish.

Kasb tayyorgarligi – mahkum jazoni ijro etish muassasasida ishlash uchun maxsus ma'lumoti yoki tayyorgarligi bo'lmasa, belgilangan mehnatni amalga oshirishi uchun maxsus tayyorlanadi. Jazoni ijro etish muassasalarida mahkum mehnatga jalb qilinishi uchun, zarurat taqozo etsa, kasb tayyorgarligiga maxsus o'rgatiladi. Bundan ko'zlangan maqsad mahkum ham jazoni ijro etish muassasasida, ham ozodlikka chiqqanidan keyin mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga sharoit yaratishdir.

60 yoshdan oshgan erkaklar hamda 55 yoshdan oshgan ayollar, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar o'z ixtiyoriga ko'ra kasb tayyorgarligiga o'rgatiladi. Mahkumlarning kasb tayyorgarligiga bo'lgan munosabati ularning tuzalish yo'liga kirganligi sifatida inobatga olinadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar kasb tayyorgarligini bevosita ishlab chiqarish jarayonida oladi.

Mahkumlarning boshlang'ich umumiy ta'lim va kasb tayyorgarligi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holatda amalga oshiriladi.

### Xulosalar

O'zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya qonunchiligi turli subyektlar tomonidan ko'rsatiladigan jamoat ta'sirini mahkumlarni axloqan tuzatishning asosiy vositalaridan biri deb hisoblaydi. Ilgari jamoat ta'siri axloq tuzatish mehnat qonunchiligi hamda jazoni ijro etuvchi muassasalar va organlar faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida qaralar edi. Masalan, korxonalar, muassasalar, o'quv yurtlarining jazoni ijro etish muassasalarini otaliqqa olishlari yaxshi natijalar berar edi. Bu ish mahkumlar bilan ularning jazoni o'tashlari paytida ham, shuningdek, ular jazodan ozod qilingandan keyin ham ularni ijtimoiy hayotga qaytarish vaqtidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda o'tkazilardi.

Davlat va huquq-tartibot mustahkamlanib borishi bilan jamoatchilikning mahkumlarni axloqan tuzatishdagi ishtiroki kuchayib bormoqda. Shuning uchun mahkumlarning axloqan tuzalishi jarayoniga jamoat ta'sirining turli shakllari, vositalari hamda usullarini o'rganish va tahlil etish zarur. Buning ustiga keyingi

yillarda bu ta'sirning turli shakllari va subyektlari (ayniqsa, ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tayotgan mahkumlarga nisbatan) paydo bo'la boshladi. Tarbiya koloniyalari qoshida homiylik kengashlari, ota-onalar qo'mitalari tashkil qilingan [7, 358-b.].

Tarbiya koloniyalarida jamoaviy ta'sir jamoat ishlariga jalb qilingan holda amalga oshiriladi. Tarbiya koloniyalarida ta'lim-tarbiya jarayonini yengillashtirish maqsadida tarbiya koloniyalari huzurida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlangan nizom asosida faoliyat yuritadigan vasiylik kengashlari joriy qilinadi. Mahkumlarni qayta tarbiyalashning samaradorligini oshirish hamda tarbiya koloniyasiga bu borada yordam ko'rsatish maqsadida ota-onalar qo'mitasi tashkil etiladi. Bu qo'mitaga faqatgina mahkumning ota-onasigina emas, balki ularning o'rnini bosuvchilar hamda yaqin qarindoshlari ham a'zo bo'lishi mumkin. Ota-onalar qo'mitasi faoliyati tarbiya koloniyasi rahbari tomonidan tasdiqlangan qoidalar asosida faoliyat yuritadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, mahkumni axloqan tuzatish vositalari jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi), tarbiyaviy ish, ijtimoiy-foydali mehnat, umumiy va hunar ta'limi, kasb tayyorgarligi va jamoat ta'siridan iborat. Mazkur axloqan tuzatish vositalari jazoni ijro etishda mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan maxsus chora-tadbirlar hisoblanadi va jazoni ijro etishning bir qismiga aylanadi. Bunda har bir axloqan tuzatish vositalarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud va ular o'z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda maxsus funksiyalarni bajaradi.

## REFERENCES

1. Jinoyat-ijroiya huquqi [Criminal law]. Tashkent, 2013, p. 49.
2. Ugolovno-ispolnitel'noye pravo [Criminal executive law]. Ed. A.I. Zubkov. Moscow, Publishing house NORMA, 2005, 175 p.
3. Shikhantsev G.G. Yuridicheskaya psikhologiya [Legal psychology]. Moscow, INFRA-M Publ., 2009, p. 58.



4. Kommentariy k ugolovno-ispolnitel'nomu kodeksu RF (postateynny) [Commentary on the Criminal Executive Code of the Russian Federation (item-by-article)]. Ed. A.I.Zubkov. Moscow, NORMA-INFRA-M, Publishing group 2007, 201 p.

5. Jinoyat-ijroiya huquqi [Criminal law]. Tashkent, TSUL, 2018, p. 50.

6. Stanislavich M.Ya. Ugolovno-ispolnitel'noye pravo [Criminal executive law]. Moscow, Novyy yurist Publ., 2006, 103 p.

7. Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Muxtorov J.S., Usmonov D.M., Rahmanov R.N., Saidqulov Q.A. Jinoyat-ijroiya huquqi [Criminal law]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2016, p. 148.

8. Ponomarev P.G. Effektivnost' pravovykh norm, reguliruyushchikh primeneniye osnovnykh sredstv ispravleniya i perevospitaniya osuzhdennykh k lisheniyu svobody [The effectiveness of the legal norms governing the use of the main means of correction and re-education of convicts sentenced to deprivation of liberty]. Moscow, Statute, 2009, 216 p.

9. Yuryevich E., Aleksandrovich Z., Vladimirovich T., Nechaeva E., Viktorovich M., Isaevna A. The Purpose of "Correction" in the Russian Criminal and Criminal and Executive Law. *Journal of Politics and Law*, 2019, August, no. 12 (6). DOI: 10.5539/jpl.v12n5p6/.

10. Immarigeon R. What is the Place of Punishment and Imprisonment in Restorative Justice? H. Zehr, B. Toews eds. *Critical Issues in Restorative Justice*. Monsey, NY, Criminal Justice Press, 2004, pp. 143–153.

11. Matchanov F. Voprosy mezhdunarodnogo pravovogo sotrudnichestva v bor'be s prestupnost'yu [Issues of international legal cooperation in the fight against crime]. *Society and innovation*, 2020, no. 1, 2/S, pp. 229–235. DOI: 10.47689/2181-1415-vol1-iss2/S-pp229-235/.

12. Coverdale H.B. Caring and the Prison in Philosophy, Policy and Practice: Under Lock and Key. *Appl Philos*, 2021, vol. 38, pp. 415-430. DOI: 10.1111/japp.12415/.

13. Cornelius G. Doing the Right Thing: The Importance of Ethics in Corrections. Available at: <https://www.lexipol.com/resources/blog/doing-the-right-thing-the-importance-of-ethics-in-corrections/>.

14. Fox T.A. The Necessity of Moral Education In Prisons. *Journal of Correctional Education*, 1989, vol. 40, no. 1, pp. 20–25. Available at: <http://www.jstor.org/stable/23291993>.

15. Forsberg L., Douglas T. What is Criminal Rehabilitation? *Criminal Law, Philosophy*, 2022, no. 16, pp. 103–126. DOI: 10.1007/s11572-020-09547-4/.

UDC: 343.611.2(045)(575.1)

## JAVOGBARLIKNI YENGILLASHTIRUVCHI HOLATLARDA QASDDAN ODAM O'LDIRISH: TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Hakimov Komil Baxtiyarovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0000-0002-4785-3233  
e-mail: k.xakimov@tsul.uz

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada muallif javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish: tushunchasi, mazmuni va o'ziga xos jihatlarini yoritgan. Muallifning qayd etishicha, jinoyatni yengillashtiruvchi holatda sodir etilgan deb topishning belgisi sifatida JK 98-, 106-moddalarida kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holati nazarda tutilgan. Mazkur jinoyat jabrlanuvchining g'ayriqonuniy va axloqqa zid xulq-atvoriga nisbatan javob reaksiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Aynan jabrlanuvchining g'ayriqonuniy va axloqqa zid xulq-atvori "kechirimli" holat sifatida namoyon bo'ladi va jinoyatni ijtimoiy xavflilik darajasi pasayishiga sabab bo'ladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyatlar toifasida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish va qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatlarning tutgan o'rni o'ziga xosligi qayd etilgan. Ushbu jinoyatlar yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlar sirasiga kirishini inobatga olib, ularning tarkibi va o'ziga xos jihatlarini har tomonlama tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jinoyatlarni yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlar toifasiga kirishiga quyidagi ikki holat asos bo'lib xizmat qiladi: birinchidan, ushbu jinoyatlarda aybdor o'ziga xos ruhiy holatda, ya'ni kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida harakat qiladi, ikkinchidan, jinoyat huquqi va kriminologiya nuqtayi nazaridan javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida affekt faktining mavjudligi emas, balki aybdorda affekt holatining asosli ravishda vujudga kelganligi, ya'ni uning vujudga kelishiga bosh omil bo'lib jabrlanuvchining g'ayriqonuniy harakatlari yoki axloqqa zid xulq-atvori xizmat qilishi asoslantirilgan.

**Kalit so'zlar:** yengillashtiruvchi holat, affekt, kuchli ruhiy hayajonlanish, ijtimoiy xavflilik darajasi, tajovuz, g'ayriqonuniy zo'rlik, og'ir haqorat, ijtimoiy xavf.

### УМЫШЛЕННОЕ УБИЙСТВО ПРИ СМЯГЧАЮЩИХ ОБСТОЯТЕЛЬСТВАХ: ПОНЯТИЕ, СОДЕРЖАНИЕ И ОСОБЕННОСТИ

**Хакимов Комил Бахтиёрович,**  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье автор осветил понятие, содержание и специфические аспекты умышленного убийства при смягчающих обстоятельствах. Автор отмечает, что в качестве признака признания преступления, совершенного в состоянии, смягчающем вину, статьи 98 и 106 Уголовного кодекса предусматривают состояние сильного эмоционального возбуждения (аффекта). Это преступление возникает как ответ на противоправное и аморальное поведение потерпевшего. Именно противоправное и неэтичное поведение потерпевшего выступает как «оправданное» состояние и обуславливает снижение уровня

общественной опасности преступления. В статьях Уголовного кодекса Республики Узбекистан отмечается уникальность преступлений умышленного убийства и умышленного причинения тяжких или средней тяжести телесных повреждений в состоянии сильного эмоционального возбуждения в разряде преступлений против жизни и здоровья человека. Учитывая, что данные преступления входят в перечень преступлений, смягчающих ответственность, важно всесторонне проанализировать их состав и особенности. Основанием для отнесения данных преступлений к категории преступлений, имеющих смягчающее содержание, служат следующие два обстоятельства: во-первых, лицо, совершившее эти преступления, действует в определенном психическом состоянии, то есть в состоянии сильного эмоционального возбуждения (аффекта), а во-вторых, фактом аффекта как смягчающего обстоятельства с точки зрения уголовного права и криминологии является не его наличие, а то, что состояние аффекта виновного возникло обоснованно, то есть основным фактором его возникновения являются противоправные действия или неэтичное поведение потерпевшего.

**Ключевые слова:** смягчающее обстоятельство, аффект, сильное эмоциональное возбуждение, уровень социальной опасности, агрессия, халатность, серьезное оскорбление, общественная опасность.

## INTENTIONAL HOMICIDE IN CASES OF MITIGATION: CONCEPT, CONTENT AND SPECIFIC ASPECTS

**Khakimov Komil Bakhtiyorovich,**  
Independent Researcher of  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** In this article, the author has highlighted the concept, content, and specific aspects of premeditated murder in cases of mitigation. The author notes that as a sign of recognition of a crime committed in a state mitigating guilt, Article 98, 106 of the Criminal Code provides for a state of strong mental excitement (affect). This crime manifests itself as a victim's response to illegal and immoral behavior. It is the illegal and immoral behavior of the victim that manifests itself as a "forgiving" state and leads to a decrease in the degree of public danger of the crime. The article notes the specifics of the role of crimes committed by the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan in the category of crimes against the life and health of an individual in the case of severe mental arousal, premeditated murder, and intentional infliction of serious or moderate bodily injury. Given that these crimes fall under the category of crimes with mitigating circumstances, it becomes important to comprehensively analyze their composition and specific aspects. The following two cases serve as grounds for falling into the category of crimes of mitigating content: firstly, the perpetrator of these crimes acts in a specific mental state, that is, in a state of strong mental excitement (affect). Secondly, it is not the presence of the fact of affect as a mitigating circumstance from the point of view of criminal law and criminology, it may be justified that the guilty person has a justified occurrence of an affective state, that is, its occurrence is caused by illegal actions of the guilty. sacrifice or behavior contrary to morality as the main factor.

**Keywords:** mitigating circumstance, affect, strong mental excitement, level of social danger, aggression, negligence, severe insult, public danger.

### Kirish

Shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash maqsadida jinoyat qonunchiligini liberallashtirish hamda takomillashtirish jinoyat-huquqiy siyosatda

ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi islohotlar inson qadrini yuksaltirish, inson huquq va erkinliklarini jinoyat-huquqiy vositalar orqali muhofaza qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "...yangi turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish jarayonlarida fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini himoya qilishning samaradorligini yanada oshirish, ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettirilishi belgilandi.

Yashash (24-modda), erkinlik va shaxsiy daxlsizlik (25-modda), turar joy daxlsizligi (27-modda) huquqi va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni himoya qilish jinoyat-huquqiy normalar bilan amalga oshiriladi.

Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir" ekanligi belgilab qo'yilgan. Mazkur holat mamlakatimizning asosiy qonuni bilan inson hayoti daxlsizligi mustahkamlanganligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga ko'ra inson, uning sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sanaladi. Ushbu konstitutsiyaviy normaga muvofiq Jinoyat kodeksi 2-moddasida ham inson hayoti va uning boshqa daxlsiz huquqlari muhofaza qilinadigan eng muhim obyektlar qatoridan o'rin olgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismi normalari ushbu qoidaga muvofiq joylashtirilgan bo'lib, unga ko'ra maxsus qismning dastlabki bo'limi "Shaxsga qarshi jinoyatlar"ga bag'ishlangan. Inson hayotiga tajovuz qilish, ya'ni qasddan odam o'ldirish jinoyat kodeksi maxsus qismining dastlabki moddasidir.

Jkning 98–101-moddalarida yengillashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish jinoyatlari bayon qilingan bo'lib, mazkur maqola doirasida aynan ushbu moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlarni tushunishning ilmiy-nazariy va amaliy muammolari tahliliga e'tibor qaratiladi.

## Material va metodlar

Javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganish, mazkur holatni nazarda tutuvchi qonun hujjatlari normalarini tahlil qilish. Buning uchun tahlil, tarixiy-qiyosiy uslub, abstraksiya va taqqoslash singari ilmiy bilishning usullaridan foydalanilgan.

## Tadqiqot natijalari

Dastlab JKning 98–101-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning yuridik tabiatiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Yengillashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirishlarning jinoiy-huquqiy xususiyatlari va kvalifikatsiya xususiyatlari muammolariga tarixiy davrlarda M.N. Gernet [1], A.A. Jijlenko [2], V.D. Nabokov [3], M.S. Tagansev [4] kabi yetakchi olimlar e'tibor qaratganlar. Ushbu masala bo'yicha ilmiy nuqtayi nazarlar sovet davridagi taniqli olimlar tomonidan ham o'rganilgan. A.A. Piontkovskiy [5], Sh.S. Rashkovskaya [6], A.N. Traynin [7], T.G. Shavgulidze [8], M.D. Shargorodskiylar [9] shular jumlasidan.

Mazkur mavzuda milliy olimlarimizdan M.H. Rustamboyev, Y.M. Karaketov, M.U. Usmonaliyev, K.R. Abdurasulova, A. Rasulev, X. Abzalova [10] va boshqalar ham mustaqillik yillarida samarali tadqiqotlar o'tkazganligini qayd etish zarur. Ushbu tadqiqotlarni asosiy yo'nalishi jinoyat qonunchiligini liberallashtirish, jinoyatlarni adolatli kvalifikatsiya qilish masalalariga qaratilgan deyishga to'liq asoslar mavjud.

Ma'lumki, ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan jinoyat huquqiy ta'limotga ko'ra jinoyatning obyekti jamiyatda mavjud bo'lgan va davlat tomonidan jinoyat-huquqiy normalar bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabat sanaladi. Unga ko'ra shaxsga qarshi jinoyatlarning obyekti sifatida insonning turli xil shaxsiy huquq va erkinliklarini muhofaza qilish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar namoyon bo'ladi [11].

JK 98–101-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning bevosita obyekti sifatida o'zga shaxsning hayotini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar namoyon bo'ladi. Ushbu inson hayotini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar bu turdagi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasini ko'rsatib beradi. Mazkur jinoyatlar birinchi navbatda shaxsni hayotdan mahrum qiladi.

Shunday qilib, amaldagi jinoyat qonunchiligi inson hayotini nafaqat biologik hodisa sifatida, balki ijtimoiy hayotning dastlabki bosh asosi va eng muhim ijtimoiy qadriyati sifatida ham muhofaza qiladi. *Jinoyat qonuni inson hayotini uning yoshi, uning jinsi va boshqa ijtimoiy belgilaridan qat'i nazar bir xilda muhofaza qiladi. Inson o'limini hech qanday narsa yoki buyum bilan qayta tiklab bo'lmaydi, bu baho inson sog'lig'iga ham taaluqli bo'lib, ushbu qadriyatlar tengsiz hisoblanadi.*

Endi bevosita yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlarni Jinoyat kodeksida belgilangan ketma-ketligi asosida tahliliga, ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar va ularning dinamikasiga e'tibor qaratsak.

Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish jinoyati Jinoyat kodeksining 98-moddasida mustahkamlangan. Jinoyatni yengillashtiruvchi holatda sodir etilgan deb topishning belgisi sifatida JK 98-moddasida kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holati nazarda tutilgan. Mazkur jinoyat jabrlanuvchining g'ayriqonuniy va axloqqa zid xulq-atvoriga nisbatan javob reaksiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Aynan jabrlanuvchining g'ayriqonuniy va axloqqa zid xulq-atvori "kechirimli" holat sifatida namoyon bo'ladi va jinoyatni ijtimoiy xavflilik darajasi pasayishiga sabab bo'ladi [10]. Yu. Sharyurova ta'kidlashicha, affekt holatini oqlovchi mezonlarni aniqlashda jinoyatchini tavsiflovchi subyektiv belgilardan yoki affektni vujudga keltiruvchi obyektiv vaziyatlardan kelib chiqish mumkin [11]. Ushbu fikrdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, affekt holatida sodir etiladigan jinoyatlarda

jabrlanuvchi tomonidan qilinadigan zo'rlik yoki og'ir haqoratni aybdorni bevosita o'ziga yoxud uni yaqin kishisiga nisbatan sodir etilishi hech qanday ahamiyat kasb etmaydi va bu uning zaruriy belgisi hisoblanmaydi. Affektning o'ziga xos belgisi uning kutilmagan vujudga kelishi va qisqa muddatligi hamda qonunda belgilangan talablardan kelib chiqqan holda yuz berganligidir.

Ushbu jinoyatlar yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlar sirasiga kirishini inobatga olsak, ularning tarkibi va o'ziga xos jihatlari har tomonlama tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jinoyatni yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlar toifasiga kirishiga quyidagi ikki holat asos bo'lib xizmat qiladi: birinchidan, ushbu jinoyatlarda aybdor o'ziga xos ruhiy holatda, ya'ni kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida harakat qiladi, ikkinchidan, jinoyat huquqi va kriminologiya nuqtayi nazaridan javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida affekt faktining mavjudligi emas, balki aybdorda affekt holatini asosli ravishda vujudga kelganligi, ya'ni uning vujudga kelishiga bosh omil bo'lib jabrlanuvchining g'ayriqonuniy harakatlari yoki axloqqa zid xulq-atvori xizmat qiladi [12].

Ushbu ikki holatni mavjudligi qilmishni kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida sodir etilgan, deb hisoblashga asos bo'ladi. N. Jumaniyozovning fikricha, affekt holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazgan, shuningdek, boshqa jinoyatni sodir etgan shaxs xatti-harakatining asosida "doimiy harakatlanish ehtiyoji" yotadi [13]. Lekin muallif o'z ilmiy ishida bu ehtiyoj qanday belgilarga ega ekanligi, affekt holatini vujudga keltirishdagi o'rni nimalarda namoyon bo'lishi haqida fikr yuritmagan. Uning fikricha, aybdor jinoyat sodir etayotgan paytda kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bo'lgan yoki bo'lmaganini aynan shu belgiga ko'ra aniqlash lozim [14]. Bu fikrga qo'shilmagan holda aytish mumkinki, affekt (kuchli ruhiy hayajonlanish) holatini aniq bir belgi bilan

cheklab qo'yish ham qonun normasini amaliyotda noto'g'ri talqiniga olib kelishi mumkin. Inson psixologiyasining turli-tumanligini inobatga olganda uning ruhiy kechinmalarini kechish jarayoni belgilarini ham nisbiy olish maqsadga muvofiq.

M. Musayev olib borgan tadqiqot natijalariga ko'ra, qasddan odam o'ldirish jinoyatining 48 foizida jabrlanuvchi o'z yurish-turishi, xulqi, qarashlari bilan jinoyatchiga qarshi borganligi va shu tariqa jinoyat sodir etishga yo'l ochganligi aniqlangan [15]. S. Niyozovanning fikricha esa, odam o'ldirish jinoyatlarining 50 foizida jabrlanuvchi o'z yurish-turishi, xulq-atvori, qarashlari, ehtiyojlari bilan jinoyatchiga qarshi boradi va bu bilan jinoyatga yo'l ochadi. Bunda jabrlanuvchi va jinoyatchi orasidagi munosabatlarning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi [16].

Demak, kuchli ruhiy hayajonlanish holati tashqi va ichki omillarning o'zaro harakatining natijasi hisoblanadi. Tashqi holatlar jinoyatga undovchi tashqi ta'sirlar majmuidan iborat bo'lsa, ichki omillarga subyektning mastligi, ruhiy kasalligi, emotsional zo'riqishi va boshqalarni kiritish mumkin [17].

Bizningcha, qilmishni yengillashtiruvchi holat sifatida e'tirof etish uchun Jinoyat kodeksi 98-moddasida qonun chiqaruvchi tomonidan belgilab qo'yilgan quyidagi holatlar isbotlanishi lozim: 1) jabrlanuvchi tomonidan zo'rlik yoki og'ir haqorat yoxud boshqa g'ayriqonuniy harakatlar sodir etilganligi va buning natijasida aybdorda kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatini vujudga kelish imkoniyatining mavjudligi; 2) aybdorda faktik jihatdan kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatini mavjudligi; 3) jabrlanuvchining g'ayriqonuniy harakatlari va aybdorda vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holati o'rtasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligi.

Ushbu sanab o'tilgan belgilar JK 98-moddasini qonun chiqaruvchi tomonidan yengillashtiruvchi tarkibli jinoyat sifatida e'tirof etilganligini anglatadi.

O'zbekiston Jinoyat kodeksi har qanday jinoyat tarkibida kuchli ruhiy hayajonlanish holati mavjud bo'lishini, yengillashtiruvchi holat sifatida nazarda tutadi. JK 55-moddasi "d" bandiga binoan jazoni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etishi belgilanganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

Tabiiyki, JK 55-moddasi "d" bandida belgilangan kuchli ruhiy hayajonlanish holatini shartlari va vujudga kelish mexanizmi JK 98-moddasi dispozitsiyasidagi kuchli ruhiy hayajonlanish holatining belgilari bilan bir xil bo'lishi talab qilinadi.

Lekin JK 55-moddasi "d" bandi o'zida "to'satdan"lik belgisini nazarda tutmagan. Ushbu belgi qilmishni kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida sodir etilgan deb topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jinoyat-huquqiy belgi jabrlanuvchining kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida jinoyat sodir etishining jinoyat qonuni bilan belgilab berilgan talabi sanaladi.

Yuqoridagilardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

birinchi, tadqiqotlarimiz natijasida aniqlandiki, "to'satdan" belgisi JK 55-moddasi "d" va JK 98-moddasi uchun qonun normasida turli shaklda o'rnatilgan bo'lib, uni turlicha talqin qilish mumkin. Xususan, agar qasddan odam o'ldirish jinoyati "to'satdan vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida" sodir etilsa JK 98-moddasi bilan tavsiflanadi. Agar u "to'satdan"lik belgisiga ega bo'lmagan "kuchli ruhiy hayajonlanish holatida"da sodir etilsa sud qilmishni tegishli JK Maxsus qismi moddasi bilan kvalifikatsiya qilishi va jazo tayinlashda JK 55-moddasi "d" bandiga binoan jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholashi lozim, degan bir-biriga zid talqinlar vujudga keladi.

Demak, JK 98-moddasi va 55-moddasi "d" bandi mazmunidan kelib chiqib aytish

mumkinki, ushbu moddalarda nazarda tutilgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatlari turli shaklda qo'llansa-da, qonun chiqaruvchi "kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holati"ni bir xil mezonlar bilan o'lchash maqsadga muvofiq;

ikkinchi, agar "to'satdan" belgisi mavjud bo'lmagan holatda vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etilsa uni qanday asoslarga ko'ra kvalifikatsiya qilish lozim, degan savol ham tug'ilishi tabiiy. Bizningcha, shaxs to'satdanlik belgisi mavjud bo'lmagan holatda vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirsa, JK 98-moddasi talablariga ko'ra bu qilmishni mazkur modda bilan kvalifikatsiya qila olmaymiz, bu vaziyatda esa o'z navbatida qilmish JK 97-moddasi tegishli bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi va JK 55-moddasi "d" bandi talablariga ko'ra jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanadi. Ushbu yechimni ham to'laqonli maqsadga muvofiq deb topa olmaymiz. Chunki, JK 98-moddasida kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatini barcha zaruriy belgilari nazarda tutilgan bo'lsa-da, unda nazarda tutilgan "to'satdan"lik zaruriy belgisiga ega bo'lmagan holatlarni qonun chiqaruvchi JK 55-moddasi "d" bandida yengillashtiruvchi holat sifatida mustahkamlab qo'ygan.

Bizningcha, bu qonun chiqaruvchi tomonidan kuchli ruhiy hayajonlanish holati tushunchasiga JK 98- va 55-moddalarida bir xil yondashilmaganligini anglatadi, chunki mazkur moddalardagi kuchli ruhiy hayajonlanish holatiga berilgan ta'riflar va uning belgilari bir-birini inkor qilib, qaysi tushunchani to'g'ri deb baholashga to'sqinlik qilmoqda.

Bu kabi jinoyat qonunidagi kollizion normalarni bartaraf qilish uchun Jinoyat kodeksi 98-moddasi va 55-moddasi "d" bandida nazarda tutilgan kuchli ruhiy hayajonlanish holati tushunchalari va uni belgilarini bir xil lashtirish lozim.

*uchinchi*, JK 55-moddasi "d" bandida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruv-

chi holat oldimizga jabrlanuvchi va aybdor harakatlari o'rtasidagi bevosita bog'lanishni baholash vazifasini qo'ymaydi. Chunki ushbu modda "d" bandida kuchli ruhiy hayajonlanish holati faqatgina jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelishi mumkinligini mustahkamlagan.

JK 55-, 98-moddalarida affekt holati faqatgina jabrlanuvchi tomonidan qilingan zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelishi bayon qilingan bo'lib, lekin masalaga chuqurroq yondashsak shunga amin bo'lish mumkinki, affekt holati nafaqat jabrlanuvchi tomonidan qonunda nazarda tutilgan g'ayriqonuniy harakatlar natijasida, balki jinoyat sodir etish joyida bo'lgan uchinchi shaxs tomonidan ham vujudga keltirilishi mumkin.

Yengillashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish tarkibli jinoyatlarning yana bir shakli – onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi jinoyatining jinoyat-huquqiy baholash muammolari o'zining uzoq tarixiy jaryoniga ega. Ushbu jinoyat Jinoyat kodeksining 99-moddasida mustahkamlangan.

I. Kantning fikricha, qonuniy nikohda bo'lmagan holda tug'ilgan chaqaloqni o'ldirgan ayolni jinoyat sodir etganlikda ayblab bo'lmaydi, chunki ushbu chaqaloq qonunda tashqari tug'ilgan hisoblanadi, demak, bu kabi chaqaloqni qonun ham muhofaza qilmasligi lozim. U jamiyat bag'riga qonunga xilof ravishda kirishga harakat qilgan ekan, jamiyat undan voz kechishi mumkin. Bu holatda qonun chiqaruvchi uni nobud qilganlik uchun jazo tayinlashga haqli emas [18].

Mazkur mavzuda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning ham so'nggi yillarda kengayib borayotganligini qayd etishimiz zarur. Jumladan, so'nggi yillarda ushbu mavzuda o'tkazilgan tadqiqotlar sifatida Y.M. Antonyan, M.V. Goncharova, Y.B. Kurguzkina [19], N.A. Jivodrova, A.V. Bezrukov, Y.A. Abramova [22], D.V. Kojina [21], A.S. Dubovik [22], M.Y. Milayeva [23], Safuanov F.S., Y.A. Saricheva

[24], V.V. Chervyakova [25], I.A. Pavlova [26], Y.A. Soldatova [27] va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Ona qotillarning ruhiy jismoniy holati ilmiy muhokamalarning asosiy predmeti bo'lib qolgan. Aqli rasolik haqidagi o'sha davrda paydo bo'lgan ilmiy qarashlar bu kabi qotil onalarning harakatlarini qisman izohlar berardi. Muhokamalarning asosiy mazmuni asosan quyidagi ikki masala yuzasidan olib borilgan [28]:

birinchidan, onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishi jinoyati ona ruhiyatining buzilishi yoki boshqa ruhiy kasalliklari (jismoniy ruhiy faktorlar) bilan izohlash lozim;

ikkinchidan, onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishi jinoyatini boshqa hayotiy faktorlar bilan izohlash lozim, masalan, kambag'allik, uyat, sharm, hayo, atrofdagilar yoki qarindoshlar oldidagi nikohsiz orttirilgan homila tufayli qo'rquv va boshqalar.

Ona-qotillarning jismoniy ruhiy holatining asosiy jihatlarini yoritishga qaratilgan ilmiy ishlarni R. Krafft-Ebinganing tadqiqot asarlarida ham uchratishimiz mumkin. U o'z ilmiy izlanishlarida ayolning tug'ish vaqtidagi holatini ruhiy izdan chiqish jarayoning o'tishi ko'rinishidagi ruhiy patologik o'zgarishlar, ya'ni "behushlik kasalligi" bilan izohlashga urungan. Olimning fikricha, bu holat "tug'ish vaqtidagi ayolning nafaqat somatik munosabatlariga, balki ruhiy munosabatlariga ham katta ta'sir ko'rsatadi" [29]. Zimerling ona qotilning ruhiy holatining buzilishini tug'ish jarayoni bilan bir vaqtda kechadigan chuqur va uzoq davom etmaydigan ruhiy buzilish holati sifatida ko'rsatib o'tgan [30].

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan odam o'ldirish O'zbekiston Respublikasi JKda nazarda tutilgan yengillashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish jinoyati tarkiblarning uchinchisi hisoblanadi. Zaruriy mudofaa himoyachining yoki boshqa shaxslarning shaxsi va huquqlarini, jamiyat yoki davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxsning ha-

yoti uchun xavfli bo'lgan zo'rlik bilan yoki bunday zo'rlikni qo'llash bevosita tahdidi bilan bog'liq ijtimoiy xavfli tajovuzlardan himoya qilishda tajovuzchiga zarar yetkazish sifatida tavsiflanadi.

Zaruriy mudofaa huquqi har kimga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (44-modda) bilan taqdim etiladi, biroq tajovuzdan o'zini himoya qilish tajovuzchining o'limiga olib kelishi mumkin. Qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi qiyinchiliklar aynan tajovuz faktini isbotlash sohasida vujudga keladi. Tajovuz ayblanuvchining sog'lig'i uchun shunchalik xavfli bo'lganki, bu uning o'limiga olib kelishi mumkin bo'lgan hollarda muammolar paydo bo'ladi. Bunday holda sud uchun bu zaruriy mudofaa bo'lganligi yoki uning chegaralaridan chetga chiqish bo'lganligini aniqlash qiyin bo'ladi.

Bundan tashqari, qilmishlarni kvalifikatsiya qilishda tajovuz tugagan payt muhim ahamiyatga ega, chunki agar odam o'ldirish hayot va sog'liqqa tahdid tugaganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, tajovuz qilgan shaxsning hayotidan mahrum qilishga qaratilgan harakatlar qasddan odam o'ldirish sifatida baholanadi.

O'zbekiston Respublikasi JK 100-moddasi bo'yicha odam o'ldirishni kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti bo'lib, qilmishni sodir etishda jinoyatchining zaruriy mudofaa yoki xayoliy mudofaa holatida bo'lishi yoki shaxs jinoyat sodir etgan shaxsni ushlab turish zarur choralarini ko'rgan va ulardan chetga chiqqan bo'lishi hisoblanadi. Bunda aybdorning ongi bilan uning zaruriy mudofaa holatida yoki jinoyat sodir etgan shaxsni ushlab turish uchun zarur bo'lgan sharoitlarda harakat qilayotganligini qamrab olishi kerak.

Tajovuz o'z tabiatiga ko'ra qanday bo'lishi kerak? Zaruriy mudofaaning vujudga kelishi uchun shaxsning hayot uchun xavfli bo'lgan ijtimoiy xavfli oqibatlarining darhol kelib chiqishiga olib kelishi mumkin har qanday ijtimoiy xavfli, faol zo'ravon xulq-atvori (tajovuzi) asos bo'lishi mumkin.



Shunday qilib, xayoliy mudofaa holatida harakat qiluvchi va real ijtimoiy xavfli tajovuz sharoitida ruxsat etilgan himoya chegarasidan chetga chiquvchi shaxs zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqan sifatida jinoiy javobgarlikka tortiladi yoki jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. O'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, xayoliy mudofaani faktik xatoning bir turiga kiritish mumkin.

### Xulosalar

Yuqoridagilarga asosan quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

*Birinchi*, Jinoyat huquqi nazariyasida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning rivojlanishi muammosi murakkab hisoblanadi va o'z navbatida inson huquqlarini ta'minlash va adolatli jazo tayinlashda muhim o'rin tutadi.

*Ikkinchi*, O'zbekiston Respublikasi JKning 9-bobida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar aniq belgilab bergan bo'lib, ushbu bob uning yetti turini nazarda tutadi: kam ahamiyatli qilmishlar, zaruriy mudofaa, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish, oxirgi zarurat, jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish, kasb yoki xo'

jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik va buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish. Demak, ijtimoiy munosabatlarni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish davlatning asosiy konstitutsiyaviy majburiyatlaridan biridir. Ba'zan o'ta og'ir sharoitlarda o'z xizmat vazifalarini bajaradigan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari uchun zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, jinoyat sodir etgan shaxsni ushlab chog'ida zarar yetkazish va boshqalar kabi institutlarni to'g'ri hamda o'z vaqtida amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir.

*Uchinchi*, o'ta muhim sharoitlarda davlat va jamoat manfaatlarini ta'minlash, shaxsning huquqlari, mol-mulk, o'ta muhim obyektlarni qo'riqlash, tabiiy ofat, epidemiya, jinoiy tajovuzlarga chek qo'yish hududlarida tartibni ta'minlash vazifalarini hal qilish bilan bog'liq tezkor-qidiruv xususiyatidagi vaziyatlar, jinoyat sodir etgan shaxsga zarar yetkazish va boshqalar soni sezilarli darajada ortishiga olib keladi.

Shu sababli ushbu institutlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish albatta turli vaziyatlarda huquqni muhofaza qilish organlarining samaradorligiga ta'sir qiladi.

## REFERENCES

1. Gernet M. N., Narkotizm, prestupnost' i ugovolnyy zakon [Drug addiction, crime and criminal law]. *Narkokontrol – Drug Control*, 2011, no. 3, pp. 30–34.
2. Zhizhilenko A. A. Prestupleniya protiv lichnosti [Crimes against the person]. Moscow, 1927.
3. Nabokov V.D. Elementarnyy uchebnik Osobennoy chasti russkogo ugovolnogo prava [Elementary textbook of the Special part of Russian criminal law]. 1903.
4. Tagantsev N. Russkoye ugovolnoye pravo v 2 chastyakh [Russian Criminal Law in 2 parts]. Litres, 2022, vol. 1.
5. Piontkovskiy A.A. Pravootnosheniya v ugovolnom prave [Legal relations in criminal law]. *Rossiyskiy yezhegodnik ugovolnogo prava – Russian Yearbook of Criminal Law*, 2007, no. 1, pp. 671–682.
6. Rashkovskaya Sh.S. Sovetskoye ugovolnoye pravo [Soviet criminal law]. Frequently shared. 1972, no. 6.
7. Traynin A.N. Obshcheye ucheniye o sostave prestupleniya [General doctrine of the crime]. Gosyurizdat, 1957.
8. Shavgulidze T.G. Affekt i ugovolnaya otvetstvennost' [Affect and criminal liability]. Mesniereba, 1973.

9. Shargorodskiy M. Prestupleniya protiv zhizni i zdorov'ya [Crimes against life and health]. Justice of the USSR Publ., 1947.
10. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Tashkent, Yangi asr avlodi publ., p. 184.
11. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. Special part. Eds. N.A. Belyayeva, D.P. Vodyannikova, V.V. Orekhova. St. Petersburg, 1995, p. 86.
12. Vorob'eva A.A. Ponyatiye "affekt" v ugolovnom prave [The concept of "affect" in criminal law]. Modern Jurisprudence: Topical Issues, Achievements and Innovations, 2020, pp. 169–171.
13. Sharyurova Yu. Osnovaniya smyagcheniya otvetstvennosti za prestupleniya, sovershennyye v sostoyanii affekta [Grounds for mitigation of liability for crimes committed in the heat of passion]. *Zakon i pravo – Law and Law*, 2010, no. 8, pp. 81–84.
14. Kozachenko I.Ya., Spasennikov B.A. O kontseptsii affekta v ugolovno-pravovoy nauke [On the conception of affect in criminal law science]. *Rossiyskiy yuridicheskiy jurnal – Russian Legal Journal*, 2001, no. 2, p. 21.
15. Jumaniyozov N. Kuchli ruhiy hayajonlanish va affekt [Strong mental excitement and affect]. *Huquq va burch – Right and Duty*, 2007, no. 10-11, pp. 104–105.
16. Musayev M. Viktimologik profilaktika [Victimological prevention]. *Huquq va burch – Right and Duty*. 2011, no. 2, pp. 50–51.
17. Niyozova S. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirganlik uchun jinoiy javobgarlik [Criminal liability for intentional homicide in a state of intense mental excitement]. Tashkent, TSUL, 2005, p. 56.
18. Kant I. Sobraniye sochineniy [Collected Works]. Moscow, 1994, vol. 6, p. 371.
19. Antonyan Yu.M., Goncharova M.V., Kurguzkina Ye.B. Ubiystvo mater'yu novorozhdennogo rebenka: ugolovno-pravovyye i kriminologicheskiye problemy [Murder of a newborn child by a mother: criminal law and criminological problems]. *Lex Russica*, 2018, no. 3 (136), pp. 94–114.
20. Zhivodrova N.A., Bezrukov A.V., Abramova Ye.A. Problemy kvalifikatsii ubiystva mater'yu novorozhdennogo rebenka i vozmozhnyye puti resheniya [Problems of qualifying the murder of the mother of a newborn child and possible solutions]. *Nauka. Obshchestvo. Gosudarstvo – The Science. Society. State*, 2018, vol. 6, no. 1 (21), pp. 53–59.
21. Kozhina D.V. Ubiystvo mater'yu novorozhdennogo rebenka (st. 106 UK RF) [Murder of the mother of a newborn child (Article 106 of the Criminal Code of the Russian Federation)]. PhD thesis. Siberian Federal University, 2020.
22. Dubovik A.S. Ustanovleniye psixotravmiruyushchey situatsii pri ubiystve mater'yu novorozhdennogo rebenka [Establishment of a psychotraumatic situation when a mother kills a newborn child]. *Vestnik nauki i obrazovaniya – Bulletin of Science and Education*, 2019, no. 16 (70), pp. 41–45.
23. Milayeva M.Yu. Problemy kvalifikatsii ubiystva mater'yu novorozhdennogo rebenka (stat'ya 106 UK RF) [Problems of qualifying the murder of the mother of a newborn child (Article 106 of the Criminal Code of the Russian Federation)]. *Innovatsii. Nauka. Obrazovaniye – Innovation. Science. Education*, 2020, no. 13, pp. 224–230.
24. Safuanov F.S., Sarycheva Yu.A. Psixotravmiruyushchaya situatsiya kak priznak sostava prestupleniya po stat'e 106 UK RF (Ubiystvo materyu novorozhdennogo rebenka) [Psychotraumatic situation as a sign of a crime under Art. 106 of the Criminal Code of the Russian Federation (Murder of the mother of a newborn child)]. *Psikhologiya i pravo – Psychology and Law*, 2021, vol. 11, no. 2, pp. 193–207.
25. Chervyakova V.V. Ubiystvo mater'yu novorozhdennogo rebenka: ugolovno-pravovaya norma, otrazhayushchaya polovuyu prinadlezhnost' sub'yekta prestupleniya [Murder of a mother of a newborn child: a criminal law norm reflecting the gender of the subject of the crime]. *Molodoy uchenyy – Young Scientist*, 2021, no. 3, pp. 230–234.

26. Pavlova I.A. Osobennosti kvalifikatsii ubiystva mater'yu novorozhdennogo rebenka [Peculiarities of qualification of murder by a mother of a newborn child]. *Nauka, texnologii, obrazovaniye: aktualnye voprosy, dostizheniya i innovatsii – Science, Technology, Education, Topical Issues, Achievements and Innovations*, 2022, pp. 113–115.

27. Soldatova Yu.A. Nekotoryye problemy kvalifikatsii ubiystva mate'ryu novorozhdennogo rebenka [Some problems of qualifying the murder of the mother of a newborn child]. *Ugolovnoye pravo v evolyutsioniruyushchem obshchestve – Criminal Law in an Evolving Society*, 2022, pp. 258–260.

28. Lukichev O.V. Ugolovno-pravovaya i kriminologicheskaya kharakteristika detoubiystva [Criminal law and criminological characteristics of infanticide]. PhD thesis. St. Petersburg, 1997, 214 p.

29. Krafft-Ebing R. Sudebnaya psixopatologiya [Forensic psychopathology]. 4th ed., revised. and additional. St. Petersburg, 1995, p. 149.

30. Shbal Ye. Ogranichennaya vmenyayemost': diskussionnye voprosy teorii i pravoprimenitel'noy praktiki [Limited sanity: debatable issues of theory and law enforcement practice]. *Ugolovnoye pravo – Criminal law*, 2002, no. 1. pp. 6–7.

31. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Ilm Ziyo Publ., 2006, p. 56.

32. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Crimes against the person. Crimes against peace and security. Tashkent, Ilm Ziyo Publ., 2011, p. 62.

33. Karaketov Y.M., Usmonaliyev M.U. Jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminologik choralari [Criminological measures of the fight against crime]. Tashkent, Uzbekiston Publ., 1995, p. 74.

34. Abdurasulova K. Stanovleniye, razvitiye, sovremennoye sostoyaniye kriminologicheskikh ucheniy v nashey strane i zadachi sovremennoy kriminologicheskoy nauki [Formation, development, current state of criminological teachings in our country and the tasks of modern criminological science]. *Obshchestvo i innovatsii – Society and Innovation*, 2021, vol. 2, no. 5. pp. 78–90.

35. Abdurasulova K.R., Rasulev A.K. Institut ugolovnykh prostupkov: zarubezhnyy opyt i vozmozhnosti ikh primeneniya v zakonodatel'stve Respubliki Uzbekistan [Institute of criminal offenses: foreign experience and possibilities of their application in the legislation of the Republic of Uzbekistan]. *Science and World*, 2013, p. 45.

36. Abdurasulova K.R. Osobyi sub'yekt prestupleniya [Special subject of the crime]. Tashkent, TSUL, 2005.

UDC: 343.2(045)(575.1)

## SHAXSLARNING O‘Z QILMISHIGA AMALDA PUSHAYMON BO‘LGANLIGI MUNOSABATI BILAN JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISHNING MUAMMOLARI

**Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,**

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti doktoranti, kapitan

ORCID: 0000-0003-39-53-3800

e-mail: jasurbekaniyazov91@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxslarning o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod etishda ish yuritishni rad etish yoki tugatish bilan bog‘liq protsessual muammolar va mazkur masalalarni huquqiy tartibga solish jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, aybdor qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etishning zaruriy shartlari huquqiy jihatdan tahlil etilib, unda “birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs” jumlasining huquqiy tavsifi yuzasidan fikrlar bildirilgan. Shu bilan birga, maqolada javobgarlikdan ozod etishning mazkur turi mansabdor shaxslarning huquqi yoki majburiyati ekanligi to‘g‘risida fikrlar, amaliyot tahlili va mazkur muammolar yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo‘llangan. Tadqiqot ishida ilg‘or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o‘rganilgan. Buning natijasi o‘laroq, O‘zbekiston Respublikasi, Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** shaxslarning o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi, jinoyat ishini tugatish, rad etish.

## ПРОБЛЕМЫ ОСВОБОЖДЕНИЯ ЛИЦ ОТ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ВВИДУ ДЕЯТЕЛЬНОГО РАСКАЯНИЯ В СОДЕЯННОМ

**Атаниязов Жасурбек Курбанбаевич,**

докторант факультета послевузовского образования  
Университета общественной безопасности

Национальной гвардии Республики Узбекистан, капитан

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены процессуальные вопросы, связанные с отказом или прекращением производства по делу ввиду деятельного раскаяния лиц в содеянном, и аспекты правового регулирования указанных вопросов. Также в статье анализируются с юридической точки зрения необходимые условия освобождения от уголовной ответственности в связи с деятельным раскаянием виновного в содеянном и высказываются мнения по описанию с правовой точки зрения понятия «лицо, впервые совершившее преступление». В то же время в статье был проведен анализ практики и даны предложения по вопросам относительно того, является ли данный вид освобождения от ответственности правом или

обязанностью должностных лиц. В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В исследовательской работе были изучены передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, следственная и судебная практика, в результате чего были выработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан и другие законодательные и подзаконные акты.

**Ключевые слова:** деятельное раскаяние лиц, в содеянном, прекращение уголовного дела, отказ, военнотружующий.

## PROBLEMS OF EXEMPTION OF PERSONS FROM CRIMINAL LIABILITY DUE TO ACTIVE REPENTANCE IN CONSENT

**Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich,**

Doctoral Student of the Faculty of Postgraduate Education,  
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Captain

**Abstract.** This article discusses procedural issues related to the refusal or termination of proceedings in connection with the actual repentance of persons for what they have done, and aspects of the legal regulation of these issues. The article also analyzes, from a legal point of view, the necessary conditions for exemption from criminal liability in connection with the actual repentance of the guilty of the deed and expresses opinions on the legal description of the sentence "the person who committed the crime for the first time". At the same time, the article analyzed the practice and suggestions on these issues as to whether this type of exemption from liability is a right or an obligation of officials. The study used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, and comparative legal analysis. In the research work, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative and subordinate acts.

**Keywords:** actual repentance of a person for what he has done, termination of a criminal case, refusal.

### Kirish

Dunyoda jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvini yanada insonparvarlashtirish masalalarini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Harbiy xizmatchilarning jinoyat subyekti sifatidagi huquqlarini ta'minlash maqsadida qo'shimcha kafolatlarni belgilash, sudga qadar ish yurituvini yanada insonparvarlashtirishga qaratilgan yangi institutlarni joriy etish, insonparvarlik prinsipi doirasidagi huquqiy normalarni joriy etish va bu borada tadqiqotlar olib borish muhim sanaladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sud-huquq sohasidagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilayotganligi, xususan, ayblilik masalasini hal etmay turib, jinoyat ishini tugatish institutini rivojlantirish zarurati ushbu islo-

hotlarning alohida muhim qismini tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonida yettita ustuvor yo'nalishdan biri bo'lgan, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo'nalishida "Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezon sifatida belgilash" ko'rsatib o'tilgan. Mazkur masalalar Yangi O'zbekistonning huquqiy davlat maqomini mustahkamlash, mamlakatimizdagi har bir shaxsning, xususan, harbiy xiz-

matchilarning huquq va erkinliklari kafolati bo'lib xizmat qiladi.

### **Material va metodlar**

Shaxs ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan, aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, JPKning 84-moddasi beshinchi qismi 2-bandida nazarda tutilgan asos bilan jinoyat ishi tugatilishi belgilab qo'yilgan. Ta'kidlash joizki, mazkur asos jinoyat ishlarini tugatish asoslari ichida insonparvarlik prinsipining amaldagi yorqin ifodasi sanaladi.

Shu sababli mazkur asosni amaliyotda, xususan, harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari yuzasidan yuritilayotgan tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov hamda sud jarayonlarida yanada kengroq qo'llash borasidagi muammolarni tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot ishida mazkur asosni qo'llash bilan bog'liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

### **Tadqiqot natijalari**

JK 66-moddasining birinchi qismiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Demak, yuqoridagi normada shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etish sharti sifatida bir necha talablar mavjud. Bular:

– shaxsning birinchi marta jinoyat sodir etishi;

– sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat turkumiga kirishi;

– shaxsning aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilishi;

– aybdorning chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi;

– jinoyatning ochilishida faol yordam bergan bo'lishi va keltirilgan zararni bartaraf etishi.

Shaxsning yuqoridagi talablarning birortasini bajarmasligi yoki uning harakatlari (harakatsizligi) mazkur talablar doirasidan tashqarida bo'lishi uning ushbu asosga ko'ra javobgarlikdan ozod etilmasligiga sabab bo'ladi.

Javobgarlikdan ozod etuvchi mazkur norma talablarini tahlil etar ekanmiz, eng avvalo, normaning birinchi talabi sanalgan “shaxsning birinchi marta jinoyat sodir etayotganligi” tushunchasiga oydinlik kiritish lozim.

M.X. Rustamboyev shaxsning birinchi marta jinoyat sodir etayotganligi deganda, muqaddam sudlanmagan, tergov yoki sud tergovi ostida emas, tergov va suddan yashirinmagan shaxslar tushunilishini e'tirof etadi. Uning fikricha, ushbu asoslarga kam ahamiyatli qilmish sodir etgan yoki JKning 64–66, 66<sup>1</sup>-, 68-moddalarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ragina javobgarlikdan ozod etilgan shaxslar qayta javobgarlikdan ozod etilishi mumkin [1, 162-b.].

M.X. Rustamboyevning fikrlari o'rinli, biroq u mazkur munosabatlarda shaxsning birinchi marta ushbu ikki toifa jinoyatni sodir etishda jinoyat huquqi nazarda tutgan barcha holatlarni qamrab olmagan, deb o'ylaymiz.

B.Murodovning fikricha esa, qonunda “birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs” jumlasini ishlatilgan bo'lsa-da, avvalgi jinoyatlari uchun sudlanganlik muddati o'tib ketgan yoki sudlanganligi qonunda belgilangan tartibda olib tashlangan shaxslarga nisbatan ham ushbu asos bilan jinoyat ishini tugatish mumkin [2, 131-b.].

B. Murodovning fikrlariga qo'shilgan holda quyidagilarni qo'shimcha qilish maqsadga muvofiq. Jinoyat huquqida shaxsга nisbatan ayblilik masalasini hal etmay turib, ish

yuritish rad etilsa yoki jinoyat ishi tugatilsa, shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxsning jazodan ozod qilinishi, qonunning o'zgarishi bilan qilmish jinoyat deb hisoblanmaydigan hollarda, shuningdek, sudlanganlik muddati tugallanishi yoki sudlanganlikning olib tashlanishida shaxs sudlanmagan hisoblanadi va bunda sudlanganlikning barcha huquqiy oqibatlarini bekor bo'lishi belgilangan.

Shu sababli mazkur asosni qo'llashda "birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs" deganda, sudlanganlik holati bo'lmagan barcha shaxslar tushunilishi lozim degan fikrdamiz.

Aybdorning o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan uni javobgarlikdan ozod qilishda amaliyotda bir qancha muammolar mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Garchi 2017-yildan keyingi davrda JPKning mazkur asosi keng qo'llanishi boshlangan bo'lsa-da, statistik ma'lumotlar uning ulushini hanuzgacha yetarli deb e'tirof etishga imkon bermaydi.

Chunonchi, 2013–2014-yillarda IIV tizimida jinoyat ishlarini mazkur asos bilan tugatish 54,1 foiz ko'rsatkichga tushib ketgan bo'lsa [3, 11-b.], 2017-yilda 360 ta, 2018-yilda – 457 ta, 2019-yilda 960 ta va 2021-yilga kelib jami 1969 ta jinoyat ishlari ushbu asosga ko'ra harakatdan tugatilgan. Birgina 2021-yilda respublika bo'yicha 111 082 ta jinoyat qayd etilgan bo'lib, ulardan 83 048 tasi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlardir. Shundan mazmunan hal etish uchun sudga yuborilgan ishlar soni 63 537 tani tashkil etadi va biz yuqorida tahlil etilayotgan asosga ko'ra tugatilgan ishlar ushbu toifadagi jinoyatlarning 3 foizi demakdir [4].

Albatta, statistik ma'lumotlardagi nisbatan o'sish ko'rsatkichlari mamlakatimizga jinoiy-huquqiy sohada yangi liberal va insonparvarlik muhiti kirib kelganligi hamda qonunlarning nafaqat jazolovchi, balki inson manfaatlari himoyachisi sifatida namoyon bo'lishi lozimligini isbotlaydi. Zero, M.I. Pastuxov ta'kidlaganidek, "Jinoyat protsessi na-

faqat jinoyat sodir etganlarga qarshi qilich, balki har qanday asossiz ayblovga qarshi ishonchli qalqon bo'lishi kerak" [5, 10-b.].

Mazkur asos bilan ish yurituvini rad etish va tugatish bilan bog'liq amaliy muammolardan biri – bu mazkur asosni qo'llash tegishli mansabdor shaxsning huquqi yoki majburiyatiga kirishi sud-tergov va himoya tarafining tortishuvlariga sabab bo'lmoqda. Fikrimizni yoritish uchun amaliy misol keltiramiz.

A. ismli shaxsning qonunga xilof ravishda o'qotar ov qurolini o'z yashash uyida saqlab kelayotganligi holati bir necha huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan aniqlanganda, holatga huquqiy baho berish va kelgusi tergov harakatlarini o'tkazish uchun tegishlilikiga ko'ra hududiy IIO huzuridagi tergov bo'linmalariga tegishli protsessual hujjatlarni ilova qilgan holatda yuboriladi. Mazkur tergovga qadar tekshiruv hujjatlarini qabul qilib olgan surishtiruvchi yoki tergovchi jinoyat ishini qo'zg'atish uchun barcha sabab va asoslarning mavjudligiga yana bir karra ishonch hosil qilib, shaxs bilan bevosita ushbu yuqorida belgilangan huquqi mavjudligini tushuntirib o'tmagan holda, jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qaror qabul qiladi va umumiy tartibda surishtiruv yoki dastlabki tergov harakatlarini o'tkazishga kirishadi. Basharti ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan A. ismli shaxs dastlabki tergov vaqtida ushbu normada ko'rsatilgan asoslarga ko'ra uni ayblilik masalasini hal qilmay turib, unga nisbatan yuritilayotgan jinoyat ishini tugatishni so'rab murojaat qilgan hollarda, bu mutlaq surishtiruvchi yoki tergovchining vakolatida bo'lib, ya'ni surishtiruvchi yoki tergovchi ushbu turdagi arizani qabul qilib, arizani murojaatlarni qayd qilish kitobi (alfavitka)ga qayd qilib, uni jinoyat ishi hujjatlari orasiga tikib qo'yish va ariza muallifiga uning ushbu arizasi jinoyat ishi hujjatlariga qo'shilgan holda o'rganilayotganligi hamda ko'rib chiqilayotganligi haqida xabardor qilish to'g'risidagi xatni yuborish bilan kifoyalaniq qolayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Yuqoridagi holatda sud-tergov idoralari ushbu asosni qo'llashni o'zlarining huquqlari sifatida e'tirof etishadi, biroq qaysi asoslarga ko'ra shaxsning arizasi rad qilinayotganligi yoki qanoatlantirilmashligi bo'yicha biror yuridik hujjat qabul qilinmasligi va bunday majburiyatning o'zi qonunda mavjud emasligi, albatta, A. ismli shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini cheklaydi.

Darhaqiqat, amaldagi jinoyat va jinoyat-protsessual qonun talablaridan kelib chiqib, baho berilganda, o'rganilayotgan masala qonun normasida aniq tartibga solinmagan bo'lsun turlicha talqin qilinayotganiga amin bo'ldik. JPKning 405<sup>10</sup>-moddasida "Sud ushbu kodeksning 84-moddasi beshinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ishni tugatishga haqlidir" deb belgilangan jumlasiga ko'ra, bu sudning huquqiga kirishini anglaymiz.

M.X. Rustamboyevning fikricha, bunday holatda javobgarlikdan ozod qilish fakultativ emas, balki majburiydir [6, 447-b.]. Shuningdek, F.M. Muhitdinov va Z.F. Inog'omjonovlar ham mazkur asosga ko'ra jinoyat ishini tugatish tegishli organlarning majburiyati ekanligini bildirganlar [7, 335-b.; 8]. A.V. Yendolseva [9, 96-97-b.] va M.V. Nagulyaklar, aksincha, aybdorning o'z qilmishiga pushaymonligi asosi bilan ishni tugatish tegishli organlarning huquqi ekanligini ta'kidlaydilar [10, 7-b.].

Fikrimizcha, mazkur asos bilan ish yurituvini rad etish yoki tugatish tegishli organlar tomonidan qo'llanishi majburiy bo'lishi lozim va ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaymiz. Bino-barin, mazkur munosabatlarda shaxslarning dispozitiv huquqlarini keng joriy etish, jinoyat yo'lga adashib kirib qolgan va qilmishidan pushaymon bo'lgan shaxslarga imkoniyat berish kabi insonparvarlik tamoyillari jamiyatimiz tomonidan olqishlanmoqda.

M.A. Hayitov "Jabrlanuvchi yoki uning vakiliga ayblanuvchining jinoyat ta'qibida ishtirok etish huquqini berish va uni protsessual jihatdan mustahkamlash amaldagi ji-

noyat-protsessual qonunchiligining nazariyasi va amaliyotida progressiv g'oyalarni aks ettiradi. Jinoyat ta'qib shakli va subyektlarining ko'pligi bu demokratik va tortishuv negizidagi jinoyat sudlov ishlarining asosi hisoblanadi. Jabrlanuvchining jinoyat ta'qibni amalga oshirish imkoniyatining davlat organlari xohish-irodasiga bog'lanishi jinoyat sudlov ishlarining tortishuv mohiyatiga mos kelmaydi", [11, 108-118-b.] deb ta'kidlaydi.

M.A. Hayitovning fikrlari juda o'rinli. Jinoyat ta'qibni amalga oshirishdan maqsad ham jabrlanuvchining qonuniy manfaatlarini himoya qilish sanaladi. Shu sababli davlat organlarining bunday hollarda jinoyat ta'qibni o'z xohish-irodasiga bog'lashi noo'rindir.

Xorijiy olimlarning fikricha, protsessual qonunchilikda jinoyat javobgarlikdan ozod qilishning ixtiyoriy (diskresion) [12, 214-222-b.] va majburiy (imperativ) turlari mavjud. Ular o'rganilayotgan asos bilan javobgarlikdan ozod qilishni ixtiyoriy turkumga kiritishgan [13, 152-b.]. Ya'ni bunda huquqni qo'llovchi mansabdor ichki ishonchi asosida javobgarlikdan ozod etiluvchi shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligini baholaydi va javobgarlikdan ozod etadi. Biroq bir guruh olimlar mazkur asosni qo'llashni yagona tizimga keltirish lozimligini ta'kidlab, bu bir necha salbiy oqibat (korrupsiya, huquqning qo'llanmay qolishi, jabrlanuvchining huquqlari poymol bo'lishi va hokazo) larga olib kelishi mumkinligini bildirganlar [14-16].

B. Murodov mazkur asosni qo'llashda shaxsning roziligi talab etilishi, biroq mazkur rozilik ishni tugatishda ahamiyatga ega emasligi, shu sababli talablar to'liq bajarilgan hollarda, mazkur asosni qo'llash mansabdorlar tomonidan majburiy etib belgilanishi lozimligini bildirgan [2, 147-148-b.].

Shuningdek, tadqiqotlar davomida amaliyotchi va nazariyachi xodimlar ishtirokida o'tkazilgan so'rovlar davomida respondentlarning 59 foizi aybdorning o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi



munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishda asosi bilan ish yuritishni rad etish yoki tugatish mansabdor shaxsning majburiyati, 32 foizi esa ularning huquqi ekanligini bildirishdi [17].

2001-yil 29-avgustda qabul qilingan “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonunga ko‘ra, o‘g‘rilik va firibgarlik yo‘li bilan fuqarolarning mulkini talon-toroj qilganlik uchun jinoiy javobgarlik talon-toroj summasi miqdoridan qat‘i nazar kelib chiqadi. Biroq talon-toroj miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan oshmagan har bir holda surishtiruv, tergov organlari va sudlar ayblanuvchining (sudlanuvchining) shaxsiga oid ma‘lumotlar hamda moddiy zararining qoplanganligini inobatga olgan holda jinoyat ishini Jinoyat kodeksining 65- va 66-moddalariga asosan tugatish masalasini muhokama etishi kerakligi belgilangan.

Xuddi shunday talabni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli “Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 16-bandida ham uchratishimiz mumkin. Unda “fuqarolar mulkini firibgarlik yo‘li bilan talon-toroj qilganlik uchun jinoiy javobgarlik talon-toroj miqdoridan qat‘i nazar kelib chiqadi. Ayni paytda talon-toroj miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravarigacha bo‘lgan har bir holda surishtiruv, tergov organlari va sudlar ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning shaxsi va moddiy zarar qoplanishiga oid ma‘lumotlarni inobatga olgan holda JKning 65-, 66-, 70-, 71-moddalarini qo‘llash masalasini muhokama etishlari shartligi belgilangan.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslar jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplagan, aybiga iqrorlik va chin

ko‘ngildan pushaymonlik bildirgan hollarda dastlabki tergov organlari va sudlar JK 65-, 66-, 70-, 71-moddalariga asosan ularni tegishlicha jinoiy javobgarlik yoki jazodan ozod qilish masalasini muhokama qilishlari shart.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning barchasi O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunining 25-moddasi 4-qismiga asosan ijro etilishi majburiy xarakterga ega hujjatlardir.

Yuqorida nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlarning talablari – javobgarlikdan ozod etishning mazkur turini qo‘llash masalasini majburiyat sifatida yuklayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida vujudga kelayotgan kollizion holatlarni bartaraf etish va amaliyotchilarni chalg‘itmaslik uchun protsessual normalarda mazkur qoidalarni tushunarli tarzda bayon qilish maqsadga muvofiq.

Yuqorida qayd etilgan faktlar mazkur munosabatlarda shaxslarning dispozitiv huquqlarini saqlab qolish bilan birga ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxslarning mazkur normada keltirib o‘tilgan majburiyatlarni bajargan taqdirda ularni javobgarlikdan ozod etish huquqini protsessual qonunchilikda mustahkamlash zarurligini bildiradi.

Amaliyotda ko‘p hollarda shaxslar Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan o‘zlarining mazkur huquqlarini bilmaydilar va tahlil etilayotgan norma talablariga muvofiq kelsa-da, jinoyat ishlarining umumiy tartibda sudga oshirilgan va hatto ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxslarga jazo qo‘llanilish holatlari ko‘plab uchramoqda.

Bundan tashqari, tadqiqot doirasida ayni mansabdor shaxslar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tahlil etilayotgan norma talablariga muvofiq keluvchi jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishda, O‘zbekiston

Respublikasi JPKda bunday majburiyat yo'qligi sabab shaxslarning javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi to'g'risidagi huquqlari tushuntirilmaligi va respondentlar orasida ariza bilan murojaat qilgan shaxslar barcha asoslarga ko'ra ushbu bandga mos tushsa-da, arizani rad etgan holatlar bo'lganligini bildirilar.

Yana bir e'tiborli jihati mazkur so'rovlarda shaxsning arizasi rad etilishi holati biron-bir hujjat bilan mustahkamlanmasligi, bir toifa mansabdorlar bunday talab JPKda aks etmaganligi sababli shaxsga javob xati yuborish kifoya qilishini bildirgan bo'lsalar, boshqa toifa mansabdorlar mazkur iltimosnoma rad etilishi borasida qaror qabul qilish qonunchilikda aks etishi lozimligini e'tirof etishdi<sup>1</sup>.

L.A. Astanovaning fikricha, protsess ish-tirokchilarining mazkur huquqlarini tushuntirish va ta'minlashni JPKning 64-moddasi tegishli mansabdorlarga yuklaydi va bu qonunchilikda yetarli hisoblanadi [17, 42–43-b.].

L.A. Astanovaning fikrlarini inkor etgan holda JPKning 64-moddasida jinoyat protsessida maqomi belgilangan shaxslargagina, ya'ni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi hamda boshqalarga huquqlarini tushuntirib berishi va bu huquqlarni amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlashi shartligi nazarda tutilgan. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida vujudga keladigan munosabatlar vaqtida protsessda hali maqomi belgilanmagan shaxslarning huquqlari umuman qonunchilikda belgilanmagan, tushuntirish lozim bo'lgan huquqlarni majburiyat sifatida atash ham, fikrimizcha, bu jarayonlarni to'liq qamrab olmagan deb atashimizga asos bo'ladi.

Shu sababli tegishli mansabdor shaxslar insonparvarlik tamoyillari asosida shakllangan ushbu javobgarlikdan ozod etuvchi norma talablarini tushuntirishlari va ushbu shartlar bajarilganda, butunlay javobgarlikdan ozod etilishlari mumkinligi to'g'risida

<sup>1</sup> Tadqiqot ishi doirasida olib borilgan surishtiruvchi, tergovchi, amaliyotchi va huquqshunoslardan iborat respondentlar jamoasi o'rtasidagi so'rov natijalari.

xabar berishlari lozim. Mazkur qoida tegishli mansabdor shaxslarga qonun asosida majburiy qilib belgilanishi bu boradagi ishlar yurituvini osonlashtirsa, boshqa tomondan, fuqarolarning davlatning jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatiga ishonchi ortishiga xizmat qiladi, degan fikrdamiz.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olib, JKning 65–66-moddalari va JPKning 84-moddasi beshinchi qismi talablarini tushuntirish bayonnomasi loyihasi ishlab chiqilishi va tergov amaliyotiga joriy etish bo'yicha takliflar berilishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, JPKning 84-, 333-moddalarida tahlil etilayotgan asos bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish vakolati mavjud emasligi tushunarsizdir. Sababi, amaliyotda ushbu asos qo'llanib, tergovga qadar tekshiruv natijasi bo'yicha qarorlar qabul qilinmoqda. Ya'ni statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu asoslar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv hujjatlari natijasi yuzasidan ish yurituvini rad etish to'g'risida qarorlar qabul qilinmoqda va JPKning 84-moddasi asosida qabul qilingan barcha hujjatlarga amaliyot uchun ma'lum bo'lgan B.V. ya'ni "bez vozbuđenje" (ish qo'zg'atmasdan) jinoyat ishi raqami beriladi, masalan, B.V.302122/2021-17-sonli jinoyat ishi.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillardan kelib chiqqan holda aybdorning qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgani munosabati bilan javobgarlikdan ozod etishda quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ajratish lozim.

*Birinchi*dan, aybdorning o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgani munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishda O'zbekiston Respublikasi JKning 66-moddasi birinchi qismi va O'zbekiston Respublikasi JPK 84-moddasining beshinchi qismi 2-bandida nazarda tutilgan, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan "jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs" deganda, sudlanganlik holati bo'lmagan barcha shaxslar tushunilishi lozim.

*Ikkinchidan*, mazkur asos bilan ish yurituvini rad etish yoki tugatish tegishli organlar tomonidan qo'llanishi ularning majburiyati yoki huquqi ekanligi aniq qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilmagan, biroq tadqiqotlar mazkur munosabatlar shaxslarning dispozitiv huquqlarini qonunchilikka keng joriy etish, jinoyat yo'lga adashib kirib qolgan va qilmishidan pushaymon bo'lgan shaxslarga imkoniyat berish kabi insonparvarlik tamoyillari jamiyatimiz tomonidan olqishlanayotganligi, protsessual xarajatlar, vaqt va resurslarni optimalashtirish zarurati zamon talabi ekanligini inobatga olgan holda tegishli mansab-orlarning majburiyati sifatida qayd etish lozim.

*Uchinchidan*, tegishli mansabdor shaxslar ushbu javobgarlikdan ozod etuvchi norma talablarini tushuntirishlari va ushbu shartlar bajarilganda, butunlay javobgarlikdan ozod etilishlari mumkinligi to'g'risida xabar berishlari zarur. O'zbekiston Respublikasi JK 65-, 66-moddalari va JPK 84-moddasining beshinchi qismi talablarini tushuntirish bayonnomasi loyihasi ishlab chiqilishi va tergov amaliyotiga joriy etish bo'yicha takliflar berilishi maqsadga muvofiq.

*To'rtinchidan*, JKning 66-moddasi va JPKning 84-moddasi bergan vakolatga muvofiq, ushbu asosni faqatgina jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng jinoyat ishini dastlabki tergov va sudga ko'rish jarayonidagina qo'llash mumkin va tergovga qadar tekshiruv natijasi o'laroq, JPKning 333-moddasi ushbu band yoki JPK 84-moddasining beshinchi qismi biror bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishga imkon bermaydi. Shu bois tergovga qadar tekshiruv natijasi bo'yicha mazkur asos qo'llangan holda jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish vakolatini tegishli normalarga o'zgartirish yoki qo'shimcha sifatida kiritish lozim.

## Xulosalar

Yuqoridagilarga asosan, JPKning 84-moddasini quyidagi qismlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

*Ushbu moddaning beshinchi qismi 2- va 3-bandlarida nazarda tutilgan hollarda, agar shaxs ushbu asosni qo'llash bilan bog'liq tegishli shartlarni bajargan va yuritilayotgan ish yuzasidan aniqlanishi lozim bo'lgan talablar hamda holatlar o'z isbotini topganda, tegishli vakolatlariga ega bo'lgan mansabdor shaxs ushbu asoslardan birini qo'llashi shart, basharti biror asosga ko'ra rad etilsa, bu haqda asoslantirilgan qaror qabul qiladi.*

*Manfaatdor shaxslarga jinoyatga oid ishni rad etish yoki tugatish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish huquqi tushuntiriladi.*

## **333-modda. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish**

Ushbu Kodeksning 83-moddasi 1- va 2-bandlari hamda 84-moddasi birinchi qismining 1-, 3-8-bandlarida, *shuningdek, 84-moddasi beshinchi qismi 1-3-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi. Jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxonalar, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs bu haqda xabardor qilinadi. Bunda ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqi va tartibi tushuntirilishi lozim. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorning ko'chirma nusxasi prokurorga yuboriladi.*

*Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror ushbu Kodeks 84-moddasining beshinchi qismi 2-3-bandlarida nazarda tutilgan asosni qo'llash bilan bog'liq tegishli shartlarni bajargan va yuritilayotgan ish yuzasidan aniqlanishi lozim bo'lgan talablar hamda holatlar o'z isbotini topganda, mazkur shaxsning roziligi asosida unga nisbatan yuritilayotgan tergovga qa-*

dar tekshiruv hujjatlari bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilinishi mumkinligi borasidagi huquqlarini tushuntirishlari shart.

#### **405<sup>10</sup>-modda. Jinoyat ishini tugatish**

Ushbu kodeksning 83-moddasida, 84-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lganda, sud jinoyat ishini tugatadi.

Sud ajrimida:

jinoiyat ishini tugatish asoslari ko'rsatiladi; ehtiyot choralari, shuningdek, fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari bekor qilish haqidagi masalalar hal etiladi;

ashyoviy dalillar to'g'risidagi masala hal etiladi.

Sud ushbu kodeksning 84-moddasi beshinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ishni tugatishga haqlidir (qismni chiqarib tashlash lozim).

*Sud ushbu kodeksning 84-moddasi beshinchi qismida nazarda tutilgan asoslardan birini qo'llash bilan bog'liq tegishli shartlar bajaril-*

*ganda va yuritilayotgan ish yuzasidan aniqlanishi lozim bo'lgan talablar hamda holatlar o'z isbotini topganda, mazkur asoslardan birini qo'llashi shart. Biror asosga ko'ra rad etilsa, bu haqda asoslantirilgan qaror qabul qilishi lozim.*

Jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi ajrimning ko'chirma nusxasi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran besh sutka ichida prokurorga yuboriladi, o'ziga nisbatan ish tugatilgan shaxs va jabrlanuvchiga topshiriladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizning har bir jabhasida bo'lgani kabi jinoiy-huquqiy sohada ham inson qadri va manfaatlari yo'lida olib borilayotgan islohotlar natijasi, eng avvalo, uning dispozitiv huquqlari misolida namoyon bo'lmoqda. Mazkur islohotlar yo'lini izchillik bilan davom ettirish esa nafaqat davlatimiz, balki xalqimizning ham manfaatlariga mos ravishda huquqiy tartibni saqlashga xizmat qiladi, degan fikrdamiz.

## REFERENCES

1. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [The course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. 2nd ed., completed and reworked. Tashkent, 2018, p. 162.
2. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyot [Termination of a criminal case: theory and practice]. Tashkent, 2015, pp. 131, 147–148.
3. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish institutini takomillashtirish [Improvement of the institution of termination of a criminal case]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2018, p. 11.
4. Information of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2/>.
5. Pastuhov M.I. Reabilitatsiya nevinovnykh [Rehabilitation of the innocent]. Minsk, 1993, p. 10.
6. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi [Criminal Law]. General part. Tashkent, 2006, p. 447.
7. Muxitdinov F.M. Jinoyat-protsessual shakl: nazariy va metodologik muammolar [Criminal Procedure form: theoretical and methodological problems]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2005, p. 335.
8. Jinoyat protsessi [Criminal proceedings]. Ed. Z.F. Inogomzhonova. Tashkent, 2003.
9. Yendolseva A.V. Institut osvobozhdeniya ot ugovnoy otvetstvennosti: problemy i puti ikh resheniya [Institute of exemption from criminal liability: problems and ways to solve them]. Moscow, 2004, pp. 96–97.
10. Nagulyak M.V. Aktualnye voprosy prekrashheniya ugovnogo dela v svyazi s primireniyem storon [Actual issues of termination of a criminal case in connection with reconciliation of the parties]. Abstract of PhD thesis. Chelyabinsk, 2012, p. 7.

11. Hayitov M.A. Jinoyat protsessida xususiy ayblov tushunchasi va uning huquqiy tavsifi [The concept of private prosecution in criminal proceedings and its legal description]. *Journal of New Century Innovations*, 2022, May, vol. 6, iss. 3, pp. 108–118.

12. Kucherov G.N. Diskretsionnaya model' pravovogo regulirovaniya prekrashheniya ugovnogo dela i ugovnogo presledovaniya: pro et contra [Discretionary model of legal, regulation of termination of a criminal case and criminal prosecution: pro et contra]. *Aktualnyye problemy rossiyskogo prava – Actual Problems of Russian Law*, 2020, vol. 15, no. 11, pp. 214–222. DOI: 10.17803/1994-1471.2020.120.11.214-222/.

13. Bulanova N.V. Prokuror v dosudebnykh stadiyakh ugovnogo sudoproizvodstva Rossiyskoy Federatsii [Prosecutor in the pre-trial stages of criminal proceedings of the Russian Federation]. Moscow, Yurlitinform Publ., 2015, p. 158.

14. Dikarev I.S. K voprosu o diskretsionnykh osnovaniyakh prekrashheniya ugovnogo dela (ugovnogo presledovaniya) [On the issue of discretionary grounds for termination of a criminal case (criminal prosecution)]. *Ugolovnoe pravo – Criminal Law*, 2007, no. 1.

15. Alikperov H.D. Novyy UK: problemy osvobozhdeniya ot ugovnoy otvetsvennosti [New Criminal Code: problems of exemption from criminal liability]. *Criminal law*, 2007, no. 1.

16. Alikperov H.D. New Criminal Code: problems of exemption from criminal liability. *Zakonnost' – Legality*, 1999, no. 4, pp. 12–14.

17. Astanova L.A. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar [State bodies and officials responsible for conducting criminal proceedings]. Tashkent, 1997, pp. 42–43.

UDC: 341.6:796(045)(575.1)

## СПОРТИВНЫЙ АРБИТРАЖ КАК НОВЫЙ РАЗВИВАЮЩИЙСЯ ПРАВОВОЙ ФЕНОМЕН В УЗБЕКИСТАНЕ

**Саломов Жасур Ботирович,**

главный консультант Министерства юстиции

Республики Узбекистан

ORCID: 0000-0001-5037-5677

e-mail: salomovjasur@gmail.com

**Валеев Артур Махмудович,**

ведущий консультант Министерства юстиции

Республики Узбекистан

ORCID: 0000-0002-4164-5062

e-mail: valeev.artur18@gmail.com

**Аннотация.** В данной статье авторами проанализирован уровень развития спортивной сферы в Республике Узбекистан, изучены принятые нормативно-правовые акты, а также осуществленные практические меры с периода независимости по сегодняшний день. В частности, были подчеркнуты внимание правительства к спорту, актуальность обеспечения достойного участия спортсменов в международных соревнованиях, соблюдение населением здорового образа жизни, роль трехэтапных внутренних спортивных соревнований, направленных на воспитание гармоничного поколения, подготовку достойных последователей спортсменов. В то время как практика спортивного арбитража уже сложилась во многих странах мира, авторами было отмечено, что в Узбекистане эта практика еще не нашла своего применения, а несформированная законодательная и научная базы приводят к некоторым проблемам в данной сфере. В целях дальнейшего развития этого направления в Узбекистане изучен зарубежный опыт, научные работы и прецеденты, а также представлены соответствующие предложения и рекомендации по развитию этой сферы в нашей стране.

**Ключевые слова:** спортивный арбитраж, спортивные споры, Международный спортивный арбитражный совет, Международный спортивный арбитражный суд, спортивный омбудсмен.

### SPORT ARBITRAJI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANIB BORAYOTGAN YANGI HUQUQIY FENOMEN SIFATIDA

**Salomov Jasur Botirovich,**

O'zbekiston Respublikasi

Adliya vazirligi bosh maslahatchisi

**Valeev Artur Mahmudovich,**

O'zbekiston Respublikasi

Adliya vazirligi yetakchi maslahatchisi

**Аннотация.** Maqolada mualliflar tomonidan mustaqillik davridan to bugungi kunga qadar tamlakatimizda sport sohasi rivoji (qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, boshqa amaliy ishlar)

darajasi tahlil qilindi. Xususan, hukumat tomonidan sportga bo'lgan e'tibor, sportchilarning xalqaro musobaqalarda munosib ishtirokini ta'minlash, umuman, aholining sog'lom turmush tarziga rioya etishining dolzarbligi, barkamol avlodni tarbiyalash, sportchilarga munosib izdoshlarni tayyorlashga qaratilgan uch bosqichli ichki sport musobaqalarining tutgan o'rne alohida qayd etildi. Shu bilan birga, ko'pgina mamlakatlarda sport arbitrajasi sohasi allaqachon rivojlangan bir paytda, O'zbekistonda bu amaliyot hali o'z o'rniga ega emasligi, qonunchilik va ilmiy ishlar bazasi shakllanmaganligi ba'zi bir muammolarga olib kelayotganligi muallif tomonidan ta'kidlandi. Mazkur yo'nalishni O'zbekistonda yanada rivojlantirish maqsadida izlanuvchi tomonidan xorij tajribasi, ilmiy ishlar hamda pretsedentlar o'rganilgan bo'lib, mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar taqdim etildi.

**Kalit so'zlar:** sport arbitrajasi, sport nizolari, Xalqaro sport arbitraj kengashi, Xalqaro sport arbitraj sudi, sport ombudsmani.

## SPORTS ARBITRATION AS A NEW DEVELOPING LEGAL PHENOMENON IN UZBEKISTAN

**Salomov Jasur Botirovich,**

Chief Consultant of the Ministry of Justice  
of the Republic of Uzbekistan

**Valeev Artur Makhmudovich,**

Leading Consultant of the Ministry of Justice  
of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** The author of the article analyzed the level of development of the sports sphere in our country (adopted normative legal acts, and other practical measures) from the period of independence to the present day. In particular, the attention of the government to sports, the relevance of ensuring the worthy participation of athletes in international competitions, the observance of a healthy lifestyle by the population, the role of three-stage internal sports competitions aimed at educating a harmonious generation, training worthy followers of athletes were emphasized. While the practice of sports arbitration has already developed in many countries, the author noted that in Uzbekistan this practice has not yet found its application, the unformed legislative and scientific base leads to some problems. In order to further develop this area in Uzbekistan, the researcher studied foreign experience, scientific papers and precedents, and also presented relevant proposals and recommendations for the development of this area in our country.

**Keywords:** sports arbitration, sports disputes, the International Council of arbitration for sport, the Court of arbitration for sport, sports ombudsman.

### Введение

С обретением независимости в Узбекистане были предприняты широкомасштабные меры, направленные на закладку прочного фундамента спортивной сферы. В частности, в стране создана эффективная система подготовки профессиональных спортсменов, тренеров и судей. Реализация этих целей способствует широкой пропаганде здорового образа жизни, воспитанию всесторонне развитой молодежи, дальнейшему развитию физической культуры и спорта.

Важной правовой основой проводимых в данном направлении реформ служит Закон Республики Узбекистан «О физической культуре и спорте» (в старой и новой редакциях). В рамках выполнения вышеуказанного закона и вышеназванных целей были утверждены: 1) Концепция развития физической культуры и массового спорта в Республике Узбекистан на период 2019–2023 годы; 2) Программа мер по реализации Концепции развития физической культуры и массового спорта в Республике Узбекистан на период 2019–2023 годы.

Необходимо отметить, что на сегодняшний день здоровый образ жизни все больше утверждается в нашей стране. Отечественные спортсмены, достигая высоких побед на престижных международных соревнованиях, демонстрируют всему миру высокий спортивный потенциал страны. Первый Президент Республики Узбекистан И.А. Каримов по этому поводу высказался достаточно точно: «Ничто так быстро не популяризирует страну на международной арене, как спорт».

Проводится последовательная работа по улучшению материально-технической базы имеющихся спортивных объектов и возведению новых. Узбекистану доверяется проведение важных престижных спортивных соревнований. Также особое внимание уделяется отбору талантливых спортсменов, созданию для них всех необходимых условий для укрепления спортивного резерва нашей страны. Премственности достойного спортивного поколения служит созданная система проведения спортивных соревнований среди школьников и студентов – «Умид нихоллари», «Баркамол авлод» и «Универсиада», которые становятся мощной площадкой для раскрытия новых талантов.

В то же время, как и любой вид общественной деятельности человека, профессиональный спорт не застрахован от спорных моментов, которые порой становятся причиной ожесточенных разбирательств. Для решения таких спорных вопросов созданы и функционируют арбитражные органы, которые решают спортивные споры как на национальном, так и на международном уровне.

А.М. Бриллиантова с теоретической точки зрения классифицирует спортивные споры на четыре группы [1, с. 6], это споры:

- касающиеся исключительно коммерческой стороны правоотношений в области спорта;
- между спортсменами и спортивными организациями, связанные с вопросами

найма и трудоустройства;

- между спортивными организациями в отношении распределения между ними функций и полномочий;

- по поводу дисциплинарных санкций, применяемых спортивными организациями к своим членам и участникам – индивидуальным и коллективным.

Однако представляется, что вышеуказанная классификация чрезмерно широка и не содержит в себе конкретики. Так, непонятно, что понимать под коммерческой стороной отношений в спорте. Думается, что необходимо предоставить несколько примеров, чтобы более конкретно раскрыть ту или иную категорию внутри классификации. Например, не совсем понятно, куда отнести споры, связанные с применением допинга, а также споры, вытекающие из проведения соревнований. С другой стороны, данные споры определяют такие области права, как контракты, конкуренцию, арбитраж, что определяет их общие границы со спортом, когда возникают вопросы, связанные со спорными ситуациями. Есть и более серьезные проблемы, такие как договорные матчи, допинг, права на рекламу, ограничительные оговорки для игроков в контрактах. Вследствие этого спортивные арбитражные суды становятся еще более сложными, когда речь идет о международном спорте, где стороны находятся под влиянием собственных национальных юрисдикций.

Обратившись к греческой школе спортивного права, а именно к трудам А. Малатоса, мы можем увидеть, что он подразделяет все спортивные споры на две большие группы. Так, он выделяет соревновательные споры, т. е. споры, вытекающие из проведения спортивных соревнований и иные спортивные споры. Ученый в этом смысле подчеркивает, что исключительная компетенция юрисдикционных органов распространяется только на соревновательные споры, под



которыми Малатос понимает тот спор, который вытекает из нарушения правил «игры» и правил, определяющих соревновательную деятельность субъектов спорта [2, с. 22].

Одно из самых ярких упоминаний о роли арбитражного процесса в сфере спорта определяет М. Белоф, который отмечает, что спорт имеет уникальную судебную практику с правовыми принципами, отличными от принципов национальных судов, и которая была унифицирована Спортивным арбитражным судом (CAS) [3, с. 379].

Учитывая, что спортивный арбитраж – не широко распространенная практика в нашей стране, национальное законодательство Узбекистана в этом смысле должно четко отражать концепции и реалии правовой защиты спортсменов, организационно-правовые формы спортивных организаций, новые виды сделок, правовой статус спортсменов, тренеров, агентов, федераций, клубов и других вовлеченных сторон, источники и принципы финансирования спорта, учитывать основные условия договорных отношений в профессиональном спорте с коммерческой точки зрения.

Как показывает практика, большинство клубов, лиг, команд, спортсменов и тренеров в Узбекистане недостаточно хорошо подкованы с правовой точки зрения, сильно зависят от государственного финансирования и поддержки, не имеют доступа к защите собственных преимуществ в современной спортивной индустрии путем защиты и отстаивания своих собственных прав в иностранных судах и организациях в рамках спортивного арбитража.

Для Узбекистана в целях защиты своих интересов на международной спортивной арене понимание правовой природы международного спортивного арбитража и особенности арбитражного процесса имеет важное значение. В этих целях зако-

нодателем должен быть проведен анализ рисков и специфики возможного разрешения споров, возникающих во время Олимпийских игр и проблем участия Спортивного арбитражного суда в рассмотрении дел, связанных с обвинениями в применении допинга, нарушением контрактных отношений, исключением из рядов участников сборных команд на международных соревнованиях, взаимоотношениями с собственными федерациями и спортивными лигами.

*Для справки: в рамках спортивного арбитража Узбекистана была осуществлена единственная на данный момент и успешная защита интересов футбольного клуба «Бунёдкор» в Апелляционном суде по делам спорта (Швейцария) об отмене решения ФИФА по иску, адресованному бывшим футболистом ташкентского клуба Ривалдо узбекско-швейцарской корпорации Zeromax, которая являлась учредителем ФК «Бунёдкор».*

Спортивный арбитраж неразрывно связан с обязательствами по контрактам, спортивными мероприятиями и исходит из общих норм спортивного права. Есть также более серьезные проблемы, такие как договорные матчи, допинг, партнерства, права на рекламу, оговорки об ограничениях для игроков в контрактах.

*Для справки: в рамках допингового скандала, Антидопинговое отделение Спортивного арбитражного суда (CAS ADD) в 2012 году признало представителя Узбекистана Руслана Нурудинова виновным в нарушении антидопинговых правил на соревнованиях по тяжелой атлетике на Олимпиаде 2012 года в Лондоне. Кроме того, весной 2017 года в допинг-пробах узбекского борца Артура Таймазова нашли туринабол. Это стало причиной для лишения нашего спортсмена золотой медали Олимпийских игр 2008 года.*

#### **Материалы и методы**

Вопросы, касающиеся спортивных споров, урегулированы нормами и положе-

ниями нормативно-правовых актов Республики Узбекистан и международными документами.

При исследовании поставленных задач были применены методы анализа и обобщения правового законодательного и теоретического материала, методы сравнения, системный анализ.

### **Результаты исследования**

Для полноты картины следует ссылаться на институциональную составляющую в сфере спортивного арбитража. Так, статьи 1-2 Спортивно-арбитражного кодекса (*Code of Sports-related Arbitration*), созданного для разрешения спортивных споров на международном уровне определяет наличие двух контрольных органов:

1) Международный спортивный арбитражный совет (*The International Council of Arbitration for Sport - ICAS*);

2) Международный спортивный арбитражный суд TAS/CAS (*The Court of Arbitration for Sport - TAS/CAS*).

Согласно статье 2 Спортивно-арбитражного кодекса, целями Международного совета по арбитражу в спорте является облегчение разрешения споров, связанных со спортом, посредством арбитража или медиации, охрана независимости Спортивного арбитражного суда и прав сторон. Также он отвечает за администрирование и финансирование Международного спортивного арбитражного суда (TAS/CAS).

Международный спортивный арбитражный суд (TAS/CAS) – это институционный арбитраж, созданный в целях разрешения спортивных споров посредством таких составляющих механизмов, как арбитраж и медиация. Расположение данного суда соотносится с его основным признаком независимости, а именно – город Лозанна (Швейцария).

Апелляционный процесс в рамках спортивного арбитража представляет собой деление на следующие виды процедур:

- общая (когда речь идет о нарушении контрактных отношений);

- апелляционная (для оспаривания дисциплинарных решений международных федераций, ассоциаций или других спортивных сообществ).

Кроме того, в международной практике спортивного арбитража существует институт спортивного Омбудсмана – избираемого в соответствии с кодексом либо назначаемого должностного, лица который занимается урегулированием споров, связанных с недостатками в деятельности правительственных органов и частных организаций в сфере спорта. Обращение к омбудсмену возможно к принятию на рассмотрение только в случае исчерпания всех иных средств спортивного правосудия. К примеру, в Германии спортивным омбудсменом, ответственным за футбольную составляющую страны, является Dr. Carsten Thiel von Herff, LL.M.

### **Анализ результатов исследования**

Спортивно третейские (арбитражные) суды уже несколько десятков лет осуществляют свою работу во многих государствах для рассмотрения споров в области спорта, которые также обладают собственной независимостью. Как правило, на рассмотрение в данные инстанции передаются споры, которые тем или иным образом так и не были разрешены в собственных юрисдикциях.

#### *Россия*

Спортивный арбитраж при Торгово-промышленной палате Российской Федерации был образован в октябре 2003 года. Как отмечают представители секретариата арбитража, среди распространенных видов спорта, споры по которым рассматриваются в Спортивном арбитраже при Торгово-промышленной палате, это биатлон и синхронное плавание.

#### *Германия*

Уполномоченный национальный орган – Спортивный арбитраж при Немец-

кой арбитражной институции (*Deutsches Sportschiedsgericht bei der Deutschen Institution für Schiedsgerichtsbarkeit*). Данный орган осуществляет свою деятельность на основе Регламента Национального спортивного арбитража при Немецкой арбитражной институции (вступил в силу 1 января 2008 года). Для информации только в период 2012–2013 годы было рассмотрено 133 дела, касающиеся таких видов спорта, как: бокс, велоспорт, бейсбол, аэроспорт, легкая атлетика, триатлон, карате, водные лыжи, хоккей и другие.

#### *США*

В США Американская арбитражная ассоциация (*American Arbitration Association*) предоставляет, помимо прочего, услуги в области спортивного арбитража, причем как в области профессионального, так и в области любительского спорта. Арбитражная оговорка встречается в контрактах в сфере профессионального хоккея, футбола, баскетбола и бейсбола.

#### *Великобритания*

В Великобритании для разрешения разногласий в области спорта действует специально созданный для этого национальный спортивный третейский суд. Данный арбитражный институт был образован в 1997 году. В рамках статистической информированности стало известно, что только в период 2013–2014 годы в национальный спортивный третейский суд Великобритании было принято на рассмотрение около 200 жалоб.

#### **Выводы**

Проанализировав зарубежный опыт, следует отметить, что сфера спортивного арбитража достаточно широко развивается в передовых странах мира. Это в свою очередь говорит о том, что в этих

государствах спорт является неотъемлемой частью политики на самом высшем уровне. Соответственно, неслучайно вышеперечисленные страны на любых спортивных соревнованиях являются фаворитами во всех видах спорта.

Что касается положения дел в Узбекистане, несмотря на правовую базу, установленную в области спорта, в национальном законодательстве, на наш взгляд, отсутствует конкретный подход к вопросам спортивного арбитража в рамках защиты интересов спортивного сообщества Республики Узбекистан в международных арбитражных разбирательствах. Большинство аспектов регулируются общими коммерческими и гражданскими правилами. Несмотря на общий характер таких договорных отношений, специфика современного спорта часто требует специализированного подхода, ориентированного на отдельные аспекты спорта.

Исследования, посвященные особенностям разработки спортивных регламентов в Узбекистане, еще более ограничены. Правовые вопросы, связанные со спортом, в Узбекистане изучены недостаточно.

Учитывая все вышесказанное, следует отметить, что спортивный арбитраж в Узбекистане – новое, не изученное в достаточной степени явление. В этом смысле необходимо развивать эту сферу посредством принятия специализированных нормативно-правовых актов, совершенствования уже имеющейся базы и внедрения этих норм в спортивную практику. Также необходимо увеличить научные труды по данной тематике, изучив положительный зарубежный опыт, что также позволит расширить представление об изучаемом явлении.

## REFERENCES

1. International Sports Arbitration Board Code. Available at: <https://www.tas-cas.org/en/icas/code-icas-statutes.html/>.
2. Brilliantova A.M. Sportivnyy arbitrazh kak sposob rassmotreniya sporov v oblasti professional'nogo sporta (sravnitel'no-pravovoy aspekt) [Sports arbitration as a way of consideration of disputes in the field of professional sports (comparative-legal aspect)]. *Sport: Economy, Law, Management*, 2004, no. 2, p. 12.
3. Malatos A. Sportivnoye pravosudiye kak pravovoye ponyatiye [Sports justice as a legal concept]. *Review of Sports Law*, 2006, January-April, iss. 1, p. 30.
4. Beloff M., Kerr T., Demetriou M. *Sports Law*. Oxford, Hart, 1999.
5. Caiger A., Gardiner S. *Professional Sport in the EU: Regulation and Re-Regulation*. The Hague, Asser Press, 2000, pp. 301–303.
6. *Valparasio Law Review*, 2001.
7. Internet resource Tengrinews. Online publication. Available at: <https://tengrinews.kz/>.
8. Deutsche Welle (DW) is Germany's international broadcaster. Available at: <https://www.dw.com/>.
9. *Sports Arbitration and Private International Law*. Course of lectures. Available at: <https://mgimo.ru/>.
10. Arbitration and Mediation Center of the Chamber of Commerce and Industry of the Russian Federation. Available at: <http://sport.tpprf.ru/ru/>.
11. Legal Tribune Online. Available at: <http://www.dissportschiedsgericht.de/>.
12. An independent, not for profit, dispute resolution service for sport. Available at: <http://www.sportresolutions.co.uk/>.
13. Andreyeva V.V. K voprosu o ponyatii i priznakakh mezhdunarodnogo sportivnogo arbitrazha [On the issue of the concept and features of international sports arbitration]. *Legal Bulletin of Samara University*, 2016, vol. 2, no. 1, pp. 69–75.
14. Peshin N.L. O statute i yurisdiksii sportivnogo arbitrazhnogo suda v Lozanne. [On the status and jurisdiction of the Court of Arbitration for Sport in Lausanne]. *Journal of Foreign Legislation and Comparative Law*, no. 5, 2019, pp. 125–139.
15. Casini L. The Making of a Lex Sportiva by the Court of Arbitration for Sport. *German Law Journal*, 2011, no. 12 (5), pp. 1317–1340. DOI: 10.1017/S2071832200017326/.

UDC: 347.7(045)(575.1)

## INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINING BOJXONA NAZORATIDA “PARALLEL IMPORT” AMALIYOTI

**Almosova Shahnoza Sobirovna,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrası o'qituvchisi  
ORCID: 0000-0003-4505-5796  
e-mail: alshakhnoza18@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada intellektual mulk obyektlarining bojxona nazoratida kuzatiladigan “parallel import” hodisasi tushunchasiga berilgan turli ilmiy ta'riflar bilan birga uning xalqaro savdodagi ahamiyati, davlat iqtisodiy holatiga ta'siri, aholining xarid imkoniyatlarini kengaytirishi muhokama qilinib, intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq holatda parallel import masalalari ularning huquqiy muhofazasiga ta'sir ko'rsatadimi-yo'qmi, degan savollarga javob beriladi. Shu bilan bir qatorda, uni milliy qonunchilikda huquqiy tartibga solish masalalari hamda umumiy intellektual mulk huquqlari tizimidagi o'rni muhokama qilinadi. Intellektual mulk huquqlarining tugashi (exhaustion) rejimining ahamiyati, uning xalqaro shartnomalarda aks ettirilishi, jumladan, intellektual mulk bo'yicha xalqaro hujjatlar va JST doirasidagi TRIPS bitimida keltirilgan “parallel import”ga doir qoidalar, xalqaro, mintaqaviy va milliy huquqlar tugashi doktrinalari haqida ham batafsil ma'lumot beriladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida parallel import va huquqlar tugashi tartibi bilan bog'liq qonunchilikdagi muammolar sud amaliyoti (case study) orqali yoritiladi. Xulosa qismida O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligini takomillashtirish, parallel import bo'yicha sudlar va bojxona organlari amaliyotini muvofiqlashtirish yuzasidan mulohazalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** bojxona nazorati, TRIPS bitimi, parallel import, huquqlar tugashi tartibi, tovarlarning erkin harakati, intellektual mulk obyektlari huquqiy muhofazasi.

### ПРАКТИКА «ПАРАЛЛЕЛЬНОГО ИМПОРТА» ПРИ ТАМОЖЕННОМ КОНТРОЛЕ ОБЪЕКТОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ

**Алмосова Шахноза Собировна,**  
преподаватель кафедры «Международное право и права человека»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье, наряду с различными научными определениями явления «параллельный импорт», наблюдаемого при таможенном контроле объектов интеллектуальной собственности, его значение в международной торговле, его влияние на экономическое положение государства, расширение покупательских возможностей населения, обсуждаются вопросы параллельного импорта в случае объектов интеллектуальной собственности, даются ответы на вопросы о том, повлияет ли это на их правовую охрану или нет. Кроме того, обсуждаются вопросы его правового регулирования в национальном законодательстве и его места в системе общих прав интеллектуальной собственности. Подробно указано о важности режима исчерпания прав интеллектуальной собственности, его отражения в международных договорах, в том числе в международных документах по интеллектуальной собственности и положениях о «параллельном импорте», содержащихся в соглашении ТРИПС в рамках ВТО, доктринах об исчерпании международных, региональных и национальных прав. Кроме того, через

кейс освещаются юридические проблемы, связанные с параллельным импортом и порядком истечения срока действия прав в Республике Узбекистан. В заключении сделаны замечания по совершенствованию таможенного законодательства Республики Узбекистан, согласованию практики судов и таможенных органов по параллельному импорту.

**Ключевые слова:** таможенный контроль, соглашение ТРИПС, параллельный импорт, исчерпание прав, свободное перемещение товаров, правовая охрана объектов интеллектуальной собственности.

## THE PRACTICE OF “PARALLEL IMPORT” UNDER CUSTOMS CONTROL OF INTELLECTUAL PROPERTY OBJECTS

**Almosova Shakhnoza Sobirovna,**

Lecturer at the Department of International Law and Human Rights,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** In this article, along with various scientific definitions of the phenomenon of “parallel import” observed in the customs control of intellectual property objects, its importance in international trade, its impact on the state’s economic situation, the expansion of purchasing opportunities of the population, and the issues of parallel import in the case of intellectual property objects are discussed. Questions about whether it will affect the legal protection of intellectual property objects or not are answered. In addition, the issues of its legal regulation in the national legislation and its place in the system of general intellectual property rights are discussed. The importance of the exhaustion regime of intellectual property rights, its reflection in international agreements, including the international documents on intellectual property and the provisions on “parallel import” contained in the TRIPS agreement within the framework of the WTO, the doctrines of the exhaustion of international, regional and national rights are reviewed. In addition, legal problems related to parallel import and the procedure for exhaustion in the Republic of Uzbekistan are highlighted through a case study. In the conclusion, comments are made on improving the customs legislation of the Republic of Uzbekistan and coordinating the practice of courts and customs authorities on parallel import.

**Keywords:** customs control, TRIPS agreement, parallel import, exhaustion, price discrimination, free movement of goods, legal protection of intellectual property.

### Kirish

Parallel import yoki “kulrang bozor” deb ataladigan tushuncha bugungi global bozorda tobora muhim hodisaga aylanib bormoqda. “Qora bozor”dagi qalbaki mahsulotlardan farqli o‘laroq, kulrang bozor mahsulotlari, odatda, tovar belgisi (yoki mualliflik huquqi yoki patent) himoyasi ostida sotiladigan asl tovarlarni intellektual mulk egalaring ruxsatisiz bir hududdan ikkinchi hududga qonuniy tarzda olib kirishdan iborat. Parallel import xalqaro savdoning eng murakkab va jumboqli hodisalaridan biridir, chunki, bir tomondan, xalqaro savdoda tovarlarning erkin harakati muammosi va, ikkinchi tomondan,

intellektual mulk huquqlarini himoya qilish o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni kuzatish mumkin.

### Material va metodlar

Maqolada “parallel import”ni milliy qonunchilikda huquqiy tartibga solish masalalari hamda intellektual mulk huquqlarining tugashi (exhaustion) rejimi, uni qonunchilikda aks ettirish hamda qonunchilikda huquqlarining tugashi rejimining aniq shakliga ishora qilinmaganligi sababli O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi hamda sudlarning bu masalada kollizion pozitsiyasi huquqiy muammo sifatida o‘rganiladi. Shu bilan birga, bojxona qonunchiligini takomil-

lashtirish, parallel import bo'yicha sudlar va bojxona organlari amaliyotini muvofiqlashtirish yuzasidan mulohazalar keltiriladi.

Maqolada asosan Butunjahon intellektual mulk tashkiloti doirasida tuzilgan intellektual mulk huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlar, Jahon Savdo Tashkilotining TRIPS shartnomasi va Doha vazirlar konferensiyasi qarorlarida "parallel import" yoki huquqlar tugashi (exhaustion) bo'yicha keltirilgan normalar tahlil qilinishi bilan birga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va mavzuga daxldor amaliy materiallar tadqiqot manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz va chet davlatlar mutaxassis-olimlarining fikr-mulohazalari hamda xulosalari, shu jumladan, iqtisodiyot nazariyasi va intellektual mulk huquqi sohasiga oid qarashlari, shuningdek, mantiqiy, rasmiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy, empirik va qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan keng foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Parallel importning huquqiy asoslari na sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi, na boshqa intellektual mulk huquqlarini tartibga soluvchi yoki bojxona nazorati bo'yicha xalqaro shartnomalarda keltirilgan. Intellektual mulk sohasidagi eng muhim 1994-yilgi GATT/JST (Ta'riflar va savdo to'g'risidagi shartnoma) kelishuvi paketi ichida tuzilgan Intellektual mulk huquqlarining savdoga oid jihatlari to'g'risidagi bitim – TRIPS (Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights – JSTning Intellektual mulk huquqlarining savdoga oid jihatlari to'g'risidagi bitimi. To'liq matni bilan [https://www.wto.org/english/tratop\\_e/trips\\_e/trips\\_e.htm](https://www.wto.org/english/tratop_e/trips_e/trips_e.htm) orqali tanishish mumkin) intellektual mulk huquqlarining barcha jihatlari qamrab olgan shartnoma bo'lgani sababli parallel import masalasini ham o'z ichiga olishi kutilgandi. Shunga qaramay, parallel import GATT tomonidan qo'llab-quvvatlangan xalqaro erkin savdo maqsadiga, haqiqatan ham, mos kelishi e'tirof etilgan bo'lsa-da, umuman olganda, parallel importga ruxsat berish

to'g'risida kelishuvga erishib bo'lmadi. Ammo ushbu bitimning 6-moddasi, bitim bo'yicha nizolarni hal qilish maqsadlarida intellektual mulk huquqlarining tugashi masalasida davlatlar qanday pozitsiyada bo'lishidan qat'i nazar, bu borada hech qanday shikoyat eshiltimasligini nazarda tutadi. Bundan kelib chiqadiki, TRIPS bitimi o'z moslashuvchan normalari orqali bu hodisaga ruxsat beradi. Keyinchalik, 2001-yilda Qatarining Doha shahrida JSTning IV Vazirlar Konferensiyasida qabul qilingan "TRIPS shartnomasi va jamoat salomatligi to'g'risida"gi Deklaratsiyada intellektual mulk huquqlarining tugatilishi bilan bog'liq bo'lgan TRIPS kelishuvining qoidalari ni tatbiq etishda, har bir a'zo davlatga bunday tugatish uchun o'z rejimini o'rnatishda erkinlik berilishi nazarda tutiladi.

Parallel import hodisasi huquqlar tugashi (ingliz tilida – exhaustion) doktrinasining tabiiy natijasidir. "Intellektual mulk huquqlarining tugashi" deganda huquq egalari muhofaza qilingan tovarlarni qayta sotish ustidan nazorat qilish huquqini yo'qotadi. "Huquqlar tugashi prinsipi" yoki "birinchi sotish doktrinasini" asosida yotadigan mazmun shundaki, patentlar (yoki mualliflik huquqlari yoki tovar belgilari) bilan himoyalangan mahsulot sotilganda, intellektual mulk egasi ushbu mahsulotga bo'lgan mulkiy huquqlaridan voz kechganligi uchun adolatli haq oladi. Shunday qilib, bu huquqlar birinchi sotuv vaqtida "tugatiladi" [1]. Boshqacha aytganda, huquqlar tugashi doktrinasini "patent egasining ushbu mahsulotni o'z roziligi bilan shartsiz sotilganidan keyin patentlangan mahsulotdan bundan keyin haq olish, nazorat qilish yoki qaytarib olish huquqi"ni cheklaydi. Shunday qilib, intellektual mulk huquqlari zamonaviy va samarali to'siqlarsiz savdo tizimini asossiz ravishda buzmaydi hamda tovarlar shartnomaviy cheklovlar va huquqlarni o'tkazish bo'yicha cheklovlar labirintiga tushib qolmaydi [2].

Yuqorida aytib o'tganimizdek, TRIPS 6-moddasi JSTga a'zo mamlakatlarga milliy, mintaqaviy yoki xalqaro darajada huquqlar-

ning tugash tartiblarini tanlashda erkinlik beradi. Ya'ni TRIPS kelishuvi a'zo davlatlarga intellektual mulk huquqlari "tugashi" bo'yicha o'z qonunlari va qoidalarini yaratish hamda amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi. Umumiy amaliyot nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, huquqlar tugashi doktrinasi bo'yicha huquqlar:

a) milliy huquqlar tugashi tartibi (tovarga bo'lgan intellektual mulk huquqlari mulk huquq egasi yoki uning qonuniy vakili tomonidan ushbu hududiy yurisdiksiyada himoyalangan tovarning mamlakat ichida "birinchi sotilishi"ga qadar amal qiladi);

b) mintaqaviy huquqlar tugashi tartibi (tovarga bo'lgan intellektual mulk huquqlari mulk huquq egasi yoki uning qonuniy vakili tomonidan ma'lum bir mintaqaning har qanday hududida tovarning "birinchi sotilishi"ga qadar amal qiladi);

d) xalqaro huquqlar tugashi tartibiga (tovarga bo'lgan intellektual mulk huquqlari mulk huquq egasi yoki uning qonuniy vakili tomonidan tovarning dunyoning istalgan yerida "birinchi sotilishi"ga qadar amal qiladi) bo'linishi nazarda tutilgan va bu bo'linish davlatlar tomonidan qabul qilinishi hamda bu bo'yicha qaror JSTning nizolarni hal qilish tizimida shubha ostiga olinmasligi mumkin.

Ushbu tizim Yevropa Sudi (European Court of Justice – ECJ) yurisprudensiyasida paydo bo'ldi. U 1970-yillarning boshida "Deutsche Grammophon Gesellschaft mbH v. Metro-SB-Grossmarkte" ishida birinchi marta huquqlar tugashi tamoyilini qo'llagan. ECJ milliy huquqlar tugashi tartibi "milliy bozorlarni yagona bozorga birlashtirish"ga qaratilgan Rim shartnomasiga zid keladi, deb hisobladi. U hamjamiyat ichida huquqlar tugashi (Community exhaustion) konsepsiyasini qo'llaydi; sud, agar ruxsat etilgan birinchi savdo intellektual mulk egasining roziligi bilan amalga oshirilgan bo'lsa, bunday sotish holati uning mutlaq huquqlarini saqlab qolish uchun ahamiyatli bo'lmaydi, deb hisobladi. Agar huquqlar tugashi milliy darajada deb hisoblansa, u ishlab chiqaruvchilarga umumiy

bozorni bo'lishga imkon beradi. Bu esa Yevropa hamjamiyati shartnomasi maqsadlariga to'g'ri kelmaydigan davlatlararo savdoni cheklaydi.

Yevropa sudi, agar tovar belgisi egalari tovarlarning erkin harakatlanishiga to'sqinlik qilsa, Yevropa bozoriga integratsiyalashuv maqsadiga to'sqinlik qilishini darhol tan oldi va o'sha dastlabki bosqichda bunday harakatlarga yo'l qo'ymaslik uchun raqobat qonunchiligi tamoyillariga murojaat qildi. Keyinchalik ECJ ushbu mavzu bo'yicha o'z yurisprudensiyasini shakllantirdi. Yevropa hamjamiyati shartnomasida miqdoriy cheklovlar va ekvivalent ta'sirga ega bo'lgan choralarini taqiqlash asosida "hamjamiyat ichidagi huquqlar tugashi doktrinasi"ni ishlab chiqdi.

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Biroq intellektual mulk huquqlari bilan himoyalangan tovarlarning ma'lum bir a'zo davlatga huquq egasining ruxsatisiz olib kirilishining huquq egasi tomonidan sudga murojaat qilish orqali oldini olish mumkinmi yoki yo'qmi, degan masala a'zo davlat qonunlariga bog'liq. Agar a'zo davlat intellektual mulk huquqlarining milliy ravishda tugatilishi tartibini qabul qilgan bo'lsa, huquq egasi yoki uning qonuniy vakili parallel importning oldini olishi mumkin, chunki uning mutlaq huquqlari himoyalangan tovarning ushbu davlatdagi "birinchi sotilishi"ga qadar amal qiladi. Masalan, AQSh milliy huquqlar tugashi tizimini qo'llagan holda parallel import bo'yicha qattiq nazorat olib boradi. Xalqaro huquqlar tugashi tartibini tanlagan davlatlarda esa parallel importni to'xtatib bo'lmaydi, chunki himoyalangan tovar dunyoning istalgan nuqtasida "birinchi marta" sotilganda, huquq egasining intellektual mulk huquqlari tugaydi. Buni Hindiston amaliyoti misolida ko'rish mumkin.

Mintaqaviy huquqlar tugashi tartibining eng yorqin misoli sifatida Yevropa Ittifoqidagi "exhaustion" tizimini keltirish mumkin. Unga ko'ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga ittifoq tashqarisidan parallel import taqiqlanadi, lekin Ittifoq ichida ruxsat etiladi. Shuni



ta'kidlash kerakki, Shimoliy Amerika erkin savdo bitimi (NAFTA) yoki Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay o'rtasida Janubiy konusning umumiy bozorini (MERCOSUR) tashkil etish to'g'risidagi Asunciun shartnomasi kabi boshqa mintaqaviy savdo bitimlarida huquqlar tugashi muammolari va parallel import bilan bog'liq maxsus qoidalar yo'q.

O'zbekistonda ushbu hodisa bilan bog'liq vaziyatga e'tibor qaratadigan bo'lsak, parallel import tushunchasi milliy qonunchiligimizda o'z aksini topmaganligi, shu bilan birga, bu sohada davlatimizning tajribasini yoritib beruvchi ilmiy izlanishlar yo'qligi ko'zga tashlanadi. Muammoning birinchi tomoni – tushunchaning qonunchilikda ifodalanishi haqida gapirganda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1107<sup>1</sup>-moddasi va "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26-moddasida mutlaq huquqlar tugashi tartibi mavjud bo'lib, unda "Ushbu tovar belgisidan fuqarolik muomalasiga bevosita tovar belgisi egasi yoki uning roziligi bilan qonuniy ravishda kiritilgan tovarlarga nisbatan boshqa shaxslar tomonidan foydalanish tovar belgisiga bo'lgan mutlaq huquqning buzilishi hisoblanmaydi" deb bevosita keltirilgan. Ammo modda matni to'g'ridan to'g'ri parallel importga ishora qilmaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Bojxona kodeksining 56-bobi aynan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilishga bag'ishlangan bo'lsa-da, bu kodeks ham parallel import masalasini tartibga solmaydi (garchi 2019-yil 17-avgustda muhokamaga qo'yilgan yangi Bojxona kodeksi tahriri parallel import tushunchasiga ta'rif va bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida Bojxona reestriga kiritilgan intellektual mulk obyektlari huquqlarini himoya qilish choralarini ko'rishda parallel importni istisno qilishlari haqida bevosita keltirilgan bo'lsa-da, amaldagi bojxona qonunchiligi parallel import fenomenini o'zida aks ettirmaydi).

Parallel import bilan bog'liq yana bir muammo – huquqlar tugashi tartibining aniq belgilanmaganligi va bu vakolatli organlar faoliyatida ma'lum bir qiyinchiliklarga sabab bo'layotganligidir. Bunga misol sifatida "Medtronic Inc" va "Tiva Medical" ishini keltirish mumkin. "Medtronic Inc" va "Tiva Medical" MCHJ ishi bo'yicha sud da'vogarning javobgar tomonidan "Medtronic" tovar belgisi ostidagi tovarlarini fuqarolik muomalasiga kiritishini noqonuniy deb topish va "Tiva Medical" MCHJga "Medtronic" tovar belgisiga bo'lgan huquqlarni buzish orqali olib kirilgan mahsulotlarni reeksport bojxona rejimiga rasmiylashtirish yoki yo'q qilish majburiyatini yuklash borasidagi da'volarini rad etdi va huquqlar tugashi tartibining milliy darajada ekanligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining pozitsiyasini asossiz deb ta'kidladi.

Yuqoridagi keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni moddalari mazmunidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida mutlaq huquqlar tugashining milliy tartibi belgilangan deb fikr yuritish imkonini beradi, sababi Fuqarolik kodeksi ham, amaldagi qonun hujjatlari ham mamlakat ichidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Ammo sud qonun hujjatlarida mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy ravishda fuqarolik muomalasiga kiritilishi kerakligi bo'yicha ko'rsatma mavjud emas deb hisobladi. Fuqarolik kodeksining 1107<sup>1</sup>-moddasi va "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26-moddasi ham ochiq ekanligi, ushbu moddalarga rasmiy sharh berilmagani sababli sud bu moddalar matni xalqaro huquqlar tugashi tartibini nazarda tutadi, degan xulosaga keldi. Ya'ni sud "Medtronic Inc"ning "Tiva Medical" MCHJ tomonidan O'zbekiston Respublikasiga im-

port qilinayotgan “Medtronic” tovar belgisi ostidagi tibbiy mahsulotlarga boʻlgan mutlaq huquqlari “Medtronic Inc” tomonidan ular dunyoning istalgan yeridagi “birinchi sotilishi”da tugaganligi va “Tiva Medical” MCHJ-ning bu mahsulotlarga boʻlgan erkin tasarruf etish huquqlari unga mahsulotni fuqarolik muomalasiga erkin kiritish huquqini beradi, deb qaror chiqardi.

Oʻzbekiston JSTga aʼzo boʻlish arafasida turgan davlat sifatida TRIPSning normalari ni oʻz qonunchiligiga tatbiq etish bilan bogʻliq jarayonlarda parallel import masalalarini ham inobatga olish va qonunlarimizdagi intellektual mulk obyektlarining bojxona nazorati bilan bogʻliq moddalarida ushbu tushunchani kiritish, bu boʻyicha mahalliy sudlarga tushuntirishlar berish maqsadga muvofiqdir [3].

Har xil turdagi huquqlar tugashi tartiblaridan kelib chiqadigan foyda va xarajatlar ni taʼkidlagan holda, koʻpchilik olimlar faqat xalqaro darajadagi huquqlar tugashi tartibi JSTning koʻp tomonlama savdo tizimi ruhi, qoidalari va maqsadlariga toʻla mos keladi va shuning uchun JSTning barcha mamlakatlari ga majburiyat sifatida yuklanishi kerakligini taʼkidlaydilar. Ular parallel import boʻyicha cheklovlarini savdodagi notarif toʻsiqlar (NTB – non-tariff barriers) shakllaridan biri deb hisoblashadi. Chunki ularning fikriga koʻra, yuqori darajadagi intellektual mulk huquqlari JSTning tovarlar erkin harakatini nazarda tutuvchi maqsadlariga zid [4]. Huquqlar tugashi doktrinasisiz, asl patent (yoki mualliflik huquqi yoki tovar belgisi) egasi intellektual mulk huquqlarini oʻzida mujassam etgan tovar yoki xizmatni “sotish”, “boshqa shaxsga oʻtkazish” yoki “foydalanish” ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi va shu bilan bunday tovar yoki xizmatni sotib olgan xaridorga uni qayta sotish yoki hatto undan “erkin foydalanish”ga toʻsquinlik qiladi, chunki bunday “qayta sotish” yoki “erkin foydalanish” huquq egasining mutlaq huquqlariga taʼsir qiladi.

Ammo, boshqa tomondan, parallel import intellektual mulk obyektlari muhofazasi

uchun baʼzi tahdidlar uygʻotadi. Chunki parallel import huquq egasining ruxsatisiz mahsulotlarni olib kirish imkonini berar ekan, bu orqali asl tovarlar kontrafakt tovarlar bilan adashtirib yuborilishi, mualliflik obyektlarining soxta variantlari mamlakatlar hududiga kirib kelishi ehtimolligi oshadi. Bundan tashqari, Edbert Seligshan Hormanning fikriga koʻra, parallel import amaliyotlari maʼlum hududlardagi tovarlar litsenziatlar tomonidan ushbu hududlar boʻyicha litsenziyaga ega boʻlgan boshqa hududlarga olib kirilishida yuzaga keladi va bu tovar import qilinadigan hududlardagi litsenziatlar uchun aniq yoʻqotishlarga olib keladi. Shu sababli parallel import faoliyati litsenziat tovar belgisi egasi bilan tuzilgan litsenziya shartnomasi boʻyicha oladigan mutlaq huquqlarga mos kelmaydi. Va nihoyat, olim parallel import amaliyotining oldini olish milliy yoki mintaqaviy huquqlar tugashi tartibini qoʻllash orqali amalga oshirilishi mumkinligini taʼkidlaydi [5].

Shunga qaramay, parallel import boʻyicha cheklovlar TRIPSning “xalqaro savdodagi toʻsiqlarni kamaytirish” siyosatining maqsadiga ochiqdan-ochiq zid kelmaydimi? Intellektual mulk huquqlarini taʼminlash boʻyicha chora-tadbirlar va tartiblarning oʻzi qonuniy savdoga toʻsiq boʻlib qolmaydimi, degan masalalar doimiy ilmiy jamoatchilik va amaliyotchilar orasida bahslarga sabab boʻlmoqda.

Parallel savdo boʻyicha amaliy maʼlumotlar kam, chunki xalqaro savdoning ushbu muhim, ammo bahsli jihati boʻyicha juda kam empirik tadqiqotlar oʻtkazilgan. Muammoni yanada murakkablashtiruvchi holat mavjud boʻlgan bir nechta tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarda kontekstida oʻtkazilgan va asosan parallel savdoga, ayniqsa taʼsirchan boʻlgan ishlab chiqaruvchilar, masalan, isteʼmolchilar orasida taniqli boʻlgan brendlar, kompakt disklar yoki farmatsevtika mahsulotlari bilan cheklangan [1]. Shu sababli parallel savdo oqimlarining umumiy yoʻnalishi va hajmi haqida aniq xulosalar chiqarish qiyin. Bundan tashqari, parallel savdoning taʼsiri boʻyicha mavjud da-

lillar odatda import qiluvchi mamlakatlardagi narxlar va intellektual mulk egalariining oladigan foydasiga to'g'ri keladi. Eksport qiluvchi mamlakatlardagi narxlarning ta'siri haqida hech qanday dalil yo'q.

Bundan tashqari, professor F. Abbott parallel importning joriy iqtisodiy modellari-da ikkita asosiy kamchilikni aniqlaydi. "Birinchidan, xalqaro kontekstda parallel import bo'yicha empirik tadqiqotlar juda kam va ko'p hollarda juda sayoz". Xalqaro intellektual mulk savdosi sohasini oqilona baholash uchun iqtisodchilarda yetarli ma'lumot yo'q, chunki importchilar parallel import to'g'risida hisobot bermaydilar, bojxona organlari ham bu bo'yicha ma'lumotlarni yig'maydi. Ikkinchidan, parallel importga turli yondashuvlarni modellashtirishga urinish bo'yicha tadqiqotlar haddan tashqari soddalashtirilgan taxminlarga asoslanadi. Shuning uchun ular haqiqiy dunyoning adekvat holatini aks ettirmaydi va "qaror qabul qilish uchun vosita sifatida" ishlatilmasligi kerak [6].

1980-yillarda Qo'shma Shtatlarga parallel import ham tovarlarning erkin harakati, ham narxlar orasidagi farqlar tufayli yuzaga kelgan va bu ikki omilning dolzarbligi shu vaqt oralig'ida bir nechta sud ishlarida tasdiqlangan. Mavjud empirik dalillardan shuni ishonch bilan aytish mumkinki, uzoq muddatli istiqbolda parallel import tovarlar narxining pasayishiga olib kelishi shart emas, balki iste'molchilarga ko'proq mahsulot variantlari va ishlab chiqaruvchilar uchun ko'proq brend ichidagi raqobat (shu orqali katta ehtimollik bilan narxlardagi pasayish)ni ta'minlaydi.

Parallel import va farmatsevtika mahsulotlarini olish imkoniyati o'rtasidagi munosabatlar ko'p yillar davomida intellektual mulk huquqlari va davlat siyosati maqsadlari atrofida munozaralarda markaziy masala bo'lib kelgan. So'nggi paytlarda butun dunyo bo'ylab rivojlanayotgan mamlakatlar duch kelgan OIV/OITS inqirozi aholi salomatligi sohasida parallel import o'ynashi mumkin bo'lgan rolga e'tiborni kuchaytirdi. Ko'pgina

kam rivojlangan mamlakatlar surunkali ARV (antiretrovirus) dorilar tanqisligiga duch kelmoqda va mavjud dori-darmonlarning haddan tashqari qimmat narxlari bilan kurashishlari kerak. Natijada rivojlanayotgan mamlakatlardagi millionlab odamlar ARV terapiyasi yoki rivojlanayotgan dunyoda keng tarqalgan kasalliklar uchun boshqa muhim dori vositalaridan foydalana olmaydi [7].

2020-yilda intellektual mulk huquqlarining iqtisodiy tahlili bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan G'arbiy Hindiston universiteti doktori Bryan Khan tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, iqtisodiy nuqtayi nazardan parallel import raqobatbardosh bozorlarni yaratish uchun yaxshi, chunki u monopol dori vositalarining narxlarini muvozanat darajasiga tenglashtiradi [8]. Doktor xalqaro huquqlar tugashi tartibi raqobatni qo'llab-quvvatlashi, umumiy dori vositalarini arzon bozorda (masalan, rivojlanayotgan mamlakat) sotib olish va ularni qimmat bozorda (masalan, rivojlangan mamlakat) qayta sotish mumkinligi, bu, haqiqatan ham, yuqori narx bozorida (rivojlangan mamlakat) raqobatni keltirib chiqarishini tushuntiradi, chunki intellektual mulk egalariining huquqlari tugadi va ular umumiy mahsulotlarning "parallel importi"ni to'xtata olmaydi. Shunday qilib, yuqori narx bozorida mahsulot narxi tushadi [9].

### Xulosalar

Parallel importning qonuniyligi Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasida qizg'in siyosiy munozaralarga sabab bo'layotgani ajablanarli hol emas. Ko'rinishidan, TRIPS kelishuvining 6-moddasida ko'zda tutilgan va Doha deklaratsiyasining 5(d)-bandida mustahkamlangan moslashuvchanliklar rivojlanayotgan mamlakatlarga aholi salomatligini himoya qilish va dori vositalaridan foydalanishni rag'batlantirish uchun muayyan huquqlar tugashi rejimlarini qo'llash imkonini beradi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar arzonroq dori-darmonlarni parallel ravishda olib kirishga ruxsat berish va milliy kasallik yukini

yengillashtirish uchun xalqaro huquqlar tugashi rejimiga tayanishni xohlashlari haqida dalillar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi ham rivojlanayotgan davlatlardan biri sifatida ushbu hodisaga befarq bo'lmasligi lozim. Parallel import qonunchiligimizda aniq o'z ifodasini topmog'i, davlat organlari va sudlar bu bo'yicha

yagona pozitsiyani o'zlarida shakllantirishlari talab etiladi. Parallel import fenomeni orqasida yotgan yutuqlar (iqtisodiy, xalq farovonligi, tovarlarning erkin harakati) hamda kamchiliklar (intellektual mulk egalarining mutlaq huquqlariga bo'ladigan tahdidlar) O'zbekiston kontekstida o'rganib chiqilishi dolzarb sanaladi.

## REFERENCES

1. Rai R.K., Jagannathan S. Parallel imports and unparallel laws: does the WTO need to harmonize the parallel import law? *Journal of World Trade*, 2012, vol. 46, no. 3, pp. 657–694.
2. Kobak J.B.Jr. Exhaustion of Intellectual Property Rights and International Trade. 5 *Global Econ.*, 2015, vol. 1, p. 13.
3. Almosova Sh. TRIPS bitimi normalarini O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk qonunchiligiga implementatsiya qilish muammolari [Problems of implementing the norms of the TRIPS agreement into the intellectual property legislation of the Republic of Uzbekistan]. *Lawyer Bulletin*, 2020, vol. 1, no. 3, pp. 63–71.
4. Bonadio E. Parallel imports in a global market: should a generalised international exhaustion be the next step? *European Intellectual Property Review*, 2021, vol. 33 (3), pp. 153–161.
5. Horman E. The exclusive rights of licensees in parallel import practices. *Yuridika*, 2021, no. 36, p. 57. DOI: 10.20473/ydk.v36i1.19378/.
6. Abbott F.M. First report (final) to the Committee on international trade law of the International law association on the subject of parallel importation. *Intl. Econ. L.*, 1998, no. 1, pp. 607, 632.
7. McKeith S. Pharmaceutical patents in developing nations: parallel importation and the doctrine of exhaustion. *African Journal of Legal Studies*, 2014, no. 6, pp. 287–314. DOI: 10.1163/17087384-12342030/.
8. Parallel Import – Dilution of Benefits for Intellectual Property Owners. Available at: <https://aiadr.world/2020/03/01/parallel-import-dilution-of-benefits-for-intellectual-property-owners/>.
9. Qodiraliyev S. Peculiarities of the introduction of modern information and communication technologies in the courts. *Conference Zone*, 2021, pp. 44–48.
10. To'rakulova N., Yuldashov A. Intellektual mulk huquqi himoya qilish mexanizmini takomillashtirishda xalqaro shartnomalarning o'rni va ahamiyati [The role and importance of international agreements in improving the mechanism of protection of intellectual property rights]. *Conferencea*, 2022, pp. 467–471.
11. Almosova Sh. Zashchita prav intellektual'noy sobstvennosti po Konstitutsii i gosudarstvennym programmam [Protection of intellectual property rights under the Constitution and state programs]. *Review of law sciences*, 2020, vol. 2, no. spec. iss., pp. 72–76.
12. Kinza F., Turdaliyev M.A. Understanding the social change and development in the "Third World": a book overview. *World Bulletin of Management and Law*, 2022, no. 6, pp. 1-2. Available at: <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/439/>.
13. Gafurova N., Babaev J. Review protecting the rights of the patient as a consumer of health services: International standards and national legislation. *Journal of Critical Reviews*, 2019, vol. 7, no. 1, p. 2020.
14. Faizulloev Sh.Zh. Creating a favorable legal framework to attract foreign investors-a comparative study of Uzbekistan, Kazakhstan and some developed countries. *Journal of Legal Studies*, 2021, spec. 3.
15. Almosova Sh. Domen nomlari va individuallashtirish vositalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ulardan foydalanishda muammoli holatlar tahlili [Analysis of the relationship between domain names and personalization tools and their use cases]. *Yurist Axborotnomasi – Legal Bulletin*, 2020, vol. 1, no. 6, pp. 81–85.

UDC: 341.9(045)(575.1)

## СУЩНОСТЬ ГИБРИДНЫХ ЮРИСДИКЦИЙ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ

**Турдиалиев Мухаммад Али Пулатжон угли,**  
преподаватель кафедры «Международное частное право»  
Ташкентского государственного юридического университета  
ORCID: 0000-0002-1969-6007  
e-mail: m.turdialiyev@tsul.uz

**Аннотация.** В статье анализируются вопросы классического определения смешанных юрисдикций. Сегодня на правовой карте мира существует несколько правовых систем, а именно: романо-германская правовая система, общее право, религиозное право и смешанные правовые системы. В этой статье анализируются смешанные правовые системы, то есть правовые системы, в которых две или более правовых систем работают совместно. Эта статья посвящена исследованию и сравнительному анализу смешанных правовых систем, раскрывает более широко тему классификации правовых систем, вопросы о том, может ли иметь место заимствование и каким образом, о качестве права, к которому приводит заимствование, о связи между гражданским правом и общим правом в европейском контексте и о важной роли языка в правовом развитии. Также в этой статье проанализирован зарубежный опыт по внедрению двухправовой системы в одном государстве на примере Лозанны, Гонконга, Квебека, Мальты и других регионов мира. В результате исследования автором было разработано несколько предложений и рекомендаций по внедрению английского права в Республике Узбекистан.

**Ключевые слова:** смешанные правовые системы, Legal dualism, смешанные юрисдикции, романо-германская правовая система, общее право, религиозное право, смешанные правовые системы, принцип двухправовой системы в одном государстве.

### GIBRID HUQUQ TIZIMINING MOHIYATI VA UNING QO'LLANISHI

**Turdialiyev Muhammad Ali Po'latjon o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Xalqaro xususiy huquq kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gibrud huquq tizimining mohiyati, klassik ta'rifi hamda qo'llanilishi tahlil qilingan. Bugungi kunda dunyoning huquqiy xaritasida bir nechta huquqiy tizimlar mavjud bo'lib, romano-german huquqiy tizimi, umumiy huquq, diniy huquq va aralash huquqiy tizimlar shular jumlasidan. Mazkur maqolada aralash huquqiy tizimlar, ya'ni ikki yoki undan ortiq huquqiy tizimlar birgalikda ishlaydigan huquqiy tizimlar o'rganilgan. Aralash huquqiy tizimlarni o'rganish huquqiy tizimlarni tasniflashning qiyosiy tahlili, romano-german huquqi va umumiy (ingliz) huquq tizimi o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishga bag'ishlangan. Shuningdek, umumiy huquq tizimi va uning ahamiyati, qiyosiy tahlil va huquqiy rivojlanishdagi muhim roli aks ettirilgan. Bundan tashqari, maqolada Lozanna, Gonkong, Kvebek, Malta kabi dunyoning bir qancha mamlakatlaridagi bir davlatda ikkita huquqiy tizimni joriy etish bo'yicha xorijiy tajriba tahlil qilingan. Ushbu tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ingliz qonunchiligini joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** aralash huquqiy tizimlar, Legal dualism, gibrid yurisdiksiyalar, romano-german huquq tizimi, umumiy huquq, diniy huquq, aralash huquqiy tizimlar, bitta davlatda ikkita huquqiy tizim prinsipi.

## THE ESSENCE OF HYBRID JURISDICTION AND ITS APPLICATION

**Turdialiev Muhammad Ali Pulatjon ugli,**

Lecturer at the Department of International Private Law,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** The article analyzes the issues of the classical definition of mixed jurisdictions. Today, there are several legal systems on the legal map of the world, namely the Romano-Germanic legal system, common law, religious law, and mixed legal systems. This article analyzes mixed legal systems, that is, legal systems in which two or more legal systems work together. This article is devoted to the fact that studies of mixed legal systems reveal broader comparative topics of classification of legal systems, whether and how borrowing can take place, the quality of law to which borrowing leads, the relationship between civil law and common law in the European context and the role that language can play an important role in comparative analysis and legal development. Foreign experience in the implementation of two legal systems in one state in Lausanne, Hong Kong, Quebec, Malta, and other countries of the world are also analysed in the article. As a result of these analyses, several proposals and recommendations were developed for the introduction of English law in the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** mixed legal systems, Legal dualism, mixed jurisdictions, Romano-Germanic legal system, common law, religious law, mixed legal systems, the principle of two legal systems in one state.

### Введение

Сегодня в мире принято считать, что существует пять правовых систем: гражданское право, общее право, обычное право, религиозное право и смешанные правовые системы. Смешанные правовые системы относятся к правовым системам, в которых две или более из вышеперечисленных правовых систем работают вместе. Правовые системы, как правило, являются «смешанными» в том смысле, что на них оказали влияние множество других систем.

Однако этот ярлык традиционно присваивается только тем системам, которые представляют собой смесь общего права и гражданской традиции. Эта статья посвящена исследованию смешанных правовых систем, раскрывает более широко сравнительные темы классификации правовых систем, попытке ответить на вопросы о том, может ли иметь место заимствование и каким образом, о качестве права, к которому приводит заимствование, о связи

между гражданским правом и общим правом в европейском контексте и о важной роли языка в сравнительном анализе и правовом развитии.

Сегодня в результате активного формирования международных частных отношений взаимодействие между системой общего права и романо-германской системой права получает дальнейшее развитие. В результате существование двух правовых систем в одной стране становится все более важным. И это указывает на *актуальность темы*.

*Основной целью* исследований является выявление правовых проблем, которые могут возникнуть при организации и внедрении гибридной правовой системы. Кроме того, разработан ряд предложений и рекомендаций по применению гибридной правовой системы в Республике Узбекистан.

### Литературный обзор

Согласно мнению доктора Уолтона, смешанные юрисдикции – это правовые

системы, в которых романо-германская традиция в некоторой степени проникнула англо-американским правом. Примем во внимание, что Робин Эванс-Джонс (почетный профессор юриспруденции в Университете Абердина, Шотландия) считает, что смешанные юрисдикции «применительно к современной Шотландии, являются правовой системой, которая в значительной степени демонстрирует характеристики как гражданской, так и английской традиций общего права. Немного о гибридности в юриспруденции. Определяемая таким образом правовая гибридность, очевидно, включает изучение смешанных правовых систем, западных или незападных, где различные истоки законов лежат в достаточно заметных и часто дискретных, идентифицируемых разделах. Эта категория уже довольно обширна, включая мою родную Луизиану, а также Мальту, Турцию и большую часть мира. Эти смешанные системы, включая некоторые довольно экзотические гибриды, часто были результатом западного политического экспансионизма и распространения его законов. Особенно благодаря колониализму западные законы вступили в контакт с многочисленными другими правовыми и нормативными традициями: азиатскими, индуистскими, исламскими, более широким спектром обычных традиций и т. д. Некоторые из этих традиций уже были сложными гибридами, но добавление западных законов – либо путем навязывания, либо путем заимствования в условиях западной гегемонии – еще больше усложнило нормативные пространства большей части мира».

Глобальным результатом стал ряд последовательных, закрытых, правовых традиций, которые являются как национальными, так и, по сути, паннациональными. Обширные юрисдикции, включая многие постколониальные государства, продолжают обращаться за руководством к ма-

теринским традициям. Хотя упрощенные таксономические классификации могут быть необходимы для педагогических и профессиональных целей, ошибочно и глубоко европоцентрично предполагать, например, что Индию лучше всего классифицировать как англо-американскую систему, или что Китай лучше всего классифицировать как принадлежащий к континентальным правовым традициям, не признавая практической важности различных контекстов (например, Челси и Калькутты) и наличие дополнительных, конкурирующих традиций, западных и незападных, в рамках закона и вне его (Castellucci 2012).

Большая часть исследований в области сравнительного правоведения за последнее столетие была сосредоточена на таксономии. Но дебаты о классификации мировых юрисдикций и меняющаяся терминология, используемая в этих дебатах, часто вызывали больше жара, чем света. Наиболее известным, возможно, является использование Рене Давидом концепции юридической «семьи». [1, с. 21]. Его схема была в значительной степени «дидактической», созданной для педагогических и разговорных целей. Он утверждал, что «установление ограниченного числа типов упрощает представление и облегчает понимание современных мировых законов» [1, с. 20]. Ни номенклатура Дэвида, ни ее критерии не были очень точными. Действительно, как и в названии его самой известной работы, он часто использовал слово «система» как синоним слова «семья».

Как ни странно, термин «система» также использовался в большей степени по отношению к конкретным правовым установлениям основных западных юрисдикций, особенно Англии, Франции, Германии и Соединенных Штатов. За немногими исключениями, большинство современных сравнительных исследований

придерживаются параллельного подхода [2]. В своем введении в сравнительное правоведение Конрад Цвейгарт и Генрих Кетц использовали во многом тот же метод. Пытаясь, как и Дэвид, выйти за рамки узкого внимания к правовым нормам, они использовали термин «юридический стиль», объясняя: «Следующие факторы, по-видимому, ... являются теми, которые имеют решающее значение для стиля правовой системы или правовой семьи: 1) его исторические предпосылки и развитие; 2) его преобладающий и характерный образ мышления в юридических вопросах; 3) особо отличительные учреждения; 4) вид юридических источников, которые он признает, и то, как он с ними обращается; 5) его идеология» [3].

Но обещание, как у Дэвида, так и у Цвейгерта и Кетца, либо классификационной ясности, либо глубокой контекстуализации законов в истории и культурах, которые их породили, в значительной степени осталось невыполненным [4].

Использование Джоном Генри Меррименом юридической «системы» и «традиции» несколько яснее. «Правовая система, – пишет он, – представляет собой действующий набор правовых институтов, процедур и правил» [5].

С другой стороны, правовая традиция – это «совокупность глубоко укоренившихся, исторически обусловленных взглядов на природу права, на роль права в обществе и государстве, на надлежащую организацию и функционирование правовой системы, а также на то, как создается или должно применяться право, изучаться, совершенствоваться и преподаваться». Правовая традиция связывает правовую систему с культурой, частичным выражением которой она является. Это ставит правовую систему в культурную перспективу [5].

Таким образом, традиция – это более богатое, более чувствительное к культу-

ре понятие, чем система. Последнее составлено в узком смысле, более или менее в русле позитивистской мысли. Для Мерримана и многих других отдельные правовые системы, совокупность идей и институтов, формирующих юрисдикцию, в разной степени воплощают общенациональные правовые традиции. Признавая, что «не существует такой вещи, как система гражданского права или система общего права», этот подход тем не менее остается очень грубым инструментом классификации [5]. И если она стремится найти то, что американские юристы-реалисты назвали «законом в контексте», она, возможно, не в состоянии оценить то, что Ойген Эрлих назвал «живым законом», официальные или неофициальные нормативные предписания, которые имеют смысл на практике [6].

#### **Материалы и методы**

Основным содержанием проводимого исследования является изучение функционирования двух правовых систем в одной стране и их влияния на правоотношения. А также анализ развития существующих международных частнопрововых норм с целью преодоления существующих проблем с внедрением двухправовой системы в одной стране.

В качестве применяемых методов выступают такие методы, как логический, историко-сравнительный, индукционно-дедуктивный, аналитический, сравнительно-правовой, статистический анализ данных, а также анализ международных договоров, конвенций, принятых в сфере международного частного права, которые сегодня широко применяются на международной арене, и специфика их применения.

#### **Результаты исследования**

Действительно, усилия юристов-компаративистов часто в значительной степени одномерны, подчеркивая предполагаемые нынешние различия между нацио-



нальными англо-американскими (общее право) и континентальными (гражданское или романо-германское право) правовыми традициями. Временные и социальные измерения, каждое из которых тесно связано с другим, игнорируются [7]. Основные подразделения сравнительного права возникают в результате внутренних попыток Запада дифференцировать свои национальные, общие правовые порядки после революционных изменений и колониальных авантюр VII–IX веков. Подчеркивая различия между своими основными традициями, сравнительное правоведение игнорирует сходства между ними, а также различия, присущие соответствующим традициям.

Возможно, что еще более важно, он остается глубоко евроцентричным. В нем не признаются более четкие, но туманные границы между законом и другими нормами в юрисдикциях по всему миру. Даже сегодня сравнительная наука часто предполагает существование сдержанных, овеществленных или чистых правовых систем с четкими стандартами, которые действуют как показатель, по которому можно судить о других правовых порядках. Какой бы ни была его педагогическая или разговорная полезность, такое «интеллектуальное копание в бумагах» искажает живую сложность и динамичное разнообразие правовых идей и институтов. Если таксономическое стремление понятно, правовая/нормативная гибридность является нормой как для западного прошлого, так и для глобального настоящего [8]. Если этот факт затрудняет работу по сравнению, этого нельзя избежать.

За последнее десятилетие П. Гленн сделал акцент на более сложном и всеобъемлющем понимании правовой традиции [9]. Подчеркивая связь с прошлым, присутствующим во всех правовых установлениях, он отождествляет такую традицию с «содержанием и потоком больших

объемов нормативной информации во времени и пространстве [10]. Действительно, рассматриваемые таким образом исторические и сравнительные исследования являются очень всеобъемлющими и экспансивными, охватывающими как государственное право, так и другие негосударственные нормы [11]. Он признает, что это сильно усложняет «таксономический проект» и популярную концепцию юридических семей: «Таксономия и правовые семьи имеют задачу или объективность разделения и различения, в то время как правовые традиции имеют задачу только поддерживать свои собственные формы нормативности. Обычно это включает в себя больше искусства, чем науки, больше попыток воздать должное, чем попыток построить и классифицировать системы» [12].

Понимаемые таким образом «правовые традиции» могут быть местными, региональными, национальными, панацональными или международными; они могут даже выходить за рамки правового гибридного к нормативному плюрализму в более общем плане [13]. Такой подход к правовой традиции также преследует нормативную цель: «Традиции имеют нечеткие границы; их можно идентифицировать только по отношению к другим традициям; они содержат в себе элементы оппозиции; они связаны друг с другом боковыми или перекрестными традициями, которые определяются иначе, чем критериями определения основной традиции. Говорить о традиции гражданского права или традиции общего права, или традиции исламского права – это не значит создавать точный, автономный и внутренне непротиворечивый объект. Таким образом, концепция традиции была бы эпистемологической концепцией, которая констатирует в том, что можно назвать эпистемологией примирения, в противоположность эпистемологии конфликта» [14].

Действительно, конкретно смешанные правовые системы наглядно иллюстрируют, как происходит это примирение.

Как и дебаты о правовых семьях и традициях, обсуждение смешанных юрисдикций или смешанных правовых систем является, как недавно написала Есин Эрючу, опасной и деликатной задачей [15]. Что касается сравнительного изучения в более общем плане, то эти дискуссии сосредоточены почти исключительно на законах государства. Как и в случае с использованием Гленном термина «традиция», многое можно получить, включив изучение неправовых норм. Как и в случае с юридическими «семьями», существуют проблемы как с терминологией, так и с таксономией. В современных исследованиях смешанные юрисдикции и смешанные правовые системы могут рассматриваться либо как (1) синонимы, либо как (2) различные термины, причем первые являются более узким подмножеством последних. [16]. На практике основное внимание уделяется в основном сочетаниям западных законов, особенно англо-американского и континентального, которые проявляются в относительно отдельных разделах. Так, традиционно термин «смешанный» используется только для описания относительно небольшой группы правовых систем или юрисдикций, которые были настолько сильно сформированы как традициями гражданского права, так и традициями общего права, что их нельзя с комфортом отнести ни к одной из них.

Такие «неэлегантные» термины, как «смешанные юрисдикции» и «смешанные правовые системы», являются «в основном исторической случайностью» [17]. И то, и другое зарезервировано для тех юрисдикций, которые содержат значительные и явно обособленные элементы различных общенациональных правовых традиций, вытекающих из конкретных политико-правовых систем, которые их

сформировали. Грубые классификации многих сравнительных исследований прошлого и настоящего – позитивистские, централистские, монистические – приводят к тому, что такие юрисдикции оказываются «в маргинальном и неопределенном положении» [17]. Фактически, как смешанные юрисдикции, так и смешанные правовые системы могут относиться к сочетанию: 1) англо-американского и континентального права в целом; 2) континентальных законов, наложенных позже на англо-американское право; 3) континентального частного права, объединенного с англо-американским публичным и уголовным правом. Эта путаница значительно усложняет как классификацию, так и коммуникацию [18]. Последние два определения также часто называют классическими смешанными юрисдикциями, хотя, как и другим используемым терминам, им едва исполнилось столетие.

Несколько лет назад В. Палмер добавил еще один термин, опубликовав книгу «Смешанные юрисдикции по всему миру: третья правовая семья» (2001) [19]. Уроженец Луизианы, он подчеркнул степень, в которой обсуждаемые конкретные системы – Израиль, Луизиана, Квебек, Филиппины, Пуэрто-Рико, Шотландия и Южная Африка – имеют «глубокое обобщаемое сходство» [20]. Каждый из них сочетал континентальное частное право с англо-американским правовым публичным и уголовным правом. Палмер предположил, что их можно рассматривать коллективно как особую «третью правовую семью» (между хорошо известными англо-американскими и континентальными семьями) и обобщить их опыт. Его расширенная семья насчитывает пятнадцать членов, включая, в дополнение к уже упомянутым юрисдикциям, Ботсвану, Лесото, Маврикий, Сент-Люсию, Сейшельские острова, Шри-Ланку, Свазиленд и Зим-

бабве [21]. Палмер также был движущей силой в создании Всемирного общества юристов смешанной юрисдикции в 2002 году. Благодаря своей учености, а также благодаря мероприятиям Общества и публичным выступлениям, он отвечает за создание значительного исследования и диалога на тему «третьей правовой семьи» и «правовой гибридности» в целом [24]. Действительно, в последнее десятилетие эта тема привлекла значительное внимание компаративистов [22]. Эти юрисдикции являются, по крайней мере так утверждалось, образцами для будущего столетия.

Как отмечалось, авторы также часто используют термин «смешанная правовая система» в более широком смысле, чтобы охватить любую правовую систему с явными и сдержанными элементами других традиций [29]. Например, в списке, подготовленном и размещенном в Интернете Университетом Оттавы, этот термин используется для обозначения различных сборников гражданского права, общего права, обычного права, мусульманского права и еврейского права [28]. Если этому не хватает точности, присущей более узким определениям, то оно имеет то преимущество, что включает неевропейские элементы. Явно сложные юрисдикции сами по себе не оказываются в маргинальном и неопределенном положении.

Однако даже они включены лишь в той мере, в какой они напоминают западные правовые модели, ориентированные на государство. В таких сочетаниях местные законы могут сохраняться, но западные традиции все еще доминируют, по крайней мере, теоретически, в «слабом» или «государственном правовом плюрализме», где эти другие правовые порядки сохраняются благодаря признанию государством [30]. За пределами Запада ни европейские смеси, ни различные, номинально отличные друг от друга западные право-

вые традиции, включая англо-американскую, континентальную и скандинавскую традиции, не казались бы сильно отличающимися друг от друга. Э. Эрчючу, турецкий юрист, преподающая в Шотландии, долгое время стремилась «расширить» исследования за пределы европейских смесей – до более экзотических гибридов [27]. Будучи известным компаративистом, она также особенно критически относится к подходу юридических семей к сравнительному правоведению.

Независимо от того, принимаете ли вы определение смешанной системы «стрелка» или «уайт», может оказаться трудным с какой-либо точностью определить, насколько смешанной должна быть система, чтобы соответствовать требованиям. Как отмечает И. Кастеллуччи, «необходим некоторый баланс, чтобы классификации были полезными... Слишком тонкая классификация не так уж полезна... Классификация, которая является слишком грубой и общей, также не является таковой, поскольку ее категории будут шире, чем необходимо для передачи желаемого объема информации» [30].

Неизбежно, субъективное решение определяет классификацию. У. Тетли писал: «В шутку можно было бы ... определить смешанную юрисдикцию как место, где происходят дебаты по этому вопросу» [34].

Но даже если мы остаемся на уровне правовой, а не нормативной гибридности, смешение или сложность является правилом как исторически, так и в современный период. Те современные системы, которые обозначаются как смешанные, являются просто наиболее явными, очевидными гибридами.

Все правовые системы мира в той или иной степени смешаны. Понимание этого факта позволяет нам видеть закон и его развитие такими, какие они есть на самом деле. По иронии судьбы, «смешанные»

юристы – те, кто работает в рамках смешанных систем или на их основе, могут быть наиболее осведомлены об этом факте и его последствиях [33]. В соответствии с этим пониманием Э. Эрьючу предложила модель «генеалогических древ», которая «рассматривает все правовые системы как смешанные и перекрывающиеся, открыто или скрыто, и группирует их в соответствии с пропорциональным сочетанием ингредиентов» [35].

Палмер также утверждает, что признание того, что гибридность является универсальным фактом, несомненно, потребует от нас пересмотра некоторых общепринятых взглядов и предубеждений в отношении смешанных систем, особенно взглядов на «классические» смешанные юрисдикции. Смешанные системы слишком долго находились в центре правовой эволюции, чтобы их можно было рассматривать как нечто необычное или странное. Они не могут быть одновременно и парадигмами, и париями. Полезная схема классификации должна начинаться с их центральной роли в качестве отправной точки.

Работа юристов-смешанников, историков права и некоторых компаративистов привела нас к признанию универсального факта правовой гибридности. Это само по себе является значительным событием. В нескольких статьях обсуждаются юридические гибриды, которые редко изучаются, но которые квалифицируются, что Эрьючу называет «необычными местами», которым есть чему поучиться в других, по-видимому, более чистых юрисдикциях [25].

Другие материалы исследуют не только плюрализм законов, правовых порядков, узнаваемых как таковые современными глазами, но и нормативный плюрализм. Хотя это составляет очень малую часть смешанной юридической науки, смешанные юристы снова здесь лидиру-

ют. Эрьючу утверждает, в соответствии с пониманием правовых традиций Гленна, что «сравнительное правоведение должно распространяться на нормы негосударственного права, гражданского права и обычного права, помня, что право является глобальным, национальным и локальным». В ее последнем отредактированном сборнике «Смешанные правовые системы на новых рубежах» она пишет, что «существующая и новая терминология, используемая при анализе отдельных случаев, должна быть уточнена, чтобы обеспечить работоспособную сетку для включения правовых явлений в объяснительные рамки. К новым сочетаниям, текущим сочетаниям и правовым системам переходного периода следует подходить с учетом достигнутого понимания» [30].

*Смешанные юрисдикции по Эсин Эрьючу [35]:*

1) смешанные юрисдикции, такие как Шотландия, где правовая система состоит из исторически различных элементов, но одних и тех же правовых институтов (своего рода «чаша для смешивания»);

2) юрисдикции, такие как Алжир, в которых как элементы правовой системы, так и правовые институты различны, отражая как социокультурные, так и культурно-правовые различия (уподобляются «салатнице»);

3) юрисдикции, такие как Зимбабве, где существует правовой дуализм или плюрализм, требующие правил внутреннего конфликта (сродни «тарелке для салата»);

4) юрисдикции, в которых составляющие правовые традиции смешались (как «пюре») либо из-за правовой и культурной близости (например, голландское право, смешивающее элементы французского, немецкого, голландского и римского права), либо из-за доминирующей колониальной державы или националь-

ной элиты, которая устраняет местные обычаи и заменяет это сложная правовая система, заимствованная из другой традиции (например, Турция, сочетающая элементы швейцарского, французского, немецкого и итальянского права).

*Элементы смеси:*

- римское право (системы, основанные на гражданском праве);
- традиция общего права (как общего права, так и правовых систем);
- религиозное право индуизма, буддизма, конфуцианства и ислама
- обычное право.

*Причина смешения правовых систем:* колонизация; повторное заселение; род занятий; расширение; объединение.

*Способы смешивания:* навязывание; приемная; навязанный прием; скоординированное параллельное развитие; инфляция закона; имитация закона; смесь гражданского права; традиция римского права; закон германских племен; голландская «элегантная» юриспруденция; каноническое право; обычное право (Заксеншпигель в Священной Римской империи / Съете Партидас в Кастилии); письменное/неписаное (некодифицированное) – реституция в общем праве против квази-деликтов в Луизиане и Квебеке.

### **Анализ результатов исследования**

#### *Зарубежный опыт гибридного права*

*Таиланд.* Таиланд никогда не был колонией, с конца XIX века в его современной структуре была настоящая смесь источников, таких как английские, немецкие, французские, швейцарские, японские и американские законы. Они находятся рядом с историческими источниками, существующими с 1283 года: правила из культуры и традиций коренных народов, обычного права и индуистской юриспруденции все еще можно найти в некоторых современных нормативных актах. Кроме того, тайские кодексы были первоначально

но составлены на английском и французском языках и впоследствии переведены на тайский. Современная структура Таиланда была сформирована из многих источников, и сегодняшняя правовая система все еще сталкивается с проблемами перевода и коннотации.

*Малайзия.* Сначала существовало «туземное» право коренных жителей, которое до сих пор рассматривается судами как позитивное право. Затем появились слои пересаженного права: закон адата (ряд малайских обычаев), индуистские и буддийские законы, исламские, китайские, тайские законы, английская традиция общего права, окрашенная англо-индийскими кодексами и моделью США. В Юго-Восточной Азии есть и другие влияния: французские, голландские, немецкие, швейцарские, португальские и испанские гражданские традиции, американские, японские и советские законы.

*Мальта.* Здесь юридическая история началась с финикийского поселения и продолжилась римским завоеванием, принесшим *Corpus Iuris*. Затем вторглись норманны и принесли феодальное право, применявшееся в Испании, Неаполе и Сицилии. Вторжение мавров оказало непосредственное влияние на мальтийский язык. Суверенитет рыцарей Святого Иоанна признавал местный обычай и издавал декларации частного права, основанные на законах других стран, в основном итальянских. Потом пришли французы с их наполеоновскими законами. Наконец британцы ввели общее право. Итак, здесь, на Мальте, мы видим хороший пример эклектичного уголовного кодекса, разработанного под сильным итальянским влиянием, но с преобладанием английского и шотландского влияния, и коммерческого кодекса, в значительной степени основанного на французском, с морским правом, следующим английскому праву.

*Шотландия.* Обычное право шотландцев (различные нормы скандинавских, кельтских и германских племен). Влияние англо-нормандского права (имитация и вдохновение). Эпоха институциональных сочинений (добровольный прием). Влияние английского права после Акта Унии (1707) – постепенное принятие с признаками навязанного приема (например, закон об измене) и объединения. Шотландское право было разделено на четыре периода: а) феодальный период, простирающийся от битвы при Кархеме, установившей нынешние границы Шотландии в 1018 году, до смерти короля Роберта Брюса в 1329 году; б) «темный век» до 1532 года, когда был учрежден Сессионный суд; в) римский период с 1532 года до Наполеоновских войн, когда произошло великое принятие римского права; г) в современный период сказалось влияние английского права, которому Союз парламентов в 1707 году придал авторитет, а также учреждение Палаты лордов в качестве апелляционного суда последней инстанции Шотландии по гражданским делам.

*Южно-Африканская Республика.* Южно-Африканская Республика является смешанной юрисдикцией, правовая система которой отражает элементы как гражданского, так и общего права, а также обычного права африканских племен. Гражданское наследие – это «закон Романдутча», привезенный на мыс Доброй Надежды первыми голландскими поселенцами около 1652 года, когда колония, находившаяся тогда под управлением Голландской Ост-Индской компании, служила главным образом «пунктом отдыха» для голландских купцов и мореплавателей во время долгого путешествия между Нидерландами и Ост-Индией. Римско-голландское право продолжало развиваться после британской оккупации 1795 и 1806 годов и передачи

Кейптауна Британии в 1815 году, и было перенесено вооретрекеррами, начиная с 1830-х годов, на территории, позже известные как Трансвааль и Оранжевое свободное государство. Однако с течением XIX века английское право стало законодательно внедряться в Капскую колонию, включая принцип свободы завещания, а также в коммерческой и корпоративной сферах, страховании, несостоятельности, конституционных, административных и уголовных вопросах. После Англо-бурской войны (1899–1902) и создания Южно-Африканского союза (1910) английское и романское право были в значительной степени объединены в единую систему, во многом благодаря влиянию лорда Де Вильерса, главного судьи Капской колонии, а затем Союза в течение 41 года, чью работу продолжил главный судья Дж.Р. Иннес, занимавший этот пост с 1914 по 1927 годы. Впоследствии Апелляционный отдел пережил период «пуризма», связанный с пребыванием Л.С. Стейна, который был главным судьей с 1959 по 1971 годы, в ходе него была предпринята попытка очистить римско-голландское право от английских наслоений. Пуризм ассоциировался с господством апартеида.

В новой Южно-Африканской Республике, где отсутствуют южноафриканское законодательство и прецеденты, римско-голландским и английским источникам придается примерно равный вес, что является своего рода прагматизмом. Существует значительное уважение как к институциональным авторам, так и к более поздним авторам римско-голландского права (гражданская черта), смешанное с представлением о судебном прецеденте как об очень важном (характеристика общего права). Также признается обычное право Африки (право коренных народов), которое в соответствии с Конституцией должно применяться там, где это приме-

нимо, с учетом Конституции и любого соответствующего законодательства.

*Квебек.* До Парижского договора 1763 года, по которому Новая Франция была передана Великобритании, территория, в настоящее время образующая канадскую провинцию Квебек, как часть Новой Франции (обычно называемая ее жителями «Ле Канада»), имела частное право, в основном регулируемое Парижским кутумом (Обычаем Парижа). Это обычное право, впервые изложенное в письменной форме во Франции в 1580 году, применялось в городе Париже и прилегающей провинции Иль-де-Франс и находилось в ведении парламента Парижа в судебном порядке. Кутум был введен в Новой Франции эдиктами короля Людовика XIV от апреля 1663 года и мая 1664 года. Однако, поскольку оно было направлено в первую очередь на права на недвижимое имущество (в частности, феодальные права сеньориальной собственности), а не на право физических лиц, Парижский кутум был дополнен в последнем отношении римским правом, систематизированным и сформулированным в доктринальных трудах выдающихся французских ученых-юристов, особенно Потье (1669–1772) и Доматом (1625–1696), а также Каноническим правом, установленным Римско-католической церковью. Третьим основным источником частного права в Новой Франции были королевские указы, включая Ордонанс гражданского процесса (1667), Ордонанс торговли (1673) и Ордонанс морской пехоты (1681). На последнем месте оказались правила поведения, обнародованные местным государственным советом (местный руководящий совет, состоящий из губернатора, епископа и интенданта) по различным вопросам, таким как сельское хозяйство, здравоохранение и предотвращение пожаров.

*Луизиана.* Луизиана впервые подверглась французским эдиктам, постановле-

ниям и обычаям Парижа в соответствии с хартиями, выданными компаниям купцов-авантюристов в 1712 и 1717 годах, законы которых оставались в силе, когда территория стала королевской колонией в 1731 году. После передачи Луизианы Испании в 1763 году французские законы оставались в силе до 1769 года, когда они были официально заменены испанскими законами и институтами, включая Новую конституцию Кастилии (1567) и Конституцию Лейес-де-лос-Рейнос-де-лас-Индиас (пересмотр основных правовых текстов до 1680 года) и за неимением конкретного правила – в более позднем постановлении *Siete Partidas* (сборник законов, основанный на компиляции Юстиниана и доктрине глоссаторов, составленный при короле Альфонсо X в 1265 году и официально принятый при короле Альфонсо XI в 1348 году). После возвращения территории Франции в 1800 году испанское законодательство продолжало действовать, поскольку Франция приняла суверенитет всего на двадцать дней в 1803 году, прежде чем Соединенные Штаты вступили во владение Луизианой 20 декабря того же года.

Сборник 1808 года был в значительной степени вдохновлен революционными идеями Франции, почерпнутыми из Французского гражданского кодекса 1804 года и подготовительных работ к нему, примерно 70 % из его 2156 статей основаны на этих источниках. Остальная часть текста была заимствована из испанского законодательства и институтов, нормы которых были сохранены в случае противоречия с положениями, вдохновленными Францией. Сохранялась путаница в отношении того, какие конкретные законы применяются в Луизиане. В связи с этим законодательный орган поручил другому комитету пересмотреть гражданский кодекс и добавить в него любые недостающие законы,

которые, как было установлено, все еще действуют.

Результатом стал Гражданский кодекс Луизианы 1825 года, который был очень похож на Гражданский кодекс Франции, большинство из его 3522 статей имели точный эквивалент в этом кодексе. Он был разработан, чтобы заменить все ранее существовавшие законы, хотя суды отказались придать ему достаточно широкий эффект, который был задуман. Кодексы 1808 и 1825 годов были составлены на французском языке и переведены на английский, после чего они были опубликованы на обоих языках, причем обе версии были официальными. Вступающий в силу закон Кодекса 1808 года требовал ознакомления с обеими языковыми версиями в случае двусмысленности какого-либо положения. С другой стороны, Кодекс 1825 года был просто опубликован как на французском, так и на английском языках, без какого-либо положения в его статуте, позволяющего разрешать конфликты. Однако поскольку французский текст был оригиналом и было известно, что в переводе есть ошибки, французская версия стала рассматриваться как контрольная.

### **Выводы**

Переход как к официальному, так и к неофициальному законодательству, конечно, значительно усложняет работу по сравнительному правоведению, вовлекая компаративистов в дебаты, которых они обычно избегают и к которым они, возможно, плохо подготовлены. Их просят перейти к анализу того, что мы могли бы назвать «сравнительным живым правом», значимого сохранения нормативного или «сильного» правового плюрализма, в котором законы и нормы сосуществуют. Действительно, хотя Палмер признал достоинства этого «фактического подхода» к изучению правовых и негосударствен-

ных норм, у него есть серьезные опасения по поводу последствий для сравнительной классификации.

Признавая эти трудности, повсеместное распространение гибридности имеет важные последствия как для сравнительного правоведения, так и для теории права. Наиболее очевидно, что это бросает вызов правовому национализму, позитивизму, централизму и монизму. Непосредственно для сравнительного анализа это подрывает разделение множественных и динамичных традиций на отдельные, закрытые правовые семьи или системы формального права. Если изучению гибридности – как «закона в контексте», так и «живого закона» – не хватает очевидной полезности «таксономического импульса», это может позволить нам создать более точные и полезные общие описания законов и норм разных мест и времен. Как выразился И. Кастеллуччи, в своем вкладе в эту коллекцию, возможно, лучше всего «сначала исследовать, а потом классифицировать».

Таким образом, разными способами различные авторы стремились:

1. Рассмотреть более разнообразные смешанные правовые системы, чем европейские гибриды, которые доминируют в сравнительной и смешанной науке.

2. Разработать разумный, последовательный подход к размещению государственного права в рамках более широких нормативных порядков. Мы могли бы назвать это изучением «гибридных правовых традиций».

Однако это делается не для того, чтобы создать новую концептуальную категорию, а для того, чтобы привлечь внимание ученых к сложности данного вопроса. В конце концов, все правовые и нормативные традиции являются гибридами.



## REFERENCES

1. David R., Brierley J.E.C. Major Legal Systems in the World. 3rd ed. London, Stevens & Sons, 1985, p. 21.
2. Husa J. Legal Families. Ed. J.M. Smits. Elgar Encyclopedia of Comparative Law, Cheltenham, Edward Elgar Publishing, 2006.
3. Zweigert K., Kötz H. An Introduction to Comparative Law. 3rd ed. Oxford, Oxford University Press, 1998, p. 68.
4. Jaakko C. Husa's claim that the idea of 'legal family automatically contains an idea of historical relationship between different systems of law. *Legal Families and Research in Comparative Law*, 2001, no. 1, p. 3. Global Juri 13. Available at: <http://www.bepress.com/gj/advances/vol1/iss3/art4/> (accessed 04.10.2022).
5. Merryman J.H., Pérez-Perdomo R. The Civil Law Tradition: an Introduction to the Legal Systems of Europe and Latin America. 3rd ed. Stanford, Stanford University Press, 2007, no. 1.
6. Nelken D. Law in Action or Living Law? *Back to the Beginning in Sociology of Law*, 1984, no. 4, Legal Studies 157, p. 169.
7. Menski W. Comparative Law in a Global Context: the Legal Systems of Asia and Africa. 2nd ed. Cambridge, Cambridge University Press, 2006.
8. Burke P. Cultural Hybridity. Cambridge, Polity Press, 2009, p. 54.
9. Legal Traditions of the World. 4th ed. Oxford, Oxford University Press, 2010.
10. Glenn P. A Concept of Legal Tradition. *Queen's Law Journal*, 2008, vol. 34, pp. 427, 431.
11. Glenn P. Legal Families and Traditions. Eds. M. Reimann, R. Zimmermann. The Oxford Handbook of Comparative Law, Oxford, Oxford University Press, 2006, p. 425-426, 438-440.
12. Twining W. Normative and Legal Pluralism: a Global Perspective. *Duke Journal of Comparative & International Law*, 2010, p. 473.
13. Glenn P. Legal Cultures and Legal Traditions. The Oxford Handbook of Comparative Law, Oxford, Oxford University Press, 2006, no. 12, pp. 19-20.
14. Glenn P. Mixing It Up 2003. *Tulane Law Review*, vol. 78, pp. 79, 81.
15. Glenn P. Are Legal Traditions Incommensurable? *American Journal of Comparative Law*, 2001, no. 49, p. 133.
16. Visser D. Cultural Forces in the Making of Mixed Legal Systems. *Tulane Law Review*, 2003, no. 78, p. 41.
17. Özücü E. What is a Mixed Legal System: Exclusion or Expansion? Mixed Legal Systems at New Frontiers, London, Wildy, Simmonds & Hill Publishing, 2010, vol. 1.
18. Reid K.G.C. The Idea of Mixed Legal Systems. *Tulane Law Review*, 2003, no. 78, p. 5.
19. Du Plessis J. Comparative Law and the Study of Mixed Legal Systems. Eds. M. Reimann, R. Zimmermann, The Oxford Handbook of Comparative Law, 14, p. 478.
20. Palmer V. Mixed Jurisdictions. Ed. J. Smits. Elgar Encyclopedia of Comparative Law, p. 467.
21. Moccia L. Historical Overview on the Origins and Attitudes of Comparative Law. Eds. B. de Witte, C. Forder. The Common Law of Europe and the Future of Legal Education, Deventer, Kluwer, 1992, p. 619.
22. Ganado J.M. Malta: Microcosm of International Influences. E. Özücü, et al. Studies in Legal Systems, Mixed and Mixing, The Hague, Kluwer International, 1996.
23. Goldstein S. Israel. Ed. V. Palmer. Mixed Jurisdictions Worldwide: the Third Legal Family, Cambridge, Cambridge University Press, 2001, pp. 448-468.
24. Palmer V. Two Rival Theories of Mixed Legal System. Ed. E. Özücü. Mixed Legal Systems at New Frontiers, pp. 19-52.
25. *Electronic Journal of Comparative Law*, 2008, no. 12. Available at: <http://www.ejcl.org/121/abs121-16.html/>.
26. Palmer V. Quebec and Her Sisters in the Third Legal Family. *McGill Law Journal*, 2009, no. 54, p. 321.

27. The First World Congress. Society generated, among other things. *Tulane Law Review*, 2003, no. 78, spec. iss.
28. *Electronic Journal of Comparative Law*. Available at: [www.ejcl.org/121/issue121.html/](http://www.ejcl.org/121/issue121.html/).
29. *Journal of Comparative Law*, 2008, no. 19.
30. Tulane European and Civil Law Forum. *Stellenbosch Law Review*, 2009, no. 25.
31. Smits J. The Making of European Private Law: Towards a *Ius Commune Europaeum* as a Mixed Legal System. Antwerp, Intersentia, 2002.
32. Smits J. Introduction: Mixed Legal Systems and European Private Law. Ed, J. Smits. The Contribution of Mixed Legal Systems to European Private Law, Antwerp, Intersentia, 2001.
33. Kötz H. The Value of Mixed Legal Systems. *Tulane Law Review*, 2003, no. 78, p. 435.
34. Baudouin J.-L. Mixed Jurisdictions: a Model for the XXIst century. *Louisiana Law Review*, 2003, no. 63, p. 983.
35. Generally Classification of Legal Systems and Corresponding Political Entities. Available at: [www.juriglobe.ca/eng/sysjuri/index-syst.php/](http://www.juriglobe.ca/eng/sysjuri/index-syst.php/).
36. Holbrook J.G. Legal Hybridity in the Philippines: Lessons in Legal Pluralism from Mindanao and the Sulu Archipelago. *Tulane Journal of International & Comparative Law*, 2010, no. 18, p. 1.
37. How Mixed must a Mixed System be? *Electronic Journal of Comparative Law*, 2008, no. 12, pp. 6-7. Available at: <http://www.ejcl.org/121/art121-4.pdf/>.
38. Tetley W. Mixed Jurisdictions: Common Law V. Civil Law (codified and uncoded). *Louisiana Law Review*, 2000, no. 60, pp. 677, 680.
39. Mcknight J. Some Historical Observations on Mixed Systems of Law. *Juridical Review (n.s.)*, 1977, no. 22, pp. 177, 186.
40. Özücü E. A General View of 'Legal Families' and of 'Mixing Systems'. Eds. E. Özücü, D. Nelken. *Comparative Law*, pp. 169-187.
41. De Cruz P. *Comparative Law in a Changing World*. 3rd ed. Abingdon, Routledge-Cavendish, 2007.
42. Hertogh M. A 'European' Conception of a Legal Consciousness: Rediscovering Eugen Ehrlich. *Journal of Law and Society*, 2004, no. 31, p. 457.
43. Özücü E. *Critical Comparative Law*. Devanter, Kluwer Publishers, 1999.
44. Mattei U. Three Patterns of Law: Taxonomy and Change in the World's Legal Systems, *American Journal of Comparative Law*, 1997, no. 45, p. 5.
45. Van Hoecke M., Warrington M. Legal Cultures, Legal Paradigms and Legal Doctrine: Towards a New Model for Comparative Law. *International and Comparative Law Quarterly*, 1998, no. 47, p. 495.
46. Glendon M.A. et al. *Comparative Legal Traditions: Text, Materials and Cases on Western Law*. 3rd ed. St. Paul, West Publishing, 2006, pp. 23-24.
47. Glenn P. *On Common Laws*. Oxford, Oxford University Press, 2005, vol. VIII.
48. Moccia L. Review of G. Gorla. *Il Diritto Comparato in Italia e nel 'Mondo Occidentale' e una Introduzione al 'Dialogo Civil Law-Common Law [Comparative Law in Italy and in the 'Western World' and an Introduction to the 'Civil Law-Common Law Dialogue]*. *American Journal of Comparative Law*, 1985, no. 33, pp. 533, 535.

UDC: 37(045)(575.1)

## MASOFAVIY TA'LIM – ZAMONAVIY AXBOROT JAMIYATIDA TA'LIMNING ISTIQBOLLI, GUMANISTIK VA INTEGRATSIYALASHGAN SHAKLI

**Mamataliyev To'liqin Xushmamat o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
ORCID:0000-0002-5935-7974  
e-mail: toliqinmamataliyev@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim olishda shaxsning asosiy huquqlari, masofaviy ta'lim tushunchasi, paydo bo'lish tarixi, zarurati, shuningdek, masofaviy ta'limning xalqaro doiradagi asoslari va bugungi kunda O'zbekistonda ushbu ta'lim shaklining ahamiyati va dolzarbligi, masofaviy ta'limning zamonaviy axborot jamiyatidagi o'rni, global masofaviy ta'lim bozori, oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish, masofaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritiladi. Barqaror huquqiy va moliyaviy bazani ta'minlash, xalqaro va milliy darajalarda innovatsiyalar va ijodkorlik, amaliyotga ta'sir ko'rsatish, shakllantirish hamda foydalanish, sifat masalalarini hal qilish, tenglik va muvaffaqiyat, o'zgaruvchan texnologiyalar, mehnat bozorlari, masofaviy ta'limning yirik transchegaraviy tadqiqotlari orqali olingan tajribalar masofaviy ta'limning strategik yo'nalishini belgilashda muhim omil bo'ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida masofaviy o'qitishni tashkil etish, ta'lim berishning yangi uslublaridan foydalanish, masofaviy ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish nihoyatda dolzarb masalalardan biridir. Muallif ushbu masalalarning huquqiy yechimini topishda masofaviy ta'limning me'yoriy-huquqiy bazalarini shakllantirishda sifat kafolatlariga alohida e'tibor berish kerak, degan qat'iy pozitsiyani ilgari suradi.

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, avtoproktoring, asinxron, sinxron, MOOCs, SPOCs, SMOCs, SSOCs.

### ДИСТАНЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК НАИБОЛЕЕ ПЕРСПЕКТИВНАЯ, ГУМАНИСТИЧЕСКАЯ И КОМПЛЕКСНАЯ ФОРМА ОБУЧЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

**Маматалиев Тулкин Хушмамат угли,**  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены основные права личности на образование, понятие дистанционного образования, история его возникновения, необходимость, а также основы дистанционного образования в международных рамках, обсуждаются роль, значение и актуальность данной формы обучения сегодня в Узбекистане, современном информационном обществе, проанализированы глобальный рынок дистанционного образования, организация дистанционного образования высшей школы, требования к дистанционному образованию. Обеспечение стабильной правовой и финансовой базы, инновации и креативность на

международном и национальном уровнях, опыт, полученный в результате практического использования дистанционных технологий, решения вопросов качества, справедливости и успеха, крупномасштабных трансграничных исследований по изменению рынков труда являются важными стратегическими направлениями дистанционного образования. Организация дистанционного образования с помощью современных информационных технологий, использование новых методов обучения, формирование организационно-правовых основ дистанционного образования является одним из наиболее актуальных вопросов. Автор выдвигает твердую позицию о том, что для нахождения правового решения данных вопросов особое внимание следует уделить обеспечению качества при формировании нормативно-правовой базы дистанционного образования.

**Ключевые слова:** дистанционное образование, автопрокторинг, асинхронный, синхронный, MOOCs, SPOCs, SMOCs, SSOCs.

## DISTANCE EDUCATION AS THE MOST PROMISING, HUMANISTIC AND COMPREHENSIVE FORM OF EDUCATION IN TODAY'S INFORMATION SOCIETY

**Mamataliyev Tulkin Xushmamat ugli,**  
Independent Researcher,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article discusses the basic human rights in education, the concept of distance education, the history of its emergence, the need for it and the fundamentals of distance education at the international level (scope) and the importance and relevance in Uzbekistan today, the role of distance education in the modern information community, the market of global distance education, the organization of distance education in tertiary educational institutions, and its requirements to follow. The experience gained through the provision of a stable legal and financial base, innovation and creativity at the International and national levels, impact on practice, formation and utilization, tackling quality issues, equality and success, changing technologies, labor markets, large cross-border researches on distance education will be important factors in determining the strategic direction of distance education. The organization of distance education with the aid of up-to-date information technologies, making the use of novel teaching methods and forming a legal and organizational basis for distance education is one of the most urgent issues to solve. The author puts forward a firm belief that when finding a legal resolution to these issues, special attention should be paid to quality guarantees in the formation of regulatory legal bases of distance education.

**Keywords:** distance learning, autoproctoring, asynchronous, synchronous, MOOCs, SPOCs, SMOCs, SSOCs.

### Kirish

Bugungi kunda bilimga asoslangan xizmat ko'rsatish sohalari va mehnat bozorida global o'zgarishlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda muntazam qayta va doimiy ravishda ta'lim olish, bilimlarni yangilab borishni shart qilib qo'ydi.

Zamonaviy axborot telekommunikatsiya texnologiyalari va aloqa vositalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi ta'lim jarayonlari sifatining sezilarli darajada ko'tarilishiga xizmat

qilmoqda. Ayni vaqtda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitishni tashkil etish ta'lim berishning yangi uslublaridan foydalanish nihoyatda dolzarb masalalardan biridir. Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'limga modul tizimini joriy qilish, zamonaviy axborot tizimlari yordamida masofaviy ta'lim hamda mustaqil ta'limning ilg'or usullarini qo'llash ta'lim sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-279-son qarori bilan davlat oliy ta'lim muassasalarida ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha masofaviy ta'lim shakli joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi F-60-son farmoyishining 1v-ilovasiga muvofiq 2022–2023-o'quv yilida davlat oliy ta'lim muassasalariga bakalavriatning masofaviy ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida respublika bo'yicha jami 3410 nafar talaba qabul qilinishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilgi murojaatnomasida 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilishni taklif etgani ijtimoiy davlat tamoyili asosida ta'lim sohasidagi islohotlar ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Masofaviy ta'limni amalga oshirish mexanizmini shakllantirish jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlarni kafolatlashda muhim omildir.

Shu sababli O'zbekistonda masofaviy ta'limni tashkil etishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni hal etish, masofaviy ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari, O'zbekistonda masofaviy ta'limga o'tishda OTMlarning funksiyalarini maxsus tadqiq etish dolzarbdir.

Mamlakatimizda X.T. Odilqoriyev, A.X. Saidov, I. Ismailov, A.A. Azizxo'jayev, U. Tojixo-

nov, Sh.N. Berdiyarov, I.A. Xamedov, R.R. Xakimov, Sh.U. Yakubov, O.T. Husanov va E.T. Xojiyevlar tomonidan ta'lim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari va rivojlanish tendensiyalariga oid umumiy masalalar tadqiq etilgan.

B. Ziyomhammadov, Sh. Abdullayeva, R.J. Ishmuhamedov, M. Ochilov, S. Og'ayev, B.L. Farberman, R. Musina, F.A. Jumaboyeva, J.G'. Yo'ldoshev, N.X. Xo'jayev, B.Y. Xodiyev, G.D. Baubekova, N.T. Tilabovalar tomonidan masofaviy ta'limni shakllantirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari o'rganilgan.

Xorijiy davlatlarda masofaviy ta'lim obyekti va subyektlarining huquqiy maqomi, ilmiy-nazariy hamda konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlari, shakllanishi va rivojlanish tarixi, shuningdek, xalqaro-huquqiy tartibga solish bo'yicha ilmiy izlanishlar Nan D. Hunter, A.N. Pisarev, A. Ides, E. Chermirinskiy, J. Barron, E. Gregory, D'Amato, M. Andreas; Haenlein, Maykl Anderson, Terri; Rivera Vargas, Pablo, Tabor, V. Sharon, Holmberg, Borje, Alan Tait, Mur, G. Maykl; Greg Kearsli, K. Detlef; Ringer, Fritz; Saimon, Brayan; Von V. Pittmanlar tomonidan olib borilgan.

#### Material va metodlar

Masofaviy ta'limni shakllantirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari, masofaviy ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslarining ilmiy tahlili, masofaviy ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari dunyoning yetakchi universitetlari va tadqiqot markazlari, jumladan, Atabaska universiteti (Kanada), Delta kolleji (AQSh), SIM universiteti (Singapur), Ochiq universitet (The Open University, Buyuk Britaniya), Avstraliya ochiq universitetlari (Open Universities Australia, Avstraliya), Harvard universiteti, Manchester universiteti (University of Manchester, Buyuk Britaniya), Charlz Sturt universiteti, Jorjiya texnologiya instituti va Toshkent davlat yuridik universitetida olib borilmoqda.

Shu jihatdan masofaviy ta'lim sifati va undagi kamchiliklarni aniqlash maqsadida ushbu ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida so'rovnomat tashkil etildi. So'rovnomada ishtirok etgan 2570 nafar talabaning fikr-mulohazalari o'rganildi.

Shuningdek, ta'lim tizimi rivojlangan xorijiy mamlakatlar (Germaniya, Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Avstraliya, Finlandiya, Braziliya, Kanada, Xitoy, Hindiston, Turkiya) va masofaviy ta'lim bo'yicha faoliyat olib boruvchi nufuzli xalqaro tashkilotlar (International Council for Open and Distance Education, European Distance and E-Learning Network) tajribalari o'rganib chiqildi.

Masofaviy ta'lim tufayli ta'limda sun'iy intellektdan (AI) [1] foydalanish imkoniyati yanada oshdi. Jahonda masofaviy ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslari shakllanishiga qaratilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: masofaviy ta'limga asoslangan maktablar, kollejlari, oliy ta'lim muassasalari yuridik shaxs sifatida tashkil etildi, ta'lim texnologiyalariga masofaviy ta'lim nuqtayi nazar bilan qarash shakllandi, ayrim tadqiqotchilar tomonidan ta'limdagi raqamli inqilob deb atalayotgan cheklanmagan ishtirok etish imkonini beruvchi ochiq onlayn kurslar MOOCs (Massive Open Online Courses) [2], cheklangan miqdordagi joylarni taklif qiluvchi va shuning uchun rasmiy ro'yxatdan o'tishning ba'zi shakllarini talab qiladigan SPOCs (Small Private Online Courses) [3], cheksiz ishtirok etish imkonini beruvchi, lekin talabalarning bir vaqtning o'zida (sinxron ravishda) hozir bo'lishlarini talab qiluvchi ochiq onlayn kurs SMOCs (Synchronous Massive Online Courses) [4], faqat cheklangan miqdordagi joylarni taklif qiluvchi va talabalar bir vaqtning o'zida hozir bo'lishlarini talab qiladigan SSOCs (Synchronous Private Online Courses)ning huquqiy asoslari shakllantirilib, ta'lim oluvchilarning keng iste'moli uchun taqdim etildi.

Hozirda masofaviy ta'lim obyekti va subyektlarining huquqiy maqomi, masofaviy ta'limning tashkiliy, institutsional mexanizmlarining rivojlanishi, masofaviy ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslari shakllanishi, masofaviy ta'limni tashkil etishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni hal etish yo'llari, ta'lim oluvchilarning masofaviy ta'lim olishdagi konstitutsiyaviy huquqlarini kafolatlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

*Tadqiqotning maqsadi.* O'zbekiston Respublikasining masofaviy ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

*Tadqiqotning obyekti.* O'zbekiston Respublikasining masofaviy ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirishni tartibga solish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiy va tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy, statistik tahlil, sotsiologik so'rov, kuzatish, mantiqiylik metodlaridan foydalanilgan.

Ta'lim jarayoni kichik tizimlardan iborat, ya'ni o'qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari va nazorat kabi elementlarni qamrab olgan o'ziga xos pedagogik tizimda kechadi.

#### **Tadqiqot natijalari**

Masofaviy ta'limni tashkil etishdagi dastlabki urinishlardan biri 1728-yilda bo'lgan. Bunda Boston gazetasida o'qituvchi Kaleb Filips haftalik pochta orqali yuboriladigan darslar orqali talabalarga dars berishni e'lon qilgan. O'qituvchining ushbu metodi "Short hand" deb nomlangan [5]. Masofaviy ta'lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, keyinchalik bu talabalarga turli fanlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish imkonini beradi. Masofaviy ta'lim faoliyatini shakllantirish zarurati va olingan nazariy bilimlarni

keyingi kasbiy faoliyatida qo'llash qobiliyatini shakllantirishning ahamiyati haqida gapirish mumkin [6].

1800-yillarning oxirida Chikago universitetida Qo'shma Shtatlardagi birinchi yirik masofaviy dastur tashkil etilgan bo'lib, unda professor-o'qituvchi va talaba turli joylarda bo'lgan. Bu vaqtgacha, xususan, sanoatdan oldingi Yevropada ta'lim birinchi navbatda jamiyatning yuqori qatlamlaridagi erkaklar uchun mavjud edi. O'sha vaqtlarda o'qitishning eng samarali shakli talabalarni bir joyda va bir vaqtda o'rganish uchun yig'ish edi. An'anaviy ta'limning ushbu shakli bugungi kunda ta'limning asosiy modeli bo'lib qolmoqda [7]. Qaysidir ma'noda masofaviy ta'limning zamonaviy ko'rinishi 1840-yillarda Isaak Pitman tomonidan taqdim etilgan. O'sha davrda Buyuk Britaniya bo'ylab yagona pochta ta'riflarining joriy etilishi masofaviy ta'lim rivojida muhim qadamlardan biri bo'ldi [8]. U dastlabki davrdanoq amaliyotga tez joriy etildi va uch yildan so'ng ushbu kurslarning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, rasmiy yuridik shaxs asosida tashkil etish uchun Fonografik yozishmalar jamiyati tashkil etildi. Jamiyat keyinchalik butun mamlakat bo'ylab Ser Isaak Pitman kollejlarning shakllanishiga yo'l ochdi [9].

Amerika Qo'shma Shtatlardagi birinchi masofaviy ta'limga asoslangan, yuridik shaxs sifatida sirtqi maktab 1873-yilda tashkil etilgan Uyda o'qishni rag'batlantirish jamiyati edi [10]. Masofaviy ta'lim 1890-yilda V.R. Harper kabi o'qituvchilarning muqobil variantlarni o'rnatishga qaratilgan dastlabki sa'y-harakatlaridan biri edi [7]. Keyinchalik 1894-yilda asos solingan V. Hall, Oksford Buyuk Britaniyadagi birinchi masofaviy ta'lim kolleji ochildi [5]. London universiteti 1858-yilda o'zining huquqiy asoslangan ta'lim dasturini e'lon qilib, masofaviy ta'lim darajalarini taklif qilgan birinchi universitet bo'ldi [11].

Normativ-huquqiy hujjat hisoblangan Ta'lim dasturi 1858-yilda qirolicha Viktoriya

ya topshirig'i asosida tuzilgan bo'lib, mazkur hujjat bilan London universiteti talabalarga masofaviy ta'lim darajalarini taqdim etgan birinchi universitetga aylandi [12].

XIX asr oxirlarida ro'yxatga olish doimiy ravishda oshib bordi va uning namunasi boshqa joylarda keng ko'chirildi [13]. Bu dastur hozirda London universiteti xalqaro dasturi sifatida tanilgan va London Iqtisodiyot maktabi, Royal Holloway kabi kollejlardan yaratilgan aspirantura, bakalavriat diplom darajalarini o'z ichiga oladi [14]. Amerika Qo'shma Shtatlarida Chikago universiteti asoschisi va birinchi prezidenti V.R. Harper o'zining keng miqyosli, huquqiy asoslangan masofaviy ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqdi [15]. 1892-yilda Harper ta'limni yanada rivojlantirish uchun sirtqi kurslarni tashkil etishning normativ-huquqiy asoslarini ishlab chiqdi, bu g'oya Chikago, Viskonsin, Kolumbiya va 1920-yillarga kelib o'nlab boshqa universitetlar tomonidan amalga oshirildi [16].

1890-yillarda Pensilvaniya shtatining Skranton shahrida joylashgan Xalqaro sirtqi maktablar jadal sur'atlar bilan o'sdi. Mazkur maktab 1888-yilda davlat kon inspektorlari yoki brigadirlari bo'lishni maqsad qilgan muhojir ko'mir konchilarni tayyorlash uchun tashkil etilgan bo'lib, u 1894-yilda 2500 nafar yangi talabani qabul qilgan bo'lsa va 1895-yilda 72 000 nafar yangi talabani qabul qildi. 1906-yilga kelib jami ro'yxatga olishlar 900 000 ga yetdi [17].

Yevropaning nufuzli tashkilotlaridan biri hisoblangan Yevropa masofaviy va elektron ta'lim tarmog'i (EDEN) a'zo davlatlar o'rtasida masofaviy ta'lim bo'yicha so'nggi yutuqlarni almashishga ko'maklashadi.

Ma'lumot uchun: Dunyoning ishonchli reytingi hisoblangan QS World Ranking tomonidan 2022-yilda masofaviy ta'lim bo'yicha top-10 universitetlar quyidagilar:

- London universitet kolleji (University College London);

- Kolumbiya universiteti (Columbia University);
- Edinburg universiteti (University of Edinburgh);
- Jon Hopkins universiteti (Johns Hopkins University);
- Manchester universiteti (The University of Manchester);
- Shimoli-g'arbiy universitet (Northwestern University);
- London Qirollik kolleji (King's College London);
- Kaliforniya universiteti (University of California, Los Angeles);
- Sidney universiteti (University of Sydney);
- Monash universiteti (Monash University).

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi 80-son qarorida professional, oliy, oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari uchun masofaviy shaklda ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha litsenziya talablari va shartlari ko'rsatib o'tilgan. Unda asosan 7 turdagi litsenziya talablari va shartlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.10.2022-yildagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 559-son qarori tasdiqlandi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi qarorda quyidagilar nazarda tutilgan:

- masofaviy ta'lim shakli asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun 2022–2023-o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi F–60-son farmoyishiga 1v-ilovada ko'rsatilgan davlat oliy ta'lim muassasalariga, 2023–2024-o'quv yilidan boshlab qolgan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga ruxsat beriladi, faoli-

yati mazkur qaror qabul qilingunga qadar qonunchilik hujjatlari asosida tashkil etilgan oliy ta'lim tashkilotlari bundan mustasno;

- masofaviy ta'lim shakli asosida kadrlar tayyorlashda bir bakalavriat ta'lim yo'nalishiga qabul parametrlari 300 nafar talabdan, bir magistratura mutaxassisligiga 30 nafar talabdan ortiq bo'lmasligi lozim. Shuningdek, mazkur talab axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishlariga nisbatan tatbiq etilmaydi, talabalar sonini aniqlashda xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar hisobga olinmaydi;

- masofaviy ta'lim shakli joriy etilgan davlat oliy ta'lim muassasalariga Masofaviy ta'limni tashkil etish va rivojlantirish markazini tashkil etish huquqi beriladi. Shuningdek, Masofaviy ta'limni tashkil etish va rivojlantirish markazining shtat birligi moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida kuzatuv kengashlari tomonidan, boshqa oliy ta'lim muassasalarida bo'ysunuv bo'yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Bugungi kunda ta'limning bu turidan keng miqyosda foydalanish katta samara bermokda. Nazariy jihatdan masofaviy ta'limning bir qator afzalliklari va ba'zi kamchiliklari mavjud bo'lib, ularni imkoniyat darajasida hal qilish mumkin.

"Universitetda tashkil etilgan masofaviy ta'lim sifatiga munosabatingiz qanday?" so'rovi ostida oliy ta'lim muassasalaridagi mavjud muammolarni o'rganish, shu asosda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida tadqiqot o'tkazildi.

Tadqiqot uchun 2022-yil aprel oyida respublikadagi oliy ta'lim muassasalarining 13 mingdan ortiq talabalari o'rtasida so'rov-noma o'tkazildi, 50 nafardan ortiq talabdan intervyu olindi va 20 nafarga yaqin eng faol professor-o'qituvchi ishtirokida ta'lim sifati-



ga bag'ishlangan alohida davra suhbatini tashkil etildi hamda ularning fikr-mulohazalari o'rganildi.

So'rovnoma ishtirok etgan eng faol hududlar: Toshkent shahri 27,6 %, Surxondaryo viloyati 14,6 %, Andijon viloyati 12,6 %, Jizzax viloyati 11,4 %, Qoraqalpog'iston Respublikasi 8,8 %. Eng nofaol hududlar: Navoiy viloyati 0,5 %, Namangan viloyati 1,4 %, Xorazm viloyati 1,6 %, Farg'ona viloyati 2 %, Samarqand viloyati 2 %. O'rtacha faol hududlar: Sirdaryo viloyati 2,8%, Qashqadaryo viloyati 3,4 %, Buxoro viloyati 4,2 %, Toshkent viloyati 7 %.

Tadqiqotda ishtirok etgan talabalarning 96,8 % (12 732 nafar) bakalavriat bosqichida, 3,2 % (423 nafar) esa magistratura bosqichida tahsil olmoqda. Bu raqam oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bakalavriat va magistratura talabalari umumiy soni nisbatiga mos keladi. So'rovnoma ishtirok etgan talabalarning 47,2 % (6 203 nafar)ni erkaklar, 52,8 % (6 592 nafar)ni esa ayollar tashkil etdi. So'rovnoma talaba qizlar alohida faollik ko'rsatgan holda o'g'il bolalarga nisbatan ko'proq ovoz berishgan.

Mazkur tahlillar asosida masofaviy ta'limning bir qancha afzalliklari va kamchiliklari ham kuzatildi.

*Masofaviy ta'limning afzalliklari:*

- masofaviy ta'lim ochiqlik xususiyatiga ega bo'lib, bu ta'limni yanada demokratlashtirish imkonini beradi;

- ijtimoiy aholining barcha yoshdagi turli qatlamlarini qamrab oladi;

- masofaviy ta'lim iqtisodiy jihatdan samaralidir, chunki boshqa an'anaviy ta'lim tur-lariga qaraganda xarajatlar va to'lovlar ancha kam;

- talabalar ma'lum bir vaqtni, o'qish joyini va o'quv yurtini o'z xohishiga ko'ra tanlashi mumkin;

- talabalarning ehtiyojlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvga asoslanadi;

- maxsus dasturlar yordamida amalga oshirilgan bilimlarni baholashning xolisligini ta'minlaydi;

- talabalarning bilish qobiliyatini takomillashtirish imkoniyatini kengaytiradi;

- talabada mustaqil bilim olish, o'z ustida ishlash, ijodiy va intellektual salohiyatni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi;

- kompyuter bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

- talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantiradi;

- aholining keng qatlamlarini qamrab olish imkoniyatini beradi (nogironlar, uy bek-lari, imkoniyati cheklangan shaxslar va bosh-qalar);

- oliy ma'lumot olish imkoniyatining ortishi orqali fuqarolarning ta'lim olish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlari ta'minlanadi;

- yuqori sifatli axborot texnologiyalari-ning paydo bo'lishi va rivojlanishini ta'min-laydi;

- ta'limda xalqaro integratsiyaning kuchayishiga sabab bo'ladi.

*Yuqorida sanab o'tilgan afzalliklar bilan birga masofaviy ta'limning bir qator kam-chiliklar ham ko'zga tashlanadi:*

- o'qituvchi va talaba orasida yuzma-yuz muloqotning yo'qligi;

- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarining yetishmasligi;

- dars vaqtidan samarasiz foydalanish;

- uy sharoitida o'rganishda diqqatni jalb qilib olish imkoniyatining kamligi;

- masofadan o'qitish tizimidagi mumkin bo'lgan texnik muammolar;

- aksincha, teskari aloqa yoki o'qituvchi bilan aloqa, qo'llab-quvvatlash va rag'batlan-tirishning yetishmasligi;

- zamonaviy multimedia vositalarining yetishmasligi;

- talabalarning tayyorgarlik darajasini nazorat qilishning imkoni nisbatan qiyinligi.

Zamonaviy jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, keyingi o'n yilliklarda barcha mam-lakatlarda ta'lim sohasida chuqur o'zgarish-

lar ro'y berdi. Bu o'zgarishlar globallashtirish sharoitida iqtisodiy rivojlanishning yangi ehtiyojlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi bilan bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimining rivojlanishidagi xarakterli hodisalardan biri masofaviy ta'limdir [16].

“Universitetda (pandemiya sharoitida) tashkil etilgan masofaviy ta'lim sifatiga munosabatingiz qanday?” savoliga respondentlarning 37,6 % “ma'qul, yaxshi o'tiladi”, 29,5 % “auditoriyani sog'inaman, jonli muhokama qilmaydi”, 12,4 % “judayam qulay, telefon orqali istalgan joydan darsga kirish mumkin”, 12 % “sifat umuman qoniqtirmaydi”, 8,5 % “ma'ruza onlayn, seminar esa oflayn bo'lgani ma'qul” degan javobni tanlagan.

Tahlil natijalaridan ham ko'rinib turibdiki, masofaviy ta'limga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda, bu oliy ta'limga bo'lgan talablarning ortishi va kasbiy ta'limni tez-tez o'zgartirish zarurati bilan bog'liqdir. Lekin masofaviy ta'limni tashkil etishda bir qancha muammolar mavjud. Aksariyat talaba va professor-o'qituvchilar ta'lim olishning ushbu shakli bo'yicha amaliy tajribaga ega emasligi. Shuningdek, talabalarning bilimni orttirish sifatli va mazmunli, qiziqarli o'quv materiallari, kontentlarni tayyorlashdagi, ularni moslashuvchan muhitga moslashtirish masalalari muammo bo'lishi mumkin. Asosiy muammolardan biri talabalarning ta'lim olishni boshqarish qobiliyatida ko'rinadi. Ayrim talabalar uchun masofaviy ta'lim o'zlashtirishda bir qancha qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. Chunki talabalarning bir qismi o'zlarining ta'lim olishi uchun mutanosib jadvalni shakllantira olmaydi. Ular imtihonlarga yaqin qolganda o'rganishni boshlashgani sababli ular yaxshi natijaga erisha olmaydi. Bu kabi talabalar uchun ta'lim olishning birinchi semestri o'qishning eng muammoli davri hisoblanadi. Ayrim talabalar shu davrning o'zida o'z faoliyatini to'xtatib, o'zlarida masofaviy

ta'lim bo'yicha noto'g'ri fikr shakllantirib oladi.

Masofaviy ta'lim professor-o'qituvchilar va talabalardan odatdagidan butunlay boshqacha ko'rinishdagi yondashuvni talab qiladi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'lim juda talabchan ta'lim shaklidir. Masofaviy ta'limning sifatiga motivatsiya va intizom, talaba, professor-o'qituvchilarning fidoyiligi muhim ta'sir qiladi. 2020–2021-yillarda masofaviy ta'limda sezilarli o'sish kuzatildi.

Olimlarning fikricha, kelajak universitetlari masofaviy ta'limga asoslanadi. Masofaviy ta'lim yetkazib berishda internet va axborot-texnologiyalaridan (AKT) yuqori darajada foydalanish ta'lim olish imkoniyatini yanada kengaytirish imkoniyatini beradi [17].

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari bu kabi muammolarga duch kelgani sababli oliy ta'limning barcha shakllarini, jumladan, masofaviy ta'lim shaklini kengaytirish, sifatini oshirish, har bir inson uchun ta'lim olish huquqini, tenglikni ta'minlash choralarini ko'rmoqda. Xalqaro tajribalar o'rganilib tahlil qilinganda, masofaviy ta'limning yagona huquqiy tartibi yoki siyosati yo'qligi kuzatildi.

Hozirda masofaviy ta'lim shaklini tashkil etishda yetarlicha huquqiy asoslar mavjud emasligi, infratuzilmaning yetishmasligi, AKTdan foydalanishdagi muammolar to'siq bo'lmoqda.

Masofaviy ta'limning huquqiy asoslarini shakllantirish huquqiy tartibga solish bilan bir vaqtda sifat darajasini oshirishga ham xizmat qilishi mumkin. Masofaviy ta'limni huquqiy tartibga solish kerakli imkoniyatlar va xizmatlarni taqdim etishda ham muhim omil bo'lishi mumkin.

Barqaror huquqiy va moliyaviy bazani ta'minlash, xalqaro va milliy darajalarda innovatsiyalar va ijodkorlik, amaliyotga ta'sir ko'rsatish va shakllantirish hamda foydalanish, sifat masalalarini hal qilish, tenglik va muvaffaqiyat, o'zgaruvchan texnologiyalar,

mehnat bozorlari, masofaviy ta'limning yirik transchegaraviy tadqiqotlari orqali olingan tajribalar masofaviy ta'limning strategik yo'nalishini belgilashda muhim omil bo'ladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida masofaviy o'qitishni tashkil etish, ta'lim berishning yangi uslublaridan foydalanish nihoyatda dolzarb masalalardan biridir. Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'limga kredit-modul tizimini joriy etish, zamonaviy axborot tizimlari yordamida masofaviy ta'lim hamda mustaqil ta'limning ilg'or usullarini qo'llash ta'lim sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Germaniya Federativ Respublikasi universitetlarida masofaviy ta'lim samarali amalga oshirilmoqda, Germaniya oliygohlarida masofaviy ta'lim xodimlar malakasini oshirishga katta e'tibor qaratgan. Germaniyada oliy ta'lim sohasida masofaviy ta'limni boshqarish va nazorat qilish uchun Forum Distance E-Learning assotsiatsiyasi tuzilgan bo'lib, 2016 yilda 80 ga yaqin xususiy muassasalar a'zo bo'lib, 400 000 nafardan ortiq talabani masofaviy o'qitib kelmoqda. 2015 yilda Germaniyaning barcha universitetlarida tahsil olgan jami 2,8 mln talabaning 1,5 foizi masofaviy ta'lim dasturlarida o'qishga kirgan.

Koblenz va Landou universitetlarida talabalar soni har bir sessiya uchun 15 tadan ko'p bo'lmaydi. Konsentratsiya va umumiy charchoqning oldini olish uchun videokonferensiya ikki soatdan oshmaydi. Bundan tashqari, o'quv yili davomida bir marotaba bir hafta davomida talabalar va o'qituvchilar uchrashib fikr almashadilar. Germaniya oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim birinchi navbatda muhandislik, tabiiy fanlar, dizayn, informatika va psixologiya kabi mutaxassisliklarni o'qitishga yo'naltirilgan va bu mutaxassisliklar bo'yicha har yili minglab talabalar tahsil oladi.

Buyuk Britaniyaning Belfast universitetida farmatsevtika va Kardiff universitetida tibbiyot sohasida masofaviy magistrlik kurslari ochilgan, unda talabalar soni 20 nafardan ko'p bo'lmasligi kerakligi belgilangan.

Buyuk Britaniyada Ochiq universitet (OU) ning "Youtube" sahifasida bepul keng ko'lami video eshittirishlar taqdim etiladi va "Open-Learn" dasturida 23 milliondan ortiq odamni olgan bepul sertifikatizatsiya onlayn ta'limni taklif qiladi.

Masofaviy ta'lim qonunchiligidagi muam-molarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, aksariyat mehnat muhojirlari yoxud ta'limni ish bilan qo'shib olib borish istagida bo'lgan migrantlar iqtisodiyotning norasmiy sektorlarida vaqtincha va huquqlari himoyalangan ishlarda faoliyat yuritishadi. Ko'pgina holatlarda mazkur toifadagi insonlar tashrif buyurgan mamlakatlarning tilini, qonunlarini bilmagani va buning natijasida milliy mehnat qonunchiligiga amal qilmagani va hattoki o'zining mavjud huquqlaridan ham foydalana olmaganining guvohi bo'lamiz.

Xorijiy mamlakatlarda masofaviy ta'lim olgan talabalarning huquqiy maqomini qonun hujjatlariga kiritib, aniq belgilanmagan (*Germaniyada bu borada "Masofaviy ta'limni himoya qilish to'g'risidagi qonun mavjud."*) Bizda mavjud "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida"gi, "Xorijiy davlatlarda ilmiy daraja olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) tartibi to'g'risida"gi amaldagi qonun hujjatlari va ichki me'yoriy hujjatlarda chet elda masofaviy ta'lim olgan talabaning O'zbekistondagi huquqiy maqomi haqidagi masalalarga deyarli aniqlik kiritib o'tilmagan. Xususan, ularning o'qishini ko'chirish, to'liq tugallab kelganda esa xorijda masofaviy o'qib olingan diplomini nostrifikatsiya qi-

lish masalalarini ko'zda tutuvchi bandlar yuqorida nazarda tutilgan qonun hujjatlarida mavjud emas. Agar qonun hujjatlariga ularning xorijdan o'qishini ko'chirish, diplomini nostrifikatsiya qila olish imkoniyatlarini ko'zda tutuvchi normalar kiritilsa, talabalar bir vaqtning o'zida ham xorijda tahsil olib, ham o'zimizda mehnat faoliyati bilan shug'ullana oladilar. Bu esa o'z navbatida yosh, aqlli avlodning o'zimizda qolishi degani (*yuqori daromad evaziga aqlli va yosh talabalarning xorijiy davlatlarda qolib ketayotgani hech kimga sir emas*). Boshqa tomondan esa, yosh qatlamning "qora mehnat migrantlari" sifatida xorijiy mamlakatlarda ish qidirib sarson bo'lishining, turli firibgarliklar qurboni bo'lishining oldini oladi.

Ta'limga yo'naltirilgan ijtimoiy reabilitatsiya dasturlarini raqamlashtirish xorijiy mamlakatlarda jazoni ijro etish muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanish jadal rivojlanmoqda.

Qayd etish lozimki, jazoni ijro etish vaqtida mahkumlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi bilan shug'ullanish ularni muassasadan jamiyatga qayta moslashtirish faoliyatini muassasalarning o'zida boshlash (ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va shu kabi qator dasturlar orqali) mahkumlarning bu boradagi huquq va erkinliklarini ta'minlashi bilan bir qatorda takroriy jinoyatlarning oldini oladi, jinoyatlar sonini kamaytiradi.

Ma'lumot uchun, 2017-yilgi RAND hisobotida ta'lim dasturlarida (masalan, moliyaviy savodxonlik dasturlarida) ishtirok etuvchi qamoqqa olingan shaxslarning qamoqqa qaytish ehtimoli 43 % ga kamroq ekanligi aniqlangan. Ular, shuningdek, bu shaxslarning ozod etilganidan keyin ish topish ehtimoli 13 % ga ko'proq degan xulosaga kelishdi [18].

AQSHning qator shtatlarida mahbuslarning moliyaviy savodxonligini oshirish va bu orqali ularning jamiyatga qayta integratsiyalashuviga yordam berish uchun FDIC

"Money Smart" dasturlari faoliyat yuritmoqda.

Xususan, Massachusetts shtatida Qo'shma Shtatlar Probatsiya idorasi sud tomonidan jiddiy moliyaviy majburiyatlarga ega bo'lgan yoki o'z moliyasini boshqarishda qiynalayotgan huquqbuzarlar uchun olti haftalik 90 daqiqalik darslardan iborat onlayn kurslar faoliyati yo'lga qo'yilib, ular budjet tuzish, jamg'arma, hisob-kitob hisobini ochish va yuritish, elektron bank, kredit ta'mirlash, bo'lib-bo'lib to'lash kreditlari va soliqlar kabi mavzularni qamrab oldi. Florida shtatidagi giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish bilan bog'liq muammolari bo'lgan mahkumlarning jamiyatga qaytishiga yordam berish uchun 12 va 18 oylik moliyaviy savodxonlik dasturlari amalga oshirilgan. FDIC "Money Smart" dasturi tugallangandan so'ng ularga bitiruv sertifikatini berilgan. Mazkur kurslarning samarasi kursdan o'tgan mahbuslarning 80 % dan ortig'i ozodlikka chiqqandan keyin yangi jinoyat sodir etmagani bilan baholangan [19]. Bunday dasturlar bugungi kunda Buyuk Britaniya, Efiopiya, Estoniya kabi davlatlarda ham yo'lga qo'yilgan.

Finlandiyada qamoqxonalarda umumiy, oliy ta'lim va keng ko'lamlil kasb-hunar ta'limi olish (kasbiy ta'lim 24 modulga bo'lingan) imkoniyati mavjud. Bunda qamoqxonalar xususiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomalarini tuzadilar. Ta'lim inspektori bilan birgalikda ijtimoiy ishchi mahkumlarni o'qitish jarayonini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Agar mahkum yopiq qamoqxonada bo'lsa, ijtimoiy xodim qamoqxonaning maxsus jihozlangan sinflarida o'qitishni tashkil etish to'g'risida ta'lim muassasasi bilan kelishib olishi kerak. Imtihonlardan o'tgan mahkumlar oliy ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin.

### **Xulosalar**

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, masofaviy ta'lim ta'limning bir shakli bo'lsa-da, amaliyotda

xalqaro tendensiyalar periferik tizimlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bir vaqtning o'zida masofaviy ta'lim transmilliy va transchegaraviy oliy ta'limga bo'lgan talabni qondira oladigan yagona ta'lim shakli sifatida qaralmoqda. Masofaviy ta'limni huquqiy tartibga solishda uning ijtimoiy ahamiyatiga jiddiy e'tibor berish zarur. Chunki o'zining moslashuvchanligi va AKTga aloqadorligi bilan boshqa ta'lim shakllaridan butkul ajralib turadi. Masofaviy ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad jamiyatda, ijtimoiy hayotda, ta'lim sohasida masofaviy ta'limning roli va hissasini chuqurroq tushunish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish, xususan, ta'limdagi samaradorlik va o'sish, masofaviy ta'limning oliy ta'limdagi keng imkoniyatlarini belgilab qo'yish va tartibga solishda nomoyon bo'ladi.

Ahamiyat berish kerakki, masofaviy ta'limning huquqiy asoslarini tartibga solishda boshqaruv, sifat, sig'im va qobiliyat, infratuzilma, madaniy, transchegaraviy xususiyatlar hisobga olinishi va masofaviy ta'lim shakli bo'yicha mavjud qoidalarning kuchli va zaif tomonlari tahlil qilinishi lozim. Masofaviy ta'lim xilma-xil ta'lim shakllari va talabarlari mavjud bo'lgan bir vaqtda kelajak ta'limi uchun yagona samarali yechim bo'lishi mumkin.

*Tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari suramiz:*

1. Xorijiy mamlakatlarda masofaviy tarzda ta'lim olgan talabalarining huquqiy maqomini qonun hujjatlariga kiritib, aniq belgilash;

2. Mahkumlar ozodlikka chiqishdan olti oy oldin ularning ijtimoiy ko'nikmalari va moliyaviy savodxonligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan holda o'qitilishini amalga oshiruvchi masofaviy ta'lim dasturlari faoliyatini yo'lga qo'yish;

3. Respublika miqyosida universitetlar bilan hamkorlikda mahbuslarning (masofaviy) oliy ta'limini tashkil etish; Finlandiya tajribasidan kelib chiqib yakuniy imtihonlardan o't-

gan mahkumlarga cheklangan miqdorda oliy ma'lumot berish;

4. Masofaviy ta'limga tayyorgarlikni boshlash davomida eng maqbul vositalarni tanlab olish lozim. Mahalliy elektr ta'minoti ishonchligi, internetga ulanish, professor-o'qituvchilar va talabalarining ushbu ta'lim olish shaklidan foydalanishda tegishli maxsus ko'nikmalarga asoslangan yuqori texnologiyali va past texnologiyali yechimlardan foydalanish darajalarini aniqlab olish lozim. Bu integratsiyalangan raqamli o'quv platformalari, video darslar, radio va televizorlar orqali eshittirishgacha bo'lishi mumkin.

5. Masofaviy ta'lim dasturlari kiritilishini ta'minlash: talabalar, shu jumladan, nogironlar yoki kam ta'minlanganlar, agar ularning cheklangan soni raqamli qurilmalardan foydalanish imkoniga ega bo'lsa, masofaviy ta'lim dasturlariga kirishini ta'minlash va ularning internetga ulanish choralari ko'rish lozim.

6. Ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligini himoya qilish choralari ko'rish zarur. Ma'lumotlar yoki ta'lim resurslarini dasturlarga yuklashda, shuningdek, ularning boshqa tashkilotlar yoki shaxslar bilan axborot almashinuvida ma'lumotlar xavfsizligini baholash lozim. Ilovalar va platformalardan foydalanish talabalar ma'lumotlarining maxfiyligini buzmasligiga ishonch hosil qilish kerak.

7. Masofaviy o'qitishdan oldin psixo-ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun yechimlarga ustuvor ahamiyat berish zarur. OTMlar, ota-onalar, professor-o'qituvchilar va talabalarni bir-biri bilan bog'lash uchun mavjud vositalarni safarbar qilish lozim. Muntazam ravishda talabalar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, ijtimoiy g'amxo'rlik choralari ko'rish va talabalar izolatsiya qilinganida duch kelishi mumkin bo'lgan psixologik-ijtimoiy muammolarni hal etish uchun jamoalar yaratish alohida e'tibor talab etadi.

8. Raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha professor-o'qituvchilar va ota-onalarga

yordam ko'rsatish zarur. Monitoring va yordam zarur bo'lsa, professor-o'qituvchilar va ota-onalar uchun ham qisqacha trening yoki yo'naltirish mashg'ulotlarini tashkil qilish foydalidir. Professor-o'qituvchilarga asosiy sozlamalarni tayyorlashda yordam berish kerak, masalan, agar ular darslarni jonli efirga uzatishni ta'minlashi kerak bo'lsa, internet ma'lumotlaridan foydalanish bo'yicha tushunchalar berish zarur. Masofaviy ta'lim

qoidalarini ishlab chiqish va talabalarning o'quv jarayonini nazorat qilish lozim. Ota-onalar va talabalar bilan masofaviy ta'lim bo'yicha qoidalarni aniqlashtirib olish kerak. Talabalarning o'quv jarayonini diqqat bilan kuzatish uchun shakllantiruvchi sifatli savollar, testlar yoki mashqlarni tayyorlash kerak. Talabalarning fikr mulohazalarini yuborishni qo'llab-quvvatlash uchun vositalardan foydalanishga harakat qilish lozim.

## REFERENCES

1. Russell S.J., Norvig P. Artificial intelligence (AI) is the intelligence exhibited by machines, as opposed to the natural intelligence exhibited by humans. AI research is defined as the field of study of intelligent agents, which refers to any system that perceives its environment and takes actions that maximize the possibility of achieving its goals. Artificial intelligence: A modern approach. 4th ed. Hoboken, Pearson, 2021. ISBN 9780134610993. IssN 20190474.
2. Massive Open Online Courses (MOOCs) are free online courses available for anyone to enroll. Available at: <https://www.mooc.org/>.
3. Online Learning Review. Insights into online learning trends, in-demand skills and latest research Available at: <https://emeritus.org/blog/tag/online-courses/>.
4. Ahrens R., Aguilar M., Serio M. Distance Learning Research Report Snapshot. Available at: <https://www.goguardian.com/research-and-insights/distance-learning-report-snapshot/>.
5. Holmberg B. The evolution, principles and practices of distance education. Studies and reports from the distance learning research center at the Carl von Ossietzky University of Oldenburg, ASF, Germany. Library and information system of the University of Oldenburg, 2005, vol. 11, p. 13. ISBN 3-8142-0933-8.
6. Conceptual Foundation of Distance Learning in the Institutes of Higher Physical Education. Available at: <http://www.teoriya.ru/ru/node/2131/>.
7. Handbook of Research for Educational Communications and Technology. Available at: <http://members.aect.org/edtech/ed1/13/13-02.html/>.
8. Tait A. Reflections on student support in open and distance learning. *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 2003, April, vol. 4 (1). DOI:10.19173/irrodl.v4i1.134.s/.
9. Moore M.G., Kearsley G. Distance education: a systems view. 2nd ed. Belmont, CA, Wadsworth, 2005. ISBN 0-534-50688-7.
10. Robinson C.E. The Invisible Woman and the Silent University. ProQuest LLC, 2012. ISBN 9781267371676.
11. Rothblatt Sh., Muller D.K., Ringer F., Simon B., Bryant M., Roach J., Harte N., Smith B., Symonds R. Supply and Demand: The "Two Histories" of English Education. *History of Education Quarterly*, 1988, no. 28 (4), pp. 627-644. DOI: 10.2307/368852. JSTOR368852/.
12. History. University of London External Programme Website. 2009, July 15. Available at: [www.londonexternal.ac.uk/](http://www.londonexternal.ac.uk/).

13. Tatum A. History lessons at the people's university. 2007. Available at: [www.guardianabroad.co.uk/](http://www.guardianabroad.co.uk/).
14. Key Facts. University of London External Programme Website. 2009, July 15. Available at: [www.londonexternal.ac.uk/](http://www.londonexternal.ac.uk/).
15. Carey J.T. Forms and Forces in University Adult Education. Brookline, MA, Center for the Study of Liberal Education for Adults, 1961, pp. 18–19. Available at: <https://president.uchicago.edu/directory/william-rainey-harper/>.
16. Levinson D.L. Community colleges: a reference handbook. ABC-CLIO, 2005, p. 69. ISBN 1-57607-766-7.
17. Josep G. The Content Manager for Classgap. 5 Reasons Why Online Learning is the Future of Education in 2022. 2022, July 12. Available at: <https://www.educations.com/articles-and-advice/5-reasons-online-learning-is-future-of-education-17146/>.
18. Why Financial Literacy is Important for Reducing Recidivism. SARC, 2019, March 12. Available at: <https://www.sarccenterfoundation.org/faith-in-small-things/>.
19. Money Smart. Success Stories. *Money Smart Newsletter*, 2012, Fall. Available at: <https://www.fdic.gov/resources/consumers/money-smart/money-smart-news/2012-fall-stories.html/>.

**YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI**  
**ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК**  
**REVIEW OF LAW SCIENCES**

**Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal**

**Правовой научно-практический журнал**

**Legal scientific-practical journal**

**4 / 2022**

**BOSH MUHARRIR:**

**Rustambekov Islambek Rustambekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d.,  
professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,  
dotsent

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,  
Sh. Yusupova

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** www.tsul.uz

**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga  
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.  
Shartli 21,4 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 177.  
TDYU tipografiyasida chop etildi.